

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ABDUVALI BERDIALIYEV
MO‘MINJON TURDIBEKOV**

SOTSIOLINGVISTIKA

60111400- o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik

“Nodirabegim” nashriyoti

T O S H K E N T– 2022

KBK 82.2 (O'zb)

B16

UO'K:821.1612.134(08)(075)

ISBN 978-9944-7416-8-8

Berdialiev Abduvali, Turdibekov Mo`min. Sotsiolingvistika. Universitet o'zbek tili va adabiyoti fakulteti bakalavr yo'nalishi uchun darslik. Toshkent, 2022.

Darslik til jamoasining ijtimoiy hayoti bilan bog'liq nolisoniy xususiyatlarning til strukturasi ta'siri masalalari o'rganilgan. Til kontakti, til vaziyati, ikki tillilik, ko'p tillilik va ularning ijtimoiy asoslari haqida ma'lumot berilgan. Chetdan so'z olish va ularning sabablari ko'rsatilgan.

Darslik o'zbek tili va adabiyoti bakalavr talabalarga mo'ljallangan bo'lsa-da, undan doktorantlar, ilmiy xodimlar, pedagogik yo'nalishdagi kollej, akademitsey o'qituvchi va talabalari, shuningdek, o'rta umumta'lim maktablari o'zbek tili o'qituvchilari ham foydalanishlari ko'zda tutilgan.

Mas'ul muharrir:

S. Normamatov- filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Sh.Usmonova:-filologiya fanlari doktori, professor

I. Islomov- filologiya fanlari doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli Yig'ilishi qarori bilan darslik sifatida nashrga ruxsat etilgan.

A.Berdaliyev.M.Turdibekov
“Nodirabegim” nashriyoti 2022.

S o'z b o s h i

Tilshunoslik filologiya ilmining ilmiy-nazariy asosini tashkil qiluvchi ijtimoiy fandır. U dastlab til qurilishini o'rganuvchi fan sifatida paydo bo'lgan. Asrlar osha bu fanning o'rganish obyekti, predmeti o'zgarib kelayotir. Eramizdan oldin III-IV asrlarda qadimgi Hindistonda uning "poydevori" tiklangan bo'lsa, XXI asrga qadar bu fanning mundariyasi necha bor o'zgardı, kengaydı. Nihoyat, XX asrning birinchi choragi oxiri va uning keyingi choraklarida tilshunoslik jahon miqyosida mustaqil fan sifatida rivojlandı.

Ta'limning barcha bosqichlarida tilning ichki qurilishi bilan bog'liq masalalari o'rganıldı va bu an'anaviy tilshunoslik sifatida baholandı hamda qadrlandı.

Endilikda, ayni mana shu zamonda tilshunoslik fani "ichdan bolaladı". Uning ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yangidan-yangi tarmoqlari ("go'daklari") paydo bo'la boshladı. Tilshunoslik ixtiyorida **intralingvistika, psixolingvistika, mentalingvistika, etnolingvistika, paralingvistika, energolingvistika, lingvosinergetika** va yana boshqa-boshqa nomlar bilan ataluvchi o'zicha mustaqil oraliq tarmoqlar paydo bo'ldi.

Sotsiolingvistika--til ilmining makrolingvistika, ya'ni tashqi tilshunoslik deb ataluvchi keng tarmoqli sohalari tarkibiga kiruvchi mustaqil yo'nalishlardan biri.

Bu yo'nalish tilning ichki qurilishini o'rganuvchi intralingvistika bilan uning xalq tarixi, turmush tarzi, diniy va ma'naviy e'tiqodini o'rganuvchi jamiyatshunoslik fani oralig'ida paydo bo'lgan. Shu bois Sotsiolingvistika tom ma'nodagi sof tilshunoslik ham, ijtimoiy fanlarning asosini tashkil qiluvchi falsafa ham emas. Tilshunoslikning zamonaviy bu tarmog'i **ijtimoiy tilshunoslik**dir, ya'ni sotsiolingvistikadir.

Sotsiolingvistika, darhaqiqat, yangi tarmoq. U tilning, aniqrog'i, til qurilishining til jamoasining tarixi, kasb-kori, intilishi, boshqa til jamoalari bilan aloqasi va ularga munosabati, qiziqishi, turmush tarzi, adabiyoti, madaniyati, ma'naviyati, diniy e'tiqodi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan bevosita yoxud bilvosita bog'liq tomonlarini o'rganuvchi yangi fandır.

Universitet yoxud pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olgan va olayotgan har bir kishi o'z tilining shu til jamoasi mansub bo'lgan ijtimoiy muhit bilan bog'liq tomonlarini bilmasdan turib, o'z ona tilining ijtimoiy mavqei va nufuzi bilan chin ma'noda tanish bo'la olmaydi. Shu bois Sotsiolingvistika shaxsni har tomonlama barkomal va mukammal ziyoli bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Bu fanning ahamiyati ham asosan ana shu maqsadni ko'zda tutganligida namoyon bo'ladi.

Darslik uch qismdan iborat. Birinchi qism "**Sotsiolingvistikaning umumiy masalalari**" deb nomlangan. Bu qismda sotsiolingvistikaning o'quv

predmeti maqomidagi mustaqil fan ekanligi, turlari, asosiy tushunchalari haqida ma'lumot berilgan.

Ikkinchi qism "**O'zbek sotsiolingvistikasi masalalari**" deb nomlangan. Unda o'zbek tilining tarixi, o'zbek til jamoasining boshqa til jamoalari bilan hududiy va nohududiy aloqalari, shu asosda vujudga kelgan o'zbek til kontaktlari, o'zbek va boshqa tillar bilingvizmi (ikki tilliligi), polilingvizmi (ko'p tilliligi), ularning nolisoniy (ekstralingvistik) asoslari va shular bilan bog'liq o'zbek til vaziyati xususida so'z yuritiladi. Boshqa tillardan lisoniy birliklar (asosan, lug'aviy birlik—so'zlar) o'zlashishi va ularning nolisoniy manba va asoslari haqida ma'lumot beriladi.

Darslikning **uchinchi qismida** sotsiolingvistik tadqiqot metodlari masalasida fikr yuritiladi: sotsiolingvistikaga doir ashyoviy material yig'ish usullari; yig'ilgan materialni ilmiy tahlil qilish yo'llari haqida ma'lumot beriladi.

Mazkur darslik sotsiolingvistikaning rus tilshunosligida amalga oshirilgan masalalarini o'rganish, uning intralingvistika bilan bog'liq tomonlarini o'zbek tiliga tatbiq etish, shuningdek, o'zbek tilshunosligida "**Sotsiolingvistika**" atamasidan foydalanilmay amalga oshirilgan ishlar bilan tanishish va ulardagi fikrlarni o'rganish asosida yaratildi.

Xullas, "**Sotsiolingvistika**" nomi bilan atalgan bu darslik-qo'llanma o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan ilk tajriba hisoblanadi. Shu bois uning mundarijasida sotsiolingvistikaga aloqador barcha tushunchalarni qamralgan deyish qiyin. Shuningdek, darslik o'zbek tilshunosligida sotsiolingvistikaga doir dastlabki yaxlit ish bo'lganligi uchun, uni ba'zi juz'iy kamchiliklardan xoli deb ham bo'lmaydi biroq shunga umid qilamizki, til ilmining zukko mutaxassislari, kasbiga fidoyi o'qituvchi va sinchkov talabalar darslik bilan tanishib, uning ijobiy va ayrim kemptik tomonlari haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Taklif va istaklar uning navbatdagi nashrida hisobga olinadi.

M u a l l i f l a r

K I R I SH

«Bizning ko'p millatli Vatanimizning yaxshi Fuqarosi bo'lmoq uchun o'z ona tilini, o'z milliy madaniyatini sevish va bilish juda muhimdir. Kishi o'z tug'ilgan uyini qanday sevsa, ona tilini ham shunday sevmog'i zarur...»

(A.A.Leontev, filologiya va psixologiya fanlari doktori, professor).

Sotsiolingvistika – tilning ichki qurilishini o'rganuvchi lingvistika (intralingvistika) va jamiyatshunoslik fanlari oralig'ida vujudga kelgan yangi fan. Shuning uchun bu **fan** til qurilishining ijtimoiy tomonini o'rganadi.

«**Fan**» atamasi qadimda keng ma'noda ishlatilgan. U "san'at" va uning turlariga nisbatan ham qo'llangan.

Sotsiolingvistikada "**fan**" va "**san'at**" tushunchalari va ularning o'zaro munosabati, bu ikki tushunchaga jamiyatning munosabati, ularning tilga munosabati masalalari ham o'rganiladi. «**Fan**», "**san'at**" arab tilidan o'zlashgan: "**fan**" rus tilidagi "**nauka**" atamasining, "**san'at**" esa, "**iskusstvo**" atamasining o'zbek tilidagi ma'nodosh muqobillaridir.

Umumfan tarixida "**fan**" ma'nosidagi "**nauka**" bilan "san'at" ma'nosidagi "**iskusstvo**" ayni bir tushuncha sifatida farqlanmagan. Xuddi shuningdek, antik davrda "**skulptor**" so'zi "**haykaltarosh**"dan tashqari, umuman hunarmandlarga nisbatan ham ishlatilgan.

Keng ma'noda qo'llanish "sofist" so'ziga ham xos bo'lgan. Xususan, qadimgi Gretsiyada "sofist" so'zi "donishmand" ma'nosidan tashqari, "**duradgor-usta**", "**bo'yoqchi**" (**malyar**), "**o'ymakor usta**" (**gonchar**) ma'nolarida ham ishlatilgan.

Qadimgi frantsuz yozma manbalarida e'tirof etilishicha, "fan" ma'nosidagi "**nauka**" va "san'at" ma'nosidagi "**iskusstvo**" so'zlari XV1 asrga qadar "**bilim**" ma'nosidagi sinonim so'zlar sifatida ishlatilgan. Keyinchalik ularning birinchisi (nauka) nazariy bilimga, ikkinchisi (iskusstvo) amaliy bilimga nisbatlanib, farqlangan. "San'at" ma'nosidagi "iskusstvo" bora-bora "qo'l hunari" ma'nosida rasmiylashib, "hunar" ma'nosidagi "remesla" so'zining ma'nodosh muqobiliga aylangan.

Eramizning XIII asrida yashagan Brunetto Latinga qarashli mashhur "**Bilimlar mo'jizasi**" ("**Sokrovitshnise znaniy**") da ham "fan" ma'nosidagi "nauka" va "san'at" ma'nosidagi "iskusstvo" atamalari, yuqorida aytilganidek, "bilim" ("znanie") ma'nosida ishlatilgan. Italyan haykaltaroshi Leon-Battista Alberti (XV asr) va Leonardo da Vinchi "fan" ma'nosidagi "nauka" atamasi ostida tasviriy san'atni, xususan, "jivopis"ni ham tushungan. "Nauka" atamasining bu tarzda tushunilishi Uyg'onish davrida ham o'zgarmagan. Bu davrga kelib, "fan" ma'nosidagi "nauka" so'zi texnika va uning turlariga nisbatan ham ishlatila boshlagan.

Xullas, yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, sotsiolingvistikaga lingvistika va jamiyatshunoslik fanlarini tutashtiruvchi alohida fan sifatida qarash xato sanalmaydi.

Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida lingvistik fanlar talabalarni kasbiy soha bo'yicha mutaxassis sifatida tayyorlaydigan asosiy o'quv predmeti sanaladi. Ularda lingvistika keng qamrovli fan sifatida o'qitiladi. Talaba bu fanning intralingvistika deb nomlanuvchi sohasi bo'yicha yuqori ma'lumotli mutaxassis bo'lib yetishadi. Oliy o'quv yurti tahsilidan keyin bo'lajak pedagog-lingvist o'rta umumta'lim maktablarida, litsey va pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarida faoliyat yuritganda, u o'quvchilariga asosan ona tilining intralingvistika sohasi bo'yicha ta'lim beradi.

Intralingvistika til fanining lisoniy qurilishini o'rganuvchi tarmog'idir. Tilning, u qaysi til oilasiga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, uning fonetik-fonologik, morfem va so'z yasalishi, lug'aviy, grammatik qurilishi va uslubiy-pragmatik imkoniyatlari haqida intralingvistika nazariy ma'lumot beradi. Xullas, intralingvistika talabani muayyan bir tilning lisoniy qurilishi bo'yicha mutaxassis qilib tayyorlaydi. Chunonchi, o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan talaba o'zbek tili bo'yicha, tojik filologiyasi fakultetida tahsil olgan talaba tojik tili bo'yicha, rus filologiyasi fakultetida tahsil olgan talaba rus tili bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishadi, ular o'zbek tilshunosi, tojik tilshunosi, rus tilshunosi kabi nomlar bilan ataladilar.

Til—dilning tarjimoni. Til orqali kishilar bir-birlari bilan fikrlashadilar, do'stlashadilar, inoqlashadilar. Shunday bo'lsa-da, til—murakkab hodisa. Uning o'z ichki qurilishi bilan bog'liq bo'lmagan nointralingvistik (nolisoniy) tomonlari ham bor. Bu tomonlar ham lingvistika fani doirasida alohida-alohida o'quv predmetlari sifatida o'qitiladi. Tilning ana shu "tashqi" tomonlaridan biri—bu Sotsiolingvistika o'rganadigan obyektidir.

Til—ijtimoiy hodisa. Uning paydo bo'lishi ham, rivoj topishi ham, muayyan davrda bajaradigan vazifasi ham, til jamoasining etnik qatlamlariga munosabati ham, qardosh va qardosh bo'lmagan boshqa tillar bilan munosabati ham va boshqa-boshqalar tilning ijtimoiyligiga daxldor tushunchalardir. Til bilan aloqador bu xususiyatlarning barchasi lingvistika fanining Sotsiolingvistika deb ataluvchi tarmog'ida o'rganiladi. Bir so'z bilan aytganda, Sotsiolingvistika—bu sotsial, ya'ni ijtimoiy tilshunoslikdir.

Sotsiolingvistika lingvistika siklidagi fanlarning eng yangisi, ma'juziy ibora bilan aytganda, lingvistikaning "chaqalog'i". Shu bois bu fanning barcha tomonidan bir xil tan olingan mundariyasi ham yo'q. Sotsiolingvistikani mushtarak mundarijada o'rgatadigan darslik ham, o'quv qo'llanmasi ham hozircha mavjud emas. To'laqonli darajada bo'lmasa-da, borlari ham rus tili sotsiolingvistikasi masalalariga bag'ishlangan. Ularda sotsiolingvistikaning umumnazariy masalalari ham bor, albatta. Biroq bu murakkab sohaning ayrim muhim tushunchalari sharhi va talqinida hozircha bir xillik yo'q.

O'zbek tilshunosligida, garchi "Sotsiolingvistika" atamasi doirasida qaralmagan bo'lsa-da, broshyura, maqola, risola xarakteridagi ba'zi ishlar yo'q emas. Sotsiolingvistikaning falsafa faniga qarashli tomonlari bo'yicha katta ishlar ham qilingan. Masalan, O'zbekistonda prof Q.Xonazarovning yirik hajmdagi ishlarida "kommunizm davri"ga xos kelajak tili haqida ko'p narsalar aytilgan, biroq ularning barchasi Kommunistik partiya va Sovet davlati siyosati, mafkurasi ta'sirida yozilgan tagi puch xomxayollardan iborat bo'lgan. Shuningdek, G'.Abdurahmonov, F.Abdullaev singari professorlarning sotsiolingvistikaning lingvistik aspekti nuqtai nazaridan yozilgan broshyuralari, maqolalari ham mavjudki, unda o'zbek tilining so'nggi yillar taraqqiyot taqdiri rus tilining ta'siri bilan bog'langan. Himoya qilingan bir qator dissertatsiyalar va yozilgan monografiyalarda ham rus tilining davrning "qudratli til"ligiga imtiyozli urg'u beriladi. Hozirgi vaqtda u "ish"larning ilmiy va amaliy ahamiyati puchga chiqqan.

Rus tilining olamshumul mavqeini yerga urmay, o'z ona tili – o'zbek tilining tom ma'noda ulug'ligiga ishora bilan yozilgan sotsiolingvistik ruhdagi ishlar ham yo'q emas, albatta. Bunday ishlar orasida marhum dotsent Irisali Toshaliyev qalamiga mansub "**Axboriy muloqot madaniyatining sotsiolingvistik tavsifi**" deb nomlangan o'quv qo'llanmasi nihoyatda chuqur ilmiy mushohada bilan xolisona yozilganligi jihatidan alohida ahamiyat va qimmatga ega. Biroq bu asar, afsuski, olim vafotidan keyin uning xotirasiga bag'ishlab chop etilgan "**Umr mazmuni**"(Toshkent, 2015) kitobidan munosib o'rin olgan.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan keyingi ba'zi ishlarda o'zbek tilining sofliги uchun kurash tendentsiyasi ko'zga yaqqol tashlanadi. Ularda o'zbek tiliga singishib, o'ziniki bo'lib ketgan rus so'zlarini turkiy, arabcha va forsha muqobilalar bilan almashtirish takliflari ustuvorlik qiladi.

Xullas, aytilgan bu fikrlar sotsiolingvistikaning muayyan bir mamlakatning siyosiy tuzumi va uning mafkurasiga xizmat qiluvchi sinfiy fan tarmog'i ekanligiga dalolatdir.

Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari ona tili va adabiyotini o'qitish fakultetlarida sotsiolingvistikaga daxldor ayrim tushunchalar "Tilshunoslikka kirish", "Umumiy tilshunoslik", "Qiyosiy tilshunoslik", "lingvistik ta'limot tarixi" singari bir qator mustaqil predmetlarning "til va jamiyat" deb nomlanuvchi bobida qisman yoritilgan bo'lsa-da, u o'z mundarijasiga ega alohida va mustaqil lingvistik fan sifatida o'qitilmas edi. Shuning uchun ham Sotsiolingvistika oliy o'quv yurtlari o'quv rejasidan chetda qolib kelardi. Rossiya va rivojlangan boshqa mamlaktlarning markaziy shaharlari oliy o'quv yurtlarida Sotsiolingvistika maxsus kurs sifatida tajriba qilinaar edi. Keyinchalik u shu oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultetlari o'quv rejasiga mustaqil fan sifatida kiritilgan. O'zbekiston oliy o'quv yurtlari filologik yo'nalishdagi fakultetlarining o'quv rejasiga mustaqil lingvistik fan sifatida kiritilganiga hali ko'p vaqt bo'lgan emas.

Sotsiolingvistika – tilshunoslikning kam o'rganilgan alohida tarmog'i. Bu tarmoq fanda hozircha o'z mustaqil o'rniga ega bo'lmagan boshqa bir qator yo'nalishlar bilan ham bog'lanadi. Shulardan biri **sinergetika** va uning tilshunoslikka aloqador **lingvosinergetika** yo'nalishidir. Bu yo'nalish tilning sistemaliligiga zid notayin chiziqli (muayyan tizimga ega bo'lmagan) nosistem tomonlarini o'rganadi. **Sinergetika** va uning metodlari **dialektika** va uning metodlariga qarama-qarshi yo'nalish sifatida paydo bo'lgan zamonaviy umumfan tushunchasidir. Sinergetikaning tilshunoslik bilan aloqador tomonlari sotsiolingvistik xarakter kasb etadi.

Sinergetika zamonamiz fani olamida o'ziga xos ilmiy majmuadir (paradigmadir). Uning tilshunoslikka, ayniqsa, sotsiolingvistikaga ham kirib kelishi kutilmagan muhim ijobiy voqea sanaladi.

Birinchi Qism

SOTSIOLINGVISTIKANING UMUMIY MASALALARI

Sotsiolingvistika – tilshunoslik siklidagi mustaqil fan sifatida

Tilshunoslikning til haqidagi fan ekanligi

Insoniyatni qurshab turgan obyektiv borliq, uning narsa-hodisalari, shuningdek, shu narsa-hodisalararo turlicha tabiiy-mantiqiy aloqa va munosabatlar bo'lmaganda edi, birorta fanning bo'lishi ham mumkin emasdi. Fanlar, tabiiymi, ijtimoiymi, undan qat'iy nazar, inson ongi va shuurining mahsulidir.

Inson shuuri borliq narsa-hodisalari va ulararo har xil tabiiy, notabiiy munosabatlarni mavhumlashtirgan holda xotirada shakllantiradi. O'zni kelganda, ularni nutq organlarini ishga solgan holda, lisoniy sathga olib chiqadi. Bu masalaga til fani nuqtai nazaridan yondoshadigan bo'lsak, masalan, *osmon*, *yer*, *suv* desak, muayyan bir tovushlar birikmasidan tarkib topgan shu so'zlar tabiatdagi "osmon", "yer" yoki "suv"ning o'zi emas. Biroq ayni shu tovush birikmalari aytilganda, eshitilganda, xotiramizda obyektiv borliqning shu so'zlar ma'nosi bilangina bog'liq obrazlari tiklanadi; "daraxt", yoki "tosh", "tog'"yoki "daryo" tushunchalari so'z ma'nolarining ongdagi "iz"laridir.

Shuningdek, obyektiv borliqning lisoniy jabhaga olib chiqilgan narsa-hodisalari, ularning belgi-xususiyalari va o'zaro munosabatlari xotirada alohida-alohida tarzda emas, balki umumlashgan, mavhumlashgan tarzda "muhrlanadi". Masalan, «**daraxt**»so'zi tabiatning shu hodisasini, qayerda, qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar, xotirada bir umumiy tushuncha sifatida in'ikos etadi. Aslida esa, daraxtning mevali, mevasiz, ko'p yillik, bir yillik, xonakilashgan va yovvoyi va h.k. turlari, ularning miqdori son-sanoqsiz. Xil va turlari, miqdori son-sanoqsiz "**daraxt**" inson xotirasida atigi **bitta "iz"** sifatida mavjud bo'ladi. Ana shu "iz" "daraxt" so'zining timsol sifatidagi ma'nosidir.

Xotiradagi timsol sifatidagi "iz" -- ma'noning ham turlari ko'p. So'z boshqa so'z bilan qo'shilib, so'z birikmasi yoxud gap hosil qiladi. So'z birikmasining ham gapning ham ma'nosi bo'ladi. Bu ma'nolar so'z ma'nosiga asoslangan va ikki yoki undan ortiq so'z ma'nolarining o'zaro munosabatida ko'zga tashlanuvchi murakkab ma'nolardir. Bu ma'nolar so'zning "sirtqi" tomoni bilan bog'liq bo'ladi.

So'zning o'z tarkibi bilan bog'liq "ichki" ma'nolari ham mavjud. Bu ma'no o'zak va qo'shimchalar ma'nosi bo'lib, mavhumlikning yuqori bosqichida turadi. Masalan, *Qushcha daraxtdan daraxtga uchdi* gapida lisoniy mavhumlikning bir necha bosqichiga aloqador ma'no mavjud.

Tilshunoslik fani lisoniy birliklarni, ularning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi fandır. U ijtimoiy fanlar guruhiga kiradi. Shuningdek, tilshunoslik fanining aniq fanlarga o'xshash tomoni ham yo'q emas.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi

Til ham tabiat va jamiyatdagi boshqa hodisalar singari paydo bo'lgan. Tilning paydo bo'lishi jamiyatning paydo bo'lishi bilan mutanosib bog'liq. Shu bois tilni jamiyatdan, jamiyatni tildan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi. Tilning rivojlanishi ham jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq. Zero, jamiyatning serqirra hayoti uning tilida in'ikos etadi. Til – jamiyat ko'zgusi deb bejiz aytilmagan. Jamiyat hayotidagi har qanday o'zgarish eng avvalo tilda o'z ifodasiga ega bo'ladi. Biroq, qanchalik bog'liq bo'lmasin, til va jamiyat o'zaro farq qiladi. Farq shundaki, til jamiyatga qarashli, uning ijtimoiy "mulki" hisoblanadi. Masalan, o'zbek tili o'zbek xalqi(millati)ga qarashli bo'lsa, tojik tili tojik xalqi(millati)ga qarashlidir. O'zbek tili o'zbek millatiga qarashli bo'lgani uchun, o'zbek tili, tojik tili tojik millatiga qarashli bo'lgani uchun, tojik tili deyilishining boisi shunda.

Fanda tilning ijtimoiy tomonini inkor etmagan holda, unga individual-psixik hodisa sifatida ham qaralgan. Masalan, Boduen de Kurtene, tilning ijtimoiy hodisa ekanligini inkor etmagan holda, uni ayrim shaxslarning nutq faoliyati bilan bog'lanuvchi individual hodisa sifatida talqin etgan. U "**individual til—bu real voqelikdir**" deb hisoblaydi.

Darhaqiqat, individual til—bu nutqdir. Nutqqa individuallik xos bo'ladi. Boduen tilning ijtimoiyligini shaxsning ijtimoiyligi bilan bog'laydi. U shaxsga, ya'ni til sohibiga individual hodisa deb qaraydi. Shuning uchun ham Boduen kontsepsiyasida til: a) **individual** va b) **o'ta nodir** ijtimoiy hodisadir. Boduen de Kurtenening til haqidagi qarashlaridan ham bu hodisaning ko'p qirrali murakkab hodisa ekanligini payqash mumkin.

Til ijtimoiy tushuncha sifatida ijtimoiy hodisalar sirasidagi eng murakkab hodisadir. Uning murakkabligi zimmasidagi vazifalarning har xilligi va ko'pligi bilan belgilanadi. Tilning eng muhim va yetakchi vazifasi aloqa-aralashuv vositasi ekanligidir. Alohida olingan har bir til shu til mansub bo'lgan etnik jamoa uchun aloqa vositasi hisoblanadi.

Kishilar bir-birlari bilan til vositasida o'zaro munosabatga kirishadilar, fikr almashadilar. Tilning bu vazifasini fan tili bilan **kommunikativ vazifa** deyiladi.

Bulardan tashqari, tilning yaqinlashtiruvchilik (konsolidiruyutshie), birlashtiruvchilik hamda ajratuvchilik vazifalari ham mavjud, masalan, o'zbek tili o'zbek millatining aloqa vositasidir. U boshqa turkiy tilda gaplashuvchi til jamoalari bilan o'zbek xalqini bir mushtarak til uyushmasi (oilasi) doirasida yaqinlashtiradi. Shuningdek, qarluq, chigil va qipchoq lahjalarining til jamoalarini, ularga qarashli turli xil shevalarda gaplashuvchi

son-sanoqsiz kichik til jamoalarini bir yirik etnik guruh doirasida birlashtiradi. O'z o'rnida, bu til o'ziga xos fonetik, lug'aviy va grammatik qurilishi bilan shu til jamoasini boshqa til jamoasidan, masalan, tojik, arman, rus til jamoalaridan ajratadi.

Tilning paydo bo'lishi masalasi ham, tilning o'zi kabi, ijtimoiy hodisadir. Uning paydo bo'lish asoslari xususida turlicha qarashlar mavjud. Ibtidoiy tilning qachon, qayerda paydo bo'lganligi, qaysi etnik jamoaga qarashli bo'lganligini fan hozircha aniq ayta olmaydi. Shuningdek, dastlabki tilning intralingvistik qurilishi masalasida ham aniq ilmiy ma'lumot yo'q.

Til o'ziga xos ijtimoiy mohiyat va vazifaga ega. Tilning mohiyati va vazifasi rang-barang bo'lib, uning ijtimoiy mavqei va ko'lami bilan belgilanadi. Shu bois ham til boshqa ijtimoiy hodisalardan farqlanuvchi o'ziga xos hodisadir.

Tilning ijtimoiy mohiyati cheksiz. Uning. yuqorida aytilganlardan tashqari, yana bir qator muhim va ahamiyatli xususiyatlari mavjud. Ulardan biri tilning ma'rifiy ahamiyatidir. Tilning ma'rifiy ahamiyati shundaki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari, til tufayli insoniyatning bilimi, boy tajribasi avloddan avlodga og'zaki va yozma shakllarda qoldiriladi. Natijada yangi avlod o'tgan avlodning--o'z ajdodlarining ishini hech qiynalmasdan davom ettiradi.

Til ilm olishda zamon va makon g'ovini o'rtadan ko'taradi. Til tufayli kishilik jamiyati eng qadimgi ma'lumotlarga ega bo'ladi, hatto kelgusiga doir ma'lumotlarni ham oladi. Koinotning hamma yeridagi ma'lumotlar insoniyatga til orqali ma'lum bo'ladi. Bularning barchasi ijtimoiy xarakterdagi tilning ijtimoiy "amallari"dir.

Tilning ijtimoiy hodisa sifatida o'rganilish asoslari

Yuqorida ham aytilganidek, tilning paydo bo'lishi jamiyatning paydo bo'lishi bilan uzviy, chambarchas bog'liq. Jamiyat va uning ehtiyoji uchun xizmat qiladigan barcha real va noreal hodisalar ijtimoiylik belgisiga ega bo'ladi. Shular sirasida ong ham, til ham bor, albatta. Tabiat va jamiyatdagi mavjud barcha hodisa va tushunchalar ongda in'ikos etadi. Shu jumladan, til va uning birliklari ham ongda mavjud bo'ladi. Til va uning birliklariga psixik hodisa sifatida qaralishining boisi ham ana shundan. Tabiat va jamiyatdagi inson ehtiyoji uchun xizmat qiladigan barcha narsa-hodisalar ijtimoiy fanlar tomonidan o'rganiladi. Ijtimoiy fanlar tarix, adabiyotshunoslik, falsafa, psixologiya, pedagogika, ekonomika, jamiyatshunoslik singari bir qator fanlarni o'z ichiga oladi. Shu jumladan, lingvistik, ya'ni tilshunoslik ham ijtimoiy fanlarga kiradi. Tilshunoslik fani tabiiy tilni o'rganadi. Tabiiy til inson tilidir. Til kishilararo aloqa-aralashuv vositasi bo'lganligi uchun, ijtimoiy hodisadir. Ayni o'rinda, tilning ijtimoiy hodisa ekanligi uning tabiiy hodisaga aloqador tomonini ham inkor etmaydi, albatta. Chunki tilning

tovush tili ekanligi, tovushlarning inson organizmining o'pka, havo yo'llari, hiqildoq, til, lab, burun va og'iz bo'shlig'i kabi a'zolari faoliyati bilan aloqadorligi uning tabiiy tomonidir. Tilning nutq jarayonida, aloqa vositasiga aylanishida inson organizmining bu a'zolari birgalikda harakatga keladi.

Tilning ijtimoiy hodisalilik tomoni uning vazifasi bilan bog'liq. Tilning vazifasi ijtimoiy vazifadir. Chunki insonning fikr uzatishi, fikr qabul qilishi, ichki ruhiy holatining voqelanishi—barcha-barchasi til orqali amalga oshadi. Shularning barchasi tilning ijtimoiy hodisa sifatida o'rganilishi uchun asosdir.

Tilni o'rganish oiladan boshlanadi

Ha, tilni o'rganish oiladan boshlanadi. Oila jammiyatning, muayyan til jamoasining boshlang'ich yacheykasidir. Oila inson bolasi o'rganishi uchungina xos bo'lgan lisoniy manbagina emas, balki tabiatdagi barcha jonzodlar va ularning zurriyotlarining "til" o'rganishidagi dastlabki manba hamdir. Biroq jonzodlar "jamiyati"ning eng kichik yacheykasini "oila" emas, "uya", "in" atamalari bilan nomlanadi. «**Qush uyasida ko'rganini qiladi**» maqoli hayotni chuqur va mukammal o'rgangan donishmand xalqimiz tomonidan beasos aytilmagan. Qarg'a ini qarg'aning, bulbulning ini bulbulning "oilasi"dir. Qarg'a bolasining o'z ini-oilasida ilk bor eshitgan "tili" "**g'aq-g'aq**" bo'lsa, bulbulniki – "**chah-chah**". Bulbul inidan hech vaqt "**g'aq-g'aq**" eshitilmagani kabi, qarg'a uyasidan ham "**chah-chah**" eshitilmaydi. Nainki qush va boshqa jonzodlar, balki inson bolasi ham shunday. Bolaning tarbiyasida, til tarbiyasida oila mutlaq hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunga ko'hna tarixda ishonarli dalillar ancha. Kaykovusning o'z avlodlariga qilgan nasihatlaridan birida shunday ma'noni uqish mumkin: *"Agar yangi tug'ilgan go'dakni odamlardan alohida joyda gapirmasdan boqib, tarbiyalansa, u tilsiz kimsa bo'lib ulg'ayadi"*.

Bu holatlarning haqiqat ekanligiga ishonish va ishontirish uchun tarixda ko'plab tajribalar o'tkazilgan. Shulardan biri 1705-yili Parijda nashr etilgan va tarjimasini "**Mo'g'ullar imperiyasining umumiy tarixi**" deb nomlangan kitobda **Akbarshoh** tomonidan o'tkazilgan bir tajriba haqida rivoyat qilinadi. Akbarshohni tug'ilganidan boshlab oiladan ajratib "tarbiyalangan" bolaning qaysi tilda gapirishi masalasi qiziqtiradi. Ana shu maqsadda shoh yangi tug'ilgan o'n ikki go'dakni oilasidan, onasidan ajratib, **Agradan** olti mil uzoqlikda maxsus tayyorlangan joydagi o'n ikki soqov enaga tarbiyasiga topshiradi. Bolalar o'n ikki yoshgacha shu yerda soqov enagalar qo'lida tarbiyalanadi. Ularning qaysi millat tilida gapirishlarini bilish uchun turli mamlakatlardan har xil til jamoasiga mansub donishmandlar chaqiriladi. Biroq kuzatishdan ma'lum bo'ladiki, bolalar enagalaridan o'rgangan imo-ishoralardan boshqa narsani bilmaganlar.

Shunga o'xshash voqea bosh qahramoni **Tarzan** bo'lgan «**Mutlaq hukmronlik**» filmida ham mavjud. Angliyalik er-xotin kema halokatidan omon qolgach, ularning hayoti junglida davom etadi. Shu yerda ular farzandli bo'ladilar. Biroq ota maymunlar hujumidan, ona esa kasallanib vafot etadi. Chaqaloq maymunlar qo'lida "maymunona" tarbiyalana boshlaydiki, insoniy harakat va insoniy "til"dan mutlaqo chetda bo'ladi. Odamlar davrasiga tushganda, u insoniy hayotga ko'nika olmaydi, atigi uch-to'rt inglizcha so'z o'rganib-o'rganmay, yana maymunlar huzuriga qochib ketadi...

Oilada bolaning "tili" onaning yurak qo'ridan chiqqan "tili"ni murg'ak qalbi bilan eshitishdan boshlanadi. Dastlabki bu sehrli til – **Ona allasi!** Olimlar tomonidan olib borilgan kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, go'dak leksikasidagi dastlabki lug'aviy birlik *ota* va *ona* ekan. Bolaning yarim yoshligi atrofida o'rgangan 10-12 ta so'zi – uni qurshagan narsa-hodisalarga taqlidan paydo qilgan ma'nosiz tovushlar kompleksi bo'larkan. Bola miyasi biologik rivojlana borib, unda so'z ma'nolarini farqlash malakasi paydo bo'la boshlaydi. Bola 2 yoshga yetganda, uning leksikonida ona tilining taxminan 300, 3 yoshga yetganda, 1000, 4 yoshga yetganda, 2000 atrofida lug'aviy birligi shakllanar ekan.

Xullas, bolaning dastlabki ilk til malakasi, dunyoni o'z ona tili vositasida milliy his etishi oiladan boshlanadi. Nemis donishmandi Vilgelm fon Gumboldt to'g'ri aytgan: "**Tillarning turli xilligi tovushlarning turli xilligi bilan emas, dunyoni ko'rish va sezishdagi har xillik bilandir**". Darhaqiqat, har bir etnik jamoa dunyoni ona tili vositasida o'zicha his qiladi. Shu bois ham har bir millatning, xalqning dunyoni idrok etishi har xil bo'lib, o'zaro farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, ular tilining har xilligidadir. Zero, til dunyoni ko'rish, bilish, idrok etish vositasi xarakteridagi ruhiy, estetik hodisa hisoblanadi.

Inson bolasining boshqa ikkinchi tilni bilishi mahalladan, bog'chadan so'ngra maktabdan boshlanadi. Mahallada har xil etnik jamoaga mansub aholi vakillari yashasa, bola o'sha etnik jamoa bolalari bilan birga o'ynab, ularning tilini tez o'rganadi, natijada uning nutqiy faoliyatida ikki va ko'p tillilik malakasi shakllanadi. Buning yorqin misoli sifatida o'zining g'aroyib glottogoniya nazariyasi bilan mashhur bo'lgan akademik N.Ya.Marrning bolaligini eslash kifoya. U o'sgan mahallada rus, turk, tatar, gruzin, arman va b. etnik guruhlariga mansub aholi vakillari yashashgan. Olim yoshligidanoq shu etnik guruhlar tilini bevosita o'rgangan. Bu uning keyingi kasbiy faoliyatida qo'l kelgan. U 40 dan ortiq tilni ham amaliy, ham nazariy bilgan poliglot bo'lgan.

Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar ikki tilliligi "tabiiy" bo'lib, katta yoshdagilarnikidan farq qiladi. Bolalikda shakllangan ikki tillilik tilning grammatik qonun-qoidalari ta'siridan xoli bo'ladi. Shunisi ham borki, oila va mahallada shakllangan ikki tillilik xotirada uzoq, hatto umrbod saqlanadi.

Boshqa ikkinchi va h.k tillarni bevosita o'rganish ko'p millatli sharoitda bolalar bog'chasida rivoj topib, mustahkamlanadi. Maktab ta'limida esa, u ikkinchi tilni ilmiy-me'yoriy rejada o'rganadi. Shu tarzda ikki va ko'p tillilik takomillashib, shaxs bilingv va polilingvga aylanadi. Bularning barchasida **ona tili** poydevor (fundament) bo'lib xizmat qiladi. Ona tilini yaxshi va mukammal bilmagan, uning lisoniy qonun-qoidalarini me'yoriy o'zlashtirmagan odam ikkinchi va uchinchi tilni o'rganishda qiyinchilik sezadi, ba'zan uni o'rgana olmaydi. Chunki o'zga tilni o'rganishda uni ona tili va uning qonun-qoidalariga qiyoslash muhim omilardan hisoblanadi. Masalan, o'rta umumta'limda chet tili ham o'quv rejasidagi asosiy predmetlardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida bola (o'quvchi) o'z ona tili grammatik qonun-qoidalarini boshlang'ich sinfdan boshlab nazariy va amaliy planlarda o'rgana boshlaydi. Chet tilini o'rganishdagi dastlabki maqsad o'quvchi xotirasida o'sha tilning minimum lug'at boyligini shakllantirishga qaratiladi. Bu maqsad chet tili so'zlariga ona tilidan munosib lug'aviy muqobillarni topish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'quvchida o'rganilayotgan chet tilining minimum lug'at boyligi shakllangach, uning grammatik qonun-qoidalari haqida ma'lumot berishga o'tiladi. Bu jarayon ham o'quvchining ona tili grammatik qonun-qoidalari zaminida unga qiyosan amalga oshadi. Chunki o'quvchida o'z tilining grammatik qonun-qoidalari bo'yicha me'yoriy bilim shakllanmasa, u o'zga tilning grammatik qonun-qoidalarini o'zlashtira olmaydi.

Tilni bilish va o'rganish oila, mahalla, ta'lim maskanlari va ularning bosqichlari bilan mutanosib bog'liq bo'lishi tilning ijtimoiy hodisa ekanligini isbotlovchi yana bir dalildir.

Til – semiotik hodisa sifatida

Til insonga xos, uning kommunikativ ehtiyoji uchun xizmat qiluvchi hodisadir. Kommunikativ ehtiyoj uchun xizmat qilishi tilning chin ma'nodagi tabiatini belgilay olmaydi. Bu uning vazifalaridan biridir, xolos. Har bir hodisa uning o'ziga xos xususiyati bilan tavsiflanadi. Tilning ham ijtimoiy hodisalarning boshqalaridan farqlovchi o'z xususiyati mavjud. Bu uning semiotikaga aloqador tomonidir. Semiotika ham fan. Bu fan ishoralarni (ramzlarni) o'rganadi. Demak, semiotikaning fan sifatida o'rganadigan asosiy birligi—bu ishora, ramzdir, uni "belgi" ham deyiladi. **Ishora, ramz, belgi** – semiotika o'rganadigan ayni bir hodisaning dublet xarakteridagi atamalaridir.

Tilning ishoralik xususiyati fanda frantsuz va shveytsar tilshunosi Ferdinand de Sossyur tomonidan rasmiylashtirilgan. Ishora deganda, sezgi organlarimiz tomonidan tasavvur etiladigan (ko'rinadigan, eshitiladigan, teri sezgisi orqali his etiladigan) va nimanidir anglatadigan obrazlar, timsollar tushuniladi. Ishora nimanidir yodga soluvchi, eslatuvchi "signal"dir.

Shuning uchun ishorada tasavvur etiladigan "shakliy" va anglashiladigan "ma'no" tomoni bo'ladi. Bu ikki tomon o'zaro dialektik aloqada ish ko'radi.

Tildagi so'zlar ham, morfemalar ham, so'z birikmalari ham ishoralarga o'xshaydi. Tovush va tovushlar birikmasidan iborat bo'lishi tilning so'z, morfema, so'z birikmasi va gap singari birliklarining shakliy tomoni sanalsa, nimanidir bildirishi ma'no tomoni sanaladi. Bu ikki tomon bir butunlikda til birliklarining mohiyatini, amalini belgilaydi. Tilni uning yuqorida sanalgan birliklari tashqil qilar ekan, ularga xos shakliy va ma'noviy tomonlar tilning o'ziga ham tegishli hususiyatdir. Shu asosda tilni semiotikaga aloqador hodisa deb qaraladi. Shu o'rinda rus tilshunosi V.A.Zvegintsevning tilga bergan quyidagi ta'rifini keltirish maqsadga muvofiqdir. Uning e'tirof etishicha, til ishoralar tizimi, bir ishoradan boshqa ishoralarning hosil bo'lishi qonun-qoidalarini o'z ichiga olgan murakkab sistemadir. Xullas, til ishoralar tizimidan tashkil topganligi jihatidan semiotikaga aloqador ijtimoiy hodisadir.

Sotsiolingvistikaning lingvistik tarmoq sifatida paydo bo'lish asoslari

Til ichki va tashqi tomonlarga ega murakkab hodisadir. Uning ichki tomonini sof lingvistika fani o'rganadi. Uni intralingvistika yoki immanent tilshunoslik deyiladi. Til va uning qurilishi bilan aloqador barcha xususiyatlar tilning ichki tomonidir. Tilning til jamoasi, jamiyat bilan aloqador tomonlari uning tashqi tomoni sanaladi. Tilning tashqi tomoniga uning nolisoniy jihatlari kiradi va tashqi tilshunoslik tomonidan o'rganiladi. Tashqi tilshunoslikni makrolingvistika yoxud ekstralingvistika ham deyiladi.

Sotsiolingvistika tashqi tilshunoslikka (makrolingvistika yoki ekstralingvistikaga) qarashli mustaqil tarmoqlardan biridir. Tashqi tilshunoslikning, sosiolingvistikadan tashqari, psixolingvistika, mentalingvistika va etnolingvistika deb ataluvchi boshqa tarmoqlari ham bor.

Sotsiolingvistika lingvistikaning alohida, mustaqil tarmog'i sifatida shakllanganiga qadar unga aloqador masalalar "umumiy tilshunoslik"ning "til va jamiyat" deb nomlangan bahsida (bo'limida) o'rganilar edi.

Sotsiolingvistikaga tilshunoslik siklidagi alohida predmet sifatida yondoshuv o'tgan asrning 70-yillaridan keyin boshlandi. Bu davrda dunyoning bir necha mamlakatlarida Sotsiolingvistika masalalariga bag'ishlangan bir qator xalqaro anjumanlar o'tkazildi. 1972-yilda Boloneda bo'lib o'tgan XI xalqaro lingvistik, 1974-yilda Torontoda o'tkazilgan VIII umumjahon sosiologik, 1977-yilda Veneda o'tkazilgan XII xalqaro lingvistik kongresslar kun tartibining asosini sosiolingvistik muammolar tashkil etgandi.

Sobiq Sho'rolar davrida sotsiolingvistikaning bir qator nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan monografiya va o'quv qo'llanmalari nashr etildi.

Xususlan, V.A.Avrorning 1975-yili Leningradning "Nauka" nashriyotida "Problemi izucheniya funktsionalnoy storoni yazika. K voprosu o predmete sotsiolingvistiki"; L.B. Nikolskiyning 1976-yili Moskvada nashr etilgan "Sinxronnaya Sotsiolingvistika. Teoriya i problemi"; A.D. Shveytserning "Sovremennaya Sotsiolingvistika. Teoriya, problema, metodi" (Moskva,1976), Yu.D.Desherievning 1977-yili Moskvaning "Nauka" matbaasida nashr etilgan "Sotsialnaya lingvistika. K osnovam obshey teorii" nomli asarlari shular jumlasiga kiradi.

Nashr etilgan yuqoridagi monografiyalarning nazariy masalalariga asoslangan holda, universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari ham yozilib, chop etildi. A.D.Shveytser va L.B.Nikolskiylarning "Vvedenie v sotsiolingvistiku" (-Moskva: "Visshaya shkola", 1978); V.D.Bondaletovning "Sotsialnaya lingvistika" (-M.: "Prosvetshenie", 1987) singari kitoblari ana shunday tavsifga ega. Bulardan tashqari, R.A.Budagovning "Chelovek i ego yazik" (-M: MGU, 1976), "Chto takoe razvitie i sovershenstvovanie yazika?"(-M.: "Nauka",1977), "Yazik—realnost—yazik" (-M.: "Nauka", 1983); G.V. Stepanovning "tipologiya yazikovix sostoyaniy i situasiy v stranax romanskoy rechi" (-M.: "Nauka", 1976); V.K Juravlyovning "vneshnie i vnutrennie faktori yazikovoy evolyusii" (-M.: "Nauka", 1981); P.F.Filinning "Ocherki po teorii yazikoznaniya" (-M.: "Nauka", 1982) nomli asarlarida ham sotsiolingvistikaning ba'zi muhim masalalari yoritilgan.Sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti tomonidan "Vliyanie sosialnix faktorov na funktsionirovanie i razvitie yazika" nomi bilan nashr etilgan monografik majmuada (-M., 1988) ham bu muhim tarmoqning zamonaviy dolzarb masalalari haqida so'z yuritiladi.

Sotsiolingvistika tilshunoslik fani tsiklidagi mustaqil predmet sifatida universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari o'quv rejasiga ham kiritila boshlandi. Bu predmet dastlab dunyoning rivojlangan mamlakatlari oliy o'quv yurtlarida o'qitilgan bo'lsa, keyinchalik, xususan, asrimizning birinchi o'n yili ichida dunyoning boshqa mamlakatlari, shu jumladan, bizning Respublikamizning filologik ixtisos beradigan oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga ham kiritildi.

Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, Sotsiolingvistika--tilshunoslik fani doirasidagi eng "yosh" predmet. Uni tilshunoslikning "chaqaloq nabirasi" deyish mumkin. Shu bois bu fanning stabillashgan mushtarak dasturi ham, darsligi ham yaratilmagan. Chunki sotsiolingvistikaning mustaqil fan sifatidagi masalalarida hozircha bir xillik yo'q. Shunga qaramay, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalariga uning alohida fan sifatidagi vazifasi va mohiyati, asosiy tushunchalari bo'yicha muqimlashgan ma'lumotlar berish ko'zda tutiladi.

Tilshunoslikda sotsiologiyat yo'nalishning paydo bo'lishi

Yuqorida ham aytilganidek, Sotsiologiyat--tilshunoslikning eng yosh tarmog'i. Bu tarmoqni nomlovchi atama, ya'ni **Sotsiologiyat** termin sifatida o'tgan asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Uni 1952-yili Amerika tadqiqotchisi X.Karri tavsiya etgan.

Sotsiologiyat tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida shakllarga qadar uning obyekt masalasida har xil qarashlar hukm surdi. Chunki sotsiologiyatning asosiy masalalari jamiyat va uning siyosiy hamda iqtisodiy shart-sharoitlari bilan bog'lanadi. Bir mamlakat jamiyati boshqa mamlakat jamiyatidan Farqlanuvchi o'z davlati, uning siyosiy tuzumi va mafkurasiga ega bo'ladi. Shu sababli sotsiologiyatga turli jamiyatda turlicha tus beriladi. Zero, Sotsiologiyat o'rganadigan asosiy masalalar sinfiy va mafkuraviy xarakterga ega bo'ladi. Sho'rolar davrida sotsiologiyatning asosiy masalalariga markscha-lenincha dialektika nuqtai nazaridan yondoshilgan. Uning masalalari mohiyatan Sho'rolar davlatining mafkurasiga moslashtirilgan holda talqin etilgan. Sotsiologiyat til fanining Kommunistik partiyaning siyosiy qarashlari ta'siridagi tarmog'i sifatida qaralgan. Shu bois sotsiologiyatning obyekt masalasida nomushtarak har xilliklar hukm surgan.

O.S.Axmanovning "lingviyat atamalar lug'ati"da ("Slovar lingvistikich terminov". –M., 1969) tilshunoslikdagi bu yosh tarmoq "**Sotsiologiyat lingviyat**" va "**Sotsiologiyat**" atamalari bilan nomlanib, ikki xil talqin etilgan, chunonchi:

- 1) tilshunoslikning til bilan jamiyat va uning hayotida sodir bo'luvchi qonuniy o'zgarishlar aloqasini o'rganuvchi tarmog'i;
- 2) tilshunoslikning tilning hududiy shakllarini, ya'ni tillarning ijtimoiy farqlanishini o'rganuvchi tarmog'i.

Sotsiologiyatga berilgan ushbu talqinning o'zidanoq uning obyekt masalasidagi noaniqlikni sezsa bo'ladi. Ayniqsa, sotsiologiyatning lug'atda qayd etilgan ikkinchi talqinida uning obyektiga daxlsiz boshqa narsa haqida gapirilgan. Negaki tilning xududiy shakllari lahja va sheva atamalari anglatadigan lisoniy tushunchalar sanalib, tilshunoslik sikliga qarashli **D i l e k t o l o g i y a** ning o'rganish obyekt sanaladi. To'g'ri. sotsiologiyatning dialektologiya o'rganadigan hududiy tillar bilan ham aloqasi bor, albatta. Biroq sotsiologiyatda umumxalq tilning hududiy shakllari emas, balki hududiy sheva va lahjalarning umumxalq adabiy tili bilan munosabatdoshligi masalalari o'rganiladi.

Xullas, sotsiologiyatning til ilmidagi "chaqaloq" tarmoq ekanligi uning obyektini belgilash masalasidagi har xilliklar bilan ham dalillanadi.

Sotsiolingvistikaning asosiy masalalari va tushunchalari

Sotsiolingvistika obyektiga daxldor tushunchalardan biri "**til jamoasi**"dir. «**Til jamoasi**" deganda ma'lum bir tilda so'zlashuvchi, unga egalik qiluvchi omma tushuniladi.

Bu atama keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. U tor ma'noda muayyan bir davlat yoxud millatni o'z ichiga oladi.. "Til jamoasi"ni bu tarzda tushunish xorijiy, aniqrog'i, g'arb sotsiolingvistlari uchun xos. "Til jamoasi" atamasi keng ma'noda turli xil hududiy guruhlarni, aniqrog'i, lahja va shevada gaplashuvchilarni, kasb-hunar egalarini, argo va jargonda muloqot qiluvchilar guruhini, ilm-fan sohasi sohiblarini ham anglatadi.

"Til jamoasi"ning keng ma'noda tushunilishi sotsiolingvistikaning o'rganish obyekti sanaladi.

Bir davlat yoki mamlakatda biri boshqasidan lisoni yoxud uning ayrim unsurlari tizimi farq qiluvchi bir necha til jamoalari bo'lishi mumkin. Masalan, bizning Respublika--ko'p millatli mamlakat. Unda o'zbek, tojik, rus, qirg'iz va h.k. millatlarga xos til jamoalari mavjud. Shulardan o'zbek til jamoasi etakchi hisoblanadi. Chunki bu til jamoasi O'zbekiston davlatining "milliy"lik mohiyatini o'zida aks ettiradi.

Har bir til jamoasi o'zining yagona ijtimoiy-kommunikativ tizimi yoxud tag tizimlariga ega bo'ladi.

Sotsiolingvistika, yuqorida ham aytilganidek, tilshunoslik va jamiyatshunoslik oraliq'ida paydo bo'lgan fanning mustaqil sohasidir. Har bir mustaqil fanning "mustaqilligi"ni belgilovchi bir qator muammolari bo'ladi. Bunday muammolar sotsiolingvistikada ham mavjud. Ularga, shu soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, quyidagilar kiradi.

1. Til qurilishining ijtimoiy shart-sharoitlar bilan munosabati, muayyan ijtimoiy sharoitda tilning jamiyatga, jamiyatning tilga ta'siri masalasini o'rganish.
2. Tilning ijtimoiy funktsiyasi, uning til taraqqiyotining muayyan bosqichlaridagi holati va konkret funktsiyaga kirishuvi.
3. Tilning vazifaviy ko'rinishlari, adabiy til va uning noadabiy shakllari, oddiy so'zlashuv shakli, hududiy va ijtimoiy lahjalar (dialektlar), shuningdek, tilning boshqa vazifaviy shakllarini o'rganish.
4. Til vazifaviy tarmoqlarining asosiy tiplari: ijtimoiy, uslubiy-vazifaviy, hududiy tiplar; bunday tarmoqlanishning ijtimoiy-lisoniy asoslari; uning ijtimoiy ko'lami va nutq situatsiyasi (vaziyati).
5. Ijtimoiy-kommunikativ tizim va uning uzviy qismlari (komponentlari). Til vaziyatining Sotsiolingvistika obyektlaridan biri ekanligi. Bilingvizm (ikki tillilik), polilingvizm (ko'p tillilik) va diglossiya hodisalari.
6. Til taraqqiyotining ijtimoiy shartlanishi. Har xil ijtimoiy-tarixiy formasiyalarda tilning ijtimoiy tiplari (tilning urug' tili, qabila tili, elat va xalq tili, milliy til, millatlararo til, vositachi til, koyne singari shakllari).

Til kontakti haqida ma'lumot

Sotsiolingvistika o'rganadigan asosiy masalalardan biri "til kontakti" tushunchasidir. Kontakt lotincha "**sontactiss**» so'zidan olingan, "**bevosita aloqa**", "**bevosita bog'lanish**" ma'nolarini bildiradi.

"Til kontakti" atamasi fanga frantsuz tilshunosi Andre Martine tomonidan olib kirilgan. Uriel Vaynrayx uni sosiolingvistik tushuncha atamasi sifatida ommalashtirgan. Til kontakti tilning amali bilan bog'liq tushunchadir.

Til kontaktining tilning amali bilan bog'liqligi shundaki, u nutqiy jarayonda sodir bo'ladi. Ma'lumki, nutqiy jarayonning asosini muloqot tashkil qiladi. Muloqot ikki shaxs o'rtasidagi fikr almashinuvdir. Muloqot jarayonining ishtirokchilaridan birini so'zlovchi, ikkinchisini tinglovchi deyiladi.

So'zlovchi fa

n tili bilan **adresant**, tinglovchi esa **adresat** deyiladi. Fikr so'zlovchi-adresant tomonidan til ashyolari vositasida uzatiladi. U (fikr) tinglovchi-adresant tomonidan qabul qilinadi. Ana shu jarayonni muloqot deyiladi. Bu jarayon individual-psixik xarakterda bo'ladi. Tilning psixik hodisa xarakteri ham nutq, nutq faoliyati orqali belgilanadi.

So'zlovchi-adresant va tinglovchi-adresat bir til jamoasi vakillari bo'lsa, muloqotda til kontakti bo'lmaydi. Muloqotning til kontaktiga asoslanishi uchun so'zlovchi-adresant va tinglovchi-adresat har xil til jamoalariga qarashli bo'lishi shart. Bundan tashqari, tinglovchi-adresant tinglovchi-adresat mansub bo'lgan, tinglovchi-adresat so'zlovchi-adresant mansub bo'lgan jamoaning tilini bilishi, albatta, zarur. Aks holda, til kontakti vujudga kelmaydi. Masalan, o'zbek til jamoasiga mansub biror-bir shaxs bilan tojik til jamoasiga mansub biror-bir shaxs muloqotga kirishadigan bo'lsa, muloqot vositasi vazifasini yo o'zbek tili, yo tojik tili bajarishi kerak. Shuning uchun so'zlovchi-adresant o'zbek til jamoasiga mansub bo'lsa, u tojik tilidan ham yaxshi xabardor bo'lishi kerak. So'zlovchi-adresant tojik til jamoasiga mansub bo'lsa, u o'zbek tilini ham yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun muloqot til kontaktiga asoslanishi uchun, muloqotga kirishuvchi shaxslar o'z tilidan tashqari, muloqot vositasiga aylanuvchi o'zga tilni ham bilishi zarur. Muloqot vositasi vazifasini bajargan tilni **kontakt til** deyiladi. O'zbek va tojik til jamoalariga mansub ikki shaxsning muloqoti o'zbek tilida olib borilsa, o'zbek tili **kontakt til** hisoblanadi; tojik tilida olib borilsa, tojik tili **kontakt til** vazifasini bajaradi.

Bordi-yu, so'zlovchi-adresant tinglovchi-adresatga qarashli bo'lgan, tinglovchi-adresat so'zlovchi-adresantga qarashli bo'lgan jamoaning tilini bilmasa, unda muloqot vositasi vazifasi uchinchi boshqa bir til zimmasiga yuklanadi. Muloqot vositasi vazifasini bajargan va so'zlovchi-adresant ham, tinglovchi-adresat ham mansub bo'lmagan uchinchi boshqa tilni **vositachi til** deyiladi. Masalan, o'zbek va tojik til jamoalariga mansub ikki shaxsning

muloqoti rus yoki ingliz tilida amalga oshsa, rus yoki ingliz tili **vositachi til** hisoblanadi.

Til kontakti uchun ikki yoki uch har xil til jamoasining bir umumiy hududda yashashi shart emas. Ikki yoki uch til jamoalarining bir umumiy hududda yashashiga asoslangan til kontakti bevosita amalga oshadi. O'zaro hududiy yaqin bo'lmagan til jamoalari orasidagi til kontakti odatda o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim jarayonlarida o'quvchi va talabalarning biror-bir chet tilni o'rganishi orqali vujudga keladi. Masalan, turli bosqichdagi ta'lim maskanlarida o'quvchi yoki talabalarning ingliz, nemis, frantsuz, ispan, arab yoki xitoy tillaridan birini o'rganish orqali vujudga kelgan til kontakti ana shunday xarakter kasb etadi. Yana: o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan ko'p miqdordagi so'zlar evaziga o'zbek-arab til kontakti vujudga kelgan. Bu til kontakti ham diniy ta'lim va fors-tojik tili vositasida paydo bo'lgan.

Tillar kontakti tufayli **substrat** deb ataluvchi lisoniy vaziyat paydo bo'lishi mumkin. Bu atama lotin tiliga qarashli bo'lib, "**tag**" ma'nosidagi «**sub**» va «**qatlam**» ma'nosidagi "**stratum**" so'zlaridan tashkil topgan. Substrat tufayli bir til boshqa bir til tomonidan "zo'rovonlik bilan" siqib chiqariladi. Bu jarayon ko'proq ijtimoiy mavqeda farq qiluvchi ikki etnik jamoa munosabatida ro'y beradi: ijtimoiy mavqei ustun aholi tili yo ijtimoiy mavqei tobe etnik jamoaning, yo ijtimoiy mavqei tobe etnik jamoa tili ijtimoiy mavqei ustun etnik jamoa tili tomonidan "cheklanadi". Bunda "g'olib" etnik jamoa tili "mag'lub" etnik jamoaning ham asosiy tiliga aylanadi.

Til kontakti tushunchasining keng va tor ma'nolardagi talqini

"Til kontakti" sotsiolingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida tor va keng ma'nolardagi talqinga ega. Til kontakti atamasi keng ma'noda uqilganda, muloqot vositasi vazifasini ikki mustaqil tildan tashqari, bir til doirasidagi ikki sheva ham bajaradi. Ya'ni so'zlovchi-adresant va tinglovchi-adresatlar umumxalq tilining har xil shevasiga mansub shaxslar bo'ladi. Masalan, o'zbek tilining "j"lovchi shevasiga mansub shaxs bilan uning "y"lovchi shevasiga mansub shaxsning o'zaro muloqotiga yo "j"lovchi sheva, yoki "y"lovchi sheva materiallari vosita vazifasini bajarishi mumkin. Muloqot "j"lovchi shevada amalga oshsa, "j"lovchi sheva **kontakt sheva** hisoblanadi; "y"lovchi shevada amalga oshsa, **kontakt sheva** vazifasi "y"lovchi sheva zimmasiga tushadi. Bundan tashqari, shaxsning adabiy til, yo shu adabiy tilga qarashli biror-bir sheva vositasidagi muloqoti ham keng ma'nodagi til kontaktiga misol bo'ladi.

"Til kontakti" atamasi tor ma'noda qaralganda, muloqotning ikki har xil milliy til amalidagi shakli tushuniladi.

Sotsiolingvistika uchun "til kontakti" tushunchasining tor ma'nodagi shakli ko'proq ahamiyatli hisoblanadi. Chunki bu jarayonda shevalar emas, balki milliy tillar aloqaga kirishadi. Bir milliy til ikkinchi milliy tilga nimasi bilandir ta'sir qiladi. Bu jarayon fonetik, lug'aviy va grammatik qurilishda

farq qiluvchi biror-bir tilning lisoniy vositalari vositasida amalga oshadi. "Kontakt"ning bir til doirasidagi shevalararo amalga oshishida "ta'sirdoshlik" bir til doirasidagi lisoniy unsurlar bilan cheklanadi.

Til kontaktining turlari

Turli tillarning muloqot vositasiga aylanishi bilan bog'liq xususiyatlar ham murakkab sosiolingvistik hodisalar hisoblanadi. Bu jarayonda bir til ikkinchi tilga (*yoxud "kontaktlashayotgan" har ikki til o'zaro*) turli darajada ta'sir qiladi. Shu bois tillar kontakti tufayli turli xarakterdagi natijalar ko'zga tashlanadi. Bu xususiyat asosida tillar kontaktining har xil tur va ko'rinishlari belgilanadi.

Sotsiolingvistik xarakterdagi ilmiy manbalarda til kontaktining ikki asosiy turi qayd etiladi:

- 1) proksimal til kontakti;
- 2) distal til kontakti.

1. Proksimal til kontakti.

Til kontaktining proksimal shakli odatda etnik jihatdan farq qiluvchi har xil til jamoalarini uyushtirgan ko'p millatli mamlakat yoki davlatlarda amal qiladi. Bunday mamlakat yoxud davlatlarda ikki tillilik (bilingvizm) yoxud ko'p tillilik (polilingvizm) sharoiti hukm suradi. Proksimal til kontaktida fonetik, lug'aviy va grammatik tizimi farq qiluvchi ikki yoki undan ortiq til vakillari o'z ona tili bilan bir qatorda, qo'shni boshqa etnik jamoaning tilini ham o'zlashtirgan bo'ladi. Muloqot shaxsning o'z ona tili va o'zga til vositasida amalga oshaveradi. Proksimal til kontaktiga Ozbekistondagi o'zbek va tojik, tojik va o'zbek, o'zbek va rus, rus va o'zbek, rus va qozoq, qozoq va rus shuningdek, shu xarakterdagi boshqa ikki tilliklarga asoslangan muloqot shakllari misol bo'la oladi.

Proksimal til kontakti tufayli bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklar o'zlashishidan tashqari, bir tilning ta'sirida boshqa tilning fonetik, grammatik qurilishida modifikasiyalashish holati sodir bo'lishi, hatto sifat jihatdan farq qiluvchi yangi til tizimi vujudga kelishi mumkin.

2. Distal til kontakti.

Til kontaktining distal shakli odatda o'zaro hududdosh bo'lmagan etnik jamoalarining tillari munosabatiga asoslanadi. Til kontaktining bu shakli turli etnik jamoa tillarining bevosita aloqada bo'lmagan holatlarida amal qiladi. Shuning uchun distal til kontakti bir tillilik sharoiti uchun xos xususiyatdir. Bu jarayonda bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklar (odatda so'zlar) o'zlashadi, xolos. Masalan, o'zbek va arab, o'zbek va xitoy, o'zbek va mo'g'ul tillari munosabatida til kontaktining distal shakli amal qilgan. Chunki o'zbek tili lug'at tarkibida xitoy, mo'g'ul, arab tiliga xos lug'aviy o'zlashmalar uchraydi. Ayniqsa, arab lug'aviy o'zlashmalari o'zbek tili leksikasida katta salmoqli qatlamni tashkil qiladi. Ularning qo'pi hozirgi o'zbek tilining o'z lisoniy mulkiga aylangan.

Arab lug'aviy o'zlashmalari o'zbek tili so'z yasalishi jarayonlarida ham faol ishtirok etib, o'zbek tili lug'at tarkibining boyishiga ikkinchi marta samarali xizmat qilayotir. Biroq O'zbekistonda yoki ikkinchi mahalliy aholisi o'zbeklar bo'lgan Tojikiston, Qirg'iziston yoki Qozoqistonda "o'zbek va arab" yoki "arab va o'zbek" ikki tilliligi mavjud emas. Bunday xarakterdagi ikki tillilikka imkon yaratuvchi til vaziyati ham yo'q.

Til kontaktining bu ikki turidan tashqari, uning zamon va makon umumiylikiga ko'ra farqlanuvchi yana ikki turi ham mavjud. Ular:

- a) bevosita til kontakti;
- b) bilvosita til kontakti.

1. Bevosita til kontakti.

Bevosita til kontakti har xil til jamoasiga mansub shaxslarning yuzma-yuz muloqotiga asoslanadi. Yuzma-yuz muloqot jarayonida amalga oshgan muloqot makon va zamon umumiylikiga ega bo'ladi: adresant va adresant yuzma-yuz muloqotda bo'ladi. Bevosita til kontakti faqat nutqning og'zaki shakliga asoslanadi.

2. Bilvosita til kontakti.

Bilvosita til kontaktida har xil til jamoasiga mansub ikki shaxsning muloqoti yo telefon, yo internetga qo'shilgan kompyuter vositasida amalga oshadi. Bunda muloqotga kirishayotgan shaxslardan birining tili kontakt til vazifasini bajaradi. Muloqotga kirishayotgan shaxslar makon umumiylikiga ega bo'lmaydi.

Bilvosita til kontakti ikki shaklda amalga oshadi:

- a) ogzaki;
- b) yozma.

Bilvosita kontaktning og'zaki shakli telefon yoki internet tarmog'i orqali amalga oshadi. Yozma shakli esa, maktub, telegramma, telefaks, internetdagi "bildirish"(soobtshenie) vositalarida amalga oshadi. Yozma muloqotda adresant (yozuvchi) o'z maqsadini batafsil bildirmoqchi bo'lsa, maktubdan foydalanadi. Shunchaki xabar xarakterida bo'lsa, u telegramma, faks yoki telefon vositasida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda bilvosita muloqotning ogzaki shakli faolroq bo'lib, asosan mobil telefonlaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Bunda vosita til vazifasini muloqotga kirishayotgan shaxslardan biri mansub bo'lgan til bajarishi mumkin.

Til kontakti tufayli vujudga keluvchi sotsiolingvistik hodisalar

Turli etnik jamoa tillarining kommunikasiya jarayonidagi navbatma-navbat amali til kontaktiga shart-sharoit yaratar ekan, buning oqibatida etnik jamoa tillarida har xil sifat o'zgarishlari vujudga keladi. Etnik jamoa tillarida yuz beruvchi bunday sifat o'zgarishlari Sotsiolingvistika o'rganadigan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Lisoniy kontaktlashuv natijasida

munosabatdosh tillar o'zaro uzoqlashishi yoki yaqinlashishi mumkin. Kontaktdosh tillararo uzoqlashish "**divergentsiya**", yaqinlashish esa, "**konvergensiya**" deyiladi.

Kontaktlashgan tillardan birida sodir bo'luvchi uzoqlashish (divergentsiya) natijasida tillardan biri boshqasining tarkibiga singishib, o'zining kommunikativ amalini susaytira borib, yo'qqa chiqarishi mumkin. Bu jarayon fan tilida **assimilyatsiya** deyiladi.

Assimilyasiya tufayli kontaktdagi tillardan biri boshqasining tarkibiga singishib "yutib yuborilishi" ham mumkin. O'zaro kontaktdagi tillardan birining bunday sharoitni boshdan kechirishi **divergentsiya** tufayli yuz beradi. Tarixdan, ilmiy manbaalardan ma'lum bo'lishicha, qadimgi Xorazmda Eron tillariga mansub lisonida so'zlashuvchi etnik jamoa (xalq) bo'lgan. Bu jamoa tili shu o'lka nomi bilan "**Xorazmiy**" tili deb atalgan. Hozir Xorazmda bu til yo'q. U o'zbek tili bilan kontaktlasha borib, lug'aviy va grammatik qurilishidan bora-bora uzoqlashgan va o'zbek tilining tarkibiga singishib ketgan, assimilyasiyalashgan. Bu haqda Aburayhon Beruniy asarlarida ham ma'lumot berilgan (Aburayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent, 1968).

Divergensiya, ya'ni kontaktdagi tillardan birining boshqasi tarkibiga singishib, "assimilyasiyalashuvi" slavyan tillarida ham uchraydi. Masalan, qadimda rus, belorus va ukrainlar orasida o'z mustaqil lisoniga ega bo'lgan **Muroma, Chud, Tork, qora klobuk** singari mayda etnik guruhlar bo'lgan. Shu xalqlar bilan bir hududda yashab, shular tilida muloqot qila borishi natijasida, ularning tillari rus, belorus va ukrain tillari tarkibiga singishib, assimilyasiyalashib ketgan (Leontev A.A. Chto takoe yazik. –M., 1976. 26-bet).

Konvergensiya tufayli, yuqorida ham aytilganidek, ikki yoki undan ortiq qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga xos ayrim lisoniy xususiyatlar o'zaro uyg'unlashadi, ularning har biriga xos ayrim lisoniy xususiyatlar "so'nib", neytrallashadi. Zero, konvergensiya atamasi lotin tilidagi "yaqinlashmoq", "o'xshab ketmoq" ma'nosidagi "**convergo**" so'zidan olingan.

Konvergensiyaning "**glottogonik**" va "**struktur-diaxronik**" singari ikki turi mavjud. Glottogonik konvergensiyada ikki har xil tilning fonologik tizimida ayrim mushtarakliklar vujudga keladi. Masalan, shaxslar jinsini farqlovchi –"**ov**", "**-yev**", "**-ova**", "**-yeva**" singari qo'shimchalar o'zbek tili affiksial tizimiga rus tilidan o'zlashgan. O'zbek tilining fonemalar tizimida shu qo'shimchalar tarkibidagi "**-v-**" fonemasining ruscha talaffuzi yo'q edi. Shu affikslar o'zbek tilida ham rasmiy lisoniy birlikka aylangach, o'zbek tiliga xos "**-v-**" fonemasining talaffuzi rus tilidagi shu qo'shimchalar tarkibiga xos "**-v-**" fonemasining talaffuziga muvofiqlashdi. Shuningdek, **fabrika, fevral, farfor** tipidagi so'zlar tarkibidagi ruscha "**-f-**" ning talaffuziga o'zbekcha "**-f-**" fonemasining talaffuzi ham muvofiqlashgan.

Struktur-diaxronik konvergentsiyada ikki har xil tilga xos ayrim hodisalardagi lisoniy farqlar tugal barham topadi. Struktur-diaxron konvergentsiyaga xos jarayonlarni "**paradigmatik neytralizasiya**" yoki "**sinxron neytralizasiya**" deb ham ataladi.

Sotsiolingvistikaning zamonaviy tushunchalaridan biri **a t t r a k t s i y a** dir. Attraktsiya "o`ziga jalb qilish", "ta'sir kuchini ko'rsatish" ma'nolarini bildiradi. Tillarning ta'sirdoshligi bilan bog'liq **substrat, superstat** hodisalarining sharhida attraktsiya muhim rol o'ynaydi. Masalan, 1066-yili normandlar Angliyani bosib olgach, mamlakat hududida **uch til—ingliz, frantsuz va lotin** tillariaro raqobat vujudga keladi. Bu jarayonda ingliz tilining ta'sir kuchi g'olib kelib, **attraktorlik** vazifasini bajaradi. Shuningdek, tarixda xalqaro til sifatida musulmon mamlakatlarida arab tili, xristian olamida lotin tilining ta'sir kuchi sezilarli bo'lgan, attraktorlik rolini o'ynagan. Hozirgi globallashuv davrida **ingliz** tilining ta'siri **attraktsion** xarakter kasb etmoqda.

Ikki va ko'p tillilik sotsiolingvistikaning muhim masalalaridan biri sifatida

Ikki tillilik deganda bir etnik jamoa yoki shu etnik jamoaga mansub shaxsning, o'z ona tilidan tashqari, o'zga etnik jamoa tilida ham muloqot qila olish imkoniyati tushuniladi. Shuning uchun ikki tillilik insoniyatning nutqiy-kommunikativ ehtiyoji uchun xizmat qiluvchi sof sotsial, ya'ni ijtimoiy hodisadir.

Ikki tillilik hamda ko'p tillilik--ko'p tarmoqli murakkab lisoniy jarayon. U sosiologik, falsafik, psixologiyak, pedagogik va lingvistik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan ko'p qirrali murakkab hodisadir. Ikki yoki ko'p tillilikning til qurilishi bilan bog'liq tomonlarigina tilshunoslik faniga qarashli bo'ladi va u lingvistik hodisa sifatida o'rganiladi. Uning til qurilishiga tegishli bo'lmagan tomonlari jamiyatshunoslik, falsafa, psixologiya va pedagogika fanlari tomonidan o'rganiladi.

Ikki yoki ko'p tillilik insoniyat tarixining turli etaplarida shu etaplar "ijtimoiy ruhi"ga xos xususiyatlar bilan xarakterlanuvchi tarixiy-ijtimoiy hodisadir. Masalan, insoniyatning ibtidoiy kommunizm, quldorchilik, feodalistik, kapitalistik jamiyatlariga xos ikki yoki ko'p tillilik o'zaro farq qiladi. Shuning uchun ikki yoki ko'p tillilikning til qurilishiga aloqador bo'lmagan boshqa tomonlari sinfiy va mafkuraviy xarakter kasb etadi. Shunisi ham borki, ikki yoki ko'p tillilikning til qurilishi uchun omil bo'lgan asoslari jamiyatning, til jamoasining, ma'lum bir ijtimoiy, siyosiy tuzumi bilan mutanosib bog'liq bo'ladi. Ikki yoki ko'p tillilikning til tizimi va uning qurilishiga tegishli tomonlari til fanining **Sotsiolingvistika** tarmog'ida o'rganiladi.

Sotsiolingvistika mundarijasida ikki tillilik va ko'p tillilik eng asosiy tushunchalardan hisoblanadi. Jahon tilshunosligida bu masalaga alohida

e'tibor qaratilishi bejiz emas. Ikki tillilik jahonning turli mamlakatlarida xalqaro miqyosda o'tkazilgan Kongress va anjumanlar kun tartibining asosiy masalasi sifatida ko'rilgan. Osloda o'tkazilgan VIII Kongress, Kombridjeda o'tkazilgan IX Kongress buning yaqqol misolidir. Shuningdek, Sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti, rus tili instituti va Turkmaniston Fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti hamkorligida 1969-yilning oktyabr oyida Ashxobodda bo'lib o'tgan butunittifoq ilmiy anjumani **"Ikki tillilik va ko'p tillilik muammolari"** mavzusiga bag'ishlangan edi. Anjumanda Moskva va Leningradning, shuningdek, sobiq ittifoqdosh respublikalarning ko'zga ko'ringan yetuk lingvistlari, adabiyotshunoslari, pedagoglari, tarixchilari, filosoflari, sosiologlari, etnograflari, psixologlari ishtirok etgandi. Anjuman materiallari keyinchalik (1972-y.) "Ikki tillilik va ko'p tillilik muammolari" ("Problemi dvuyazichiya i mnogoyazichiya") nomi bilan Moskvaning "Nauka" nashriyoti tomonidan alohida kitob shaklida chop qilingan. Anjuman materiallarida ikki va ko'p tillilikning nazariy va amaliy masalalariga asosiy e'tibor qaratilgandi.

Hozirgi zamon ijtimoiy rivoji ikki tillilikni sosiolingvistikaning eng muhim masalalaridan biri sifatida taqozo etadi.

Ikki tillilik asosan har xil til jamoasini o'z ichiga olgan hududlarda amal qiladi. Markaziy Osiyo Respublikalarining barchasida ikki tillilik me'yoriy rivoj topgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasini olsak, u yerda shu davlatning milliylikini belgilovchi o'zbek til jamoasi bilan bir qatorda, tojik, qirg'iz, qozoq til jamoalariga mansub aholi ham O'zbekistonning ikkinchi yerli aholisi maqomida istiqomat qiladi. Tojikiston, Qirg'iziston, Qozoqiston va Turkmanistonda ham til vaziyati bilan bog'lik bunday xususiyat mavjud.

Sobiq sho'rolar davrida rus va boshqa milliy tillar ikki tilliligi rivoj topgan edi. Rus tilini ikkinchi milliy til sifatida o'rganishga hatto Polsha, Bolgariya, Chexoslovakiya, Ruminiya, Yugoslaviya kabi socialistik mamlakatlarda ham astoydil kirishilgan edi. Ularning o'rta umumta'lim maktablarida rus tili asosiy predmet sifatida o'kitilgan. Sobiq sho'rolarning boshqa ittifoqdosh respublikalarida shu mahalliy o'lkalarda yashovchi etnik jamoalar tillari ham ikki tillilik mavjud bo'lgan va bu ikki tilliliklarning ildizi uzoq tarixga borib taqalgan.

Sobiq sho'rolar davrida bir necha bor butunittifoq aholi ro'yxati o'tkazilgan. Shulardan biri 1970-yilda bo'lib o'tgan. Shu aholi ro'yxatida ma'lum bo'lishicha, Namangan viloyati qishloqlari aholisining 9 foizi; O'rta Osiyo Respublikalari Markaziy shaharlari aholisining 30-40 foizi ikki tillilik sharoitida yashaganliklari aniqlangan. Xususan, Samarqand shahri aholisining 40 foizdan ortig'i bilingv ekanligi ma'lum bo'lgan.. Bu ma'lumotda mahalliy o'lka xalqlarining o'z tillaridan tashqari, hududdosh (masalan, o'zbek yoki tojik, o'zbek yoki qozoq va b.) va hududdosh bo'lmagan boshqa (rus tili) tillarda muloqot qila olish imkoniyati nazarda tutilgan.

Sobiq sho'rolar davrida ikki tillilik asosan bir tomonlama bo'lgan: Rus bo'lmagan til jamoalari o'z tillaridan tashqari, siyosiy va ma'muriy muhit taqozasi va talabiga ko'ra, rus tilini bilishga majbur bo'lganlar. So'rolarning siyosiy tuzumi, uning mafkurasi, siyosati rus tilining mavqeini imtiyozli ko'tarishga qaratilgan. Arzimagan yig'inlar ham, rasmiy lavozimdagi rahbarlar rus millatiga mansub bo'lganligi uchun, ularning tilida olib borilgan. Shuning uchun sho'rolar davrida rus bo'lmagan til jamoasi bu tilni ommaviy tarzda o'rganishga majbur bo'lgan. Bu xususiyat **1970-** va **1979-**yillari o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlarida ham o'z yorqin ifodasini topgan.

1970-yilgi rasmiy ijtimoiy-siyosiy tadbir ma'lumotlariga ko'ra, sho'rolar davlatida turkiyzabon aholisining **44,7 foizi**; fin-ugor tillariga mansub aholining **50,3 foizi**, gruzin til jamoasining **21,3 foizi** rus tilida erkin muloqotga kirisha olishi ma'lum bo'lgan. Sho'rolar davlatida rus bo'lmagan aholisining rus tilini bilish darajasi yildan-yilga foiz hisobida oshib borgan. Masalan, o'n yildan so'ng (1979-yil) o'tkazilgan aholi ro'yxatidan ma'lum bo'lishicha, bu davrga kelib, sho'rolar davlatida turkiyzabon aholisining **57,2 foizi** (o'sish **12,5 foizni** tashkil qiladi); fin-ugor tillarida so'zlashuvchi aholining **50,6 foizi** (o'sish **0,3 foizga** teng); gruzin millatiga mansub aholining **26,7 foizi** (o'sish **5,4 foizga** teng) rus tilini me'yoriy o'zlashtirganlar. Sho'rolar davlatining rus bo'lmagan barcha aholisiga kelsak, **1970-**yilgi aholi ro'yxati ma'lumoti bo'yicha rus tilini biluvchilar **17,3 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **1979-**yilgi aholi ro'yxati ma'lumoti bo'yicha **33,4 foizni** tashkil etganki, o'n yil ichidagi o'sish **6,1 foizga** teng keladi.

O'zbekistonda ikki va ko'p tillilik respublika aholisining etnolingvistik tarkibi, til kontaktlari esa turli til jamoalariaro kommunikativ munosabatlar bilan belgilanadi.

Yuqorida ham aytilgan 1970-yilgi umumxalq aholi ro'yxatidan ma'lum bo'lishicha, O'zbekistonning umumiy aholisi **11 899 602** (o'n bir million sakkiz yuz to'qson to'qqiz ming olti yuz ikki) kishini tashkil qilgan. Shundan **7 million 135 ming 833** kishi o'zbek millatiga mansub bo'lgan. Ularning **7 million 104 ming 23** tasi o'zbek tilini ona tili sifatida e'tirof etgan; o'zbek millatiga mansub **113288** (o'n uch ming ikki yuz sakkiz) kishi ona tili maqomida rus tilini tanlagan. Rus millatiga mansub kishilardan **1074** tasi o'zbek tilida erkin so'zlasha olgan. O'zbekiston aholisining **4 million 328 773** (besh million uch yuz yigirma sakkiz ming etti yuz etmish uch) tasi rus tilida erkin muloqot qila olgan. Respublika aholisining **2 million 249652** tasi (ikki million **ikki yuz qirq to'qqiz ming olti yuz ellik ikkitasi**) o'zbek tilidan boshqa lisonda so'zlashuvchilar hisoblangan.

1970-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlaridan yana ma'lum bo'lishicha, ikki tillilik O'rta Osiyo respublikalari Markaziy shaharlarida aholining 30 foizdan, Samarqand, Riga, Baku, Tbilisi shaharlarida 40 foizdan, Vilnyusda 60 foizdan ortig'iga to'g'ri kelgani holda, Rossiyaning Markaziy qora er zonalarida aholining 1 foizdan kamroq qismi bilingv ekanligi ma'lum

bo'lgan. Moskva, Leningrad singari yirik shaharlarda esa, ikki tillilik aholining 6 foiziga to'g'ri kelgan.

Sho'rolar davri bir tomonlama ikki tilliligining "noqulay" tomonlari ayrim rus ziyolilari tomonidan to'g'ri payqaldi, rasmiy tadbirlarda e'tirof ham etildi. Chunonchi, Sobiq sho'ro Fanlar akademiyasi til va adabiyot bo'limi sessiyalaridan birida akademik **D.S.Lixachyov** shunday degan edi: "Hozirgacha biz "**Rus tilini o'rgan!**"shiori bilan keldik va shu asosda ish ko'rdik. Endi buni "**Ona tilingni hamda rus tilini o'rgan!**"bilan almashtirib, shu shior asosida ish ko'rishimizga to'g'ri keladi",-- degan edi. Rus tilini o'rganishga e'tiborning kuchayishi natijasida qishloq aholisining shaharlar tomon siljishi (**urbonizasiya**), shu sabab shahar aholisining ko'payishi, milliy aholi farzandlarining rus maktablarida o'qishga intilishi singari ijtimoiy holatlar avj oldi.

Sho'rolar davri ikki tilliligi, garchand bir yoqlama xarakter kasb etgan bo'lsa-da, uning ijobiy tomonlari ham yo'q emasdi, albatta. Chunki lisoni rus bo'lmagan milliy xalqlar bu til orqali Evropaning ilg'or madaniyati bilan, fan va texnikasi bilan tanishdi, ma'naviy saviyasi, dunyoqarashi yuksaldi.

Ayrim mamlakatlarda ularning siyosiy tuzumi ikki tomonlama ikki tillilikka rasmiy tarzda alohida e'tibor beradi. Masalan, "Pravda" gazetasining 1989-yil 9-mart sonida yu.Xarlamovning "Fedarasiyaga katta yo'l: Belgiyada nima o'zgardi?" ("**Dolgiy put k Federasii: chto izmenilos v Belgii**") sarlavhali maqolasi e'lon qilingandi. Unda frantsuz va flamend rasmiy ikki tilliligiga bosqichma-bosqich o'tishning afzalligi va zarurligi haqida fikr yuritiladi. Ma'lum bo'lishicha, Belgiyada davlat va hukumat boshqaruvi lavozimlariga faqat **frantsuz** va **flamend** tillarini bir xil saviyada yaxshi bilganlarga munosib topilar ekan.

Xuddi shu mazmundagi maqola "Izvestiya" gazetasining 1989-yil 20-mart sonida ham e'lon qilinadi. Unda Xitoyning **Tibet** avtonom rayonida **Xitoy-Tibet ikki tilliligiga** berilgan imtiyoz haqida gap ketadi. Bu ma'muriy hududda ham davlat ahamiyatidagi lavozimlarga da'vogar shaxslardan shu hududda rasmiylashgan ikki tilni yaxshi va me'yoriy bilish talab qilinarkan.

Hozirgi bizning davrimizda **Rossiya Hukumati** boshqa mamlakatlardan **Rossiyaga** vaqtincha ishlash (mehnat muhorjirligi) uchun boruvchilardan rus tili bilimi bo'yicha rasmiy sinovdan o'tish shartini joriy etgan. Sinovdan muvaffaqiyatli o'tganlarga Rossiyada ishlashga rasmiy ruxsat etiladi va ish bilan ta'minlanadi. Bu ham rus va rus bo'lmagan boshqa etnik jamoalar ikki tilligini rivojlantirish uchun qo'yilgan ilk qadamlardan biridir.

Ikki tillilik sharoitida ba'zan ona tili hisoblanmagan o'zga ikkinchi til mavqei va vazifasiga ko'ra, o'z tildan ustun sanalishi va shaxsning asosiy muloqot vositasiga aylanishi hollari ham kuzatiladi. Masalan, **Galisiyada** dehqon bolalari olti-etti yoshlargacha faqat ona tili sanalmish **galisiy** tilida so'zlashadilar: galisiy tili ular muloqotining asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular maktabga borgach, galisiy tilining amali barham topadi, endi ular ispan tili asosida muloqotga o'tadi. Ispan tilini o'rganish jarayonida bu tilning

o'z ona tili—galisey tilidan ijtimoiy ustunligini seza boshlaydi. Biroq maktab ta'limidan so'ng, qishloqlarda ispan tiliga hojat sezilmaydi. Bu mamlakatning qishloq joylarida yagona "xorijiy" doktor, o'qituvchi, aptekachi va veterinarlar hisoblanib, ular o'z farzandlarini shahar maktablariga o'qishga jo'natadilar; oddiy dehqonlar esa shahar maktablariga ishonqiramay, farzandlarining o'zga tilda ta'lim olishlarini unchalik xushlamaydilar.

Galiseyadagi til vaziyati bilan bog'liq yana bir holat ko'zga tashlanadi. Yarim asrlar burun qishloqdan shaharga o'tib qo'nim topgan krestyanlar o'z farzandlarini ta'limi ispan tiliga asoslangan shahar maktablarida o'qita boshlaydilar. Farzandlarga ispan tili ona tili maqomiga kira boshlaydi. Ota-onalar oilada o'zaro galiseycha muloqotda bo'lsalar-da, farzandlar bilan ispan tilida so'zlashadilar. Bunday nutqiy-lisoniy holat sobiq sho'rolar davrida O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozoqiston singari Markaziy Osiyo respublikalarida ham sodir bo'lgan. Rus tilining gegemon rolini his qilgan mahalliy xalqqa mansub ota-onalar farzandlarini rus maktablarida o'qitib, oilada ota va ona o'z tillarida, farzandlar bilan esa, rus tilida so'zlashganlar. O'z milliy ona tilini bilmay, unda so'zlasholmay o'sgan farzandlar ko'p bo'lgan. Bunday holat Markaziy Osiyoning shahar joylarida hozir ham mavjud.

Ikki tillilik fan tilida **bilingvizm** deyilar ekan, uni **Diglossiya** deb ataluvchi hodisadan farqlamoq kerak. Diglossiya ham ikki tillilikka o'xshaydi. Biroq diglossiya muayyan til jamoasiga mansub shaxsning u qarashli bo'lgan tilning turli shevalariaro muloqotga kirisha olish imkoniyatini bildiradi. Shuningdek, shaxsning o'z tilining adabiy va uning biror-bir hududiy (shevasi) shakllarida muloqotga kirisha olishi ham diglossiyaning amaldagi ko'rinishlaridan biri sanaladi.

Diglossiya ikki tillilikka qaraganda keng va faol tarqalgan sosiolingvistik hodisadir. Umumta'lim maktablari adabiy tilni targ'ib qiluvchi, uni o'quvchilar ongiga majburan va rasmiy tarzda singdiruvchi ta'lim-tarbiya maskani hisoblanadi. Bunday sharoitda har bir o'quvchi ham o'z tilining adabiy shaklida, ham mahalliy shaklida muloqot qiladilar. Bu jarayon diglossiyaning ommaviy xarakteriga misol bo'ladi.

Ikki tillilikning turlari

Ikki tillilik sosiolingvistikaning ijtimoiy-lisoniy tushunchasi sifatida o'ziga xos tizim karakterini kasb etadi. Ma'lumki, muayyan bir hodisaning tizim bo'lishi uchun shu hodisa doirasida birlashuvchi ichki jabhalar muayyan bir belgi-xususiyatlariga ko'ra farqlanishi kerak. Boshqacha aytganda, tizim muayyan jihatlar asosida tasniflanishi, ya'ni klassifikasiyalanishi zarur. Bunday xususiyat ikki tillilik, ya'ni **bilingvizm** uchun ham xosdir.

Ikki tillilik, ya'ni **bilingvizmning** bir necha turlari mavjud. Shulardan biri faol (aktiv) va nafaol (passiv) ikki tillilikdir. Quyida ularning har biri to'g'risida qisqacha ma'lumotlar bilan tanishasiz

Faol ikki tillilik.

Ikki tillilikning bu turi o'z ona tili bilan o'zga tilning og'zaki va yozma shakllarini bir saviyada savodli o'zlashtirgan shaxslar nutqiga xosdir. Bunday shaxslar ikkinchi tilning yozma va og'zaki shakllarida muloqotga kirisha oladi. Bunga Alisher Navoiy, Sadridin Ayniy va ularning zullisonaylik mahorati misol bo'la oladi. Chunki bu adiblar o'zbek va tojik tillarida bir xil mahorat bilan ijod qilganlar. Sadridin Ayniy "Qullar" romanini tojik tilida yozib, uni o'zi o'zbek tiliga o'g'irgan. O'zbekiston va Tojikistonda ikki tilni bir xil o'zlashtirgan ijod ahli bizning davrimizda ham kam emas. O'zbekzabon Jamol Kamol, Sayfullaxon Qorixonov, Odilxon Ikromov, Sul-tonmurod Hojiboev, Hakimjon Zokirov, Sulaymon Ermatov, Egamnazar Sohbnazarov, hoji Ne'matulloh Ibrohimov singari ijodkorlar borki, ular o'zbek va tojik tillarida bir xil saviyada ijod qiladilar. Bular guruhi o'zbek va tojik tillarida ijod qiladigan bir qator olim va jurnalistlar hisobiga yana kengayadi. Xullas, aktiv ikki tillilik O'zbekiston va Tojikistonda keng rivojlangan. Bunga bu Respublikalar davlat rahbarlari ayniqsa hozirgi paytda g'amxo'rlik bilan alohida e'tibor qaratmoqdalar.

Ikki tillilik sharoitida biri boshqasidan farq qiluvchi ikki vaziyat mavjud. Birinchisida o'zga tilda bo'ladigan muloqotda o'z tilning, ya'ni ona tilining, lisoniy xususiyatlari ustuvor bo'lsa, ikkinchisida, aksincha, o'z tilda bo'ladigan muloqotda o'zga tilning lisoniy xususiyatlari ustuvorlik qiladi. Bu ikki vaziyatdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, passiv ikki tillilikda ana shu vaziyatlardan biri hukmron bo'lsa, faol(aktiv) ikki tillilikda ko'rsatilgan vaziyatning har ikkisi birgalikda amal qiladi.

Faol ikki tillilikning yana bir xususiyati shundaki, bilingv ona tili sanalmagan o'zga tilda ham so'zlasha oladi. Shuningdek, o'zga tilning yozma shaklidagi materiallarni o'qib tushunishdan tashqari, uning imlo va punktuasion qoidalariga rioya qilgan holda, to'g'ri va savodli yoza biladi ham. Ikki tillilikning faol turi o'z va o'zga tilning lisoniy qonun-qoidalarini me'yoriy o'zlashtirgan shaxslar nutqiy faoliyatiga xosdir. Biroq ikki tillilikning bu turi keng tarqalmaydi. Bunday imkoniyatga ega bo'lgan bilingvlar ko'pincha maxsus filologik ma'lumotga ega bo'ladi.

Nofaol ikki tillilik.

Ikki tillilikning bu turi ikkinchi tilni qisman o'zlashtirgan shaxslar nutqida uchraydi. Nofaol ikki tillilikda bilingv, ya'ni ikki til sohibi, ona tili hisoblanmagan o'zga tilni bir tomonlama o'zlashtirgan bo'ladi: o'zga tilda gapirgan shaxsning fikrini to'liq tushunadi, lekin unga shu tilda javob qaytara olmaydi. Masalan, o'zbek va tojik til jamoalariga qarashli ikki kishi muloqotga kirishdi deylik. O'zbek til jamosiga mansub shaxs tojik tilidagi informasiyani tushungan holda qabul qila oladi, biroq u o'z fikrini tojik tilida to'liq bayon qila olmaydi. O'z navbatida, tojik til jamoasiga mansub shaxs ham o'zbek tilida bayon qilingan fikrni me'yoriy tushunadi, biroq u o'z fikrini

adresatga o'zbek tilida bayon eta olmaydi. Shuning uchun ikkinchi tilni bir tomonlama bilish nafaol, ya'ni passiv ikki tillilik deyiladi.

Ikki tillilikning **faol va nafaol** amali **bevosita va bilvosita til kontaktlari** bilan ham bog'liq bo'ladi. Faol ikki tillilik bevosita til kontakti sharoitiga xos bo'lsa, nafaol(passiv) ikki tillilik bilvosita til kontaktlari bilan aloqadordir. Ayniqsa, bilvosita til kontakti turli vositalar orqali o'zga tilda bitilgan gazeta, jurnal singari informativ materiallarning chetdan kirib kelishi bilan aloqadorki, bunda bilingv o'sha materiallarni o'qib tushunadi, biroq shu tilda erkin gapira yoki yoza olmaydi.

Me'yoriy ikki tillilik

Me'riy ikki tillilik: a) ikki tomonlama me'yoriy ikki tillilik va b) bir tomonlama me'yoriy ikki tillilik singari ko'rinishlarga ega. Ikki tillilikning ikki tomonlama me'yoriy turi bilingvning o'z ona tilini va ona tili sanalmagan o'zga tilni savodli o'zlashtirganligiga asoslanadi. Demak, me'yoriy ikki tillilik savodxon shaxslar nutqiga xosdir. Bunda bilingv o'z ona tili va ona tili sanalmagan ikkinchi o'zga tilning fonetik, lug'aviy, grammatik qonun-qoidalarini me'yoriy o'zlashtirgan bo'ladi. Shuning uchun ikki tillilikning bu turi filologik bilimga ega bo'lgan, o'ta o'qimishli va o'ta savodxon ziyoli shaxslar uchun xosdir. Jahon miqyosida mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatovning til amalidagi qobiliyati va mahoratida me'yoriy ikki tillilikning ikki tomonlama turini ko'rish mumkin. U qirg'iz va rus tillarida yuksak saviyada ijod qilgan adibdir. Bizning zamonda ikki tilni yuksak darajada o'zlashtirgan shaxslar kam emas. Ikki tilda bir xil savodli so'zlaydigan radio va teleboshlovchilar ish faoliyatida ham me'yoriy ikki tillilikning ikki tomonlama amalini ko'rish mumkin.

Bir tomonlama me'yoriy ikki tillilik.

Me'yoriy ikki tillilikning bu turida bilingv ikki tildan birini savodli o'zlashtirgan bo'ladi. Muloqotda u bir tilning fonetik, lug'aviy-semantik, grammatik qonun-qoidalariga, ularni tushungan holda, amal qiladi. Odatda, bilingv o'z ona tilining adabiy lison normalarini o'zlashtirgan bo'ladi. Ikkinchi tilning fonetik, lug'aviy-semantik va grammatik me'yorlarini chala o'zlashtirgan bo'ladi. Bir tomonlama me'yoriy ikki tillilik to'liq me'yoriy ikki tillilikka qaraganda keng va faol amal qiladi.

Ikki tomonlama me'yoriy ikki tillilik.

Ikki tillilikning bu turi bir tomonlama me'yoriy ikki tillilikka nisbatan nafaol bo'lib, ikki til jamoasi bir umumiy hududda istiqomat qiladigan sharoit bilan bog'lanadi. Bunda har ikki etnik jamoaga daxldor shaxslar, o'z tili bilan bir qatorda, istiqomatdosh va hududdosh boshqa etnik jamoaning tilida ham bevosita muloqatga kirisha oladi. Ikki tomonlama ikki tillilik

Markaziy Osiyoning barcha Respublikalarida mavjud. Masalan, O'zbekistonda, Janubiy mintaqasida ham, Shimoliy mintaqasida ham ham o'zbeklar, ham tojiklar yerli aholi sifatida istiqomat qiladigan qishloqlar bor. Ularning o'zbek til jamoasiga mansublari tojik tilini, tojik til jamoasiga mansublari o'zbek tilini shu hudud shevasida yaxshi biladilar. Yig'inlarda o'zbek tilida boshlangan suhbat tojik tilida, tojik tilida boshlangan suhbat o'zbek tilida yakunini topadi. Shuningdek, bu respublikaning ayrim qishloqlarida o'zbek va qirg'iz, o'zbek va turkman millatlariga mansub aholi ham yashaydi. Ularda ham o'zbek millatiga mansub aholi qirg'iz yoki turkman tilini shu tilning mahalliy shaklida yaxshi biladi; qirg'iz yoki turkman millatlariga mansub aholi ham o'zbek tilida ularning shu qishloq tiliga xos lahjasida bemalol muloqotda bo'la oladi. Ana shunday til vaziyati bor joyda ikki taraflama bilingvizm mavjud bo'ladi.

Nome'yoriy ikki tillilik.

Nome'yoriy ikki tillilik ikki tillilikning shunday turiki, unda bilingv ikkinchi tilning me'yoriy amaliga yo qisman, yo to'liq rioya qilmaydi. Nome'yoriy bilingvizm me'yoriy bilingvizmga qaraganda ko'p tarqalgan bo'ladi. Shuningdek, u passiv bilingvizning odatdagi ko'rinishlaridan biridir. Masalan, o'zbek yoki rus tilini mukammal bilmaydigan va shu til jamoalariga mansub bo'lmagan shaxslarning nutqida shu tillarning grammatik qonun-qoidalariga rioya qilmaslik holatlari kuzatiladi. Bu hol nome'yoriy bilingvizmning amaliy ko'rinishidir. Bilingvizmning bu turi ikkinchi tilni maxsus tayyorgarliksiz stixiyali ravishda o'rgangan shaxslar nutqiga xosdir.

Maqsadli ikki tillilik

Maqsadli bilingvizmda bilingvning ikkinchi tildagi nutqi muayyan bir maqsadga qaratilgan bo'ladi. Masalan, bilingv ikkinchi til vositasida ish joyining shu til jamoasiga qarashli rahbaridan bir-ikki kunga ruxsat so'rash maqsadini bayon qiladi. Yoki talaba o'zi o'rganayotgan chet tili mutaxassisi—ustozidan biror-bir mavzu bo'yicha konsultatsiya berishni so'rab, unga shu tilda murojaat qiladi.

Bundan tashqari, radio va teleboshlovchilarning ikkinchi tildagi axborotlari maqsadli bilingvizmning odatdagi ko'rinishidir. Shuningdek, rasmiy majlis va anjumanlarda ikkinchi tilda qilinadigan ma'ruza va chiqishlar ham maqsadli bilingvizmga misol bo'ladi.

Kundalik odatdagi (bitovoy) ikki tillilik

Bunda ikkinchi tildagi muloqot har xil va erkin vaziyatlarda ro'y beradi. Kundalik odatdagi ikki tillilikda ikkinchi tildagi nutq muayyan bir maqsadni

ko'zda tutmaydi. Ikki tillilikning bu amalida bilingv nutqida ikki tilga xos lisoniy unsurlar aralashib ishlatilish hollari ko'zga tashlanadi. Bunda interferentsiya va bir til modelida ikkinchi tilning nutqiy voqelanishi holatlari ham kuzatiladi.

Individual ikki tillilik

Individual ikki tillilik tarjimonlar faoliyatiga aloqador bo'ladi. Davlat axamiyatiga molik anjumanlarda, fan va texnikaning muhim muammolari yechimiga bag'ishlangan xalqaro konferentsiyalarda shu anjuman yoki konferentsiya materiallari boshqa mamlakatlardan kelgan anjuman qatnashchilariga ular tilida ham alohida tarjimada "uzatib" turiladi. Masalan, anjumanning asosiy "ish" tili rus tili bo'lsa, Amerika yoki Angliyadan yoki Arabiston mamlakatlaridan kelgan qatnashchilarga ingliz, frantsuz yoki arab tillarida ma'lum qilingan. Anjuman materiallarini shu tillarda "uzatgan" shaxslar individual bilingvlar, ularning amaldagi faoliyatini individual ikki tillilik deyiladi.

Oilaviy ikki tillilik

Oilaviy ikki tillilik Markaziy Osiyoda, shuningdek, ikki etnik jamoa vakillari bir aholi bo'lib yashaydigan hududlarda mavjud bo'ladi. Bunday ikki tillilik er va xotin ikki millatga mansub oilalarda bo'ladi. Bunday oila farzandlari, ya'ni duragaylar, ham ota mansub bo'lgan, ham ona mansub bo'lgan etnik jamoaning lisonini juda yoshligidan o'zlashtiradilar. Akademik N.Ya.Marr ham ana shunday oilada tug'ilib, tarbiya topgan edi. Uning otasi ingliz, onasi gruzin millatiga mansub shaxslar bo'lgan. Olimning dastlabki ilk tili, onasining ona tilida, ya'ni gruzin tilida chiqqan, ingliz tili ham uning ota tomondan bolalikdagi tilidir. Buning ustiga, N.Ya.Marr qo'p millatli mahallada o'sgan. Rus, gruzin, arman, turk tillarini mahallada o'rganib, bolaligidayoq ona tili darajasida o'zlashtirgan.

Oilaviy ikki tillilik dunyoning barcha mamlakatlarida, qayerda ikki millat vakili yashagan bo'lsa, o'sha erda, albatta, keng tarqalgan. Masalan, Rossiyada oilaviy ikki tillilikning turlicha xil va ko'rinishlarini ko'rish mumkin. Oilaviy ikki tillilik sharoitida o'sgan farzandlar, albatta, polilingv bo'lib etishadilar. Poliglotlar ham ko'pincha ana shu oilalarda tarbiya topgan shaxslardan etishib chiqadi. Bunga, yuqorida aytilganidek, N.Ya.Marrning poliglot bo'lib yetishuvi yorqin misol bo'ladi. Olim 40 dan ortiq tilni ham nazariy, ham amaliy bilgan poliglot bo'lgan.

Oilaviy ikki tillilik hamma vaqt ham barqaror bo'lmasligi mumkin: yo otaning, yo onaning tili mavqe jihatdan ustunlik qilib, buning natijasida oilada monolingvizm vaziyati paydo bo'lishi hollari ham uchrab turadi.

O'zbekistonning qaysi tumanini olmag, ularning barchasida ikki tili oila mavjud. Bu ikki tillilik o'sha tumanning etnik tarkibiga ko'ra, har xil

bo'lishi mumkin. Masalan, Bo`stonliq tumanida mahalliy aholi sifatida o`zbeklar bilan bir qatorda tojiklar yashaydi. U yerda o`zbek-tojik yoki tojik-ozbek oilalari siyrak uchraydigan hol emas. Bunday oilalarda, shakshubhasiz, o`zbek va tojik yoki tojik va o`zbek ikki tilliligi rivoj topgan. O`zbekistonning Janubiy rayonlarida turkman millatiga mansub aholi ham yashaydi. U erda turkman-o`zbek yoxud o`zbek-turkman oilalarining bo'lishi aniq. Shunga muvofiq, bu tumanlarda o`zbek va turkman, turkman va o`zbek ikki tilliligi shakl topadi. Bular oilalarning ham, ikki tillilikning ham o'z tarixiga ega bo'lgan "mahalliy" shakllariga kiradi.

Ikki tilli oilalarning "mahalliy bo'lmagan" ko'rinishlari ham mavjudki, ular shaharlarda ko'p uchraydi. Ayniqsa, katta va markaziy shaharlarda oila o`zbek va tatar, o`zbek va rus, o`zbek va koreys, tojik va tatar, o`zbek va ukrain va h.k. har xil etnik jamoalarga mansub shaxslardan tarkib topgan oilalar bo'lishi mumkin (*Bular O`zbekiston shaharlari misolida, albatta*). Shu asosda ikki tillilikning ham "mahalliy bo'lmagan" har xil shakllari mavjud bo'ladi.

Oilada tarkib topgan ikki tillilikni tabiiy ikki tillilik deb ham ataladi.

Har xil til jamoasi vakillaridan tarkib topgan oilada shakllanuvchi tabiiy ikki tillilik bilan bir qatorda, situativ deb nomlanuvchi ikki tillilik ham mavjud. Situativ ikki tillilik dunyoning ko'p millatli barcha mamlakatlarida uchraydi. Har bir mamlakatning asosiy aholisi tili davlat tili maqomi imtiyoziga ega bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda mamlakatning asosiy aholisi o'zbeklardir. Bundan tashqari, tojik, qirg'iz, rus va boshqa millat vakillari ham bu mamlakatda yashaydi. O'zbek bo'lmagan aholining o'zbek tilini bilishi shu mamlakatda amal qiluvchi situativ ikki tillilikka kiradi. Yoki Tojikistonda ham shunday, bu mamlakatda o'zbek, qirg'iz, tatar va boshqa etnik jamoa vakillari ham fuqorolik maqomi bilan yashaydi. O'zbekistonda o'z ona tilidan tashqari, davlat maqomidagi o`zbek tilini bilish situativ ikki tillilikka misol bo'ladi.

Koordinativ va subordinativ ikki tillilik

Ma'lumki, sosiolingvistikaning ayrim tushuncha va hodisalari psixologiya faniga daxldor bo'ladi va psixologlar tomonidan o'rganiladi. Xususan, ikki va ko'p tillilik masalasi ana shunday, ya'ni uning psixologiyaga qarashli tomoni ham mavjud.

Ikki tillilik, psixologik jihatdan, koordinativ ikki tillilik va subordinativ ikki tillilik singari ikki guruhga ajraladi.

Koordinativ ikki tillilikda bilingv har ikki tilni, ya'ni o'z ona tilini va unga kontaktlashayotgan o'zga tilni ham bir xil saviyada biladi. Muloqot o'z ona tilida boshlansa, o'zga tilga bevosita ulanib, davom etaveradi. Yoki, aksincha, o'zga tilda boshlangan muloqot o'z ona tiliga bevosita ulanib, davom etaverishi mumkin. Demak, muayyan nutqiy jarayonda undagi vaziyatga qarab, kontaktdagi har ikki tildan bir xil me'yorda foydalanish,

psixologik jihatdan, k o o r d i n a t i v ikki tillilik deyiladi. Unda bilingv uchun o'zga sanalgan til ham unga ona tili darajasida yaqin va o'zlashgan bo'ladi. Koordinativ ikki tillilik O`zbekistonning deyarli barcha hudud va tumanlarida mavjud.

Subordinativ ikki tillilik koordinativ ikki tillilikning aksidir. Bunda bilingv, ya'ni ikki tilda muloqotga kirishuvchi shaxs kontaktdagi tillardan birini me'yoriy o'zlashtirgan bo'ladi. Me'yoriy o'zlashtirilgan til, albatta, uning o'z ona tili hisoblanadi. Bilingvning nutq amalida o'z tili bilan o'zga tilning lug'aviy va grammatik jihatlarida lisoniy moslashmaslik holatlari sodir bo'ladi. Masalan, rus tilining lisoniy qurilishi bilan me'yoriy nazariy bilimga ega bo'lmagan o'zga til vakili ruscha so'zlaganda, rus tilining rod yoki grammatik jins ("mujskoy r., jenskiy r., sredniy r."), "jonli-jonsizlik" (odushevlyonnie-ne odushevlyonnie") kategoriyalari me'yoriga amal qilmasligi mumkin. U "korovo"ga nisbatan ham, "pashsha"ga nisbatan ham "chto?"savolini qo'yaveradi. Yoki uning uchun "**Sestra prishla**"bilan "**Brat prishyol**"ning grammatik jihatdan farqi bo'lmaydi.

Subordinativ ikki tillilik til kontakti nazariyasi uchun koordinativ ikki tillilikka nisbatan muhim va ahamiyatli sosiolingvistik tushuncha sanaladi.

Ikkitadan ortiq tilni bilish ko'p tillilik deyiladi. Bizning davrimizda ikki tillilik ko'p tillilik sari kengayib, ommalashmoqda. Masalan, O`zbekistonda o'zbek millatiga mansub shaxslar, o'z-ona tillaridan tashqari, tojik va rus tilini ham biladilar, O`zbekistonning ayrim tumanlarida qirg'iz etnik jamoasiga mansub aholi ham yashaydi. Ular yaqin vaqtlarga qadar o'zbek tilida ta'lim olganlar. Bu aholiga mansub shaxslar qirg'iz tilidan tashqari, o'zbek, tojik va rus tilini ham biladilar. Ikkitadan ortiq tilda so'zlasha olish qobiliyatiga ega shaxslar polilingv deyiladi. Bunday imkoniyatga olib keluvchi sharoit polilingvizm deb ataladi.

Ikki tillilik, ko'p tillilikdan tashqari, uch va undan ortiq tilda so'zlasha olish ham mavjud. Ko'p tilni biluvchilar ikki va uch tilni biluvchilarga nisbatan kam. Agar ikki va ko'p tillilik ayrim hududlarda ommaviy tarzda mavjud bo'lsa, poliglotlar deb ataluvchi shaxslar juda kam va ularning ko'p tilni bilishi individual xarakter kasb etadi.

Sobiq Sho'rolar davrida akademik N.Ya.Marr va professor E.D.Polivanovlar ham poliglot-lingvist bo'lganlar. Keyinchalik ular safi Zaliznyak singari rus olimi tomonidan kengaygan.

N.Ya.Marr 40dan ortiq tilni ham amaliy, ham ilmiy jihatdan bilgan. E.D. Polivanov esa, rasmiy tarzda 16 (frantsuz, nemis, ingliz, lotin, grek. ispan, serb, polyak, yapon, xitoy, tatar, o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tojik) tilni bilgan. Aslida esa, E.D.Polivanov 40dan ortiq tilni bilgan ekan. Poliglotlar alohida va nodir talantga ega bo'lgan shaxslardir.

Interferentsiya va uning amal doirasi haqida

Interferentsiya--nisbatan yangi sosiolingvistik tushuncha. Shuning uchun bo'lsa kerak, o.S.Axmanovning "lingvistik atamalar lugati"da ("slovar lingvisticheskix terminov". -M., 1969) bu atama va uning fanniy tushunchasi haqida ma'lumot berilmagan.

S.M.Lokshina tomonidan tuzilgan "Chet so'zlar qisqacha lug'ati"da ("Kratkiy slovar inostrannix slov", -M., 1965) "**interferentsiya**" atamasi va uning sharhi berilgan. Ma'lum bo'lishicha, bu atama latincha **inter** va **frens** so'zlaridan olingan, tarjimasida "**o'zaro ta'sir**" iborasiga to'g'ri keladi.

Interferentsiyaning amaliy nolingvistik xarakterdagi hodisalarda ham mavjud. Shuningdek, interferentsiyaga xos xususiyatlar tabiiy hodisalari va ularning o'zaro munosabatlarida ham uchraydi. Shu bois bu tushuncha lingvistik xarakterga nisbatan ko'proq ijtimoiy-psixologik tavsif kasb etadi.

Tilshunoslikda interferentsiya sosiolingvistik tushuncha sifatida qaraladi. Bir tilga xos xususiyatning boshqa til qurilishi yoki uning biror-bir ichki tizimiga lisoniy jihatdan ta'siri interferentsiya deyiladi. Boshqacha ta'bir bilan aytganda, interferentsiya bir tilga xos xususiyatning boshqa til qurilishi yoki uning biror-bir hodisasiga beixtiyor o'tkazilishidir.

Interferentsiya bilingv va bilingvizm (ikki tillilik) tushunchalari bilan uzviy bog'liq sosiolingvistik jarayon hisoblanadi. Zero, interferentsiya **bilingv** nutqiy faoliyati bilan aloqador va nutq jarayonida vujudga keluvchi hodisa sanaladi. Bu jarayonda bir tilning fonetik yoki grammatik qurilishiga xos xususiyatlar ta'sirida boshqa ikkinchi bir tilning fonetik yoki grammatik qurilishiga xos rasmiylashgan me'yor unutiladi yoki hisobga olinmaydi, to'g'rirog'i, ikkinchi tilning fonetik yoki grammatik me'yoriga rioya qilinmaydi. Chunki, har bir tilning fonologik tizimi uning fonetik tizimi bilan uyg'unlikda amalga oshadi. Har bir fonema, u unli yoki undoshligidan qat'iy nazar, adabiy tilning orfoepik me'yoriga rioya qilinishi talab etiladi. Chunki har bir fonemaning adabiy nutqqa xos rasmiy ohangi bo'ladi. Bir til jamoasiga mansub shaxs boshqa tilda yozilgan matnni o'qiganda, u o'sha tilning fonemalarini o'z tiliga xos talaffuzda o'qiydi. Natijada nutqiy lahzada ikkinchi tilning orfoepik me'yori "buziladi". Bu interferentsiyaning til fonemalar sathiga xos ko'rinishlardan biridir. Masalan, o'zbek til jamoasiga mansub o'quvchi yoki talaba tojik yoki rus tilida bitilgan matnni o'qiganda, u shu tillarga xos fonemalarni, ularning adabiy til orfoepik me'yorlarini bilmaganligi uchun, o'zbek tili fonemalarining orfoepik qonun-qoidalari ta'sirida o'qiydi: tojikcha yoki ruscha fonemalarni o'zbekcha tovushlar bilan talaffuz qiladi. Rus tilidan o'tib o'zlashgan *direktor, kollektor, diktator, senator, elevator* tipidagi so'zlarni qanday yozilgan bo'lsa, o'zbekcha talaffuz ko'nikmasiga binoan o'shanday talaffuz qiladi (rus adabiy talaffuzida: *direktir, kallektir, Senatir, diktatir, elevatir*), Bunda chetdan o'zlashgan so'zlarning o'zbek tiliga xos talaffuzi rus nutqiga noto'g'ri interferentsiya qilinadi.

Interferentsiyaning til grammatik tizimiga xos ko'rinishlari ham mavjud. Masalan, o'zbek yoki tojik til jamoasiga mansub shaxs rus tilining grammatik qonun-qoidalaridan me'yoriy nazariy ma'lumotga ega bo'lmasa, u ruscha gapirganda yoki yozganda, o'zbek yoki rus tilining grammatik-qonun qoidalariga amal qilmaydi: "*Moya sestra*"ni "*Moy sestra*"; "*Sestra prishla*"ni "*Sestra prishyol*» tarzida rus tilining rod kategoriyasi qonun-qoidalarini stixiyali tarzda "paymol qiladi".

Interferentsiya jarayoni, o'zga tilda ro'y beradigan o'zgarishning xarakteriga ko'ra, ikki xil bo'ladi:

- a) salbiy interferentsiya;
- b) ijobiy interferentsiya.

Interferentsiyaning salbiy xarakterlisi bir til jamoasi vakilining ikkinchi tilning lisoniy me'yorlarini bilmasligi oqibatida vujudga keladi. Unda ikkinchi tilning muayyan sathiga xos lisoniy me'yoriga amal qilinmaydi. Bu jarayonda so'zlovchi mansub bo'lmagan tilda nutqiy g'alizlik paydo bo'ladi. Biroq bu g'alizlik "gapiruvchi"chining o'ziga sezilmaydi. Yuqorida keltirilgan misollar salbiy xarakterdagi interferentsiya ko'rinishlaridan biriga tegishlidir.

Ijobiy interferentsiyada tilda ikkinchi tilning fonetik yoki grammatik qurilishiga xos ayrim lisoniy xususiyatlar paydo bo'ladi. U ikkinchi til rivojlanishidagi tashqi omillaridan biriga aylanadi. Uning "ijobiy interferentsiya" deb nomlanishi ham shundan.

O'zbek tili unli fonemalari miqdorining sakkiz-to'qqiztadan oltitaga ixchamlashishi ijobiy interferentsiyaning o'zbek tili fonemalari tizimiga xos ko'rinishlaridan biridir. Bu interferentsiya tojik-fors tilining o'zbek tiliga ta'siri o'laroq vujudga kelgan. Shuningdek, o'zbek adabiy tili fonetik tizimida singlarmonizm hodisasining tugal barham topishi ham tojik-fors tili ta'sirida amal qilgan ijobiy interferentsiyaga misol bo'ladi.

Rus tilining fonologik tizimiga xos ayrim unsurlar ham o'zbek tilining fonologik tizimida belgili iz qoldirib, ijobiy interferentsiya amaliga sabab bo'ladi. O'zbek adabiy tili va uning talaffuziga singishgan lab-lab "v'", lab-tish "f'", qorishiq "ts" undoshlari o'zbek-rus bilingvizmi ta'sirida paydo bo'lgan interferentiv hosilalardir. «f' fonemasining o'zbek tili fonemalar tizimida paydo bo'lishiga arab va fors tillari va ulardan "f" tovushi mavjud so'zlarning o'zlashishi ham sabab bo'lgan, albatta. Biroq rus tili ta'sirida vujudga kelgan "f" bilan arab va fors tillari ta'sirida vujudga kelgan "f" tovushi talaffuzida qisman farq borligini unutmasligimiz kerak, albatta: *fartuk, sharf, shkaf, fabrika, filosofiya; farishta, fuqaro, fason, sarf, sharaf, shaftoli, sifat, safar* va sh.k.

Interferentsiyaning nutq tovushlari va ularning o'zga til talaffuzi ta'sirida o'zgarishi **d i a f o n i k** o'zgarish, o'zga til talaffuziga "ko'chirilgan" tovushlar esa **d i a f o n e m a** deyiladi.

Tilning lug'aviy-semantik sathiga xos interferentsiyaga nisbatan esa, **d i a s e m i y a** yoki **d i a l e k s i y a** atamaları ishlatiladi. Bu terminlar

umumfanga D.Djounz tomonidan nolingvistik tavsifdagi boshqa tushunchalar ifodasi uchun olib kirilgan. E.I. Xaugen uni sosiolingvistik tushuncha sifatida tilshunoslik faniga ham ham tatbiq etgan.

Interferentsiyaning bir qator ko'rinishlari mavjud. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) o'zga til tovushlari o'z til tovushlari o'rnini egallaydi. Masalan, O'zbekiston tojiklari nutqida unlilar talaffuzi tojikcha unlilar talaffuzi bilan almashgan: o'zbek tili tovushlari o'rnini tojik tili unlilari "egallagan";
- 2) so'z ma'nolarida torayish hisobiga o'zgarish yuz beradi. Masalan, rus tiliga turkiy tillardan "**balik**»("baliq) so'zi o'zlashgan. Biroq bu so'z turkiy tillardagi "baliq va uning turlari" ma'nosini bildirmaydi, balki u rus tilida "**dudlab quritilgan baliq**» ma'nosida lisoniy "rasmiylashgan";
- 3) o'zga til o'zlashmalari o'z tilning grammatik qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Masalan, turkiy tillarda rod (grammatik jins) kategoriyasi yo'q. Shuning uchun turkiy so'zlar rod bilan turlanmaydi. Biroq rus tiliga o'zlashgan turkcha va forscha o'zlashgan "**lapsha**», "**arba**", "**alicha**", "**surma**", "**syuzma**", "**paranja**" singari so'zlar «jenskiy rod"**ga**, "**buran**", "**uryuk**", "**saksul**", "**barxan**", "**utyug**», "**kirpich**" singari so'zlar "mujskoy rod"ga kiritiladi. Shuningdek, rus tilidan yoki u orqali Evropaning boshqa tillaridan o'zlashgan so'zlar o'zbek tilining grammatik qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Rus tilidan o'zlashgan *zavod*, *shkaf*, *fabrika*, *auditoriya*, *klass* singari so'zlar o'z tilda kelishiklar bilan turlanganda, kelishik shakllariga *v*, *s*, *k*, *pod*, *za* va h.k. predloglar «hamrohlik" qiladi. Keltirilgan bu tip so'zlar o'zbek tilida kelishik qo'shimchalarini predlogsiz olib turlanadi: "*v shkafe*" "*shkafda*", "*v auditoriyu*" «*auditoriyaga*" kabi.
- 4) badiiy ijodda, ayniqsa, sharq poeziyasining "**shir-u shakar**" janrida o'z tilda yozilgan she'rda o'zga tilga xos so'z va so'z shakllari, hatto gaplar kiritiladiki, bu interferentsiyaning badiiy nutqqa xos xususiyati sanaladi.

Badiiy matnlarda boshqa til lisoniy unsurlarining ishtirok etishi maqsadli bilingvizmning uslubiy xarakterdagi ko'rinishlaridan biridir. Masalan, taniqli bolalar shoiri Sul-tonmurod Hojiboevning "tojik do'stim" she'rida shu holni ko'rish mumkin:

Mening tojik do'stim bor,
Uning bilan o'sgim bor.
Dilash chashma barin sof,
Yuzi-ko'zida oftob.
Hamroh bozi mekunem,
Aspbozy mekunem.
Lola tergani qirga
Chiqamiz birga-birga.
Dars tayyorlash, o'qishda,
Hamkordimiz har ishda.

Eh, qisqasi, bu do'stim
Bachayi dono-yu nag'z,
Bizni ahil ko'rgan der,
Bir danakda qo'sha mag'z.

Ijtimoiy-nolingvistik va sof lingvistik nuqtai nazardan qaraganda, interferentsiya va uning jarayoni ikki yo'l bilan amalga oshadi. Birinchisi, muayyan til jamoalari yoki ularning ayrim ijtimoiy qatlamlarining o'zaro kontaktdagi aloqasi natijasida interferentsiya uchun sharoit vujudga keladi. Ikkinchisi, o'zga tilni maqsadli o'rganish jarayonida o'z va o'zga til tizimlariaro vujudga kelgan lisoniy munosabatlar natijasida interferentsiya uchun imkoniyat paydo bo'ladi.

Interferentsiya, funktsional amali doirasiga ko'ra ham, uch xil bo'ladi:

1) har xil etnik jamoalarga xos mustaqil tillar doirasida vujudga keladi (masalan, o'zbek va tojik yoki o'zbek va rus tillari doirasidagi interferentsiya);

2) bir tilga qarashli lahja va shevalar doirasida vujudga keladi. Interferentsiyaning bu xususiyati adabiy til va uning rivojlanishi uchun muhim emas. U til fanining dialektologiya tarmog'iga aloqador ijtimoiy-lisoniy hodisa hisoblanadi.

3) adabiy til bilan uning mahalliy lahja yoki shevalari doirasida vujudga keladi. Bu xususiyat odatda adabiy til ta'sirida lahja va shevalar tizimida yuz beruvchi lisoniy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Biroq nafaol tarzda buning aksi ham bo'lishi mumkin. Bu odatda tilning lug'aviy sathiga xos bo'ladi

Tilni chet lisoniy unsurlardan "tozalashda", inkor etilgan chet so'zlar o'rniga lahja yoxud shevalardan ularga muvofiq muqobillar tanlanadi. O'zbek tilida ruscha "**ostanovka**", "**ikra**" so'zlari o'rniga shevalardan "bekat", "uvildiriq" so'zlarining olinganligi bunga misol bo'ladi.

Interferentsiyaning mazkur xususiyati asosida bu atamaning ifoda ko'lami belgilanadi, ya'ni "interferentsiya" tor va keng ma'nolarda qo'llanuvchi sosiolingvistik atama hisoblanadi.

Interferentsiya tor ma'noda "har xil etnik jamoaga qarashli mustaqil tillardan birining boshqasiga ta'siri tufayli sodir bo'luvchi lisoniy o'zgarish"ni bildiradi.

Bu atama keng ma'noda "adabiy tilning ta'siri tufayli uning lahja yoki shevalarida paydo bo'lgan o'zgarish" hamda "bir til doirasidagi lahja yoki sheva ta'sirida shu tilning boshqa lahja yoki shevasida sodir bo'lgan lisoniy o'zgarish"larga nisbatan ham ishlatilaveradi. Masalan, shevalarda mavjud-u, lekin adabiy tilda o'sha tushunchani ifodalovchi so'z bo'lmasligi mumkin. Buni o'zbek tili qarindoshlik nomlari tizimida ham ko'rsa bo'ladi. Chunonchi, o'zbek adabiy tilida "**nabira—evara—chevara**" dan keyingi avlodni atovchi so'zlar yo'q. Biroq ular "**zuvola—uvora--begona**" tartibida shevalarda uchraydi. Agar keyingi 5-, 6 - va 7-- avlod nomlarini bildiruvchi yuqoridagi so'zlar (**zuvola, uvora, begona**) adabiy tilga qabul qilinsa va ular

ommalashib, lisoniy rasmiylashsa, sheva va adabiy til munosabatidagi ijobiy interferentsiyaga ishonchli misol bo'la oladi.

Tilning etnik guruhleri

Tilning paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning omillari singari masalalar ham sotsiolingvistikaning o'rganish obyektiga kiradi. Biroq bu masalalar "Umumiy tilshunoslik"ning "Tilshunoslikka kirish" deb ataluvchi qismida o'rganilgan.

Sotsiolingvistika tilning vazifaviy guruhlarini ham o'rganadi. Tilning vazifaviy guruhleri deganda, uning qanday xarakterdagi til jamoasiga xizmat qilishi tushuniladi.

Dunyoda tillar ko'p. Ularning miqdorini muayyan aniq son bilan aytib bo'lmaydi. Dunyo tillarining miqdorini taxmin yo'li bilangina aytish mumkin. Shuning uchun dunyodagi tillarning miqdori masalasida ikki xil taxmin yuradi. Bir guruh olimlar tomonidan dunyo tillarining miqdori 2,5-3 ming deb faraz qilinsa, boshqa guruh olimlar bu miqdorni 4,5–5 mingga etkazadilar. Qizig'i shundaki, dunyo tillarining birinchi guruh olimlar tomonidan aytilgan miqdori ham xato emas, ikkinchi guruh olimlar tomonidan aytilgani ham. Chunki tilning miqdori u xizmat qiladigan til jamoasining kam-ko'pligi yoxud katta-kichikligi bilan belgilanadi. Shunday tillar borki, u bir necha o'n millionlab shaxslarni birlashtiradi va shularning muloqot ehtiyoji uchun xizmat qiladi. Masalan, Xitoy tili bir yarim milliarddan ortiq shaxsning muloqot vositasidir. Shuningdek, ingliz, nemis, rus, arab va ispan tillarida so'zlashuvchilarning sanog'iga yetish qiyin. Ayni o'rinda, sanoqli shaxslar muloqoti uchun xizmat qiladigan tillar ham kam emas. Masalan, Latviyadagi **Livon** tili atigi **200** kishi uchun xizmat qiladi. Hatto dunyoda bir kishi uchungina tushunarli bo'lgan "**ona tili**" mavjud ekan. Bu Afrika qit'asida yashovchi 87 yoshli kampirga qarashli **bikya** tilidir.

Dunyo tillari ichida ayrimlari juda ko'p so'zga ega bo'lib, boy til hisoblanadi. Masalan, arab va ingliz tillari dunyoning eng boy tillari hisoblanadi. Tillarning "boy"ligi ularda amal qiluvchi so'zlar miqdori bilan belgilanadi. Masalan, arab tili leksikasi **uch yarim milliondan** ortiq so'zlardan tarkib topgan bo'lsa, ingliz tilining lug'at tarkibida **ikki yarim milliondan** ortiq so'zlar mavjud.

O'zbek tili turkiy tillar ichida "boy"i hisoblanadi. U yuz mingdan ortiq lug'aviy birlikka ega. Aksincha, shunday tillar ham mavjudki, ularning lug'at tarkibidagi so'zlar miqdori to'rt yuztaga etmaydi. Afrikaning Gvineya mamlakatiga qarashli mahalliy **taki** tilining lug'at tarkibida bor-yo'g'i **340** (uch yuz qirq) atrofida so'z bor ekan.

Tillar amalida ko'zga chalinuvchi bunday nomutanosib xususiyatlar tillarning ijtimoiy vazifasini belgilash uchun ham xizmat qilaadi. Tillarning

vazifasi deganda, bulardan tashqari, ularning etnik jihatdan qanday til jamoalariga xizmat qilishi ham tushuniladi. Til jamoalari ham har xil bo'ladi. Shu xususiyat asosida etnik jamoa tillari quyidagicha guruhlanadi:

- 1) sheva;
- 2) dialekt (lahja);
- 3) xalq, millat tili;
- 4) qarindosh tillar guruhi;
- 5) til oilasi.

Bu lisoniy guruhlar quyidagi etnik guruhlar uchun xizmat qiladi:

- 1) etnografik guruh;
- 2) elat (etnos) yoki xalq;
- 3) etnik uyushma.

1.Etnografik guruh

Etnografik guruh yo biror-bir lahjaga, yoki unga qarashli shevalar guruhiga tenglashuvchi madaniy-maishiy xususiyat kasb etishi bilan xarakterlanadi. Germaniyada yashovchi yuqori va quyi *saksonlar, bovarlar, badentslar, vestfalslar, shvablar, frankonlar* etnografik guruhga misol bo'luvchi etnik jamoalardir.

2.Elat yoki xalq

Bu etnik jamoani muayyan til, umumiy bir hudud, mushtarak madaniy-ma'naviy va real ma'muriy-iqtisodiy imkoniyat uyushtiradi. Turkiy deb ataluvchi lisoniy jamoa doirasiga kiruvchi yetmishga yaqin til jamoalarining har biri XVIII asrga qadar elat yoxud xalq maqomida bo'lgan. Shulardan biri o'zbeklardir. Millat darajasida shakllanga qadar o'zbek til jamoasi elat (xalq) hisoblangan. Shu etnik jamoa uchun o'zbek tili elat, xalq tili maqomida xizmat qilgan. Elat, xalq darajasida shakllangach, ularga xizmat qiluvchi til etnik jamoaning nomiga aylanadi. Masalan, o'zbek tili xalq tili darajada shakllangach, bu tilda so'zlovchi xalq "o'zbek" nomini olgan.

3.Etnik uyushma

Etnik jamoa millat darajasida shakllangach, u bir umumtilning lisoniy jihatida sezilmas farq qiluvchi etnik guruhlarini birlashtiradi. O'z davlati, uning belgili territoriyasi, siyosiy tuzumi va unga xizmat qiluvchi mafkurasiga ega bo'lgan etnik jamoa etnik uyushma hisoblanadi. O'zbekistonda o'zbek, Tojikistonda tojik, Qirg'izistonda qirg'iz va h.k. millatlari etnik uyushmalar maqomidagi til jamoalaridir. Etnik uyushma har tarflama me'yorlashgan yozma va og'zaki shakllardagi adabiy tilga ega bo'ladi. Bu til shu etnik uyushma (millat)ning davlat maqomidagi lisoni hisoblanadi. Darhaqiqat, O'zbekistonda o'zbek tili, Tojikistonda tojik tili, Qirg'izistonda qirg'iz tili shu mamlakatlarning davlat tilidir.

Bulardan tashqari, etnik uyushmaning tili **z o n a l t i l** maqomidagi ijtimoiy-kommunikativ vazifaga ham ega bo'ladi.

Zonal til – bu bir mamlakat hududida istiqomat qiluvchi har xil etnik jamoa vakillarining kommunikativ ehtiyoji uchun xizmat qiluvchi mushtarak lisonidir. Masalan, o`zbek tili O`zbekiston Respublikasida, davlat tili bo'lishligidan tashqari, shu mamlakat doirasida zonal til bo'lib ham hisoblanadi. U o`zbek bo'lmagan tojik, qirg'iz, tatar, turkman, qozoq va b. til vakillarining muloqotida vositachi til vazifasini bajaradi.

Tilning amaliy shakllari

Tilning amaliy shakllari tilning etnik guruhlanishi bilan qisman aloqador bo'lsa-da, u o'ziga xos sosiolingvistik tushuncha sifatida tilning etnik guruhlanishidan farq qiladi.

Tilning amaliy shakli – bu uning kishilik jamiyatidagi muayyan vazifasiga muvofiq ichki qurilishi va uning konkret ko'rinishlaridan biridir. Tilning bu xususiyatini sosiolingvistik tushuncha sifatida o'rganishga endigina kirishilgan. Shu bois "tilning amaliy shakllari" masalasi talqinida hozircha mushtarak fikr yo'q.

Tilning amaliy shakllariga tilning quyidagicha guruhlanishi kiradi:

- 1) adabiy til;
- 2) umumxalq so'zlashuv tili;
- 3) "pidjin" tili;
- 4) kreol tili;
- 5) koyne;
- 6) hududiy va mahalliy tillar.
- 7) tilning ijtimoiy tag guruhlari.

Adabiy til va uning me'yorlari

Adabiy til millat darajasida shakllangan til jamoasining umumiy tilidir. U umumxalq tilining rivojlangan yuqori bosqichi-milliy til zaminida paydo bo'ladi. Umumxalq tilining adabiy, hududiy, ijtimoiy, kasbiy-muloqot shakllari birgalikda milliy tilni tashkil qiladi. Demak, adabiy til milliy til tarkibiga kiruvchi vazifaviy lisoniy shakldir.

Adabiy til muayyan fonetik va lug'aviy tizimi hamda grammatik qurilishi me'yorlashgan tildir.

Adabiy til og'zaki va yozma shakllarga ega bo'ladi. Adabiy tilning og'zaki shakli uning dastlabki shakli bo'lib, uning yozma shaklidan oldin vujudga keladi. Adabiy tilning bu shakli yagona umumxalq tili yoki mahalliy lahja asosida shakllanadi.

Adabiy tilning og'zaki shakli xalqning qo'shiq va laparlari, maqol va matallari, ertak, rivoyat va hikoyalarida o'z aksini topadi.

Yozma adabiy til, yozuv paydo bo'lgach, vujudga keladi. Adabiy tilning bu shakli til jamoasining barcha tabaqalari uchun mushtarak lisoniy vosita hisoblanadi. Davrga qarab, yozuv va uning turlari o'zgarib, birining o'rnini

ikkinchisi egallab borishi mumkin. Masalan, lotin grafikasiga asoslangan yangi o'zbek yozuviga qadar (*hozirgi O'zbekistonda amal qiladigan yozuv*) o'zbek xalqi runik (Urxun-Enisey), uyg'ur, arab, lotin va rus yozuvlari (*krill asosidagi*) dan foydalangan. Shoir, yozuvchi va olimlarning ijodi, davrga qarab, ana shu yozuvlardan birida bitilgan.

Adabiy til yozma va og'zaki shakllar kabi ikki turga ajralsa-da, bu ikki shakl biri boshqasini inkor etmaydi, balki biri boshqasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiy til "me'yor" tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Me'yor bu lisoniy birliklarning tilning muayyan qonun-qoidalari tomonidan tartibga solinishidir.

Me'yor ham, til va uning adabiy shakli kabi, ijtimoiy hodisa. Shuningdek, u ijtimoiy jarayon mahsuli, ya'ni ijtimoiy jarayonda ijtimoiy ehtiyoj tufayli shakllanadi. Me'yorning shakllanishi lisoniy birliklarni saralab, ulardan munosibini, ma'qulini tanlab olishga asoslanadi.

Adabiy til me'yori ma'qullab, tanlangan va saralangan lisoniy birliklar majmuasidir. Bu majmua yagona umumxalq, umummillat adabiy tilining rivojlanishi uchun xizmat qilishi kerak. Tanlangan, ma'qullangan lisoniy birliklar til jamoasining barchasiga bir xil xizmat qilishi zarur.

Shunisi ham borki, me'yor faqat adabiy til uchungina zarur bo'lgan tushuncha emas. Bu tushuncha lahja, mahalliy shevalar, tilning barcha vazifaviy tarmoqlari uchun ham tegishli bo'ladi. Biroq bunday me'yorlarning amali cheklangan bo'ladi, umumxalq tilining ma'lum bir "uchastkasi" da shu "uchastka" til jamoasi uchun xizmat qiladi.

Me'yoriylik haqida gapirganda, so'z ishlatish me'yorlariga alohida e'tibor berish talab qilinadi. Bunda leksikaning ham, tilning hamma hodisalarida bo'lgani kabi, taraqqiyotning obyektiv qonunlari asosida o'sib, o'zgarib borishi, hozirgi zamon o'zbek tili leksikasining taraqqiyoti, uning baynalmilal so'zlar bilan boyib borayotganligi, bunday so'zlarning ahamiyati, xalqlar va tillarni yaqinlashtirish vositasi ekanligi; leksikaning arxaiklashuviga chek qo'yish, so'z ishlatishning ma'lum me'yorlarini shakllantirish va rasmiylashtirish yo'llari haqida ma'lumotga ega bo'lish ko'zda tutiladi.

Adabiy til me'yori masalasiga kelsak, u nutq madaniyati bilan uzviy bog'lilikdagi va unga (nutq madaniyatiga) xizmat qiluvchi tushunchadir. Zero, nutq madaniyati va uning amalini adabiy tilsiz, uning me'yorlarisiz tasavvur etish mumkin emas. Nutq madaniyati umumxalq madaniyatining tarkibiy qismidir. Adabiy tilning qonun-qoidalarini yaxshi o'zlashtirgan, uni amalda, ya'ni o'z nutqida namunali ko'rsata bilgan shaxslarni madaniyatli deyiladi. Bunday shaxslar umummillat tilini chin ma'noda "hurmat qilish" dan tashqari, uning rivojiga munosib hissa ham qo'shadilar. Adabiy til me'yorlari shakllangach, darsliklar yoziladi, har xil mazmundagi lug'atlar tuziladi; badiiy, sahnaviy asarlar yaratiladi. Shu maqsadlarning amalga oshishida adabiy til me'yorlari xizmat qiladi.

Me'yor tushunchasi adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari uchun baravar tegishli bo'lgan hodisadir. Biroq adabiy tilning yozma shakliga xos me'yor uning og'zaki shakliga xos me'yordan farq qiladi. Yozma adabiy til me'yorlarining amali orfografiyaning moya va qoidalari asosida boshqariladi. Og'zaki adabiy til me'yorlari asosan talaffuz (orfoepiya) bilan aloqador bo'ladi. Ayrim murakkab so'zlarni, chetdan olingan so'zlarni umum tomonidan bir xil va to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'ularini o'z o'rniga tushirib talaffuz qilish singari bir qator amallar og'zaki adabiy til me'yorlariga kiradi. Masalan, rus tili va u orqali o'zbek tiliga *direktor, kollektor, lektor, rektor* va h.k bir qator so'zlar o'zlashgan. Ularni yozilgan shakli bo'yicha, har bir harfni u ifodalagan tovush bilan aytilsa, adabiy til talaffuz me'yoriga rioya qilinmagan bo'ladi. Shuning uchun bu so'zlarni *direktir, kollektir, lektir, rektir* shakllarida aytilsa, adabiy til talaffuz me'yoriga rioya qilingan bo'ladi. Shuningdek, adabiy talaffuzi asosida ularni shu shakllarda yozish adabiy tilning imlo me'yoriga zid bo'lardi.

Me'yor vositasida to'g'ri nutq tuziladi va boshqariladi. Biroq to'g'ri tuzilgan nutq so'zlanayotgan vaziyatga mos bo'lmasligi mumkin. Chunki to'g'ri so'zlash, ya'ni to'g'ri nutq bilan maqsadli so'zlash farq qiladi. To'g'ri, ya'ni me'yoriy tuzilgan nutq maqsadga muvofiq bo'lishi uchun so'zlar to'g'ri tanlanishi, so'z birikmalari va gaplar maqsadni aniq ro'yobga chiqara oladigan darajada tuzilishi kerak. Bu, ayniqsa, yozma nutq va uning maqsadga muvofiq tuzilishi uchun zarur va shart. Shuning uchun ham mashhur yozuvchilar o'z asarlari matnini bir necha bor o'z tahrirlaridan o'tkazganlar. Masalan, Abdulla Qahhor har bir asarini, u hikoyami, povestmi, qat'iy nazar, bir necha martalab qayta ishlagan. Yozuvchi Said Ahmadning guvohlik berishicha, A.Qahhor ba'zi hikoyalari matnini 27 martagacha qayta tahrir qilgan. Bu fikr Kibriyo Qahhorovanning A.Qahhor xotirasiga bag'ishlangan "chorak asr hamnafas" asarida ham aytiladi.

Me'yor va adabiy til tushunchalari o'zaro shu darajada bog'liqlik, ularning birini boshqasisiz tasavvur etish nomantiqiydir. Ayniqsa, lisoniy birliklar va ularning tizimi me'yorlashmas ekan, adabiy til haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun adabiy tilda uning barcha sathlari me'yorlashgan bo'ladi. Me'yorning til sathlari bo'yicha turlariga quyidagilar kiradi:

- 1) fonetik me'yor;
- 2) lug'aviy-ma'noviy me'yor;
- 3) talaffuz me'yori (orfoepik me'yor);
- 4) ohang (aktsentologik) me'yor;
- 5) imloviy(orfografik) me'yor;
- 6) so'z yasalishi me'yori;
- 8) sintaktik me'yor;
- 9) uslubiy(stilistik) me'yor;
- 10) punktuasion me'yor va b.

Tilning oddiy so'zlashuv shakli

Oddiy so'zlashuv tili umumxalq tilining o'ziga xos komponentlaridan biridir. U, bir tomondan, og'zaki adabiy nutqqa, ikkinchi tomondan, hududiy lahjalarga zid tushunchadir. E.D. Polivanov **og'zaki nutqning** til jamoasi tarkibiga ko'ra farqlanuvchi **lahja, oddiy so'zlashuv** va **og'zaki adabiy nutq** singari uch tarkibiy qismi mavjud deb ko'rsatgan edi.

Tilning boshqa amaliy shakllari kabi, oddiy so'zlashuv ham tarixiy kategoriyadir. U til va til jamoasi taraqqiyotining turli etaplarida ham ichki lisoniy qurilishi, ham amaliy-vazifaviy xususiyatlariga ko'ra har xil bo'ladi. So'zlovchi shaxs nutqida ko'zga tashlanuvchi ikki-uch oddiy so'zlashuvga xos unsurning o'ziyoq uning qaysi ijtimoiy-lisoniy guruhga mansubligini belgilaydi. Oddiy so'zlashuv umumxalq tilining mushtarak lisoniy sistemaga ega bo'lmagan tarkibiy ko'rinishidir. "Oddiy so'zlashuv" hozirgi sinxron Sosiolingvistika nuqtai nazardan ko'p ma'noli atamadir. U quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

- 1) umumxalq nutqining noadabiy so'zlashuv shakli;
- 2) umumxalq adabiy tilining "**kamsitilgan**", qo'pol unsurli tarkibi (yoki adabiy so'zlashuvning oddiy shakli).

Quyidagi xususiyatlarlar oddiy so'zlashuvning asosiy belgilari hisoblanadi:

- 1) nutqning me'yorlashmaganligi;
- 2) stilistik jihatdan differentsiyalanmaganligi;
- 3) fakultativ tarzda ishlatilishi;
- 4) maxsus yozuvga ega emasligi;
- 5) vazifaviy "monoton" birliklardan iboratligi, absolyut sinonimiyaning keng tarqalishi.

Oddiy so'zlashuv, lisoniy nuqs va g'ayrinutqiy xususiyatlarga boy bo'lishidan qat'iy nazar, u til tarkibining o'ziga xos amaliy shakli hisoblanadi. U milliy tilning o'ziga xos amaliy komponentidir. Ana shu jihatdan oddiy so'zlashuv sosiolingvistikaning ham muhim obyektlaridan biri hisoblanadi.

Oddiy so'zlashuv me'yorlashgan umumxalq adabiy tilidan til qurilishining fonetik, morfem, morfologik va sintaktik kabi barcha sathlariga ko'ra farq qiladi.

„Pidjin“ tili haqida

Har xil til jamoalari hududida shu jamoalar so'zlashuv nutqiga xos "qorishma" lison "**pidjin til**" deb ataladi. Bu "til" Janubiy Xitoyning ko'p tilli portlarida ustama, ya'ni qo'shimcha muloqot shakli tarzida paydo bo'lgan. Bu "til"ning lug'aviy tizimi Xitoy tili grammatikasiga bo'ysundirilgan rus tili leksikasi zaminida shakllangan. "Pidjin"ning lisoniy qurilishi to'laqonli biror-bir mustaqil tilning lisoniy qurilishiga o'xshamaydi.

"Pidjin" dastlab savdo-sotiq ishiga xizmat qilish maqsadida Xitoy va Rossiya chegarasidagi **Kyaxta** shahrida vujudga kelgan va „**rus tilining Xitoy lahjasi**“ xarakterida bo'lgan. Bu tilda rus so'zlari, Xitoy tili grammatik qonun-qoidasiga binoan, turlanmagan va tuslanmagan shaklda ishlatiladi. Bu "til" ma'juziy ibora bilan aytganda, "**rus tilida xitoycha so'zlashmoq**" xarakterini kasb etadi. «**Kyaxtacha pidjin**"dan Xitoyning Kyaxtan shahriga qo'shni **Maymachen** shahri savdogarlari ham foydalangan. Unda "xorosho", "moloko" tipidagi ruscha so'zlar "**xo-ro-sho**", "**mo-lo-ko**" singari bo'g'inlab; „**proshu**“, „**dva**“, "**jarko**» singari so'zlar esa, "**poroshu**", "**duva**", "**jareko**" shaklida bir bo'g'inga oshirilib talaffuz qilingan.

«**Pidjin til**"dunyoning Afrika, Amerika, Norvegiya singari boshqa mamlakatlarida ham paydo bo'lgan. Ingliz, frantsuz, ispan, portugal va Evropaning boshqa tillari asosida ham "pidjin til" shakllangan. O'sha mamlakatlarning mahalliy tillari "**pidjin til**" uchun substrat lison vazifasini bajargan.

Pidjin til **pindjinlashuv** sharoitida vujudga keladi. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi:

- 1) iqtisodiy jihatdan imtiyozli, lekin kam sonli ijtimoiy guruhlardan tarkib topgan ta'siri kuchli(dominant) etnik qatlamning bo'lishi;
- 2) ta'siri kuchli (dominant) etnik qatlamga bo'ysunuvchi ikki yoki undan ortiq etnik qatlamning bo'lishi.

Pindjinlashuv jarayonida ta'siri kuchli etnik guruhning tili imtiyozga ega bo'ladi va u pindjin mavjud bo'lgan hududda asosiy til hisoblanadi. Shunisi ham borki, pindjinlashuv tufayli imtiyozli tilning lisoniy qurilishi soddalashib, o'zgaradi. Pindjin tilining vujudga kelishida **sinergetika** hodisasining ham ta'siri bo'ladi. Sinergetika–bu tilning sistema "qoidasi"ga ters amal qiluvchi hodisalaridir.

Pindjin til, aniqroq aytganda, turli til jamoalari uchun **ustama tarzda** xizmat qiluvchi «**quramalashgan**"aloqa vositasidir.

Kreol tili haqida

"Kreol tili" deb ataluvchi maxsus lison sosiolingvistikaning muhim ahamiyatga molik tushunchalaridan biridir. Bu til dunyoning o'n millionga yaqin aholisi uchun xizmat qiluvchi kommunikativ vositadir.

Kreol tili "pidjin"ga ma'lum darajada o'xshaydi. Biroq "kreol" va "pidjin" tillari o'ziga xos muhim tomonlari bilan o'zaro farq qiladi.

"Kreol tili"ning "pidjin"dan sosiolingvistik jihatdan farqi avvalo shundaki, "pidjin"ga asos bo'luvchi substrat lison ayrim savdogarlar va migrasion tabaqalriga mansub bo'lib, biror-bir etnik jamoaning ona tili hisoblanmaydi. Kreol tili esa unday emas. U shakllangan lug'at tarkibi(leksikasi) va mukammalashgan grammatik qurilishga ega bo'lgan to'laqonli tildir. **Kreol** tili, tabiiy tillar kabi, o'z ichki omillari asosida rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan mustaqil tildir. "Kreol"ning kommunikativ amali "pidjin"dan

boshlangan bo'lsa-da, lisoniy qurilishi jihatidan mustaqillikni qo'lga kiritgan me'yoriy tildir. "Kreol"dan farqli ravishda, "pidjin" hech qachon biror-bir etnik guruhning ona tili bo'la olmaydi. "Kreol" esa, muayyan bir etnik jamoaning ona tili sifatida shakllana oladi. U hatto xalqaro til maqomini ham qo'lga kiritish olishi mumkin. Hozirgi vaqtda dunyoning ko'p joylarida "kreol"ga o'tish harakati avj olgan. Xususan, Karib havzasi atrofi, Afrika, Hind kontinentlari, Malaziya arxipelagi va sharqiy hind orollari atrofi, Makka, Gonkkok, Shanxay shaharlari etnik jamoalari "kreol"ni o'zlarining ona tili sifatida rasmiylashtirmoqdalar. Shuningdek, bunday harakat natijasida Filippin orollarida **kreol-ispán** dialekti ham vujudga kelgan.

Kreol tiliga ba'zan paralingvistik vositalar ham hamrohlik qilgan. Masalan, yangi Gvineyada faoliyatda bo'lgan **tok-pisin** kreol tilida ayrim so'zlarning ma'nosi yuz ishoralari bilan bildirilgan. Bu kreolda ham so'zlarning grammatik jihatdan to'g'ri turlanishiga ahamiyat berilmagan. Masalan, "**moy dom**" shaklida ifodalanishi lozim bo'lgan grammatik shakl tok-pisinda tarjimai "**dom menya**"ga to'g'ri keluvchi **hans bilong me** shaklidagi ibora bilan atalgan.

Hozirgi vaqtda kreol tilini, genetik manbaga tayangan holda, struktur (morfologik) jihatdan klassifikatsiya qilish rejalashtirilmoqda; shuningdek, umumkreol tili grammatikasini tuzishga ham kirishilgan. Bu tadbirlar hozirgi umumiy sosiolingvistikaning kun tartibidagi dolzarb muammosiga aylantirilgan.

Koyne haqida

Koyne grekcha so'z bo'lib, "umumiy sheva" (obtshee narechie) degan ma'noni bildiradi. Koyne fanda tilning vazifaviy tiplaridan biri ma'nosida ishlatiladi.

Koyne dastlab eramizdan oldingi III-I asrlarda Qadimgi Gretsiyada vujudga kelgan. U o'sha davr tilining amaliy shakllaridan biri bo'lgan. Dastlabki koyne grek tilining antik lahjasi bazasida paydo bo'lgan va Gretsiyadagi boshqa lahjalardan ustunlik qilib, ularning iste'molini cheklagan, ularni muloqot jarayonidan siqib chiqargan. Koyne o'rta grek va yangi grek tillarining rivojlanishi asosida amalga oshgan umumiy tildir.

"Koyne" atamasi har xil tilli etnik jamoalardan tarkib topgan mamlakatlarda amal qiluvchi umumiy kommunikativ vosita ma'nosida ham ishlatiladi. Bu ma'noda u bir yoki bir necha lahjalar bazasida vujudga kelgan va ham shu lahja vakillarining aloqa vositasi vazifasini bajaradi.

Hozirgi sosiolingvistik nuqtai nazardan "koyne" keng ma'noda muayyan bir regionda amal qiluvchi tilning og'zaki shaklidagi muloqot vositasini bildiradi. Koynening shahar koynesi, qishloq koynesi, mamlakat koynesi (yoki areal koyne) deb ataluvchi turlari ham mavjud. Masalan, Mali Respublikasida **bamana(bambara)** lahjasi Bamako shahrida amal qiluvchi koyne hisoblanadi.

Koyne tilning shahar adabiy tillariga asos bo'luvchi shakli hamdir. Ayrim holatlarda koyne **pidjina** o'xshash vazifa ham bajaradi. Biroq koynening pidjindan farqi shundaki, u pidjina o'xshash har xil til bazasida emas, balki bir tilning turli lahja va shevalari bazasida shakllanadi. Ba'zi koynelar yaqin qarindosh tillar bazasida ham vujudga keladi.

Koyne rivojlanib **kreol** darajasiga yetishi mumkin.

Koyne faqat og'zaki shaklga ega adabiy tildir. Biroq o'tmishda uning yozma adabiy shakli ham bo'lgan. Masalan, **lotin** o'rta asrlarda Evropada ilmiy-yozma adabiy til vazifasida ham xizmat qilgan.

Koyne asosida adabiy til va uning yozma shakli vujudga kelishi mumkin. Bu xususiyatni hozirgi ayrim turkiy tillarning shakllanishida ham ko'rsa bo'ladi. Masalan, hozirgi tatar milliy adabiy tili qadimgi turk, eski turk va eski tatar yozma adabiy tillari zaminida vujudga kelgan.

Ma'lum bo'lishicha, eski turkiy til barcha eski turkiy adabiy tillar uchun koyne maqomidagi umumiy til vazifasini o'tagan. Bunda qadimgi turkiy yozma adabiy tilning yangi tarixiy sharoitga moslashgan an'anaviy normalari asos hisoblangan. Bu til jamoasiga Islom madaniyati ta'sir ko'rsatib, arab-fors tillaridan diniy tushunchalarni ifodalovchi ko'plab lug'aviy birliklar, hatto ayrim tovush va sintaktik konstruktsiyalar o'zlashib, turkiy tillar uchun umumiy baynalmilal lug'aviy fond shakllangan. Bu lug'aviy qatlam, olimlarning hisobiga ko'ra, o'sha davr turkiy tillar lug'at tarkibining qariyb 80 foizini tashkil qilgan. Shu bois XV–XIX asrlarda turli turkiy xalqlarga mansub shaxslar nutqiy muloqotda bir-birlarini oson tushungan. Eski turk, eski ozarbayjon, eski o'zbek, eski tatar va boshqa turkiy yozma adabiy tillar ana shu koyne asosida shakllangan.

Hududiy va mahalliy tillar

Dunyoda, olimlarning taxminiy hisobiga qaraganda, 3000 til bor. Shularning, taxminan, 300 ga yaqini o'z yozuviga ega. Yozuviga ega tillar – bu yozma va og'zaki shakllardagi adabiy tilga ega bo'lgan tillardir. Bunday tillar turli darajadagi rasmiy-axborot shahobchalari, ta'lim-tarbiya maskanlari uchun xizmat qiladi, unda turli janrlardagi badiiy, ommaviy, ilmiy-texnikaviy asarlar yaratiladi. Ularning ayrimlari xalqaro, millalararo, zonal tillar vazifasida qo'llanadi, ayrimlari yirik etnik jamoalarning milliy va davlat tili sifatida xizmat qiladi. O'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq va b. tillar shu tillar nomi bilan ataluvchi etnik jamoalarning milliy-adabiy tili maqomida ish ko'rsa, rus tili millalararo til sifatida faoliyat yuritadi. Xitoy, arab, ispan, ingliz, frantsuz va rus tillari zimmasida esa, ikki xil xarakterdagi ijtimoiy-kommunikativ "yuk" mavjud:

a) ular ham muayyan bir mamlakatda shu mamlakat asosiy, yerli aholisining milliy davlat tili;

b) dunyoning xalqaro tili. Hududiy tillar o'z yozuviga, yagona adabiy tiliga ega bo'lmagan kichik etnik jamoalarning mahalliy tilidir. Bunday tillar lahja

yoki dialekt deb yuritiladi. Ular ta'lim-tarbiya tizimlarida, matbuot shahobchalarida xizmat qilmaydi, muayyan bir hududda shu hudud aholisining kommunikativ vositasi sifatida xizmat qiladi, xolos. Hududiy til faqat og'zaki shaklda bo'ladi.

Hududiy tillar, o'z navbatida, nisbatan kichik etnik guruhlar uchun xizmat qiluvchi mahalliy "til"larga bo'linadi. Hududiy tillar doirasida amal qiluvchi bunday tillarni shevalar deb ataladi.

Hududiy til vazifasidagi lahja yoki dialektlar ham, mahalliy til vazifasidagi shevalar ham fonetik, lug'aviy va grammatik qurilishi jihatidan farq qiladi. Hududiy va mahalliy tillar, ya'ni lahja va shevalar til fanining **D i l e k t o l o g i y a** deb ataluvchi tarmog'ida o'rganiladi.

Tilning ijtimoiy tag guruhlari

"Lahja", ya'ni "dialekt" atamasi keng va tor ma'nolardagi umumlingvistik tushunchalarga nisbatan ishlatiladi. "Til" atamasi ham shunday.

"Til" atamasi tor ma'noda muayyan bir xalq, millatning kommunikativ ehtiyoji uchun xizmat qiluvchi aloqa vositasini bildirsam, keng ma'noda til va uning doirasidagi barcha ijtimoiy-vazifaviy ko'rinishlariga nisbatan ishlatiladi, ya'ni umumxalq tili ham "til", uning biror-bir lahjasi ham "til", bir umumiy lahja doirasida amal qiluvchi ichki shevalar ham "til".

"Lahja" atamasining ayni shu mavzuga oid mohiyati ham uning keng ma'nodagi amallaridan biridir. Bu o'rinda lahja "professionalizmlar", ya'ni kasb-hunarga, fan va texnikaga va ularning ayrim-ayrim sohalariga oid lison va ularning vazifasiga nisbatan ishlatilayapti.

Demak, ijtimoiy lahjalar ham "til"ning o'ziga xos lisoniy qurilishga ega bo'lgan vazifaviy ko'rinishlaridan biridir. Ijtimoiy lahjalar umumxalq tili doirasida ayrim ijtimoiy tabaqalarga xizmat qiluvchi "ichki" lisonidir. Ijtimoiy lahjalarning "ichki til" deyilishi shu ijtimoiy tabaqa qarashli bo'lgan umumxalq tiliga nisbatandir. Boshqacha ta'bir bilan aytganda, "ijtimoiy lahja" -- bu "**til ichidagi til**"dir.

Ijtimoiy lahjalar ham biri boshqasidan lisoniy qurilishiga ko'ra farq qiluvchi bir qator "ichki til"larni o'z ichiga oladi. Ular, asosan, quyidagi lisoniy guruhlarga to'g'ri keladi:

- 1) biror-bir kasb-hunarga oid lahjalar (*chorvachilik, bog'dorchilik, qishloq xo'jaligi, temirchilik, tikuvchilik* va b. sohalar "lahjasi" yoki "tili");
- 2) jamiyatning ayrim ijtimoiy guruhlarga qarashli "lahja" (*yoshlar, talabalar, harbiy xizmatchilar, sportchilar* va b. ijtimoiy tabaqalar uchun xizmat qiluvchi maxsus "lahja" yoki "til");
- 3) shartli "til"lar (*savdo xodimlari, san'atkorlar, turistlar* va b. tabaqalar uchun xizmat qiluvchi maxsus "til");
- 4) jargon va argolar.

Tilga beriladigan "davlat" maqomi haqida

Yuqorida ham aytilganidek, til jamoasining taraqqiyoti qabila, urug', xalq va millat singari etnik etaplardan iborat bo'ladi. Har bir etnik bosqichning shu etnik bosqich uchun xizmat qiluvchi tili bo'ladi. Etnik jamoa bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan mutanosib ravishda uning tili ham rivojlanib boradi: **qabila tili-- urug' tili---elot tili---xalq tili---milliy til (millat tili)** kabi.

Til jamoasining etnik taraqqiyoti uning o'z milliy hududi va davlatiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Bu etapda etnik jamoa ijtimoiy rivojlanishning yuqori bosqichida bo'ladi. Bu bosqichda til jamoasi o'z milliy madaniyati, san'ati va ruhiy alohidaligi va mustaqilligiga ega bo'ladi. Hududdosh va hududdosh bo'lmagan boshqa mamlakatlar va ularning til jamoalari bilan iqtisodiy, madaniy, ma'naviy aloqalari ham rivojlanishning yuqori bosqichiga ko'tariladi. Har taraflama rivojlanishning bu bosqichida lisoniy jamoa asosiy yerli aholi hisoblangan mamlakatda uning tili ham qonun yo'li bilan **"davlat tili"** maqomiga ega bo'ladi.

"Davlat tili" muayyan bir mamlakatning rasmiy lisoni hisoblanib, shu mamlakat qarashli bo'lgan davlatning mafkurasi uchun xizmat qiladi. Davlat va hukumatning barcha rasmiy hujjatlari shu tilda olib boriladi. Rasmiy yig'inlar, anjumanlar, matbuot, ilm-fan va ta'lim jarayonlarida ustuvorlik bilan xizmat qiladi.

Tarixdan shu narsa ma'lumki, jahonning ko'p millatli ayrim mamlakatlarida ikki yoki undan ortiq etnik jamoa tili davlat tili maqomida vazifa bajargan. Masalan, har xil etnik jamoalar tiliga berilgan bunday imtiyozni Shveytsariyada ko'rish mumkin. Bu mamlakatda o'tgan asrning 20-yillaridayoq uch til: nemis, frantsuz va italyan tillari davlat tili maqomida bir xil ijtimoiy huquqqa ega bo'lgan.

Sobiq Ittifoqida, garchand rasman amalga oshirilmagan bo'lsa-da, ittifoqdosh respublikalarda ularning asosiy yerli aholisi tiliga davlat maqomi berilgan edi. Bu tillarga berilgan yuqori siyosiy imtiyoz bo'lib, davlatni boshqarish, sud, matbuot, maorif va iqtisodiy munosabatlarga oid barcha rasmiy hujjatlar, ish qog'ozlari yuritishda ular teng huquqli deb hisoblanar edi. Shuningdek, milliy til ular qarashli respublikalar hududida aloqa-aralashuvning etakchi vositasi vazifasini ham bajargan.

15 ta ittifoqdosh, 20 ta avtonom respublika, 8 ta avtonom viloyat, 10 ta milliy okrugni o'z ichiga olgan sobiq sho`ro davlatlarida 52 til ta'lim-tarbiya vositasi sifatida xizmat qilgan; 65 ta tildan radio eshittirish vositasi sifatida foydalanilgan; 75 ta tilda badiiy ijod qilingan; 122 ta tilda kitob, gazeta va jurnallar nashr etilgan. Bularning barchasi davlat maqomidagi tilning ijtimoiy vazifalari sanaladi.

Chetdan so'z olish – sotsiolingvistik hodisa sifatida

Til tirik organizmga o'xshaydi. Tirik organizm ko'zga ko'rinarli, ko'zga ko'rinmas hujayra va urug'lardan sekin-astalik bilan rivojlangani singari, til ham asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda rivojlanadi. Har qanday rivojlanish muayyan bir asos va omillarga tayangani kabi, tilning rivojlanishi ham o'ziga xos asos va omillarga tayanadi.

Ma'lumki, tilni, uning ijtimoiy va sistem mavqeini undagi so'zlar miqdori belgilaydi. Chunki tilning amali so'zlar vositasida "ishga tushadi", ya'ni "kuchga kiradi". Tilda so'zlar miqdori qancha ko'p bo'lsa, u shuncha rivojlangan bo'ladi.

Tildagi so'zlar ikki omil asosida ko'payadi va bu ko'payish til taraqqiyotini, rivojini belgilaydi. Paydo bo'lgan yangi so'zlar hisobiga tilning rivojlanishi ikki asosiy omilga tayanadi. Bu omillarning biri *ichki omil*, ikkinchisi *tashqi omil* deyiladi.

Til taraqqiyotining ichki omili, nomiga muvofiq, tilning ichida, uning o'z tizimida mavjud bo'ladi. So'zlarga qo'shimchalarni va o'zak-negizlarga o'zak-negizlarni qo'shish bilan yangi so'zlarning hosil qilinishi, so'z ma'nolarining o'zgarishi tufayli yangi lug'aviy birliklarning hosil bo'lishi til lug'at tarkibini (leksikasini) kengaytiradi, ya'ni boyitadi. Til leksikasining – lug'at tarkibining boyishi tilning rivojlanishi demakdir. Ana shunday lisoniy jarayonlar yo'li bilan tilning boyishi til rivojlanishining **ichki omili** deyiladi.

Til taraqqiyotining tashqi omili, atalishiga muvofiq, chetdan, ya'ni boshqa tillardan o'tib o'zlashgan so'zlar va ularning o'zga tildagi amali bilan aloqador bo'ladi.

Boshqa tillardan, ya'ni chetdan kirgan so'z va iboralarni lug'aviy (agar u so'z bo'lsa) va frazem (agar u ibora bo'lsa) **o'zlashma** lar deyiladi.

Muayyan bir hududda sof yerli aholi bo'lmaganidek, dunyoda sof til ham yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Tilning sofligi yoki "nosofligi"ni shu til bo'yicha yaratilgan lug'atlardan bilish mumkin. Lug'atga kirgan so'zlarning barchasi shu tilning faqat o'zigagina tegishli bo'lsa, u tilni "sof" deyish mumkin. Biroq dunyoda bunday til yo'q va uning bo'lishi ham mumkin emas. Bu xususiyatni, uzoqqa bormasdan, o'zbek tili misolida ko'rish ham mumkin. Masalan, "O'zbek entsiklopediyasi"da, sof o'zbekcha so'zlardan tashqari, 200 ga yaqin nemis, 130 dan ortiq ingliz so'zlari qayd etilgan ekan. 1981-yili Moskvada ikki jildda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa nemis tiliga mansub 170 dan, ingliz tiliga mansub 150 dan ortiq chet so'z berilgan. Bu o'zbek tili leksikasidagi german tillariga mansub lug'aviy birliklar. Arab va fors-tojik tillaridan o'zlashib, mazkur qomuslarda qayd etilgan "chet" so'zlarining miqdoriga kelsak, ularning "soni-bor-u, sanog'i yo'q"..

Professor Miraziz Mirtojdiyevning e'tirof etishicha, o'zbek tilida chet so'zlar miqdori 40 foizdan ortiqroq. Shu miqdorning 26 foizdan sal ko'prog'i rus tiliga tegishli.

Tilda xorijiy til unsurlarining bo'lishi faqat o'zbek tilidagina emas, balki jahonning barcha tillarida ko'zga tashlanuvchi umumiy, mushtarak xususiyatdir. Masalan, rus va yevropa xalqlari tillarining deyarlisida ular leksikasidagi chetdan o'zlashgan so'zlar miqdori 60 foizdan kam emas.

Olimlarning hisobiga ko'ra, hozirgi vaqtda o'lik til deb hisoblanuvchi lotin tilida 7000 dan ortiq o'zlashgan so'z mavjud ekan. Shuningdek, nemis tili leksikada bir necha o'n minglab so'z chetdan o'zlashgan bo'lsa, ingliz tili leksikasining yarmidan ko'pi o'zga tillarga mansub ekan. Rus tili leksikasida esa, 10 foizdan ortig'roq so'z boshqa tillarga qarashli ekan. Buni vaqtli matbuot materiallari tilini kuzatish yo'li bilan ham bilsa bo'ladi.

Professor F. Abdullaevning "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1940-yil yanvar oyidagi nashri bo'yicha kuzatishiga qaraganda, gazeta tilining 50 foizdan ko'prog'i o'zlashgan so'zlarga to'g'ri kelgan. Shu jumladan, 22 foizi arab tiliga, 10 foizi tojik tiliga, 14 foizi o'zbek tili leksikasining rus-baynalmilal qatlamiga mansub bo'lgan. Shu olimning yana guvohlik berishicha, 1920-yillarda o'zbek tili leksikasining 30-32 foizini arab so'zlari tashkil etgan bo'lsa, atigi 2 foizdan ko'prog'i rus-baynalmilal so'zlariga to'g'ri kelgan. "Sovet O'zbekistoni" gazetasining 1972-yil 15-mart sonida esa yana boshqacha dalilga duch kelamiz. Unda 50,2 foiz o'zbek so'zlari, 10,1 foiz tojik-fors so'zlari, 23,9 foiz arab so'zlari, 15,8 foiz rus-baynalmilal so'zlari ishtirok etgan.

Chetdan so'z o'zlashishiga dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida juda ko'plab axborot byurolarining tashkil qilinishi va bu byurolarning har xil tillar bilan ish olib borishi sabab bo'ladi. Masalan, sobiq sho'rolar davlatida TASS (*Telegrafnoe agentstvo Sovetskogo Soyuza -- Sovet Ittifoqi telegraf agentligi*) bir sutkada 1,5 million so'zdan ortiq hajmdagi xabarlarini har xil tillardan qabul qilgan va uni qardosh va qardosh bo'lmagan boshqa xalqlarga tarqatgan. Moskvadagi ikkita katta bosmaxona boshqa tillardan rus tiliga qilingan tarjimalarni chop qilish bilan mashg'ul bo'lgan.

Demak, ma'lum bo'ladiki, tildan tilga so'zlarning o'tishi beasos va besabab bo'lmay, jamiyatning ma'lum bir ijtimoiy ehtiyoji tufayli yuzaga keladi va shu ehtiyojni qoplovchi lisoniy imkoniyat sifatida amalga oshadi.

Chetdan so'z olish jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida har xil shakl va har xil xarakterga ega bo'ladi. Masalan, rus tili leksikasida qadimdan, ayniqsa, XVI asrdan *alfavit, leksikon, metall, texnika, teatr* singari grek; *avtor, ekzamen, struktura, ekskursiya, laboratoriya* singari lotin lug'aviy o'zlashmalari bo'lgan.

XVII asrning oxiri, XVIII asrning boshlarida, ya'ni Pyotr birinchi hukmronligi davrida rus tiliga **golland** tilidan dengizchilikka (*gavan, rul, karta, trap*); **nemis** tilidan texnika va savdo-sotiqqa (*verstak, slesar, galstuk, fartuk, landshaft, molbert*) va **frantsuz** tilidan kiyim-kechak va kundalik turmushga (*jilet, palto, etaj, kabinet, serviz*) oid so'zlar oqib kira boshlagan.

Rus tiliga boshqa tillardan so'zlarning kirib kelishi keyingi va hozirgi davrlarda ham to'xtagan emas.

Rus tilidagi chet so'zlar bir necha lug'aviy-semantik qatlamlarni tashkil qiladi. Shularning biri sifatida avtomobil bilan bog'liq mashinasozlikka oid so'zlarni misol uchun olib, ularni zamonaviyligiga ko'ra, uch guruhga ajratish mumkin:

- a) "eski" o'zlashmalar;
- b) "yangi" o'zlashmalar;
- v) keng ma'noda ishlatiluvchi o'zlashmalar.

Rus tili lugat tarkibidagi *shosse, shofyor, taksi, taksamotor, park, motosikl* singari hozir ham aktiv iste'molda bo'lgan so'zlar bilan bir lug'aviy-semantik guruhga mansub, lekin hozir arxaiklashgan *omnimus, lokomobil, studebekker, Pakkard, Ford* singari so'zlar ham mavjudki, ular rus tili leksikasining arxaiklashgan "eski" o'zlashmalari qatlamiga mansub.

O'tgan asrning 30-yillarida rus tiliga italyan tilidan yo'l qurilishiga oid *avtostrada*, nemis tilidan *trassa*, frantsuz tilidan *magistral, estakeda* singari so'zlar kirib keldi.

“Olinma” va “o'zlashmalar”

Chetdan so'z olish bilan bog'liq bir qator sosiolingvistik tushunchalar bor. Shulardan biri "**olinma**" va "**o'zlashma**" atamaları bildirgan tushunchalardir.

"Olinma"--bu umuman chetdan (boshqa tildan) kirib kelgan lisoniy unsur. U so'z, morfema, frazema va hatto fonema xarakterida bo'lishi mumkin. Demak, olinma chetdan kirgan lisoniy birlikning o'zga tildagi dastlabki holati, "faoliyati". Olinma til jamoasining muayyan bir guruhi uchun ma'lum bo'ladi, til jamoasining hamma a'zolari nutqiy faoliyatida bir xil me'yor va bir maromda qo'llanmaydi. Olinma o'zga til jamoasi nutqiy faoliyatiga sekin-asta moslasha boradi. Bu jarayonni lisoniy *adaptatsiya* deyiladi. Chetdan kirgan lisoniy birlik (olinma) o'zga til jamoasi nutqiga to'la-to'kis singishsa, u **o'zlashma**ga aylanadi. Chet lisoniy unsurining o'zga til jamoasi tomonidan chin ma'noda o'zlashtirilishi lisoniy *assimilyatsiya* deyiladi ("*assimilyatsiya*" atamasi keng ma'noli, u tillarning chatishuvida ham bor, bu haqda yuqorida aytilgan edi). Assimilyasiyalashgan chet til lisoniy birligi o'zga tilning o'z mulkiga aylanadi. Assimilyasiyalashgan lisoniy birliklar (asosan so'zlar, qisman, affiks morfemalar) o'zga tilning grammatik qonun-qoidalariga ham "singishib", o'z til lug'aviy yoki affiksial birliklari kabi, so'z yasalishi jarayonida ham ishtirok etadi: til rivojlanishining ichki omillaridan biri sifatida o'zga til rivojlanishiga ikkinchi marta hissa qo'shgan bo'ladi (bu haqda qo'llanmaning ikkinchi qismida alohida ma'lumot beriladi).

Xullas, chetdan so'z olish tilni, uning mavqeini zinhor-zinhor kamsitmaydi. Chetdan so'z olish til jamoasining dunyoqarashi va ma'naviy saviyada yuksakligini ham bildiradi. Chunki chetdan so'z olish millatning, xalqning chet so'z mansub bo'lgan til jamoasi bilan iqtisodiy, madaniy, ma'naviy aloqasiga, ular bilan do'stona munosabatiga real ishoradir.

Yozuv va til munosabati

Yozuv va uning tarixiy-ijtimoiy turlari haqida

Yozuv va uning paydo bo'lishi tilning ijtimoiy rivojlanishini belgilovchi eng muhim va asosiy omillardan biridir. Adabiy til va uning yozma shakli yozuvning paydo bo'lishi va vazifaga kirishuvi bilan belgilanadi. Yozuvning paydo bulishi tilning rivojlanishinigina emas, balki til jamoasining – kishilik jamiyati va uning ijtimoiy saviyasining rivojlanishini ham belgilovchi barometrdir.

Tilning, muayyan bir etnik tilning emas, balki umuman tilning, paydo bo'lishi qanchalik chuqur va uzoq tarix bilan bog'liq bo'lganidek, yozuvning paydo bo'lishi ham o'ta chuqur va uzoq tarixga ega.

Yozuvning dastlabki prototipi shartli grafik shaklda bo'lmagan. U shartli ravishda "yozuv" deb atalgan bo'lsa-da, aslida muayyan maqsadni ro'yobga chiqaruvchi simvolik xarakterdagi narsa-predmetlar bo'lgan. Muayyan maqsadga yo'naltirilgan fikrni ifodalash mnemonik belgilar zimmasiga yuklangan bo'lib, u shartli ibora bilan "piktografik yozuv" deb atalgan. Masalan, ma'lum bir muhim fikrni esdan chiqarmaslik uchun ro'molchanning uchini tugib qo'yish mnemonik belgilar vositasida "yozish"ning qoldiqlari bo'lsa kerak. Bunday yozuv haqida eramizdan oldingi beshinchi asrda yashab o'tgan yunon tarixchisi Gerododning yozishicha, forslarning skiflar mamlakatiga yurish qilishidan xabar topgan skif shohlari Eron shohi Doroga elchi orqali qimmatbaho buyumlar bilan birga, **qush, sichqon, qurbaqa, beshta kamon o'qi** yuboradi. Doroning Qubro ismli a'yoni yuborilgan bu narsalar asosida: *«Agar siz, forslar, qush kabi osmonga uchib ketolmasangiz, sichqonlar kabi yer ostiga berkinolmasangiz, qurbaqalarday botqoklikdan o'tib ketolmasangiz, ana shu o'qlardan halok bo'lasiz, orqaga qaytib keta olmaysiz»* degan fikrni "o'qiydi".

Mnemonik xarakterdagi narsa-predmetlar yordamida "fikr uzatish" yozuv yaratish yo'lidagi ilk qadam sanalgan. Nihoyat, yozuv yaratish yo'lidagi birinchi rosmana qadam fikrni rasmlar vositasida uzatish xarakteridagi **piktografik** yozuvning paydo bo'lishi bilan yakun topdi. Piktografiya (ya'ni rasm) bilan chin ma'nodagi yozuv o'rtasida ma'lum bir uzviy aloqadorlik bor, albatta. Birinchidan, rasm ham, yozuv ham shakllar va ularning kompleksidan iborat bo'ladi, ikkinchidan, unisi ham, bunisi ham nima bilandir (**yo'zuv quroli** bilan, albatta,) amalga oshiriladi. Uchinchidan, rasm ham, yozuv ham muayyan bir ma'noni, unga asoslangan fikrni ro'yobga chiqaradi va h.k. Darhaqiqat, bundan million yillar muqaddam loydan yasalgan moslamalarga, suyaklar va tog'-u toshlarga bitilgan rasm-yozuvlarning borligi haqida arxeologiya fani guvohlik beradi.

Piktografik yozuvning taraqqiyoti ideografik deb ataluvchi yozuvga borib taqaladi. Piktografik yozuv dunyodagi boshqa barcha rasmiy yozuvlarning asosi bo'lib xizmat qildi. Piktografik yozuvning ixchamlashishi,

takomillashishi natijasida ideografik va sillabik yozuvlar vujudga keldi. Narsa-predmetlarni bildiruvchi rasmiy shakllar keyinchalik shu narsa-predmetlarning nomini bildirishga xizmat qildi. Ular bora-bora ideografik va ieroglafik belgilar sifatida muayyan so'zlarning ifoda shakllariga aylandi. Shular asosida eramizdan oldingi to'rtinchi ming yilliklarda Misr va Xitoy ieroglifikalari, Shumer mixxatlari paydo bo'ldi.

Yozuvning **interlingvistika** tomonidan o'rganiladigan shartli turlari ham bor. Ular xalqaro sun'iy tillar yozuviga mo'ljallangan. Bunday xalqaro sun'iy yozuvlar sistemasi **p a z i g r a f i y a** deb ataladi. Yozuvning bu turiga golland olimi K.Yansen tomonidan ixtiro qilingan **p i k t o** rasm-yozuvi misol bo'ladi. Shuningdek, **pazigrafik** yozuv turlaridan biri sifatida raqamli (sifrovoe pismo) yozuv ham ixtiro qilingan ediki, unda har bir so'z unga shartlangan alohida raqamlar yordamida ifodalanadi. Biroq **pazigrafik** yozuv xalqaro sun'iy tillar yozuvi sifatida keng tarqalmadi. Ulardan amalda foydalanilmadi.

Haqiqiy ma'nodagi yozuv sistemasi dastlab Qadimgi Sharqda—O'rta Yer dengizining sharqiy qirg'oqlaridan Tinch okeanining G'arbiy qirg'oqlarigacha bo'lgan juda keng hududda vujudga keldi.

Yozuvning keyingi taraqqiyot bosqichi bo'g'in yozuvi bo'lib, u eramizdan oldingi ikki ming yilliklarning o'rtalarida paydo bo'ldi. Bo'g'in yozuvining takomillashuvi natijasida harf-tovush yozuvi shakllandi. Bu yozuv dastlab Finikiya yozuvi nomi bilan eramizning ikkinchi ming yilliklarining o'rtalarida Finikiyada vujudga keldi. Bu yozuv faqat undosh tovushlarni ifodalovchi 22 harfdan iborat bo'lgan. Unli tovushlarni ifodalovchi harflar bo'lmagan. Eramizdan oldingi ming yilliklarga kelib, Finikiya yozuvi tizimida unli tovushlarni ifodalovchi harflar ham paydo bo'la boshlagan. Unli tovushlarni ifodalovchi Finikiya yozuvi asosida qadimgi grek yozuvi shakllangan. Bu taxminan eramizdan oldingi to'qqizinchi asrga to'g'ri keladi. Bu yozuvda so'zlar bir-biriga tirkalib, "probelsiz"(so'zlarni o'zaro ajratib turuvchi bir harf hajmidagi oraliq) yozilgan. Bu yozuv mumtoz (klassik) grek yozuvi nomi bilan mashhur bo'lgan yozuv darajasida rivojlangan. Bu yozuv 24 harfdan iborat bo'lib, ularning 7tasi unli, 17 tasi undoshshlarni ifodalagan. Bu yozuv asosida Evropa mamlakatlaridagi aytarli barcha yozuvlar shakllangan.

Finikiy yozuv negizida paydo bo'lgan yozuvlardan yana biri oromiy yozuvidir. U eramizdan oldingi birinchi ming yilliklarda vujudga kelgan. Bu yozuv ham faqat undoshlarni ifodalovchi 22 harfdan tashkil topgan. Oromiy yozuvidan boshlab matnda so'zlar o'zaro ajratib yozila boshlagan. Bu yozuv eramizning IV asrlarida arablar ta'sirida barham topgan.

Oromiy yozuvi asosida harf-tovush mutanosibligini qisman aks ettirgan sug'd yozuvi vujudga kelgan. Bu yozuv hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududida qariyb ming yillar amal qilgan. Bu yozuvda ham asosan undosh tovushlarni aks ettiruvchi harflar qo'llangan. Ular dastlab 23 ta bo'lgan, bora-bora ixchamlashib, 17 harfda to'xtagan.

Oromiy yozuvi taqlitidagi yozuvlardan yana biri eramizning uchinchi asrlarida paydo bo'lgan va dastlab 22 harfdan iborat bo'lgan pahlaviy yozuvidir. Bu yozuvda undosh va cho'ziq unlilar alohida-alohida o'z shakllariga ega bo'lgan.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar qadimdan fonografik xarakterdagi sug'd, pahlaviy, O`rxun-Enasoy (runik), uyg'ur, arab yozuvlaridan keng foydalanib kelgan bo'lsalar-da, ularning eng qadimgi yozuvi sifatida O`rxun-Enasoy yozuvi xizmat qilgan. Bu yozuv 35 harfdan tashkil topgan. Ularning 8 tasi unlilarni, qolganlari undoshlarni ifoda etgan, tinish belgilari bo'lmagan. Turkiy xalqlarning ko'pchiligi bu yozuvdan arab va uyg'ur yozuvlariga o'tishgan.

Uyg'ur yozuvi sug'd yozuvi asosida vujudga kelgan. Uyg'ur alfaviti uch xil shaklda yoziluvchi 19 harfdan iborat bo'lgan. Ular asosan jarangsiz undoshlarni ifodalagan. Uyg'ur yozuvi o'z amalini arab yozuviga o'tkazgan. Arab yozuvida harflar asosan undosh tovushlarni ifodalagan. Bu yozuv ham dastlab 22 konsonant harfdan iborat bo'lgan.

O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o'zbeklar ham uzoq vaqt arab yozuvidan foydalanib keldi. 1929-yilga kelib, O'zbekistonda arab yozuvi o'rniga lotin yozuvi qabul qilindi. 1940-yilga kelib esa, krill asosidagi rus yozuviga o'tildi. O'tgan asrning oxirida O'zbekistonda yana lotin yozuvi qabul qilindi.

Xullas, yozuv tilning taraqqiyot darajasini belgilovchi bosh omillardan biri hisoblanadi. Biroq yozuv til bilan mutanosib emas. Til taraqqiyoti insoniyat taraqqiyoti bilan mutanosib tarzda uzoq tarixga ega.

Til uzluksiz taraqqiy etishda bo'ladi. Yozuv esa, unday emas. U taraqqiyotda hamma vaqt tildan ancha ortda yuradi. Undagi o'zgarish xalq tomonidan emas, balki ayrim shaxslar tomonidan amalga oshadi.

Umuman olganda, yozuv va uning paydo bo'lishi kishilik jamiyatining ulkan yutuqlari samarasidir. Yozuv tilning kommunikasiya vositasi vazifasini yozma nutq shaklida amalga oshiruvchi bebaho ijtimoiy imkoniyatdir.

Harf va tovush munosabati

So'z ma'nolarini ro'yobga chiqarishda inson tovushi kabi izchil signal sistemasi bo'luvchi boshqa vosita ham bor. Bu yozuvdir. Yozuv harflar tizimiga asoslanadi. Unda harf yoki harflar "zanjiri" (kompleksi) xuddi tovush yoki tovushlar "zanjiri" (kompleksi) kabi ma'lum ma'noni ifoda etadi. Biror ma'noni ifoda etuvchi harflar "zanjiri"(kompleksi) ikkinchi bir ma'noni ifoda etuvchi harflar "zanjiri" (kompleksi) bilan bir xil bo'lmaydi. Masalan, *qish* bilan *kuz*, *ko'z* bilan *ko'k*, *til* bilan *ter* so'zlari o'zaro farqlansa, ular yozilishda shu tovushlarni ifodalovchi harflarning har xilligi bilan farqlanadi. Ularda ham har bir harf "zanjiri"ni ikkinchi harf "zanjiri"i bilan yonma-yon qo'yib, ular ifodasidagi ma'nolarni uyg'unlashtirish mumkin.

Masalan, "*Biznikiga kel!*" Bu o'rinda ham harflarning ikki "zanjir"i (*b-i-z-n-i-k-i-g-a; k-e-l*) bor. Har bir "zanjir" o'zicha ma'no ifoda etib, ular yana bir umumiy mazmunga uyg'unlashadi.

Harf yoki harflar "zanjiri" xuddi tovush yoki tovushlar "zanjiri" kabi ma'no ifoda etish imkoniga ega bo'lsa ham, ular so'z bo'la olmaydi. Ular ma'no ifodalovchi tovush yoki tovushlar "zanjiri" -- so'zni yozuvda shaklga kiritish uchun xoslangan shartli belgilardir. Shu jihati bilan ular qog'oz pul, valyuta, akkreditiv chek, zayomga o'xshaydi. Qog'oz pul, valyuta, akkreditiv chek, zayom kabilar kishi mehnatiga beriladigan haq hisobiga belgilangan, davlat tasdig'i bo'lgan rasmiy va shartli hujjatlardir. Agar ular mehnat haqiga guvohlik bermasa, biror-bir tayinli qimmatga ega emas. Yozuv ham so'zni va so'zlar birikuvidan tarkib topgan gapni ifodalay olmaganda, o'zicha biror-bir qimmatga ega bo'lmas edi.

Qog'oz pul, valyuta, akkreditiv chek, zayom kabilar bilan yozuv ko'p jihatlardan o'xshashdir. Pul kabilar mehnat haqini tartibga solish va uni jamg'arish xususiyatiga ega. Yozuv ham shunday. U so'z ma'nosi orqali bildirilgan fikrlarni tartibga soladi. Pul kabilar mehnat haqini bir shaxsdan ikkinchi shaxsga, avloddan avlodga meros sifatida olib o'tadi. Yozuv ham so'z ma'nosi orqali bildirilgan fikrlarni bir shaxsdan ikkinchi shaxsga, avloddan avlodga meros sifatida olib o'tadi. Yozuv va unga qiyoslanayotgan pul kabi narsalarning umumiy va o'xshash yana bir tomoni shundaki, ularning har ikkisi ham ijtimoiy hodisadir. Biroq ularning biri – pul singarilari jamiyatning o'ziga, uning turmush ehtiyojiga tegishli bo'lsa, ikkinchisi yozuv – jamiyatning tiliga, uning yozma shakliga tegishlidir. Shu bois pul singari vositalarni jamiyatshunoslik fanining iqtisodiyot tarmog'i o'rganadi. Harflar tizimiga asoslangan yozuv esa, til fanining sosiolingvistik sohasida o'rganiladi. Sosiolingvistikaning yozuv va uning vazifa amali bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganuvchi tarmog'i **g r a m m a t o l o g i y a** deyiladi.

Yozuvning asosi hisoblangan harf tovushga nisbatan ancha ustunlikka ega bo'lishiga qaramay, uning ma'no ifoda etuvchi "zanjiri" so'zning o'zi emas, balki uning "soyasi", "rasmi"dir. Shuning uchun ijtimoiy hayotda paydo bo'lgan har qanday yangi tushuncha dastlab tovush yoki tovushlr "zanjiri"da o'z aksini topadi, keyin yozuv orqali shaklga kiradi. Shuningdek, tovush fikr almashish jarayonida yozuvga nisbatan ko'p qulayliklarga ega. Tovush istalgan joyda, istalgan vaziyatda, istalgan paytda hosil qilinaveradi. Yozuv esa, unday emas. U istalgan paytda, istalgan joyda amalga oshmaydi. Yozuvning amalga kirishuvi ko'p narsani talab qiladi. Birinchidan, unga xoslangan "qurollar"siz (qog'oz, ruchka yoki qalam) yozuv amalga oshmaydi. Ikkinchidan, yozuvni amalga oshirishda alohida shart-sharoit zarur bo'ladi. Masalan, suv ichida ham, yugura ketib ham, tunda ham, osmonda uchib ham tovushni hosil qilaverish mumkin, biroq bunday sharoit va vaziyatlarda yozuvdan foydalanib bo'lmaydi. Bular yozuvning tovushga nisbatan cheklangan imkoniyatini bildiradi.

Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, yozuv til tarqqiyotini belgilovchi muhim omildir. Jamiyatning ma'naviy, madaniy, adabiy-badiiy "boyligi" yozuv orqali avloddan avlodga meros bo'lib o'tadi. Shu bois yozuv Sosiolingvistika o'rganadigan muhim ijtimoiy imkoniyatdir.

Punktuaasiya va uning lisoniy-ijtimoiy ahamiyati

Yozma nutqni, uning kommunikativ mohiyatini yozuvsiz tasavvur etish qiyin bo'lganidek, so'zlovchi(yozuvchi)ning yozuv orqali bildirmoqchi bo'lgan maqsadini punktuaasiyasiz ham tasavvur etish qiyin. Og'zaki nutqning imkoniyatlari cheksiz. Unda tinglovchi so'zlovchining ko'z oldida turadi. Shuningdek, og'zaki nutqda so'zlovchining mantiqan bo'rttirilgan ma'noni ifodalovchi "so'z"i shaklsiz, turli ohang va gavda, qo'l harakatlari, yuzdagi har xil ishoraviy harakatlar yordamida ham tinglovchiga mav'lum bo'lishi mumkin. Biroq bunday keng imkoniyatlar nutqning yozma shaklida yo'q.

Yozma nutq, uning ko'rinish va ichki guruhlari, ular bilan bog'liq lisoniy va nolisoniy xususiyatlar, asli, sosiolingvistik ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy hodisalardir. Biroq Sosiolingvistika masalalari bilan shug'ullangan mutaxassislar negadir punktuaasiya masalalarini e'tibordan chetda qoldirgan. Aslida, nutqning yozma shaklini, uning kommunikativ va pragmatik imkoniyati hamda mohiyatini punktuaasiyasiz, uning amaldagi moya va qonun-qoidalarisiz tasavvur etish mumkin emas.

Punktuaasiya va uning qonun-qoidalari tufayli yozma nutq og'zaki nutq bilan muvofiqlashadi. Adresant-yozuvchi ko'zda tutgan kommunikativ maqsad o'quvchi-adresatga biror-bir nuqssiz oson va aniq ma'lum bo'ladi.

Yozuv va uning har xil hududiy turlari tildan ancha keyin paydo bo'lgani kabi, punktuaasiya va uning moya hamda qonun-qoidalari ham yozuvdan ancha keyin paydo bo'lgan. So'zlarning biri boshqasidan ajratib yozilmasligi, ajratib yozishning yozuvning taraqqiyot bosqichida paydo bo'lganligi haqida bundan oldingi paragraflarda aytilgan edi. Darhaqiqat, punktuaasiya grafik yozuv bilan bir vaqtda paydo bo'lmagan. U yozuv to'liq stabillashib, rivojlangach, paydo bo'lgan.

Til, yozuv qanday ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan bo'lsa, punktuaasiya ham ana shunday ehtiyoj tufayli vujudga kelgan. Punktuaasiyaning dastlabki ilk "qadami" so'zlarni bir-biridan ajratib, probel bilan yozishdan boshlangan.

Xullas, punktuaasiya ham til, yozuv kabi ijtimoiy hodisadir. Davrlar o'tishi bilan, til va yozuv taraqqiy etib borgani kabi, punktuaasiya ham o'zgarib taraqqiy etib borgan. Dastlab tinish belgilarining qo'yilishi, usuli, vazifasi hozirgiday aniq bo'lmagan. Masalan, tinish belgilarining dastlabki ko'rinishi yulduzcha va romba shaklida bo'lgan. O'ndan ortiq ishora nuqta vazifasida ishlatilgan. Nuqtaning ishlatila boshlashi XIX asrning oxirlaridan

boshlangan. So'ngra nuqta vazifasida ishlatiluvchi yulduzcha va romba shaklidagi shartli belgilar "faoliyatiga" chek qo'yilgan.

Punktuasiya, yozuvda bo'lgani kabi, punktuasiya va uning tizimi barcha tillarda bir vaqtda paydo bo'lmagan. U ayrim xalqlar yozuvida oldinroq, ayrimlarida keyinroq shakllangan. Masalan, rus yozuvida punktuasiya haqidagi tushunchalar XVIII asrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'zbek yozuvida XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin paydo bo'lgan. Shuningdek, ular tizimida tinish belgilarining miqdori ham bir xil bo'lmagan. Masalan, ingliz tili punktuasiyasi 12 tinish belgisidan iborat bo'lgan. Unda defis va apostrof ham tinish belgisi hisoblangan. Boshqa tillar, shu jumladan, o'zbek tili punktuasiyasi tizimida 10 ta tinish belgisi mavjud.

Tilning boshqa hodisalarida kuzatilganidek, ayrim tinish belgilarining ishlatilishida polifunksionallik xususiyati mavjud. Masalan, vergul yozma nutqda ajratish, chegaralash, izoh, ta'kid singari ma'nolarni ifodalash vazifalarini bajaradi.

Punktuasiya zimmasidagi nutqiy-lisoniy vazifalar ham har xil. Ularga quyidagilar kiradi.

1. Yozuvchi shaxs bilan o'quvchi shaxs o'rtasida yozuv orqali amalga oshadigan kommunikativ aloqaning to'g'ri va aniq amalga oshishini ta'minlash. Masalan, "Tong!" va "tong?" shaklidagi nominativ gaplarning ikkinchisi so'roq ma'nosini, birinchisi his-hayajon ma'nosini bildirayotganligi shu gaplar oxiriga qo'yilgan "!" va "?" belgilari orqali anglashiladi.

2. So'zlovchining gap vositasida ko'zda tutgan maqsadini bildiradi. Masalan, oxiriga nuqta qo'yilgan gaplarda xabar berish, so'roq belgisi qo'yilgan bo'lsa, o'ziga noma'lum fakt va dalillarni so'rash, undov belgisi qo'yilgan bo'lsa, qat'iy buyruq yoki his-hayajon ma'nolarini anglash kabi.

3. Adresantning gap orqali bildirayotgan fikrini to'ldirish, uning ayrim qismlarini izohlash kabilarni bildiradi. Bu ma'nolar uyushiq va ajratilgan bo'laklarning, undalma, kirish va kiritmalarning vergullar, tire yoki qavs ichiga olinishi orqali anglashiladi.

4. Fikrning ravonligini ta'minlash uchun hizmat qiladi. "Otam – injener", "Toshkent – O'zbekiston poytaxti" singari gaplarga qo'yilgan tire ayni shu vazifani bajaradi.

Xullas, til, yozuv umumxalq ma'naviy va madaniy boyligi sanalgani kabi, punktuasiya va uning tizimi ham umumxalq ma'rifiy boyligidir. Nutqning adabiy yozma shaklining holati, uning mavqei va rivojlanishida punktuasiyaning ahamiyati cheksiz va benazirdir.

Punktuasiya talaffuz va imlododa muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, u tilning sintaktik qurilishi bilan mutanosib aloqada bo'ladi: yozma nutqning to'g'ri va me'yoriy amalini punktuasiya va uning qonun-qoidalari "boshqaradi".

Tinish belgilari va ularning tizimi yozuv taraqqiyotining keyingi bosqichlarida paydo bo'lgan. Muhimi shundaki, tinish belgilari, ularning

tizimi, qo'yilish moyalari baynalmilal (Internasional) xarakterga ega. U yoki bu millatning yozuvida, uning qonun-qoidalarida keskin farq bo'lishi mumkin, lekin ularning punktuasiyasida, tinish belgilari tizimida, tinish belgilarining vazifaviy amalida farq bo'lishi mumkin emas. Masalan, nuqta yoxud vergulning vazifasi dunyo xalqlari yozuvida bir xil vazifa bajaradi. Undov, so'roq belgilarining va boshqa tinish belgilarining vazifasi ham aynan shunday.

"Til holati" va "til vaziyati" tushunchalari haqida

Ma'lumki, Sotsiolingvistika tilning ichki (intralingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) tomonlarini, uning sosial va lisoniy qurilishini bir-biridan ajratmagan holda, ularni o'zaro ijtimoiy va lisoniy bog'lilikda o'rganadi.

Tilning ichki (intralingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) tomonlari bir butunligida vazifaga kirishuvi va uning shu jarayon bilan bog'liq xususiyatlari "til holati" (sostoyanie yazika) deb ataladi. "Til holati" sotsiolingvistikaning o'ziga xos kategoriyalaridan biri hisoblanadi.

Tilning ichki qurilishi deganda, uning intralingvistik tomoni tushuniladi. Tilning intralingvistik tomoni—bu uning ichki elementlaridan tashkil topgan tizimlari va ularning o'zaro lisoniy aloqasi demakdir.

Til qurilishining ichki elementlari, uning qaysi sathiga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, ijtimoiy vazifasiga bir vaqtda birgalikda kirishadi. Bu jarayon "til holati" tushunchasini xarakterlovchi asosiy xususiyatlardan biridir. Shuningdek, "til holati" tilning barcha vazifaviy shakllari va ularning majmuasi sifatida ham tushuniladi.

"Til holati" tushunchasiga nafaqat tilning mavjudligi va amaliy shakllari, balki uning funktsional stillari va ularning konkret amali ham tegishli bo'ladi.

"Til vaziyati" atamasi dastlab o'tgan asrning 30-yillarida chet el olimlarining Osiyo va Afrika xalqlari tillarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarida uchraydi. Bu termin biror-bir mamlakat yoki ularning muayyan bir hududida amal qiluvchi tillar uyushmasiga nisbatan ishlatilgan.

"Til vaziyati" atamasi bir-biriga ilmiy jihatdan mos bo'lmagan turli xil tushunchalarni bildiradi. Shu bois bu tushuncha Sotsiolingvistika fanida aniq va mushtarak bir talqinini topgan emas. Qolaversa, "til vaziyati" Evropa va Osiyoning Markaziy Osiyo va Rossiyadan ancha uzoq mamlakatlarining turli xil xalqlari tillariga xos ijtimoiy xususiyat sanaladi. Shulardan biriga to'xtaydigan bo'lsak, **"til vaziyati"** deganda, bir iqtisodiy-siyosiy tuzumga ega mamlakatda ikki yoki uch tilning bir xil ijtimoiy huquq bilan ish ko'rishi ham, ikki yoki undan ortiq mahalliy lahjalardan bir umumiy maqsadda foydalanish imkoniyati ham tushunilaveradi. Masalan, Shveysariyada nemis, frantsuz va italyan tillari mavqe jihatdan ham, yuridik jihatdan ham bir xil ijtimoiy-lisoniy huquqqa ega. Bu o'rinda **"til vaziyati"** **"tillarning uyushgan majmuasi"** (organizovannaya sovokupnost yazikov) tushunchasiga teng keladi. Shuningdek, bir mamlakatda shu mamlakatning

umumxalq tili bilan bir qatorda, ayrim kasbiy etnik guruhlariga tegishli professional lisonlarning teng lisoniy huquq bilan ishlatilishiga nisbatan ham "**til vaziyati**" atamasi ishlatiladi. Masalan, Angliyada mahalliy *uель* tilining, Frantsiyaning Bretan yarim orolida yashovchi dehqonlar va dengizchilarga qarashli *Breton* tilining bir xil ijtimoiy-lisoniy maqomdagi amali bilan bog'liq xususiyatlari ana shunday xarakterga ega. Muhimi shundaki, bu mahalliy tillarning birortasi ham adabiy til darajasida shakllanmagan.

Xullas, "til vaziyati" hozircha mushtarak ilmiy talqinga ega emas. U sosiolingvistik tushuncha sifatida ommaviy tarzda bir xil rasmiylashmagan.

Sotsiolingvistikaning asosiy tarmoqlari (t u r l a r i)

Umumiy va xususiy Sotsiolingvistika

Sotsiolingvistika lingvistik fanlar tsiklidagi mustaqil tarmoq sifatida bir necha tur va ko'rinishlarni o'z ichiga oladi. Shulardan biri umumiy Sotsiolingvistika bo'lsa, boshqasi xususiy sosiolingvistikadir.

Umumiy Sotsiolingvistika

Umumiy Sotsiolingvistika, nomidan ham ma'lumki, shu fanning umumnazariy masalalarini o'rganadi.

Sotsiolingvistikaning umumlingvistik tizimdagi o'rni, uning intralingvistikaga munosabati, til va jamiyat munosabati, tilning jamiyat va uning taraqqiyotiga, jamiyatning til va uning taraqqiyotiga ta'siri singari bir qator masalalar umumiy sotsiolingvistikaning umumnazariy masalalari sanaladi.

Sotsiolingvistika lingvistika va jamiyatshunoslik oraliq'idagi fan bo'lgani uchun, Sotsiolingvistika predmetining lingvistika va jamiyatshunoslik fanlari predmetlaridan farq qiluvchi tomonlarini ajratish va tavsiflash ham umumiy Sotsiolingvistika zimmasidagi vazifalardan biridir. Tilning estetik rivojlanishi va uning tilning amaliga munosabati masalalari ham umumiy sotsiolingvistikaga daxldor tushunchalardir.

Tilning paydo bo'lishi, jamiyat va uning rivoji bilan mutanosib taraqqiyoti, adabiy tilning shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari ham umumiy Sotsiolingvistika tomonidan o'rganiladi. Shu jumladan, sotsiolingvistikani o'rganish va tadqiq etish metodlari ham umumiy sotsiolingvistikaga aloqador masalalardir.

Shuningdek, umumiy Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy-vazifaviy amali, til siyosati, tillarning o'zaro ta'sirdoshligi, til vaziyati, xalqaro vositachi (tabiiy) tillar, xalqaro sun'iy tillar, ularning tarqalish zonalari singari masalalarni ham o'rganadi.

Xususiy Sotsiolingvistika

Xususiy Sotsiolingvistika ko'p millatli mamlakatlarda amal qiluvchi konkret tillarga xos xususiyatlarni o'rganadi. Masalan, sobiq Sho'rolar davrida bu davlat bir necha millat, xalq va elatlarni o'z ichiga olgan yirik bir derjava edi. U 20 avtonom respublika, 8 avtonom viloyat, 10 milliy okrugini o'z ichiga olgan 15 socialistik respublikadan iborat bo'lgan. Har bir Ittifoqdosh respublika tili shu respublikalarning davlat maqomidagi milliy tili hisoblangan. Xususiy Sotsiolingvistika ana shu milliy tillarning shu etnik jamoalar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayoti bilan bog'liq masalalarni o'rgangan. Sobiq sho'rolar davlatlari hududida 52 milliy til ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan; 65 tilda radioeshittirish olib borilgan; 122 tilda gazeta, jurnal va turli janrlarda kitob nashr etilgan. Ko'p millatli jamiyatda har bir etnik jamoaning tili va uning shu etnik jamoa ijtimoiyoti bilan bog'liq xususiyatlar xususiy Sotsiolingvistika tomonidan o'rganilgan. Shu xususiyat asosida sotsiolingvistikaning bu tarmog'i quyidagicha guruhlariga bo'lingan: o'zbek sotsiolingvistikasi, qozoq sotsiolingvistikasi, tojik sotsiolingvistikasi, rus sotsiolingvistikasi, ukrain sotsiolingvistikasi, belarus sotsiolingvistikasi, qirg'iz sotsiolingvistikasi, turkman sotsiolingvistikasi va b.

Xususiy sotsiolingvistikaning yana boshqa bir tarmog'i mavjudki, unda umumxalq tilining fan va texnika, kasb va hunar sohalar bilan bog'liq masalalari o'rganiladi. Muayyan bir ijtimoiy bosqichda fan va texnikaning, kasb va hunarning rivojlanishi til leksikasining shu sohalar bilan bog'liq qatlamiga ta'sir qilmay qolmaydi, albatta. Bunda fan va texnika, kasb va hunarning paydo bo'lgan yangi tushunchalarini nomlashda shu tushunchalar mohiyatini aks ettiruvchi munosib atamalar qldiriladi. Natijada shu sohalariga xizmat qiluvchi yangi terminologik qatlam vujudga keladi. Ana shu terminologik qatlamning lisoniy-vazifaviy amali bilan bog'liq ijtimoiy-lisoniy xususiyatlar ham xususiy sotsiolingvistikaning o'rganish obyekti hisoblanadi.

Xususiy Sotsiolingvistika o'rganadigan obyektlardan yana biri jamiyatning ayrim ijtimoiy qatlamlariga xos "**kasbiy til**"dir. Bu til odatda jargon va argo xarakterida bo'lib, ular otarchilar, chayqovchilar, qimorbozlar va talabalar nutqiga xoslangan bo'ladi. Ular umumxalq tilidagi ayrim so'zlarga okkozional tus berish orqali "**ixtiro qilinadi**". Bunday jargon va argolar o'z sinonimik paradigmasiga ham ega bo'lib, ma'lum bir tushuncha bir necha so'zlar yordamida ifodalanishi mumkin. Masalan, "**aroq**» ma'nosida *oqi, oq bola, oq suv, oq salla, oq qo'y, oq sanam, bo'yni uzun, novcha, obizamzam, mo'ysafid, oqsoqol, dori, besh karra sakkiz, qittak-qittak, yuz-yuz* va b.; "**pul**" ma'nosida *mullajiring, ashula, soqqa, loy, yakan, qo'qon, qizili, ko'ki, ko'kqashqasi, ohang, do'ppi, qurug'i* va b. Ularning ayrimlari metonimiya usulida hosil qilinadi: otarchilar jargonida maktab-

maorif sohasi xizmatchilari "**galstuk**", tibbiyot xodimlari "**xalat**", revizor (taftishchi)lar «**qaychi**» deyilishi kabi.

Savdo va tijorat ahli; otarchilar, o'g'ri, kissavur va qimormorbozlar muloqotida ma'nosi faqat ularning o'zlari uchun tushunarli bo'lgan lug'aviy qatlam mavjud. Masalan, *shapka, qalpoq, shlyapa, do'ppi* "**ustama narx**"(savdo va tijorat xodimlari muloqotida); *o'dak* "ketamiz", *yakan//soqqa//ko'ki* "pul", *noye* "bormaymiz", *otarkas* "to'y egasi", *kalompo* «**boy, amaldor odam**», *mayob* "**ichimlik**», *danap* "**o'yinchi ayol**», *knopka* «**qistiriladigan pul**»(otarchilar muloqotida); *bedana//pitpildiq//o'yinchoq* «**to'pponcha**», *sirka//loy//bulker* «**rus puli, rubl**», *kurort//sanatoriya//quda tomon* «**qamoqxona**», *kitob* "**karta**», *projektor//svetofor* «**begona ko'z-guvoh**»(o'g'ri, kissavur va qimorbozlar muloqotida) shular jumlasidan.

Jargon va argolarning bir ko'rinishi yoshlar muloqotiga mansub bo'lib, "**slengi**" (yoshlar slengisi) deb ataladi. Bu ijtimoiy toifa uchun ham adabiy, ham oddiy so'zlashuvda o'ziga xos lug'aviy qatlam "ixtiro qilingan". Unda yoshlarning erkin, betakalluf muomalasi ifodalanadi. Shunga qaramay, **sleng** yoshlarning doimiy muloqot vositasi bo'lolmaydi. Ular muloqotida ishlatiladigan ayrim so'zlarga e'tibor bering: *yosti*q (qalin kitob), *fasad* (yuz qiyofasi), *kobra* (jahldor muallim//muallima), *echki* (sho'x qiz), *kosmonavt* (mashg'ulotlardan qochib yuruvchi talaba) va b.

Talabalar nutqida yana bir o'ziga xos xususiyat mavjudki, unda ular o'qiydigan fanlar shu fanlarning nomi bilan emas, balki shu fanlardan ta'lim beruvchi o'qituvchining familiyasi bilan ataladi. Masalan, "o'zbek tili tarixi" emas, "**Turdibekov**"; "o'zbek tili o'qitish uslubiyati" emas, "**Yusupova**"; "hozirgi o'zbek tili" emas, "**Islomov**", "adabiyot" emas, "**Abdullaev**" va b. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalari shu darslik va o'quv qo'llanmalarining nomi bilan emas, balki ularning mualliflari nomi, familiyasi bilan atalishi ham talabalar nutqining o'ziga xos tomonidir.

Demak, xususiy Sotsiolingvistika ham sertarmoq bo'lib, uning har bir tarmog'i alohida-alohida o'rganilishi davr talabidir.

Sinxron va diaxron Sotsiolingvistika.

"Sinxron" va "diaxron" atamaları tilga va uning hodisalariga nisbatan ham ishlatiladi. Shuningdek, tilshunoslikning barcha sohalariga ham, uning mustaqil tarmoqlariga ham bu atamalar nisbatlanadi: *sinxron tilshunoslik, diaxron tilshunoslik; sinxron dialektologiya, diaxron dialektologiya; sinxron fonetika yoki fonologiya, diaxron fonetika yoki fonologiya; sinxron leksikologiya, diaxron leksikologiya; sinxron morfemika, diaxron morfemika; sinxron so'z yasalishi, diaxron so'z yasalishi; sinxron morfologiya, diaxron morfologiya; sinxron sintaksis, diaxron sintaksis* va b.

Til va uning hodisalarini "sinxron" va "diaxron" tushunchalari asosida farqlanishi tilshunoslikning sotsiologiya yo'nalishi paydo bo'lishi bilan paydo bo'lgan. Tilshunoslikning bu yo'nalishi dastlab qiyosiy-tarixiy

tilshunoslikning tilni yangicha talqin etuvchi oqimlaridan biri sanalgan. "Sinxroniya", "diaxroniya" tushunchalarining til va uning sohalariga nisbatlanishi ana shu oqim ta'limotiga qarashli.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning sotsiologizm oqimiga shveytsar va frantsuz olimi Ferdinand de Sossyur tomonidan asos solingan. Til va uning hodisalarini "sinxroniya", "diaxroniya" tushunchalari bilan farqlanishi ham shu olimning til haqidagi ta'limotiga tegishli.

Sotsiologizm oqimi va uning ta'limoti qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning "yosh grammatikachilar" nomi bilan shuhrat qozongan oqimi va uning til haqidagi qarashlariga kisman qarama-qarshi yo'nalishdir.

"Yosh grammatikachilar" tilning tarixiy jihatiga katta e'tibor berib, uning hozirgi holatini hisobga olmaganlar. F.de Sossyur tilning tarixiy holati va jarayonlarini til amalining "**evolyusiyasi**" sifatida qarab, keskin va qat'iy inkor etmagan, balki uni "diaxron lingvistika" obyekt sifatida baholagan. Tilning hozirgi holatini "sinxron lingvistika" ning obyekt deb belgilagan.

Xullas, "diaxroniya" va "sinxroniya" tushunchalari til va uni o'rganuvchi ikki qarama-qarshi, lekin o'zaro munosabatdosh fan yo'nalishi sifatida vujudga kelgan.

Sotsiolingvistikaning "sinxron" va "diaxron" atamalari bilan farqlanishi ham lingvistikaning "sinxron lingvistika", "diaxron lingvistika" deya farqlanishi andazasiga asoslanadi.

Amaliy Sotsiolingvistika

Amaliy Sotsiolingvistika shu fanning umumnazariy tomonlarini emas, balki amaliy tomonlarini o'rganadi. Amaliy sotsiolingvistikaning paydo bo'lishiga tilshunoslikda struktur yo'nalishning paydo bo'lishi va amaliy turtki bo'lgan. Matematik lingvistikani shakllantirish, algoritmlar tuzish, lingvistik tadqiqotlarga matematik va struktur moyalarni tadbiiq etish tilshunoslikdagi amaliy yo'nalish sifatida baholanadi.

Sotsiolingvistikaning amaliy yo'nalishi jamiyatda paydo bo'lgan ehtiyoj tufayli yangi alfavit tuzish, uni yangilash yoki uning biror-bir qismiga o'zgartish kiritish, yangi imlo qoidalarini tuzish yoki unga o'zgartish kiritish, yangi lug'aviy o'zlashmalarning orfografik, orfoepik qoidalarini yaratish singari bir qator masalalarni o'rganadi.

Interlingvistika

Interlingvistika--tilshunoslikning alohida mustaqil tarmog'i. Interlingvistika--sotsiolingvistikaning muhim ob'ektlaridan biri. Tilshunoslikning bu tarmog'ida xalqaro tillar o'rganiladi.

Xalqaro tillar **ikki xil** bo'ladi:

- 1) xalqaro tabiiy tillar;
- 2) xalqaro sun'iy tillar.

Xalqaro tabiiy tillar.

Xalqaro tabiiy tillarni "vositachi til" deb ham ataladi. "Vositachi til" atamasi bu o'rinda "til kontaktlari"ga aloqador "vositachi til"dan farq qiladi. "Vositachi til" bu o'rinda bir necha mamlakatlarda ularning xalqlari tomonidan bir xil maqsad va maromda foydalaniladigan til demakdir. Masalan, lotin tili o'rta asrlarda Evropada vositachi til vazifasini bajargan. Maktab va oliy o'quv yurtlari talaba va o'quvchilari lotin tilida ta'lim olishgan. Siyosiy, iqtisodiy va badiiy asarlar shu tilda yozilgan. Lotin tilining vositachi tillik vazifasi XVIII asrgacha davom etgan, bu vazifa keyin frantsuz tili zimmasiga o'tgan. Frantsuz tilining vositachi tillik vazifasi XX asrning birinchi choragi oxirlarida barham topgan. Chunki bu davrga kelib, xalqaro vositachi tillik vazifasi ingliz tili zimmasiga o'tgan.

Xalqaro vositachi til vazifasini musulmon mamlakatlarida asrlar osha Qur'on tiliga asoslangan klassik arab tili bajargan. Arab tili zimmasidagi bu sosial vazifa hozirgi vaqtda ham susaygan emas.

Vositachi til vazifasini bajaruvchi xalqaro til uzoq Sharq va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida ham bo'lgan. Bunday vazifani "*venyan*"dab ataluvchi eski xitoy adabiy tili bajargan. Bu til uzoq vaqt vositachi til maqomida amal qilib, yapon, vetnam va koreys tillarining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Evropa, Markaziy Osiyo, Uzoq Sharq va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida asrlar bo'yi vositachi til vazifasini bajargan lotin, frantsuz, ingliz, arab va xitoy tillarining sosial vazifasi hozirgi vaqtda dunyoning nufuz jihatidan imtiyozli olti tili zimmasiga yuklangan.

Xalqaro tabiiy tillar muayyan xalq, millat tilining funktsional mavqei, ya'ni vazifasi bilan belgilanadi. Dunyoning vazifa jihatidan millatlararo va zonal tillardan ham yuqori imtiyozli tili **xalqaro tabiiy til** hisoblanadi. Dunyoning barcha millat va xalqlariga baravar aloqador bo'lgan yig'in va anjuman materiallari ana shu xalqaro tabiiy tillarda rasmiylashtiriladi.

Xalqaro tabiiy tillar Birlashgan Millatlar Tashkilotining (**BMT**) rasmiy tilidir. Dunyoning olti tili xalqaro til sifatida tan olingan. Ularga **ingliz, frantsuz, ispan, rus, xitoy va arab** tillari kiradi. Bular ingliz, frantsuz, ispan, rus, xitoy va arab etnik jamoalarining milliy tilidir. Lingvistikada

"dunyoning xalqaro tillari" tushunchasi tillarning vazifa ko'lami nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Xalqaro tabiiy til tilning vazifa jihatdan rivojlangan eng yuqori bosqichidir. Shuningdek, xalqaro tabiiy til dunyoning polifunksional (ko'p vazifali) lisoni hisoblanadi. Xalqaro tabiiy tilning polifunksionalligi shundaki, u bir davrning o'zida shu til amal qilgan mamlakatda milliy til, zonal til, millatlararo til, davlat tili kabi ijtimoiy vazifalar bajaradi. Masalan, dunyoning xalqaro tillaridan biri -- rus tilini olsak, u rus etnik jamoasining milliy tili, Rossiya mamlakatining davlat tili, Rossiya hududida yashovchi rus bo'lmagan boshqa etnik jamoalar uchun millatlararo hamda zonal tildir. Xalqaro tabiiy tillarnig amali tufayli xalqaro bilingvizm va polilingvimzm sharoitiga imkoniyat paydo bo'ladi.

Xalqaro sun'iy tillar

Sotsiolingvistikaning asosiy obyektlaridan biri – bu xalqaro sun'iy tillar va ularning yaratilishi masalasi hamdir. Xalqaro sun'iy tillar, atalishidan ham ma'lumki, biror-bir millat yoki xalqning milliy tili emas. Biroq xalqaro sun'iy tillar dunyoning tabiiy tillari asosida yaratiladi. Xalqaro tabiiy tillar, yuqorida ham aytilganidek, jamiyat tomonidan yaratiladi, uni yaratuvchisi xalq, millatdir. Ular muayyan millat, xalqning milliy tili hisoblanadi, ularning "xalqaro"ligi tillarning vazifa jihatdan turiga ko'radir.

Xalqaro sun'iy tillar "**ijod qilingan**", ya'ni "**o'ylab topilgan**"tillardir. Ular ayrim shaxslar tomonidan "ixtiro" qilingan. Bunday tilni yaratish yo'lidagi dastlabki intilish eramizning II asrida boshlangan. Uning tashabbuskori grek vrachi **Galendir**.

Xalqaro sun'iy til dunyoning mushtarak kasb-korga, ya'ni bir xil ixtisosga ega **sosial guruhlar**i uchun mo'ljallangan "yasama" tildir. Bu til dunyoning ana shunday mushtarak kasb egalari kommunikasiyasi jarayoniga xizmat qiladi.

Xalqaro sun'iy tillarni sotsiolingvistikaning "**interlingvistika**" deb ataluvchi tarmog'i o'rganadi.

"Interlingvistika" atamasi fanga birinchi bo'lib, 1629-yili R.Dekarta tomonidan olib kirilgan. Interlingvistika anglatgan tushuncha bilan bog'liq barcha lisoniy masalalar fanga G.V.Leybsig tomonidan ommalashtirilib, rasmiylashtirilgan.

Birinchi xalqaro sun'iy til 1879-yili Germaniyada "**volapyuk**" nomi bilan vujudga keldi. Uning ixtirochisi nemis olimi **I.M.Shleyer**dir. So'ngra 1876-yili Polshada "**esparanto**" ixtiro qilindi. "Esparanto" polyak vrachi **L.L. Zamengof** tomonidan yaratilgan. Bu til xalqaro sun'iy tillarning eng faol va eng keng tarqalgan turidir. U dastlab Rossiya va Polshada, keyinchalik Angliya, Frantsiya va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Bu tilning yozuvi "**bir tovushga bir harf**"printsipida tuzilgan. Esparanto tilida dunyoning boy original va tarjima asarlari yaratilgan. Bu sun'iy tilda qirqqa yaqin matbuot

muassasalari nashr ishlari bilan shug'ullanadi. Ayrim mamlakatlarda esperanto tilida radioeshittirishlar ham olib boriladi.

Esperanto, bundan tashqari, frantsuz tili kabi, xalqaro pochta assosiasiyasining rasmiy tili vazifasini ham bajaradi.

Hozirgi vaqtda esperantodan dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida foydalaniladi.

Volapyuk va esperantodan so'ng dunyoning ko'pgina mamlakatlarida **interling (1903), ido (1907), oksidental (1922), omo (1926), Novial (1928), O'rtaturk (1992)** nomlari bilan atalgan xalqaro sun'iy tillar paydo bo'ldi. Biroq bu tillar xalqaro miqyosda keng foydalanilmay, ularning amali "kuchga kirmadi".

Xullas, XVII va XX asr oralig'ida xalqaro sun'iy tillarning mingdan ortiq loyihalari ixtiro qilingan. Biroq ulardan foydalanish turli sabablarga ko'ra amalga oshmagan.

Hozirgi vaqtda xalqaro sun'iy tillardan faqat esperanto keng tarqalgan. Dunyoning ko'pgina davlatlarida, ularning markaziy shaharlarida esperantoni ixtiyoriy o'rganish kurslari tashkil etilgan. Ularda bo'lajak sportchilar, savdogarlar, sayyohlar, jurnalistlar, diplomatlar tahsil olishadi. Rossiyada esperantoda turli tavsifdagi nashr ishlari ham amalga oshirilgan, taniqli rus yozuvchilari asarlari esperantoga tarjima qilingan, "ruscha-esparontcha", "Esparontcha-ruscha" lug'atlar tuzilib, nashr qilingan.

Esperanto xarakteridagi xalqaro sun'iy til 1992-yili Toshkentda ham paydo bo'ldi. U o'zbek faylasuf olimlari B.Karimov va Sh.Mutalovlar tomonidan "**O'rtaturk tili**" nomi bilan ixtiro qilingan va uning lisoniy qurilishi ishlab chiqildi.

Bu olimlarning "O'rtaturk tili" nomli risolalari ham nashr etildi (Toshkent: "Mehnat", 1992). Risolada shunday maqsadlar bayon qilingandi: **"Turkiy xalqlarning hozirgi uyg'onish davrida, ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, lisoniy va boshqa ko'p jihatlaridan yaqinlashuviga yangi imkoniyatlar tug'ilgan zamonda mazkur jarayonga ko'mak bo'ladigan O'rtaturk tilini yaratish taklif qilinyapti. Bu til hozirgi va avval mavjud bo'lgan turkiy tillarning so'z boyligi, til qoidalarini, normalarini o'zlashtirish asosida normallashtirilgan tildir"**.

B.Karimov va Sh. Mutalovlar hammuallifligida "O'rtaturk tili"ning loyihasi ham tuzilib, uning maqsad va vazifalari bayon qilindi. 1993-yilning 23-25-iyun kunlari Toshkentda "**O'rtaturk tilini yaratish muammolari**" ga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ham bo'lib o'tdi. Konferentsiyada "O'rtaturk tili"ni joriy qilish masalalari ko'rib chiqildi. Konferentsiya ishida dunyoning ko'p malakatlaridan, masalan, Turkiya, Arabiston va boshqa mamlakatlardan vakillar ishtirok etdi. O'rta Osiy respublikalaridan, jumladan, Tojikistondan ham bu anjumanda vakillar o'z amaliy fikr-mulohazalari bilan qatnashdi (professor **A.Berdialiev**; dosentlar: **E.Sheraliev, R.Xidirov**).

Biroq O'zbekistonda Mustaqillikni qo'lga kiritish, uni mustahkamlash va shart-sharoitlarini ishlab chiqish, lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek yozuviga o'tish singari bir qator muhim ijtimoiy-siyosiy tashvishlar ustuvorlik qilib, xalqaro "o'rta turk" sun'iy tili bilan bog'liq masalalar amalga oshmay, kun tartibidan tamoman tushib ketdi.

Xalqaro sun'iy tillar tizimi **aposterior** sun'iy tillar va **aprior** sun'iy tillar kabi ikki guruhga ajraladi. Apasteriol sun'iy tillarning "lisoniy qurilishi" biror-bir tabiiy tillarning lisoniy qurilishi andozasida shakllantiriladi. Esperanto tili **aposterior** tillarning eng rivojlangan namunasi.

Aprior sun'iy tillar sun'iy tillarning shunday ko'rinishiki, ularning "lisoniy qurilishi" biror-bir tabiiy tilning lisoniy qurilishiga o'xshamaydi. «**Solresol**» va "**ro**" nomi bilan ixtiro qilingan sun'iy tillar **aprior** sun'iy tillarga kiradi.

Qiyosiy Sotsiolingvistika.

Qiyosiy Sotsiolingvistika dunyo tillarining amali va ularning ijtimoiy xususiyatlarini qiyosiy o'rganuvchi tarmoqdir. Boshqacha aytganda, bu tarmoq tillarning vazifaviy taraqqiyotini qiyosiy rejada tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Masalan, Yu.D. Desherievning 1966-yili nashr etilgan "Zakonomernosti razvitiya i vzaimodeystviya yazikov v sovetskom obtshestve", 1976-yili nashr etilgan "Razvitie obtshestvennix funktsiy yazikov narodov mira" nomli ikki asari; A.A.Darbeevaning 1970-yili nashr etilgan "Razvitie obtshestvennix funktsiy mongolskix yazikov" nomli asari qiyosiy Sotsiolingvistika yo'nalishida yozilgan.

Tillarning ijtimoiy vazifalarini qiyosiy o'rganish asosida jahon tillarining ijtimoiy-vazifaviy tasnifi belgilanadi.

Qiyosiy Sotsiolingvistika tillarning vazifaviy tarmoqlanishi bilan aloqador yo'nalishdir. Bu yo'nalish tillar vazifaviy rivojlanishining ayrim masalalarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, jamiyatning tilda in'ikos etilgan material va ruhiy madaniyatini o'rganish ham qiyosiy sotsiolingvistikaga daxldor masalalardir.

Sotsiolingvistika, uslubiyat (stilistika) va nutq madaniyati

Sotsiolingvistika tilshunoslik siklidagi deyarli barcha fanlar bilan uzviy bog'lanishdagi umumfilologik predmetdir.

Ma'lumki, uslubiyat, ya'ni stilistikasiz nutqni, uning tur va ko'rinishlarini tasavvur etish qiyin. Uslubiyat tilning vazifaviy uslublari tizimini, ularning har bir turiga xos lisoniy material va ularning nutqiy imkoniyatlarini o'rganadi.

Nutq uslublari (stillari) uslubiyatning bosh va markaziy hodisasidir. Nutq uslublari ham lisoniy, ham ijtimoiy xarakterga ega tushunchalardir. Bu

tushunchalarning ijtimoiy hodisa ekanligi shundaki, u etnik jamoaning muayyan talab va ehtiyojiga ko'ra paydo bo'ladi; lisoniy hodisa ekanligi shundaki, nutq uslublari tilning atayin tanlangan va saralangan fonetik, lug'aviy, morfem vositalari yordamida shakllanadi.

Demak, ma'lum bo'ladiki, uslubiyat va uning vazifaviy uslublari til jamoasi va ularning lisoniy ehtiyojlari bilan bog'lanadi. Shu jihatdan, ya'ni tildagi har bir vazifaviy uslubning ijtimoiy xarakterga egaligi, ularning ijtimoiy ehtiyoj asosida tarmoqlanishi jihatlaridan **uslubiyat**, ya'ni **stilistika** o'ziga xos ijtimoiy-sosial hodisa hisoblanadi. Muayyan ijtimoiy ehtiyojga xizmat qiluvchi lisoniy ashyolarning guruhlanib, tanlanishi esa, stilistikaning immanent tilshunoslik, ya'ni intralingvistika bilan bog'liq tomonlaridir.

Stilistikaning asosiy obyekti—bu nutqdir. Nutq vositasida so'zlovchi tinglovchiga nimanidir bildiradi, axborot uzatadi. So'zlovchining bu maqsadi kommunikasiya jarayonida amalga oshadi. Bu jarayonda tilning nutqning ayni shu lahzasi uchun xizmat qiluvchi qismi tanlanib, harakatga keltiriladi. Bu jarayonlarning barchasi ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Uslubiyat ana shu jihatdan ham sotsiolingvistik xarakterdagi lisoniy imkoniyatdir.

Ma'lumki, uslubiyat nutqning vazifaviy uslublarini o'rganadi. Nutqning vazifaviy uslublari til materialini, vaziyat va davrga qarab, maqsadga muvofiq tanlanishi, saralanishi va guruhlanishi demakdir. Shu bois tilning lug'at tarkibi ham, morfem va grammatik qurilishi va ularga xos lisoniy birliklar ham nutqning vazifaviy uslublariga ko'ra taqsimlanadi va guruhlanadi. Buni kiyimlarga qiyoslash mumkin. Masalan, har bir kishida kiyimlarning barcha turidan bir nechta bo'ladi. Ko'ylakni olaylik. Har bir odamda tayyorlangan material, sifati, qimmat, hatto fasonida farq qiluvchi bir necha ko'ylak bo'lishi mumkin. Ular qancha ko'p bo'lishidan qat'iy nazar, bajaradigan vazifasi bir xil. Shu jihatdan, ya'ni vazifasiga ko'ra, ko'ylak mayka yoki jenfir, yoki kostyumdan farq qiladi. Ko'ylakning uy ichida kiyiladigani bo'ladi. Shuningdek, ishga, ko'cha-ko'yga kiyiladigani ham. Tantana va bayramlarda kiyiladigan ko'ylaklarning borligidan ham xabarimiz bor, albatta. Uy ichida kiyiladigan ko'ylakni ishga yoki ko'cha-ko'yga hech qachon kiyilmaydi. Yoki tantanalarda, bayramlarda kiyiladigan ko'ylaklarda uy ichida yurilmaydi. Nogohon ko'rgan kishi "nima, to'y yoki biror-bir tantanaga bormoqchimisan?" deya so'rashi turgan gap. Ayniqsa, tantanavor kiyimlar bilan mol-holga qarash, xo'jalik ishlariga kirishish g'ayritabiiy, noodatiy tuyuladi. Mol-holga qarashda yoki xo'jalik ishlarida kiyiladigan ko'ylak bilan tashqariga, kishilar orasiga kirilsa, boshqalarga kulgi bo'lishi turgan gap. Shuningdek, bayramona ko'ylakda mol-holga, xo'jalik ishlariga aralashsa ham, shaxsning psixik jihatdan me'yoriyligiga shubha paydo bo'ladi. Yana bir misol: motam libosida to'y-u tomoshaga, bayramona kiyimda motam marosimiga borish aqlli-hushli kishilar uchun mumkin bo'lmagan noodatiy va nourfiy kulgili holatdir.

Uslubiyat, uning vazifaviy uslublariga xoslangan lisoniy birliklar ham xuddi ana shunday. Oilada, ko'cha-ko'yda, o'rtoqlar davrasida ishlatiladigan

gap va so'zlar ta'lim jarayonida (darsda), rasmiy tadbir va marosimlarda ishlatiladigan gap va so'zlardan farq qiladi. Shu asosda nutq biri boshqasidan farq qiluvchi vazifaviy uslublarga ega bo'ladi. Nutqning bir vazifaviy uslubiga xos lisoniy ashyolarni uning boshqa vazifaviy uslublarida ishlatish uslubiy no'noqlikka olib keladi. Mashhur badiiy so'z ustasi Abdulla Qahhor "Quyushqon" deb nomlangan feletonida rasmiy-ommabop uslubga xos lisoniy ashyo va priyomlarni oddiy so'zlashuv uslubiga "olib kirib", feleton qahramonining o'ta rasmiyatchi shaxs ekanligini kulgi ostiga olgan.

Nutq madaniyati ham--tilshunoslik fanlari tsiklidagi mustaqil ta'limiy sohalardan biri.

Nutq madaniyati hozirgi vaqtda tilshunoslarning diqqat markazida turgan masalalardan biri sanaladi. Bu masala yuzasidan sobiq Ittifoq miqyosida ilmiy anjumanlar, munozaralar o'tkazildi, maqola va kitoblar nashr etildi. Tilshunoslik ilmiy tadqiqot institutlarida nutq madaniyatiga bag'ishlangan maxsus bo'limlar tashkil etildi. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari o'quv rejalariga alohida fan sifatida kiritildi.

Nutq madaniyati har bir xalqning hozirgi tilshunosligi yutuqlariga tayanib ish ko'radi. Shu bois talabalar o'z ona tillarining fonetika-fonologiya, leksikologiya, frazeologiya, morfemika va grammatika singari bo'limlari bilan tanishgach, nutq madaniyati asoslarini o'rganishga tayyor bo'ladilar. Nutq madaniyatining mohiyatini to'g'ri tushunish uchun eng avval adabiy til tushunchasining mohiyatini to'g'ri va ongli tushunish zarur bo'ladi.

Nutq madaniyati asoslari uslubiyat bilan bir yong'oqning ostki va ustki mag'zi, tarozining ikki pallasi kabi o'zaro uzviy bog'liq. Shu bois yaqin vaqtlargacha uslubiyat va nutq madaniyati farqlanmagan, bir fanning obyektini hisoblangan.

Nutq madaniyati, nomidan ham seziladiki, til fanining shaxsda chiroyli va namunali so'zlash va yozish malakasini shakllantirishga ixtisoslashgan alohida sohasidir. Nutq madaniyati vazifaviy uslublarning barchasiga emas, balki adabiy uslubiga, uning eng noyob namunalariga tayanadi. Shu tarzda namunali va ibratli so'zlash va yozish yo'llarini o'rgatadi. Nutq madaniyatining shakllanishida so'z va uning qismlarini tanlash, shu asosda chiroyli gap tuzish muhim rol o'ynaydi.

Adabiy tilning har qaysi uslubi o'ziga xos lisoniy vositalarga ega bo'ladi. Lekin bundan ma'lum uslubga xos lisoniy ashyolar faqat shu uslub doirasi bilan cheklanadi, degan xulosa chiqarilmasligi kerak, albatta. Ilmiy uslubga xos lisoniy ashyolar badiiy uslubda, badiiy uslubga xos lisoniy ashyolar ijtimoiy-rasmiy uslubda ishlatilaverishi mumkin.

O'zbek adabiy tili uslublari doirasida badiiy uslub alohida o'rin tutadi. Badiiy uslub – o'zbek adabiy tilining asosi. Shuning uchun ham adabiy til atamasi ostida odatda badiiy uslub tushunilgan.

Badiiy uslub san'at turlaridan biri – badiiy adabiyot bilan bog'liq bo'lgani uchun, bu uslubda lisoniy ashyolardan foydalanish hayot va uning voqea-hodisalarini badiiy in'ikos etish talablariga bo'ysunadi.

Nutq madaniyati qadimdan mavjud. Madaniyati yuksak shaxslar doimo o'z nutqlarining ibratli bo'lishiga e'tibor berganlar. Nutq madaniyati "**til odobi**", "**nutq odobi**" tushunchalari zaminida paydo bo'lgan. "Til odobi" yuksak kishilarni **notiq** deyishgan. Ularning namunalari xalq maqollari, matallari va aforizmlarida o'z ifodasini topgan. Bobomiz Alisher Navoiy she'rlarida "*odobli so'zlash shaxsning aqliy kamolotidan darakdir*", "*yaxshi, ezgu so'z kishiga obro', baxt keltiradi*" mazmunidagi parchalar mavjudki, ular nutq madaniyatiga bo'lgan ishoradir.

Yuqorida uslubiyat va uning vazifaviy stillari turli maqsad va vaziyatlarga xoslangan ko'ylaklar misolida sharhlangan edi. Bu qiyosning nutq madaniyati uchun tegishli tomoni ham yo'q emas. Nutq madaniyati uchun "mol-holga qarash", "uy ichida yurish", "dehqonchilik yoki qurilish ishida kiyish" ga xoslangan ko'ylaklar emas, balki bayram va turli tantanalarda, to'y-u tomoshalarda kiyishga mo'ljallangan zamonaviy fasonda tikilgan yangi, toza ko'ylaklar tanlanadi. Nutq madaniyatida ham *lisoniy birliklar*, kiyimlarning bayram va tantanalarda saralanib tanlanganidek, **saralanib, tanlanadi**. Saralanib tanlangan lisoniy ashyolargina ibratli va namunali nutq oldiga qo'yiladigan talablarga javob beradi va ibratli, madaniy nutq tuzilishi uchun xizmat qila oladi.

Nutq madaniyatining ham yozma va og'zaki adabiy shakllari mavjud. Uning og'zaki adabiy shakli ayrim tovush, so'z va uning qismlarini orfoepik me'yorlarga mos to'g'ri talaffuz qilish, so'z urg'usiga e'tibor berish va ohangning to'g'ri va muvofiq qo'yilishini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi.

Nutq madaniyatining yozma adabiy shakli, so'zsiz, alifbo va imlo qoidalarining puxta va mukammalliligiga bog'liqdir. Alifbo va imlo qoidalari qanchalik to'liq va puxta bo'lsa, nutq madaniyati shunchalik rivoj topgan bo'ladi. Hozirgi o'zbek alifbosi o'zbek nutq madaniyati uchun muvaffaqiyatli xizmat qilib kelayotir. Ammo uning jiddiy qiyinchilikka sabab bo'layotgan kamchiliklari ham yo'q emas. Bu kamchiliklarga barham berishni maqsad etgan har xil urinishlar bo'lib turibdi, albatta. Nutq madaniyatining hamma uchun bir xil shaklda rivojlanishi uchun til jamoasining barcha ijtimoiy tabaqalarida saviya bir xilligi bo'lishi shart va zarur. Biroq saviya bir xilligi barchaning adabiy til, uning yozma va og'zaki shakllariga xos lisoniy me'yorlariga bir xil amal qilish va ularni bir xil o'zlashtirishlariga bog'liq.

Sobiq Sho'rolar davrida, xususan, o'tgan asrning 60-yillari oxirida Ittifoqqa qarashli barcha xalqlarda rus adabiy tili ta'sirida nutq madaniyatini yaxshilash masalasiga alohida e'tibor qaratila boshladi. Chunki rus tilshunosligida mazkur masalaga bundan bir necha o'n yillar oldin kirishilgan edi. O'zbekistonda nutq madaniyati masalasiga endigina (1960-yillar o'rtalaridan) kirishilgan bo'lib, O'tgan asrning 70- yillarida o'sha paytdagi O'zbekiston FA Tilshunoslik instituti huzurida Nutq madaniyati sektorining ochilishi bu dolzarb ishning dastlabki qutlug' qadami bo'ldi. Sektor ilmiy

xodimlari tomonidan o'zbek nutqi madaniyati masalasida matbuot, televidenie, radio vositasida tashviqot va targ'ibot ishlari olib borildi. "Bilim" jamiyati orqali omma orasida ma'ruza va suhbatlar uyushtirildi. Bu tadbirlar, bari bir, o'zbek nutq madaniyati bo'yicha qilingan va amalga oshirilgan ishlarning boshlamasi edi, xolos.

Xulosa shuki, nutq madaniyati tizimida ham, uslubiyatda bo'lganidek, ijobiy yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar hozirgi vaqtda ham ko'p.

Demak, aytilganlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, uslubiyat va nutq madaniyati bir-biri bilan qanchalik uzviy bog'liq bo'lmasin, ular ayni bir hodisa emas. Shu bois uslubiyat va nutq madaniyati til fanining har xil ta'limiy sohalari sifatida farqlanadi.

Muhimi shundaki, uslubiyat (stilistika) ham, nutq madaniyati ham jamiyatning nutqiy-ijtimoiy ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. Bu ijtimoiy jarayonda tilning ana shu ehtiyojni qoplashga xizmat qiluvchi lisoniy ashyolari tanlanadi va ishga solinadi. Bularning barchasi til jamoasining adabiy tilga, nutq madaniyatiga ongli munosabati bilan amalga oshadi. Shu jihatdan uslubiyat ham, nutq madaniyati ham sosiolingvistik xarakter kasb etadi.

Terminologiya va uning sotsiolingvistik a s o s l a r i

Har bir til leksikasining alohida bir qatlamini terminlar (atamalar) tashkil qiladi. Shuning uchun terminlar til jamoasining barchasi uchun emas, balki uning muayyan bir guruhiga qarashli bo'ladi. Terminning odatdagi so'zdan farqi ham, eng avvalo, ana shunda.

Termin ham so'zdir. Termin ham tovushlardan, ularning kompleksidan tashkil bo'ladi. Biroq termin va so'z o'zaro farq qiladi. So'z – bu umumxalk mulki. Uni til jamoasining hammasi bir xil ma'noda ishlatadi, mushtarak ma'noda tushunadi. Termin esa, yuqorida ham aytilganidek, umumxalk lisoniy mulki emas. U til jamoasining muayyan bir qatlami uchun, uning kasbiy faoliyati uchun xizmat qiluvchi nafaol "so'z"dir. Termin bir ma'noda qo'llanuvchi monosemantik lug'aviy birlikdir.

Terminologik tizim til jamoasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi barometrdir.

Hozirgi zamon ilmiy-texnika revolyutsiyasi fan va texnika taraqqiyotining tez o'sish va uning insoniyat turmush faoliyatining hamma sohalariga kirib borishi bilan xarakterlanadi. Yangi ixtirolarning kashf etilishi, yangi konstruktsiyadagi har xil mashinalar va ular mexanizmlarini ishlab chiqarish, mukammallashgan texnologiya jarayonlarini bunyod etish va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish tufayli shularga muvofiq yuzlab terminlar paydo bo'ladi.

F.Engels "kapital"ning inglizcha nashriga yozgan so'z boshisida "**Fandagi har bir nuqtai nazar o'z navbatida texnik terminlarda inqilobiy o'zgarishlar yasaydi**" deb yozgan edi. F. Engels tomonidan aytilgan bu fikr xalq xo'jaligida ro'y berayotgan har bir qadamda o'z isbotini topayotir.

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari bunyod etilib, ularni lisoniy jabhaga olib chiquvchi terminologik sistema shakllanayotir. Bu tizim, o'z navbatida, tilni, uning lug'at sostavini boyituvchi lisoniy manba vazifasida xizmat qilishi shubhasiz

Olimlar tomonidan to'g'ri e'tirof etilganidek, rivojlanib borayotgan jamiyatda nimaiki sodir bo'lsa, u tilda ham o'z munosib ifodasini topadi. Shu tariqa tilning lug'at tarkibi muttasil o'sib va rivojlanib boradi.

Terminlar va ular tizimining fan va texnika taraqqiyoti bilan mutanosib bog'liq tomoni bu muhim lug'aviy qatlamning, ya'ni terminologiyaning nolisoniy, ya'ni ekstralingvistik jabhasini tashkil qiladiki, bu, so'zsiz va shubhasiz, Sotsiolingvistika mundarijasiga aloqador muhim obyektlardan sanaladi.

Har bir til leksikasining muayyan bir qatlamini atamalar tashkil qiladi. Atamalar ham so'zlardir. Biroq so'zlar umumxalq tili leksikasining aktiv (faol) qatlamiga qarashli bo'lsa, atamalar umumxalq tili leksikasining passiv (nafaol) qatlamiga tegishli bo'ladi. Umumxalq tili leksikasining faol qatlamiga qarashli lug'aviy birliklar til jamoasining barcha vakillari tomonidan kundalik hayotda bir maromda faol ishlatiladi va ma'nosi barchaga bir xil tushunarli bo'ladi.

Til leksikasining nafaol qatlamiga tegishli lug'aviy birliklarning umumtildagi iste'moli cheklangan bo'ladi. Ular til jamoasining ayrim ijtimoiy tabaqasi yoki kasbiy guruhlari nutqidagina ishlatiladi va ma'nosi shu tabaqa yoki shu guruh vakillari uchungina tushunarli bo'ladi. Shu bois atamalar jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy taraqqiyotining muayyan bir davrida ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo qilinadi. To'g'rirog'i, atamalar "**ijod qilinadi**"yoki boshqa tillardan tayyor holda o'z lisoniy shakli bilan o'zlashtiriladi.

"Ijod qilish" ham, o'zlashtirish ham ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Shu bois terminologik leksika intralingvistikaning ham, sosiolingvistikaning ham o'rganish obyekti hisoblanadi.

Terminologik leksika yoki terminologik qatlam ikki usulda shakllanadi:

- 1) o'z til lisoniy ashyolari zaminida;
- 2) o'zga til lisoniy ashyolari zaminida.

O'z til lisoniy ashyolari zaminida shakllanganda, atamalar yo so'z yasash yo'li bilan, yo kalkalash (tarjima qilish) yo'li bilan hosil qilinadi. O'z til lisoniy ashyolari asosida shakllangan atamalar va ularning tizimi til rivojlanishining ichki omillaridan biri sanalsa, o'zga til lisoniy ashyolari asosida shakllantirilgan atamalar va ularning tizimi til taraqqiyotining tashqi omillaridan biri hisoblanadi.

Atamalar o'z til lisoniy ashyolari asosida shakllanganda, umumxalq tilidagi biror-bir so'z yoki ibora ijtimoiy turmushda paydo bo'lgan biror-bir yangi tushunchani atash, nomlash vazifasini bajaradi. Masalan, o'zbek tilida umumxalq tiliga mansub *burun, qo'litiq* singari so'zlar geografik tushuncha nomi sifatida ham rasmiylashgan. Umumxalq tilida o'z lisoniy ma'nosi bilan o'zbek etnik jamoasining barcha a'zolariga bir xil anglashiladigan *ega, kesim, o'zak, qo'shimcha, asos* va shu kabi bir qancha so'zlar tilshunoslik fanining ma'lum bir tushunchalarini nomlab, atamaga aylangan va umumxalq tiliga mansub iste'mol doirasi cheklangan.

O'z lisoniy ashyolari asosida paydo bo'lgan atamalar tizimida baynalmilal xarakter kasb etganlari ham bor. Ularga joy nomlari asosida paydo qilingan *Boston, kagor, konyak, regbi, qorako'l*; shaxs nomlari asosida yasalgan *amper, om, kyuri, rentgen, nagan, mauzer* singarilar kiradi.

O'z lisoniy ashyolari asosida hosil qilingan terminlarning bir turi, yuqorida aytilganidek, so'z yasash bilan aloqador bo'ladi. Masalan, *sotuvchi, oluvchi, oqlovchi, qoralovchi, terimchi, oshlovchi, tilchi //tilshunos, tarixchi//tarixshunos, tarbiyachi, kashfiyotchi, tabiatshunos, san'atkor//san'atchi, tashviqotchi, targ'ibotchi, o'lchagich, chizg'ich, o'chirgich* va boshqalar.

Terminlar o'zga til lisoniy ashyolari asosida paydo qilinganda, boshqa tillardan so'z o'zicha, o'z lisoniy shakli bilan o'zlashtiriladi. Masalan, *avtogen, armatura, alebastr, agregat; fonema, morfema, leksema, frazema, grammatika, pauza; instrument, mashina, traktor, ekskvator; direktor, lektor, rektor; parta, ruchka, fartuk, palto, bufet, papka* va boshqalar.

Ikkinchi Qism

O'ZBEK SOTSIOLINGVISTIKASI

Masalalari

O'zbek til kontaktlari tarixidan

O'zbek tili qadimiy tillardan biridir. U xalq tili asosida shakllangan bo'lib, asrlar osha o'z lug'at boyligini shakllantira va boyita borib, fonetik, grammatik va uslubiy qurilishini hozirgacha takomillashtirib kelmoqda.

O'zbek tili o'zbek etnik jamoasining aloqa-aralashuv vositasidir. U o'ttiz besh milliondan ortiq o'zbek xalqining milliy lisoniy boyligidir.

O'zbek xalqi ko'p asrlar mobaynida qadimgi O'zbekiston territoriyasida ko'pgina turkiy urug' va qabilalarning birlashuvi va o'troqlashuvi natijasida tarkib topgan. Bu jarayonda bu etnik jamoa juda murakkab ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni boshdan kechirgan. Bu murakkab jarayon uning til jihatdan mustaqil shakllanishi va rivojlanishida ham yuz bergan.

O'zbek millati, til nuqtai nazaridan, quyidagi uch yirik etnik komponentning birikuvidan tashkil topgan.

1) Janubi-sharqiy til. Bunga ko'pchilik shahar o'zbeklarining tili, "qarluq" deb ataluvchi lahjalar, eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tili kiradi;

2) Janubi-g'arbiy til. Bunga o'zbek tilining o'g'uz lahjasi kiradi;

3) shimoli-g'arbiy til. Bunga asosan "j"lovchi shevalarni o'zida birlashtiruvchi qipchoq lahjasi kiradi.

Ana shu va shu kabi ijtimoiy-lisoniy shart-sharoitlar o'zbek tilining turkiy tillar oilasidan mustaqil lison sifatida ajralib chiqishi va shakllanishiga sabab bo'lgan.

O'zbek tilining turkiy tillar oilasidan mustaqil lison sifatida ajrab chiqishi shu til jamoasining umumturkiy jamoadan alohida etnik guruh sifatida ajrab chiqqan davridan boshlanadi. Bu davr, olimlarning e'tirofiga qaraganda, o'zbek tilining qadimgi davri hisoblangan va o'ninchi asrgacha davom etadi.

O'zbek tilining qadimgi davri boshqa turkiy tillarga ham tegishli bo'lgan O'rxun yodnomalari, uyg'ur va boshqa yozuvlarda bitilgan yodnomalarni o'z ichiga oladi. Shu davrdan e'tiboran, o'zbek tili unga qardosh va qardosh bo'lmagan tillar bilan turli darajada aloqaga kirisha boshlagan. O'zbek tilining boshqa tillar bilan turli darajadagi aloqasi o'zbek til kontakti va uning o'ziga xos ko'rinishlari uchun sabab bo'ladi.

Keltirilgan bu yodnomalarda uchrovchi boshqa chet til o'zlashmalaridan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili ham mansub bo'lgan qadimgi turkiy til **xitoy**, **sanskrit** va **sug'd** tillari bilan lisoniy kontaktda bo'lgan. Bunga mazkur yodnomalarda uchrovchi shu tillarga (**xitoy**, **sanskrit**, **sug'd**) xos so'zlarining mavjudligi guvohlik beradi.

1969-yili Leningradda "**Qadimgi turkiy lug'at**" (Drevnetyurkskiy slovar) nashr etiladi. Unda turkiy tillarga o'tib qolgan o'zga xalq tillariga tegishli so'zlar ham berilgan. Jumladan, *Luchan*(Nuroniy), *luchanta*(yaltiroq), *Maxaraj*(hokim), *maxaruk*(mifik mavjudodning bir turi), *namo*(ibodat), *Prat*(dev) va boshqa o'nlab diniy tushunchalarga oid; *ansmar*(tutqanoq), *livang*(qalampirmunchoq), *lodur*(o'simlik turi), *matulung*(limon) singari bir qator tibbiyot va o'simliklar olamiga tegishli **sanskritcha** so'zlar ham keltirilgan.

Mazkur lug'atda qadimgi turkiy yodnomalarida uchrovchi *an*(sud ishi), *ban*(o'n ming), *ban*(yozuv taxtasi), *tsang*(xazina), *bugung*(tilxat), *buda*(uzum), *bulang*(ayvon), *bo'k*(devor), *bau*(pul), *chan*(piyola), *xua*(gul), *chuan*(bahor), *chug'*(loyqa), *mir*(asal), *yan*(barg), *tetsa*(o'quvchi), *to'*(atala), *chusum*(tut), *to'y*(o'simlik nomi) singari turli sohalarga oid bir necha o'nlab xitoycha so'zlar berilgan.

Mahmud Qoshg'ariyning mashhur "Devonu Lug'otit-turk" asarida "*chinliklarning* (ya'ni xitoyliklarning) *alohida tillari bor bo'lsa ham, shaharliklari turkchani yaxshi biladilar*" degan fikr uchraydiki, bu qadimgi turkiy til bilan xitoy tilining bevosita kontaktda bo'lganligidan dalolatdir.

Qadimgi turkiy xalqlar **sug'dlar** bilan yaqin aloqada bo'lganlar. Bu aloqa, hech shubhasiz, qadimgi turkiy tilning sug'd tili bilan bevosita kontaktda sabab bo'lgan. Buning natijasida o'sha davrda **turk-sug'd ikki tilliligi** shakllangan, bu ikki tilning biridan ikkinchisiga son-sanoqsiz so'zlar o'tib, o'zlashgan. Masalan, qadimgi turkiy tilda uchrovchi *ajun*(dunyo), *badir*(idish), *mag'*(oy), *vaxshik*(baxt), *ruch*(kun), *rushan*(yorug'lik), *sarvag'*(saroy), *kand*(shahar), *shamnu*(shayton) va sh k. boshqa bir necha o'nlab **sug'dcha** so'zlar buning guvohidir.

Arab tilidan o'zbek va boshqa turkiy xalqlar tiliga ko'plab so'zlar o'zlashgan bo'lsa-da, **eng qadimgi turkiy** yodnomalarida arab lisoniy birliklari uchramaydi. Buning sababi shundaki, so'z yuritilayotgan o'sha davrda turkiy tillar arab tili bilan bevosita aloqada bo'lgan emas.

Turkiy tillarning arab tili bilan aloqaga kirishuvi o'n birinchi asrdan boshlanadi. Bu davrda qadimgi turkiy til o'rnini eski turkiy til egallay boshlaydi. Ayni davrda **fors** tilining ijtimoiy mavqei yuqorilab, sug'd tilining iste'moliga mone'lik qila boshlaydi. Qisqa muddat ichida fors tili mukammal shakllanib, boshqa tillarga, shu jumladan, turkiy (o'zbek) tillariga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Natijada turkiy-fors til kontaktda lisoniy sharoit paydo bo'ladi.

Qadimgi turkiy til ma'lum darajada **arab tili** bilan ham lisoniy kontaktda bo'lgan. O'rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida o'zbek-arab til kontaktda vujudga keldi. Bu davrda arab tili davlat va fan tili, fan va rasmiy yozishmalar tili sifatida keng tarqaldi. O'zbek tili, bir tomondan, bosqinchilarning oddiy so'zlashuv tili bilan, ikkinchi tomondan, arab yozma adabiy tili bilan to'qnashdi.

Arab tili mahalliy aholiga davlat va fan tili, ayniqsa, din tili sifatida majburan o'qitildi va singdirildi. Natijada mahalliy aholi vakillari o'z ona tili bilan bir qatorda, arab tilida ham yozadigan va gapiradigan bo'ldi. O'rta Osiyolik mashhur olimlar Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Xorazmiy (795-857), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Nasr Farobiy (873-950), Ahmad Farg'oniy (861-y. vafot etgan) va boshqalar o'z ilmiy asarlarini arab tilida yozganlar. Shunday qilib, o'zbek–arab bilingvizmi, o'zbek-Arab til kontakti vujudga keldi va arab tilidan o'zbek adabiy tiliga, qisman uning mahalliy shevalariga ham arabcha so'zlar kirib kela boshlagan.

Arab tilining o'zbek adabiy tiliga ta'sirini Alisher Navoiy ijodidagi arabcha so'zlar salmog'idan ham bilsa bo'ladi. Navoiy asarlari tilining 30-33 foizini arabcha so'zlar tashkil qiladi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'otit turk", Yusuf Xoc Xojibning "Qutadg'u bilik" ("saodatga yo'llovchi bilim") asarlari eski turkiy tilning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. «Qutadg'u bilik»da diniy, ahloqiy va falsafiy tushunchalarga oid arab so'zlari ko'plab uchraydiki, bu eski turkiy va arab tillar kontakti amalidan darak beradi. Chunonchi, *Zuljalol (Allohga nisbatan: ulug'vorlik), kamol(etuklik), qodir(qudratli), Rasul(payg'ambar), xaloyiq(xalqlar), salom(salom), Malik(podsho), mashriq(sharq), xazina(xazina), meros(meros), hakim(faylasuf), amorat(amirlik), ajab(qiziq), baqo(doimiylik), xarob(buzuq), raiyat(aholi), sano(maqtov), ofiyat(esonlik)* va sh.k. yuzlab arabcha so'zlar buning yorqin dalili bo'la oladi.

O'zbek tilida arab lug'aviy o'zlashmalari o'n beshinchi asrdan boshlab ko'paya boshladi. O'zbek adabiy tilida arab lug'aviy o'zlashmalari fan va texnikaning deyarli barcha tarmoqlarida uchraydi. Masalan,

1) **falsafaga** oid *abad, azal, zamon, makon, ma'rifat*; mantiqqa oid *qIyos, ma'qulot, had, homil, maxmul*;

2) **etikaga** oid *sadoqat, axloq, adovat, munofik*;

3) **psixologiyaga** oid *his, hissiyot, aql, rag'bat, iroda*;

4) **siyosatga** oid *siyosat, jamiyat, jamoa, mamlakat, davlat, targ'ibot, tashviqot*;

5) **tilshunoslikka** oid *ma'no, mazmun, ism, jumla, fe'l, imlo, ohang, ravish*;

6) **adabiyotshunoslikka** oid *she'r, shoir, nazm, nasr, ruboiy, qofiya, g'azal, vazn, marsiya, masal, mubolag'a, murabbo, majoz*;

7) **astronomiyaga** oid *falak, fazo, sayyora, sarv, asad, sunbula, mezon, qavs, shams, qamar*;

8) **maorifga** oid *maktab, madrasa, ta'lim, tarbiya, savod, muallim, mudarris, dars* va b.q.

Bularning ko'pi fan va texnikaning ana shu sohalarida o'zgarishsiz ishlatiladi.

Ayrim olimlarning kuzatishlaridan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili leksikasidagi arab so'zlari miqdori o'tgan asrning etmishinchi yillari arafasida yana ko'paygan. Masalan, professor M. Mirzaev "Qizil

O'zbekistoni" gazetasining 1947--1948-yillarda chiqqan 4 sonini kuzatganda, undagi so'zlarning 18,7 foizi arab tiliga tegishli bo'lgan. 1966-yili "Toshkent oqshomi" gazetasida "Festival qo'shiqlari yangraydi" sarlavhasi bilan bosilgan maqolada 26,9 foiz arab so'zlari ishlatilgan. Hatto texnikaga oid maqolalar matnida ham arab so'zlarining salmog'i kam bo'lmagan. Chunonchi, "Sovet O'zbekistoni" gazetasining 1967-yil 18-yanvar sonida bosilgan "texnika remonti" sarlavhali maqola leksikasining 22 foizini arab so'zlari tashkil etgan.

Hozirgi davrda arab tilining o'zbek tiliga ta'siri ancha susaygan, chunki endilikda o'zbek va arab tillari orasida bevosita kontakt mavjud emas, u barham topgan.

O'zbek va rus tillari kontakti alohida yirik mavzu bo'lib, rus tilining turkiy tillarga, xususan, o'zbek tiliga ta'siri masalasi muhim sosiolingvistik ahamiyat kasb etadi. Turkiy va rus tillarining aloqasi Rossiya bilan O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar zaminida paydo bo'lgan.

Ma'lumki, rus va O'rta Osiy xalqlarining o'zaro aloqasi uzoq tarixga ega. Buni turkiy tillar, xususan, o'zbek tiliga kirib o'zlashgan rus so'zlaridan bilish mumkin. Rus va o'zbek tillari aloqasi O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishidan keyin yanada kuchaydi. Muqimiy, Furqat, Avaz singari o'zbek ma'rifatparvarlari ijodida qo'llangan ruscha so'zlar buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, oktyabr inqilobigacha Turkistonda nashr etiladigan "**Turkiston viloyati gazetasi**"da ham bir qator ruscha so'zlar uchraydiki, bu ham yuqorida aytilgan fikrni tasdiqlaydi.

Professor A.K.Borovkovning ko'rsatishicha, 1905-yilgi birinchi rus inqilobidan keyin o'zbek tiliga rus so'zlari va rus tili orqali lotin-grek va evropacha so'zlar kira boshlagan. Bu davrda rus va boshqa tillarga mansub so'zlar asosan nutqning og'zaki shakli orqali o'tgan. Ular o'sha davr imlosida ham shu shakllarini saqlagan holda yozilgan. Masalan, *iskalod (sklad)*, *inastran (inostranes)*, *pirakuror (prokuror)*. Shuningdek, frantsuz va italyan tillariga qarashli *ko'ng'ira (kongress)*, *qumita(komitet)*, *teatru(teatr)*, *sug'urta(straxovanie)* singari ayrim so'zlar o'zbek tiliga ozarboyjon tili orqali o'tgan.

O'zbek tiliga 1905 – 1907-yillar birinchi rus inqilobidan keyin o'tgan so'zlar qishloq va shaharlarning turmushidagi yangi tushunchalarni ifodalagan. Chunonchi, *zavod, fabrika, gastinisa, konka(tramvay), mashina, poyezd, vokzal, vagon, pochta, kvartir. zalog, podryad; Uprava(upravlenie), bo'lis(volost), guberniya, zakaz, firma, birja, arbitraj, bank, rasxod, oborot, partiya, miting, дума* va b.

Rus tili so'zlarining o'zbek tiliga kirib kelishi, ayniqsa, oktyabr inqilobidan keyin faollashdi. O'zbek va rus lisoniy kontakti ikki xalq o'rtasidagi o'zaro munosabat, siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning yaqin bo'lishi, ham yozma, ham og'zaki nutqning ijobiy

ta'siri tufayli yuzaga keldi (bu haqda keyingi mavzularda atroflicha ma'lumot beriladi).

Turkiy urug' va qabilalar tili juda qadimiy davrlarda O'rta Osiyoda azaldan yashab kelgan eroniy tillar bilan aloqada bo'lgan. O'rta Osiyoda, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida yashagan xalq eroniy tillar guruhiga kiruvchi mahalliy til lahjalarida gaplashgan. Bu urug' – qabilalar, xalqlar – **sug'dlar, saklar, massagetlar, baktriyaliklar, parfiyanlar, parikaniylar, xorazmiylar** va boshqalarning tili bo'lgan. Shuningdek, qadimiy Baktriya podsholigida grek tilidan, shuningdek, grek va eroniy tillar qorishmasidan iborat bo'lgan tildan ham foydalangan.

Ma'lum tarixiy sabablarga ko'ra, tojik-fors tili, xususan, uning adabiy tili o'zbek tilining adabiy tili rivojida arab tiliga nisbatan ham muhimroq ahamiyat kasb etadi. Buning sababi o'zbek va tojik xalqlarining asrlar davomida bir umumiy hududda yashab, bir xil tarixiy sharoitda turmush kechirishlaridir. Buning natijasida bu ikki xalqning urf-odatida, dunyoqarashida, san'at, adabiyot, musiqa singari madaniy hayotida ko'pgina mushtarak unsurlar yuzaga keldi.

Adabiyot va uning turli janrlarida, rasmiy hujjatlar, ilmiy-falsafiy va diniy asarlar tilida, uslubida ozmi-ko'pmi umumiy nuqtalar shakllandi. Bu umumiylik hatto she'riy-aruz vaznidan foydalanishda ham mavjud edi.

Fors-tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri, ayniqsa, Somoniylar dinastiyasi davrida ancha sezilarli bo'lgan. Bu davrda fors-tojik tili davlat maqomidagi adabiy til sifatida keng tarqala boshlagan edi. Natijada barcha ijtimoiy sohada hukmron bo'lgan arab tilining mavqei susayib, iste'moli so'na boshlagan. XIV—XV asrlarda turkiy(o'zbek) ziyolilar, shoirlarning ko'pi tojik tilini yaxshi bilganlar. Har ikki tilda bir xil saviyada ijod qilganlar. Alisher Navoiy bu borada shunday yozgan edi: "*Turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ash'or va shirin guftor zohir qilurlar... Turkning ulug'idin kichigiga degincha va navkaridin begiga degincha sart tilidan bahramanddurlar*".

Tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri adabiy tilning ham yozma, ham og'zaki shakllarida amalga oshib, o'zbek tili leksikasida katta salmoqda tojik so'zlari qatlami vujudga keladi. Bu ta'sir o'zbek tilining grammatik qurilishida ham o'z ijobiy iziga ega bo'ldi. O'zbek tili fonetik tizimida tojik tilining ta'siri ancha sezilarli bo'ldi.

Xullas, o'zbek va tojik til kontakti alohida ahamiyatga ega va u o'zining uzoq tarixiga ega.

Sho'rolar davri o'zbek sotsiologiyasi

Ma'lumki, 1917-yili Rossiyada misli ko'rilmagan katta siyosiy o'zgarish bo'ldi. "Ulug' Oktyabr" nomi bilan ataluvchi inqilob tufayli Chor Rossiyasi hokimiyati tor-mor etildi. Ishchi-dehqon hokimiyati deb ataluvchi Sovet davlati barpo etildi. Inqilob garchi Rossiyada bo'lgan bo'lsa-da, bu voqea sobiq Chor Rossiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilgan O'rta Osiyo mamlakatlariga ham ta'sir qilmay qolmadi. Bolsheviklar partiyasi hukmronligida yangi Sho'rolar davlati barpo etildi. Bu davlat boshqaruviga O'rta Osiyo xalqlari yashaydigan mamlakatlar ham Ittifoqdosh respublikalar nomi bilan tortildi. O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Qozoqiston Butunittifoq qaramog'idagi mahalliy respublikalarga aylandi. Bu jarayonlarning barchasi til leksikasida o'ziga xos lug'aviy birliklar sifatida lisoniy shakliga ega bo'ldi. Sobiq Ittifoq bu respublikalar ta'lim tizimiga ham homiylik qila boshladi.

Boshqa respublikalar xalqlari tilida bo'lganidek, o'zbek tilida ham bolsheviklar partiyasi hukmronligidagi yangi davlatning mafkurasiga xizmat qiluvchi lug'aviy qatlam shakllandi. Sho'rolar tuzumining siyosati va mafkurasiga mos puristik harakatlar boshlandi. Sho'rolar siyosati va mafkurasiga to'g'ri kelmaydigan so'zlar yangi tuzum va yangi davr ruhiga mos boshqa so'zlar bilan almashtirildi. Masalan, *emloq*// *xastaxona* *kasalxona* so'zi bilan, *to'r hay'at* (*yoki rayosat*) *prezidium* so'zi bilan, *jahongirlik* *imperializm* so'zi bilan, *sarmoya* *kapital* so'zi bilan, *oto'yin tsirk* so'zi bilan, *qiblanamo* *kompas* so'zi bilan, *sarvatdorlik* *kapitalizm* so'zi bilan; *o'tomoch* *traktor* so'zi bilan, *o'ziqaynar* *samovar* so'zi bilan, *otasharava* *poezd* so'zi bilan, *ekin bilgich* *agronom* so'zi bilan, *simchiroq* *elektr* so'zi bilan, *achchil* *kislorod* so'zi bilan, *suvchil* *vodorod* so'zi bilan, *moddiyun* *materialist* so'zi bilan, *Ishtirokiyun* *kommunist* so'zi bilan, *qonuni asos* *Konstitusiya* so'zi bilan, *raisi jumhuri* *prezident* so'zi bilan, *manshur* *prizma* so'zi bilan, *qutur* *diametr* so'zi bilan, *murabba* *kvadrat* so'zi bilan almashtirildi. Bu misollar almashtirilgan so'zlarning "dengizdan tomchisi", xolos.

Xalq xo'jaligining turli sohalariga oid so'z va atamalar paydo bo'ldi. Shu tarzda milliy o'lka xalqlarining tili "rivojlanish" bosqichiga o'tdi. Ana shu yangi siyosiy ta'sir natijasida o'zbek tili leksikasi ham shiddat bilan boyiy boshladi. Buni Sho'rolar davrining turli yillarida nashr etilgan lug'atlardan bilish mumkin. Masalan, 1927 - yili chop etilgan birinchi "**O'zbekcha-ruscha ilmiy lug'at**"da o'zbek tili leksikasida 9 ming so'z borligi qayd etilgan bo'lsa, 1941 - yili prof. Qori-Niyoziy va prof. A.K.Borovkovlar tahriri ostida nashr etilgan "**O'zbekcha-ruscha lug'at**"da 17 ming so'z qayd etilgan. 1959-yili nashr etilgan shu tipdagi lug'at esa, 40 ming so'zdan iborat bo'lgan. 1981 - yili Moskvada ikki jildda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli

lug'ati"da bu miqdor 60 mingga yaqinlashgan. 2005 – yillar Toshkentda nashr etilgan besh jildli “ O'zbek tilining izohli lugati” da bu miqdor 80 mingdan oshdi.

Xullas, Sho'rolar davri o'zbek tili SSSR deb atalmish derjavaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ruhini, mafkurasini o'zida singdirishdek murakkab vazifani aks ettirish xarakterida bo'lgan. Bularning barchasi sotsiologvistikaning intralingvistikadan farq qiluvchi sinfiylik tavsifini ko'rsatuvchi xususiyatlardan biridir. Bular boshqa milliy respublikalar xalqlari tillarining ham Sho'rolar davri uchun tegishli asosiy xususiyatlar hisoblanadi. Sho'rolar davrida rus tilining mavqeini oshirish, uni keng miqyosda targ'ib qilish Kommunistik partiya til siyosatining "mag'zini" tashkil qilardi. Shu bois rus tilining milliy respublikalardagi mavqei yildan-yilga ortib, mustahkamlana bordi. 1966-1977 – yillar o'rtasida rus tilidan milliy respublika xalqlari tillariga 7253 asar tarjima qilinib, 156 million adadda chop etildi. Shu davr ichida milliy tillardan rus tiliga 7 mingga yaqin asar tarjima qilinib, 685 ming ekzemplarda nashr etildi. Faqat 1981-yilning o'zida sobiq sho`ro xalqlarining 100 tilidan rus tiliga 1374, chet el tillaridan esa 45 asar tarjimasi nashr qilindi.

Sho'rolar davrining 70-yillari o'zbek siyosiy, ijtimoiy hayotida rus tili va madaniyatini keng ko'lamda targ'ib qilish avj olgandi. Masalan, 1969-yilning 27--29-may kunlari Toshkentda "O'zbek tili nutq madaniyatiga bag'ishlangan 1 - Tilshunoslik konferentsiyasi" bo'lib o'tdi.

Bu anjumanda nutq so`zlagan I. Mo`minov o'z nutqida rus tili qatorida, tojik-fors tilining o'zbek tili, madaniyati, adabiyoti va ma'rifati tizimlaridagi ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, o'z nutqida u quyidagilarni aytdi: "...qadimdan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari mustahkam bo'lgan o'zbek va tojik xalqlarining do'stligi keyingi davrlarda yana ham yuksaldi. Endilikda bu do'stlikni yanada mustahkamlash uchun turli-tuman tadbirlar...o'tkazilmoqda. Tojikistonda tojiklar bilan birga o'zbeklar ham ko'pchilikni tashkil kiladi. O'zbekistonda esa tojiklar ham ko'p... tojik tilini puxta egallash o'zbek tili nutq madaniyatining bir qancha muhim masalalarini to'g'ri hal etishga yordam beradi. Zeroki, biror so'zning tarixiy-etimologik tomonlarini va grammatik xususiyatlarini yaxshi bilmay turib, uni to'g'ri talaffuz etish mumkin emas".

O'zbek til kontakti tadqiqi tarixiga bir nazar

Tillarning o'zaro aloqasi va ta'siri tilshunoslarni ancha qadimdan qiziqtirgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu masala turkiyshunoslikda dastlab Mahmud Qoshg'ariy e'tiborini jalb etgan. U mashhur "Devon ul-lug'at" (XI asr) asarida turkiy tillarning fonetik, lug'aviy va grammatik jihatlarini arab tilining fonetik, lug'aviy va grammatik xususiyatlari bilan qiyoslab o'rgangan birinchi komparativist

olimdir. U turkiy va arab tili tovushlari tizimini qiyoslab, arab tilida uchramaydigan turkiy til tovushlari, shuningdek, turkiy tillarda uchramaydigan arab tovushlari haqida qimmatli ma'lumot beradi. Turkiy va arab tillari kontakti tufayli turkiy tillarda vujudga kelgan "h" fonemasi xususida ham fikr bildiradi.

Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" (ikki til muhokamasi") asarida ham turkiy tillar kontakti bo'yicha qimmatli ma'lumot beriladi. Asarda turkiy tillar fors va arab tillari bilan qiyoslanib, o'sha davr o'zbek tilining fonologik tizimi haqida ilmiy ma'lumot berilgan. O'sha davr o'zbek tilining fonetik, lug'aviy, grammatik va uslubiy tizimi fors tilining fonetik, lug'aviy, grammatik va uslubiy tizimi bilan qiyoslanib, turkiy va forsiy tillarning o'zaro ta'siri bayon etiladi. "Muhokamat ul-lug'at"da o'sha davr o'zbek tilining fors tilida muqobili bo'lmagan yuzta fe'l leksema, bir necha ot leksema va fors tilidagi turkiy lug'aviy o'zlashmalar haqida ma'lumot beriladi. O'zbek va fors ikki tilliligi e'tirof etiladi.

O'zbek til kontakti va uning ko'lami masalasi keyingi davrlarda o'zbek tilshunoslarining ham e'tiborini jalb eta boshladi. A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, Q.Xonazarov, G'.Abdurahmonov, O.Azizov, O.Po'latov, Sh.Rahmatullaev, A.A.Soy, I.Asfandiyorov, K.Yusupov, M.Mirzaev, D.Eshondadaev, N.G'ulomova, M.Mirtojiev, N.Mahmudovlarning shu masalaga doir monografiya va maqolalari e'lon qilindi, dissertasiyalar yoqlandi.

O'zbek adabiy tili va uning taraqqiyoti

O'zbek tili adabiy til darajasida shakllanganligiga qadar bir necha bosqichlarni boshdan kechirdi. O'zbek adabiy tili o'zbek milliy tili zaminida paydo bo'ldi. O'zbek etnik jamoasi rivojlanib, millat darajasiga etishgach, chin ma'nodagi adabiy til shakllandi. Unga qadar ijtimoiy ko'lami nisbatan tor mahalliy adabiy til mavjud edi.

Shunisi muhimki, qadimgi turkiy adabiy til, eski o'zbek adabiy tili hozirgi o'zbek adabiy tilining "poydevori" vazifasini o'tadi. Qadimgi turkiy adabiy til eramizning V asrida shakllanib, XIV asrgacha faoliyatda bo'lgan. Bu adabiy til V.V.Radlov, V. Tomsen, P.M.Melioranskiy, S.E. Malov singari turkologlar tomonidan topilib, sharhlangan O`rxun-Enasoy (yoki runik) va uyg'ur yozuvlari zaminida paydo bo'lgan. Bu yozuvlarda qadimgi turkiy xalqlarning milliy-badiiy ijodi o'z ifodasini topgan edi. Eski o'zbek adabiy tilining yuzaga kelishi o'zbek xalqining mustaqil etnik jamoa sifatida shakllanishi bilan bog'lanadi. Eski o'zbek adabiy tilining asosiy xususiyatlari XI--XIV asrlar yozma yodgorliklarida o'z lisoniy ifodasini topgan edi. Shunday qilib, hozirgi o'zbek adabiy tili shunchaki o'z-o'zidan, biror-bir manbaga asoslanmagan holda paydo bo'lgan lisoniy boylik emas. Qadimgi turkiy adabiy til, eski o'zbek adabiy tili hozirgi o'zbek adabiy tili uchun

manba, poydevor vazifasini o'taydi. Agar shu tarixiy manbalar bo'lmaganda, hozirgi o'zbek adabiy tili xususida so'z borishi amri mahol bo'lar edi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili – bu milliy adabiy tildir, o'zbek millatining ma'naviy, lisoniy boyligidir. Milliy til butun millat uchun xizmat qiluvchi yagona aloqa vositasi bo'lib, uning doirasida tilning yozma va og'zaki shakllari hamda lahjalar birlashadi. Milliy til davrida adabiy til umumxalq tili vazifasini bajara boshlaydi. Maktab, matbuot, radio, televidenie, kino, yozma adabiyot va boshqa vositalar adabiy tilning umumxalq tiliga aylanishida muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, har qanday til o'z rivojlanish tarixida turli bosqichlarni bosib o'tadi. Til rivojining mana shu bosqichlarida uning lug'at tarkibi va grammatik qurilishida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu hol o'z-o'zidan har bir davr tilining o'ziga xos xususiyatlari va me'yorlarini yuzaga keltiradi. Mana shu me'yorlarga ko'ra, bir davr adabiy tili ikkinchi davr adabiy tilidan ma'lum xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Til rivojining muayyan davri uchun xos leksika, grammatik vositalar o'sha davr adabiy tiliga xos me'yorlarini belgilaydi. Tilshunoslikda bunday me'yorlar invariant me'yor, ya'ni davriy me'yorlar deb yuritiladi. Invariant (ya'ni davriy) me'yor tilda, ayniqsa, uning adabiy shaklida, o'sha davrning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xarakter va ehtiyojlariga muvofiq yuzaga keladi. Masalan, o'zbek adabiy tilining eski o'zbek adabiy tili davri, yangi o'zbek adabiy tili davri, oktyabr inqilobidan keyingi milliy adabiy tillik davri me'yorlari ma'lum lisoniy xususiyatlari bilan farqlanadi. Bularning har qaysisi o'zbek adabiy tilining tarixiy rivojlanish bosqichlaridagi o'ziga xos invariant me'yorlardir. Odatda, bir davr invariant me'yorining ikkinchi davr invariant me'yor bilan almashinishi tilning umumme'yoridagi o'zgarishlarni, rivojlanish bosqichlarini ko'rsatadi va bunday o'zgarishlar har bir davr tili oldiga qo'yilgan kommunikativ talablar, sosial-iqtisodiy ehtiyojlar bilan aloqador bo'ladi.

Demak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, turli davrlarda shakllangan adabiy tillar bir-biridan farq qiladi. Masalaga aniqroq yondoshadigan bo'lsak, XV asr adabiy tili va uning me'yorlari bilan XIX asr adabiy tili va uning me'yorlari, shuningdek, XX asr va undan keyingi davr adabiy tili va ularning lisoniy me'yorlarini bir xil deb bo'lmaydi. Ayniqsa, XV va XIX asr o'zbek adabiy tili bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ular XX asr va undan keyingi o'zbek adabiy tilidan sezilarli farq qiladi. XV va XIX asr o'zbek adabiy tili xalq tilidan, mahalliy shevalardan ancha uzoq bo'lgan. Uni xalqning barcha ijtimoiy tabaqa vakillari bir xil tushunmagan. Ulardan farq qilgan holda, XX asr va undan keyingi o'zbek adabiy tili o'zbek millatiga mansub barchaga yaxshi tushunarli bo'lgan. Chunki bu davr adabiy tilining leksik, grammatik, orfografik va orfoepik me'yorlari, umumxalq tili va uning lahjalari yaqinlashtirilgan holda, shakllantirilgan.

XX asr o'zbek adabiy tilining shakllanishi va ravnaqida vaqtlilik matbuot ham muhim rol o'ynagan. Ma'lumki, O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, o'sha davr o'zbek adabiy tili leksikasi

rus tili va u orqali kirib kelgan chet so'zlar hisobiga sezilarli kengaydi. 1870-yili birinchi bo'lib mahalliy tilda "Turkiston viloyatining gazetasi" nashr etila boshladi. Keyinchalik bu nashr yoniga "Ulfat" (1905), "Taraqqiyot" (1906), "Vaqt" (1907), "Jarchi millat" (1909), "Buxoroi sharif" (1912), "Turon" (1912), "Samarqand" (1913), "Sadoi Farg'ona" (1914), "Navbahor" (1914), "Sadoi Turkiston" (1914), "Najot" (1917), "Turk eli" (1917) singari gazetalar kelib qo'shildi. Bu vaqtli matbuot nashrlari orqali o'zbek tiliga rus tilidan *aeroplan, bank, bankir, birja, byudjet, vagon, vokzal, veksel, pochta, pochtaxona, shtab, shtabs-kapitan, sterling, miting, master, masterxona, marka, matros, flot, feldsher, futbol, tramvay, rang, revolver, zal, grupp*a singari so'zlar kirib keldi. O'simlik va poliz ekinlari mahsulotiga aloqador *pomidor, qulupnay, bolgar murchi, pasternak, shovul, chesnok, kartoshka* singari so'zlar ham dastlab ana shu gazetalar sahifasida ko'zga tashlangan. Demak, ma'lum bo'ladiki, o'zbek adabiy tilida rus tili va u orqali o'zlashgan chet so'zlar, hozirgi o'zbek adabiy tili shakllanganga qadar, paydo bo'la boshlagan. Shu tarzda bu davr o'zbek adabiy tili oldingi davr o'zbek adabiy tilidan farq qilgan. Bu davr o'zbek adabiy tili leksikasida oldingi davr o'zbek adabiy tili leksikasida bo'lmagan rus va Evropa xalqlari tiliga mansub ko'plab lug'aviy birliklar vujudga kelgan.

Adabiy tilning, oldin ham aytilganidek, biri boshqasi bilan uzviy aloqadagi ikki shakli bor. Bu **yozma** va **og'zaki adabiy** tildir. Bu ikki shakl o'zbek adabiy tili uchun ham xosdir. O'zbek yozma adabiy tili xususida yuqorida ham ancha gap aytili.

Endi **o'zbek og'zaki adabiy tili** xususida ikki og'iz so'z. O'zbek og'zaki adabiy tilining uzoq tarixi bor. O'zbek xalqining boy og'zaki ijodi—qo'shiq va laparlari, ertak va dostonlari, maqol va matallari, topishmoq va askiyalari, afsona va hikoyalari necha-necha asrlar osha og'izdan-og'izga, nasldan-naslga o'tib kelmoqda. Og'zaki adabiyotning bu janrlari, zamon o'tishi bilan, o'z shakli va mazmunini boyitadi, kengaytiradi va silliqlashtiradi. Shunisi ham borki, o'zbek og'zaki adabiyoti yozma adabiyot paydo bo'lib, shakllanib, rivoj topgach, umumxalq iste'molidan qoladi. Faqat hududiy va etnografik xarakter kasb etib, an'anaviy milliy marosimlardagina ularga murojaat qilinadi. Alla, yor-yor, Navro'z tantanalarida, kelin tushirish va kelin salomlardagina ular odatdagiday "kuchga kiradi".

O'zbek adabiy tilining vazifaviy uslublari. Hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi vazifaviy uslublari amal qiladi:

- 1) so'zlashuv uslubi;
- 2) rasmiy uslub;
- 3) ilmiy uslub;
- 4) diniy-ma'rifiy uslub;
- 5) ommaviy-axborot uslubi;
- 6) badiiy uslub.

So'zlashuv uslubi til jamoasining kundalik muloqoti uchun xizmat qiladi. So'zlashuv uslubi muloqot jarayonida erkin va hech qanday tayyorgarliksiz amalga oshadi. Unda lisoniy birliklar amaliga paralingvistik vositalar hamrohlik qiladi. Jumlar oddiy tuziladi. To'liqsiz va bir bosh bo'laklar faol ishlatiladi. So'zlashuv uslubiga asoslangan nutq ta'sirchan bo'ladi.

So'zlashuv uslubining ikki turi mavjud: a) oddiy so'zlashuv uslubi; b) adabiy so'zlashuv uslubi. Oddiy so'zlashuv uslubida adabiy til me'yorlariga rioya qilinmaydi. Adabiy so'zlashuv usulida esa, rioya qilinadi. Adabiy so'zlashuv uslubidan radio va telemuloqotlarda foydalaniladi.

Rasmiy uslub ma'muriy joylarda, rasmiy shaxslarning fuqorolar bilan muloqotida foydalaniladi. Ommaviy axborot tilida rasmiy uslub faol amal qiladi.

Matbuot sahifalarida huquqiy va diplomatik munosabatlarga oid turli hujjatlar, rasmiy yozishma va axborotlarga keng o'rin beriladi: ma'muriy-idoraviy hujjatlarning ayrim turlari e'lon qilinib, sharhlab boriladi. Dunyoda yuz berayotgan xilma-xil voqea-hodisalarga oid rasmiy ma'lumotlar, xronik xabarlar ommaviy-axborot faoliyatining tarkibiy qismi sanaladi va ular rasmiy uslub yordamida ma'lum qilinadi.

Ilmiy uslub-bu fan tilining asosini tashkil qiladi. Fan va texnikaga oid ma'lumotlar shu uslub yordamida bayon qilinadi. Ilmiy uslubning sof ilmiy, ilmiy-texnikaviy (hujjatlar uslubi), ilmiy-ma'rifiy (ta'limiy uslub) va ilmiy-ommabop singari turlari mavjud. Ilmiy uslubning ham og'zaki va yozma shakllari mavjud. O'qiladigan ma'ruzalar ilmiy uslubning og'zaki shakliga kiradi. Monografiya, o'quv qo'llanmalari, ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar matni ilmiy uslubning yozma shakliga kiradi.

Diniy-ma'rifiy uslub diniy mavzulardagi axborotlarda amal qiladi. Masjidlarda, juma nomozida nomozxonlar jamoasiga etkaziladigan axborotlar, janozalarda mayyit sha'niga aytiladigan "iliq xotira"lar shu uslub yordamida bayon qilinadi.

Ommaviy-axborot uslubi til jamoasining barchasi uchun xos va tegishli bo'lgan muloqot shaklining asosini tashkil qiladi.

Badiiy uslub yordamida til jamoasining ma'naviy va madaniy milliy boyligi sanaluvchi badiiy asarlar matni yaratiladi.

O'zbek nutqi madaniyatining ijtimoiy asoslari

Adabiy tilni nutq madaniyatisiz tasavvur etish qiyin. Zero, adabiy til shakllanib, rivojlanmas ekan, nutq madaniyati shakllanmaydi. "O'zbekistonning davlat tili haqidagi Qonunining qabul qilinishi o'zbek xalqi ma'naviy-ma'rifiy hayotida ulkan voqea bo'ldi. «Qonun"ning barcha moddalari o'zbek adabiy tilining mavqeyini, ijtimoiy vazifalarini to'la tiklash va yanada rivojlantirishga qaratilgan. Bu tadbir o'zbek nutqi madaniyatini keng ravishda shakllanish va rivojlanishga imkon yaratadi.

Nutq madaniyati adabiy til me'yorlarining yuksak darajada ishlangan, shakllangan va takomillashganiga, bu til jamoasining yuksak ongliligi va mas'uliyatiga bog'liqdir. Bu jihat ham nutq madaniyatining adabiy tilga tayanib ish ko'rishiga ishoradir.

Davlat tili haqidagi "Qonun" da ko'rsatilishicha, o'zbek tili va uning adabiy shakli davlat idoralari, pasport bo'limlarida, sud ishlarida, reklama va e'lonlar tilida asosiy lison vazifasini o'taydi. Zero, davlat tili haqidagi "Qonun" ta'sis etilgunga qadar bu sohalarning barchasida rus tili ishlatilar edi.

Yuksak o'zbek nutqi madaniyatining shakllanishiga o'zbek adabiy tilining yozma shaklini takomillashtirish, puxta va qulay imlo va ishoraviy (punktuation) qoidalar tizimini ishlab chiqish, umumxalq adabiy talaffuz shakllarini ishlab chiqish, ularga ommaviy tarzda amal qilish singari tadbirlarni amalga oshirish orqali erishiladi.

Til amalidagi eng ommaviy shakl – bu og'zaki nutqdir. Chunki nutq madaniyatining xususiyatlari, eng avvalo, nutqning og'zaki shaklida aniq namoyon bo'ladi. Adabiy tilning og'zaki shakli o'zbek tilshunosligida tugal tadqiq etilgan emas. Og'zaki nutq madaniyatni yuksaltirish birinchi navbatda adabiy talaffuz normalarini takomillashtirish va unga amal qilishga bog'liqdir. Shu sababli o'zbek radio va televideniesi nutqini, o'zbek sahna nutqini, lektorlar, o'qituvchilar nutqini va , umuman, o'zbek ziyolilari nutqini, badiiy (ifodali) o'qish va notiqlik san'ati deb yuritiluvchi sohalarda ish ko'ruvchi nutq ko'rinishlarini nutq madaniyati nuqtai nazaridan keng tahlil qilish kerak.

Nutq madaniyati faqat lisoniy masala sifatida cheklanmaydi. U chin ma'nodagi ijtimoiy (sosial) masala hamdir. Nutq madaniyati –insoniy madaniyat, axloqiy va estetik did, yuksak onglilik mezoni hamdir. Nutq madaniyati shaxs madaniyatining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunga ona tiliga bo'lgan yuksak e'tibor, mehr-u muhabbat va ardoq bilangina erishiladi. Demak, nutq madaniyati, eng avvalo, tilga mehr va yuksak munosabat madaniyatidir. Tilga e'tibor ayni o'rinda shu til jamoasiga bo'lgan iliq e'tibordir. "Tilga e'tibor—elga e'tibor" maqoli dono xalqimiz tomonidan bejiz aytilmagan.

Nutq madaniyati «nutq odobi» degan tushunchani ham o'z ichiga oladi. Nutq odobi orqali shaxsning tarbiya saviyasi, madaniyati, bilimi, odamlarga munosabati singari bir qator ijtimoiy holatlar belgilanadi. Har bir tilda odobli nutqni yuzaga chiqaruvchi o'ziga xos lisoniy birliklari bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida bunday birliklarga *Assalomu alaykum ('salom' emas!), va alaykum assalom ('va alayk' emas!) marhamat, kechirasiz, xush ko'rdik, xayr, salomat bo'ling, yaxshi qoling, hurmatli, muhtaram, qadrlil, aziz (do'stim), akaxon, otaxon, onaxon, opajon, tog'ajon* va h. kiradi. Naqliyotda yoshi ulug' kishilarni hurmat qilib, joy berganda, *"mana, o'tiring", "keling, o'tiring", "tog'a, o'tiring", "opa, o'tiring", "tog'ajon, o'tiring", "opajon, o'tiring", "marhamat, o'tiring"* singari nutqiy murojaatlar

bo'lishi mumkin. Shulardan «*tog'ajon yoki opajan, marhamat, o'tiring*» varianti nutq odobiga tegishli bo'lib, so'zlovchining yaxshi tarbiya ko'rganligini bildiradi. Bunda "*marhamat*" so'zi, "tog'a", "opa" so'zlariga qo'shilgan "-jon" unsuri nutq odobini ro'yobga chiqaruvchi lisoniy vositalardir. Ro'paradan kelayotgan tanishga qo'lni baland ko'tarib, "*Salom, Anvar!*» yoki "*Privet, Anvar!*» singari murojaatlar nutq odobiga zid holat sanaladi, so'zlovchining me'yoriy tarbiya ko'rmaganligini bildiradi. Yaxshi tarbiya ko'rgan "bama'ni" shaxslar tinglovchiga (adresatga) murojaat qilganda, birinchidan, ularning ismlarini to'liq va to'g'ri aytadi, ikkinchidan, ular ismiga "-boy", "-bek", "-jon"(erlar jinsiga mansub bo'lsa); "-xon", "-oy", "-Niso", "-Bibi", "-poshsho" (ayollar jinsiga mansub bo'lsa) qo'shimchalaridan birini qo'shib, murojaat qiladi. Bunday hollarda so'zlovchi shaxs nutq odobiga rioya qilgan bo'ladi. "*O'qituvchimiz har bir mavzuni maroqli tushuntiradi*" gapi bilan "*O'qituvchimiz har bir mavzuni maroqli tushuntiradilar*» gapi pragmatik jihatdan farq qiladi. Ikkinchi gap so'zlovchining odobli nutqqa egaligini bildiradi. Bu farq shu gap kesimi (*tushuntiradilar*) tarkibidagi "-lar" qo'shimchasi tufayli sodir bo'layotir.

Nutq odobi "*salomlashish*", "*tanishuv*", "*xayrlashuv*", "*kechirim so'rash*", "*ko'ngil so'rash*", "*istak bildirish*", "*iltimos qilish*", "*maslahat so'rash*", "*maslahat olish*" singari mavzularda o'ziga xos lisoniy vositalarga ega bo'ladi. Nutq odobi bilan bog'liq hodisalar tilshunoslikning **pragmatika** (*pragmatik tilshunoslik* yoki *lingvistik pragmatika*//*lingvopragmatika*) deb ataluvchi tarmog'ida o'rganiladi.

Nutq odobini ro'yobga chiqaruvchi lisoniy vositalar shaxsning jinsi, yoshi, kasbi, ma'lumoti va hududi (lahja yoki shevasi) jihatdan farq qiladi. Masalan, "*aylanay*", "*qoqindiq*", "*onang//opang//ammang//xolang o'rgilsin*" singari lisoniy vositalar ayollar nutqi odobiga tegishlidir. Shu lisoniy birliklar erkaklar nutqida ko'zga tashlansa, ajabtovur kulgili vaziyat paydo bo'ladi. Bu va bu kabi munosabatlar nutq madaniyatining real amallaridan biridir.

Nutq odobining ham og'zaki va yozma shakllari bo'ladi. Shuningdek, uning kontaktli (**yuzma-yuz**) va distaktli (**telefon orqali, internet tarmog'i orqali**) turlari ham bor.

Xullas, nutq madaniyati bir qator masalalarni o'z ichiga olgan keng tushunchadir. Shaxsning o'z atrofidagilarga muomalasi, madaniyati, fikrini yozma va og'zaki shakllarda to'g'ri, ta'sirchan, ibratli ifodalay olish malakasi va mahorati va b. nutq madaniyati doirasiga kiradi.

O'zbek tilining davlat tili maqomi tarixiga doir

1917-yil oktyabridagi Rossiyadagi inqilobiy voqea butun Markaziy Osiyo va Zakavkaziya o'lkalariga ham ta'sir qilmay qolmadi. Bu o'lkalardagi mamlakatlarning sobiq sho'rolar tarkibiga ittifoqdosh respublikalar maqomi bilan tortilishi shu respublikalarda yangi siyosiy tuzumga xos til vaziyatini ham vujudga keltirdi. Buning oqibatida boshqa milliy respublikalarda

bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham ham rus tilining o'zbek tiliga tazyiqi kuchaydi. O'zbek tili XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa, XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarning oxiriga qadar rus tilining qattiq ta'siri ostida qoldi...

Aslida, o'zbek tiliga rus tilining ta'siri 1865-yildan, ruslar Turkistonni istilo qila boshlashi bilan oq, boshlangan. O'sha davrlarda yashab ijod etgan yirik o'zbek mutafakkiri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat asarlaridagi *gimnaziya, royal, vistavka, telegraf* kabi ruscha yoki ruscha shakldagi so'zlarni eslash kifoya.

Ta'kidlash joizki, 1917-yil inqilobidan keyin milliy o'lkalarda ruslashtirish siyosatiga qattiq kirishildi. 1918-yilda Turkiston o'lkasining asosiy Qonuni qabul qilindi. Unda turkiy (o'zbek) va rus tillari davlat tili deb e'lon qilindi.

Turkiston o'lkasining o'sha davrdagi milliy tarkibi achinarli edi. O'sha vaqtlardagi aholi ro'yxatiga ko'ra, o'zbeklar o'lka aholisining 37, qirg'izlar 35, tojiklar 17, ruslar 7 foizini tashkil etardi. Biroq asosiy Qonunda o'zbek tili bilan birga qirg'iz yoki tojik tiliga emas, balki o'lkadagi aholining eng oz miqdorini tashkil qilgan ruslarning tiliga davlat maqomi berilgani hayratlanarli edi. Hokimiyat va davlat idoralaridagi ma'murlarning aksariyati ruslar bo'lganligi uchun, davlat tili faqat birgina rus tilining o'zi bo'lib qoldi. Rasmiy masalalarda asosan rus tilining mavqei ustunlik qildi.

Joylardagi ayrim noroziliklar hisobga olindi shekilli, partiyaning 1921-yildagi X va 1923-yildagi XII majlislari ittifoqdosh respublikalar tillarini shu respublikalarning davlat tili deb e'lon qildi. Shu tariqa milliy respublikalar tillariga bir oz "erkinlik" berilganday bo'ldi. Bunga asoslanib, O'zbekiston Jumhuriyati Inqilobiy Komitetining 1924-yil 31-dekabrda yig'inida "**Ishlarni o'zbek tilida yurgizish**" to'g'risida qaror qabul qildi. Lekin oradan besh-olti yil o'tar-o'tmas, bu qaror amalga oshib-oshmay, bekor qilindi. Gruzin, arman va ozarbayjon tillaridan tashqari, boshqa milliy respublikalarda ularning tiliga berilgan davlat maqomi o'z kuchini yo'qotdi...

1988-yili o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida har sohaning etakchi ziyolilaridan iborat nufuzli komissiya tuzildi. «**Sobiq ittifoq xalqlari tillari haqida**» davlat qonuni loyihasi ham e'lon qilindi. Unda rus tili Sobiq sho'rolarning barcha respublikalarida "*millatlararo rasmiy til*", ona tili esa "davlat tili" maqomida qonuniylashtirildi.

O'zbekistonda o'zbek tilining davlat tili haqidagi qonun loyihasi keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilib, nihoyat, 1989-yilning 21-oktyabrda O'zbekiston Oliy Soveti tomonidan tasdiqlandi. 21-oktyabr "**Ona tili bayrami**" kuni deb e'lon qilindi.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qildi **1-sentyabr** mustaqillik bayrami sifatida keng nishonlanadigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi 1995-yilning 21-dekabrda yangi tahrirdagi "**Davlat tili haqida**"gi qonun qabul qildi. Bu qonunda respublikada davlat

tili maqomida rasmiylashgan o'zbek tilini rivojlantirish choralari belgilab berildi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ziyolilar oldiga muhim amaliy vazifalar bajarishga undovchi mas'uliyat ham yukladi. Bu vazifa shundan iboratki, davlat tili haqidagi qonun va uning ko'rsatmalarini tezkorlik bilan amalga oshirish, o'zbek tilini keng miqyosda o'rganish, uning adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish va amalda qo'llash zarur. Buning uchun eng avvalo, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa ta'limiy vositalarni yangilash, ularni takomillashtirish shart. Aholining o'zbek tilini o'rganishi uchun bunday kitoblar suv bilan havoday zarur edi.

O'zbekistonda barcha etnik jamoalar tillarining erkinligi va tengligi, ular taraqqiyotining ta'minlanishiga zaruriy shart-sharoitlar mavjud. Davlat tilini va boshqa tillarni o'rganish rag'batlantiriladi. Qonunga ko'ra, rahbar-xodimlar va xizmat taqozosiga ko'ra aholi bilan bevosita og'zaki munosabatda bo'ladigan kishilar davlat tilini—o'zbek tilini bilishlari shart. Xalqning qalbini, dilini bilmasdan turib, uning mehriga sazovor bo'lish mumkin emas. Xodimlarining mehrini, ishonchini qozona olmagan rahbar esa ishni yurgiza olmasligi tayin.

Do'stlikday muqaddas tushuncha ham qalb qatida bo'ladi. Til esa--ana shu qalbning oynasi. Har kuni, har soatda bu oynaga qarab turish kishilar o'rtasidagi Do'stlik rishtalarini mustahkamlaydi. Buning ustiga, kishi qanchalik ko'p tilni bilsa, u dunyoni shuncha turfa ko'radi. Zero, mutafakkirlar aytib o'tganlariday, bir tilning boshqa tildan farqi turli tovush komplekslaridagi farqda emas, balki har bir til dunyoni o'ziga xos tarzda ko'rish hamdir. Shuning uchun ham "ko'p tilni bilgan ko'p biladi" deydilar.

Tillarga davlat maqomi berilishi bilan, ijtimoiy hayotda o'sha tilga "imtiyozli e'tibor" nuqtai nazaridan har xil kayfiyatdagi oqim va guruhlar ham paydo bo'ladi. Tilni yot lisoniy unsurlardan tozalashga bo'lgan harakat ana shu "kayfiyat"lardan biridir.

O'zbekistonda ham davlat tili haqidagi Qonun qabul qilinishi bilan, ona tilini chet so'zlardan tozalash borasida turli xil hatti-harakatlar boshlandi. O'zbek tilini rus tili va u orqali o'zlashgan so'zlardan tozalashga urinish kuchaydi. Ruscha va evropacha boshqa so'zlar o'rniga arabcha, forsha muqobillar tanlab, tavsiya etish avj oldi, turlicha sun'iy yasalmalar paydo bo'la boshladi. Ana shu yo'nalishdagi ishlarni tartibga solish maqsadida o'tgan asrning to'qsoninchi yillarida Respublika Vazirlar Mahkamasi qoshida atamashunoslik komiteti tuzildi va u O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti bilan hamkorlikda bir qator amaliy tadbirlar o'tkazdi. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarga qarshi "kurash" boshlandi. Ayrim mualliflar tomonidan yangi "**Atamalar lug'ati**" ham tuzilib, nashr qilindi (masalan, J. Umarovning taxminan ming so'zni o'z ichiga olgan lug'ati, Qo'qon, 1999). Ularda tilimizning me'yori va hazmiga sig'ishmaydigan ajabtovur atamalar tavsiya etildi. Masalan, *diktafon* o'rniga *unyozar*, *gramplastinka* o'rniga *sadobarkash*, *anarxist* o'rniga

boshboshdoqchi, makaron o'rniga yo'g'on ugra, milisioner o'rniga tartibposbon, monokultura o'rniga yakkaziroatchilik, veshalka o'rniga chilcho'p, monolog o'rniga yakkanutq, nomer o'rniga, belgi//raqam, otkritka o'rniga ochmaxat //oynaxat, podval o'rniga erto'la, portfel o'rniga juzgir, robot o'rniga temirtan, trevogo o'rniga ogohsado, programma o'rniga maromnoma va b. Biroq tavsiya etilgan yangi atamalarning ko'pchiligini tilimiz "hazm" qila olmadi, ommaviy va rasmiy iste'molini topmadi. *Tuman//nohiya* (rayon), *viloyat*(oblast), *talaba*(student), *shifokor*(vrach), *muhandis* (injener), *yo'llanma*(napravlennie), *murabbiy*(trener) singari yuzlarcha so'zlar esa, hozirgi o'zbek tili hazmiga singishib, rasmiy va ommaviy tarzda o'zlashib ketdi.

Shunday qilib, **Mustaqillik** sharofati bilan *o'zbek tili* O'zbekistonda, shuningdek, o'zbeklar ikkinchi yerli aholi hisoblangan boshqa qardosh respublikalarda (**Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozoqiston**) o'zining chin ma'nodagi rivojlanish yo'liga tushib oldi.

O'zbek yozuvining lotinlashtirilishi tarixiga doir

Har bir tilning milliy mustaqilligi ko'p jihatlardan yozuvga bog'liq. O'zbek tilida ham, boshqa turkiy va forsiy xalqlarda bo'lganidek, asrlar osha arab grafikasi asosidagi yozuvdan foydalanib kelingan. O'zbek yozma adabiy tili XV asrdayoq shakllangan edi. O'zbek yozma adabiy tilining bu davri X - XIV asr yozma yodgorliklari tilidan sezilarli farq qilgan. XV asr eski o'zbek adabiy tilida, oldingi davr yozma yodgorliklari tilidan farq qilgan holda, arab va fors tillaridan o'zlashgan lug'aviy birliklar nihoyatda ko'p bo'lgan.

XV asr eski o'zbek adabiy tilida badiiy poetik nutq badiiy prozaik nutqqa nisbatan imtiyozli rivojlangan edi. Oktyabr inqilobiga qadar ko'p asrlik ibratli an'anaga ega bo'lishiga qaramay, o'zbek adabiy tilining ta'sir doirasi ancha tor bo'lgan: til jamoasining savodxonligi past ko'rsatilib kelingan.

1913-yili O'zbekiston hududida davriy matbuot nashri atigi 44 ming adadda bo'lgan; har xil tillarda, chunonchi, rus tilida ham nashr etilgan kitoblar nashri 118 ming adadni tashkil qilar edi. Bu kabi noxush vaziyatga yozuv va unga bo'lgan turli xil ijtimoiy munosabatlar sabab bo'lgan. VI-X asrlarga qadar turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi qadimgi uyg'ur va runik yozuvlaridan foydalanib kelgan bo'lsa, arablar istilosi tufayli Islom dinini targ'ib qiluvchi arab yozuviga o'tishga majbur bo'lgan. Arab alfaviti hukmronlikni qo'lga olib, O'rta Osiyo madrasalaridagi ta'lim arab alifbosi asosidagi yozuvda olib borilgan. Shu yozuvda o'quv kitoblari nashr etila boshladi. 1913-yili Toshkentda tatar millatiga mansub o'qituvchi Ismoil Aloviyatning "Arab talaffuziga mos ohangda qur'onning o'qilishi haqidagi fan" ("Nauka o chtenii Korana s soblyudeniem izvestnoy intonasii golosa") kitobining o'zbek tiliga tarjimai bosilib chiqdi.

O'rta Osiyo respublikalari Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng, nashr ishlarida bir oz jonlanish ko'zga tashlana boshlandi. O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Namangan va boshqa shaharlarida gazeta, jurnal va kitoblar nashr etila boshladi.

O'zbek ziyolilari arab alifbosining o'zbek adabiy tilining me'yor va maromlariga mos keladigan ixchamlashgan shakllarini ishlab chiqish masalalarida bosh qotira boshlashdi. 1918-1922-yillarda "chig'atoy gurungi" arab grafikasi asosidagi milliy (o'zbek) yozuvida unli fonemalarni ifodalovchi harflar tizimini taklif qildilar. Biroq bunday hatti-harakatlarga "eskiorfografistlar" deb ataluvchi guruhlar tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatar edi. Yozuvga isloh kiritishga uringanlar "yangiorfografistlar" deb atalgan. Har ikki tarafga qo'shilishni istamagan "betaratorfografistlar" guruhi ham yo'q emasdi.

Arab alifbosi asosidagi o'zbek yozuvining savodxonlikka to'siq bo'luvchi tomonlari o'sha davrning etuk ziyolisi Abdurauf Fitrat tomonidan bir necha bor e'tirof etilgan edi. U 1921-yili yanvar oyida bo'lib o'tgan til va imlo qurultoyida arab yozuvida savod chiqarishning qiyin va noqulay tomonlari haqida kuyinib gapirgan. Fitrat arab alifbosi asosidagi yozuvning noqulay tomonlari sifatida quyidagilarni ta'kidlagan edi: 1) unli tovushlarni ifodalovchi harflarning yo'qligi; 2) ayrim undosh va unli tovushlar uchun bir shaklning mavjudligi ("u", "o" tovushlari bilan "v" tovushi bir harf bilan ifodalanadi); 3) har bir harfning to'rt shaklda berilishi va b.

1923-yili oktyabr oyida Buxoro shahrida O'rta Osiyo o'zbeklarining imlo masalasiga bag'ishlangan birinchi anjumanida "yangiorfografistlar"ning imlo islohi haqidagi taklifi qabul qilindi: Arab grafikasi asosidagi alifbodan 9 harf chiqarib tashlandi. Bu loyiha Turkiston Narkomprosining 1923-yil 18-oktyabr buyrug'i bilan tasdiqlandi va u 1930-yilga qadar o'z kuchida amal qildi.

Arab alifbosining isloh qilingan variantida ta'lim jaranida mushkullik tug'diruvchi tomonlari, bari bir, barham topmagandi. Shu "mushkullik"ka barham berish yo'lida "lotinchi"lar guruhi paydo bo'ldi. Endi arab alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvidan lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuviga o'tish harakatlari avj oldi. 1927-yili o'zbek tili va imlosiga bag'ishlangan o'lka s'ezdida lotinlashtirilgan o'zbek yozuviga o'tishning qulay va afzalligi masalasi ko'riladi. Biroq s'ezd delegatlarining ko'pchiligi ixchamlashtirilgan arab alifbosi asosidagi yozuvni qo'llab-quvvatlanarlari uchun, bu masala ijobiy hal bo'lmadi.

O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi yangi lotinlashtirilgan o'zbek yozuvi bilan tanishish masalasida hukumat komissiyasi ta'sis etadi. Bu komissiya zimmasiga o'zbek tili va imlosi bilan bog'liq barcha taklif va ko'rsatmalar bilan tanishish vazifasi yuklanadi. Nihoyat, 1929-yili Samarqandda tilshunoslar, o'qituvchilar, yozuvchilar va boshqa ziyolilar ishtirokida orfografiya konferentsiyasi o'tkazildi. Unga Moskva, Leningrad shaharlaridan, shuningdek, boshqa respublikalardan taniqli mutaxassislar

taklif etiladi. Konferentsiya ishida A.N.Samoylovskiy, L.V Shcherba singari yetuk akademik-olimlar, S.Ayniy singari taniqli yozuvchilar qatnashadi. Konferentsiyada har xil tortishuvlar asosida 34 harfdan iborat lotinlashtirilgan birinchi o'zbek alifbosi qabul qilinadi. Shundan so'ng o'zbek grafikasi va imlosi masalasi kun tartibiga ko'tariladi.

1934-yil yanvarida Toshkentda lotinlashtirilgan birinchi o'zbek alifbosining amali va natijalariga bag'ishlangan birinchi ilmiy anjuman o'tkaziladi. Anjumanda o'zbek alifbosidagi unli tovushlar uchun belgilangan 9 harf oltitaga qisqartirish haqida qaror qabul qilinadi. Shuningdek, anjumanda o'zbek yozuvi va imlosiga aloqador boshqa masalalar ham ko'riladi.

Lotinlashtirilgan o'zbek yozuvida 1932-yili 45 ming adadda "**Qizil O'zbekiston**", 40 ming adadda "**Kolxoz yo'li**", 18 ming adadda "**Ishchi**", 30 ming adadda "**Madaniy inqilob**", 11 ming adadda "**Qizil yulduz**" singari davriy va nodavriy nashrlar amalga oshirilgan.

Agar 1927-yili O'zbekistonda isloh qilingan arab yozuvida **9 gazeta, 7 jurnal** chop qilingan bo'lsa, 1932-yilga kelib, **64 tuman va respublika gazetalari va 25 jurnal** lotin yozuvida nashr etila boshlagan.

Shunday qilib, lotin grafikasi asosidagi yozuv o'zbek yozuvlari tarixida arab grafikasi asosidagi yozuvdan keyingi ikkinchi bosqichni tashkil qiladi.

O'zbek tilshunosligida imlo masalasi

Yuqorida ham aytilganidek, **adabiy tilning** umummillat, umumxalq mulki sifatida mukammal shakllanishida **imloning, orfografiyaning,** ahamiyati o'ta muhimdir. O'zbek tilshunosligida imlo masalalarida ham ancha ishlar qilingan va ularning o'z tarixi bor. Chunonchi, 1929-yil may oyida Samarqandda bo'lib o'tgan Respublika imlo konferentsiyasida A.N Samoylovich, L.V.Shcherba, B.Chobanzade, Abdurahmon Sa'diy, Sadridin Ayniy singari taniqli tilshunos-olimlar va yozuvchilar ishtirok etgandi. Unda 29 punktdan iborat o'zbek imlo qoidasi haqida qaror qabul qilingandi. Konferentsiyaning bu qarori 1929-yilning 10-avgustida O'zbekiston Xalq maorifi Komiteti tomonidan tasdiqlangan. Qarorda orfografiyada (imloda) singarmonizmning aks etishi, qo'shma va takroriy so'zlarning yozilishi, bo'gin va bo'g'in ko'chirish, o'zlashmalarning yozilish qoidalari, apostrof masalalari ko'rsatilgan edi.

Tavsiya etilgan qarorning amali bo'yicha joylarda o'rganish ishlari olib borildi. Natijada 1933-yilda o'zbek orfografiyasining (imlosining) yangi loyihasi tuzilib, keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Nihoyat, 1934-yil yanvarida til va imlo masalalariga bag'ishlangan Respublika yig'ilishida o'zbek orfografik qoidalarining oxirgi yakuniy varianti qabul qilindi. S'ezd qarori O'zbekiston Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan shu yilning (1934) 13-martida tasdiqlandi.

1937-yili O'zbekiston FA ning til va adabiyot instituti qoshida yangi o'zbek imlo qoidalarini ko'rib chiqish masalasida A.K.Borovkov, A.Usmonov, F.Kamol va B.Avezovlardan iborat komissiya hay'ati tashkil etildi. Komissiyaning 1939-yilgi tavsiyasi asosida O'zbekiston Oliy Sovetining 1940-yil 8-mayida bo'lib o'tgan sessiyasida rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek imlo qoidalari tasdiqlandi. Bu qoidalar har xil komissiyalar tomonidan turli yillarda bir necha bor ko'rilib, qayta-qayta o'zgartishlar bilan, nihoyat, 1956-yilning 4-aprelida O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumining maxsus buyrug'i bilan tasdiqlandi. O'zbek tilining bu imlo qoidalari hozirga qadar O'zbekistondan boshqa respublikalarda o'z kuchini saqlab kelmoqda...

1973-yili Moskvaning "Nauka" nashriyoti "Sho`rolar davlatida turkiy adabiy tillari orfografiyalari" ("orfografii tyurkskix literaturnix Yazikov SSSR") nomli ilmiy maqolalar to'plamini nashr etdi. Unda Ozarbayjon (Z.I.Budagova, G.G. Ismoilova), Oltoy (V.N.Tadikin), boshqird (A.A.Yuldashev), gagauz (E.K.Kolsa), qozoq (S.K.Kenesboev, G.G.Musaboev, X.Netalieva), qoraqalpoq (D.S.Nosirov), karachaeva-balqar (A.Yu.Boziev), qirg'iz (S.Kudayberganov), qrim-tatar (B.G.Gafarov), qumiq (Z.Bammatov), no'g'oy (S.Kalmikova), tatar (X.Kurbatov), tuva (D.A.Mongush), turkman (B.Chariyarov), **o'zbek (S.Ibrohimov)**, uyg'ur (A. T.Kaydarov), xakas (D.F. Patachakova), chuvash (A.I.Andreev), yoqut (N.E.Petrov) tillarining orfografiyalariga oid dolzarb masalalar haqida ma'lumot beriladi. To'plam K.M.Musaevning "Sovet Ittifoqi turkiy adabiy tillari orfografiyalarini kelgusida takomillashtirish masalalari" ("Voprosi razrabotki dalneyshego sovershenstvovaniya orfografiy tyurkskix literaturnix yazikov Sovetskogo Soyuza") nomli bosh maqolasi bilan boshlanadi.

Professor Sobirjon Ibrohimov o'zbek orfografiyasining kelgusi holati xususida yozar ekan, uning qoida va printsip(omil)laridagi har xilliklar, ularni mushtaraklashtirish yo'llari haqida to'xtaydi. Rus tilidan o'zlashgan "Ь" belgisi so'zlarning yozilishidagi ikki xillik haqida gapiradi; "Ь"belgisi mavjud o'zlashmalarni yozishda "ь" belgisining o'rniga apostrofdan foydalanish va uni rasmiylashtirish zarurligini tavsiya qiladi.

Turkiy tillarning boshqalarida orfografiya masalasi keyinchalik qay darajada hal etilganligi haqida, ishonchli manbalarga asoslanmasdan turib, biror narsa deyish qiyin-u, lekin o'zbek adabiy tilida O'zbekiston lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuviga o'tganga qadar, o'zbek adabiy tilida orfografiya qoidalarining 1956-yilgi shakli va mazmuni o'zgargan emas.

O'zbekistonda rus tiliga e'tibor masalasi

Sho'rolar davrida, boshqa barcha Ittifoqdosh respublikalarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham rus tili va uning mavqei rasmiy tarzda alohida targ'ib qilinar edi.

Rus tilining maktablarda, kasb-hunar bilim yurtlarida, oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi masalasiga o'sha davr O'zbekiston KP Markaziy komiteti alohida e'tibor qaratdi. O'zbekiston KP MKning 1987-yil 9-sentyabridagi byurosida Respublikada rus tilining o'qitilish saviyasi asosiy masala sifatida ko'rildi. Respublikaning markazdan uzoq hududlarida, ayniqsa, harbiy xizmatda rus tilini me'yoriy bilish zarurligi ta'kidlandi. "Pravda Vostoka" gazetasining 1987-yil 2-sentyabr sonida bosilgan maxsus maqolada oliy o'quv yurtlarida rus tili o'qitilishidagi kamchiliklar, rus tili va adabiyoti o'qituvchilarining bo'sh saviyada tayyorlanayotganligi, o'quv maskanlarida rus tilidan berilayotgan ta'limning sustligi, erli aholining rus tilini puxta bilmasligi masalalari tanqid ostiga olingan edi Toshkent va Samarqand shaharlarida O'zbekiston KP Markaziy Komitetining rus tilini o'qitish va o'rganish bo'yicha chiqargan qarorlari qay darajada amalga oshirilayotganligi masalasiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi.

Oxirgi yillarda rus tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida mahalliy aholi farzandlaridan Rossiyaning Markaziy shaharlari oliy o'quv yurtlariga yuborila boshlagan edi.

Rus tilini puxta o'rganish va uning amaliy choralari belgilash viloyatlar KP Yig'ilishlarida ham bosh masala sifatida tez-tez ko'rilardi. Masalan, Toshkent obkom partiyasining byurolaridan birida Nizomiy nomidagi Toshkent hamda Angren davlat pedagogika institutlarida rus tili o'qituvchilari tayyorlashning qoniqarli saviyada emasligi, uning oldini olish choralari haqida qaror chiqarilgan edi.

Haftaning bir kuni respublika miqyosida "rus tili kuni" sifatida rasmiylashtirilgan bo'lib, uning amali rasmiy tarzda nazorat qilinardi.

Shu bilan bir qatorda, bu davrda, siyosat nuqtai nazaridan, o'zbek adabiy tiliga nisbatan e'tibor ham susaygan emas. O'zbek adabiy tilini, uning me'yorlarini o'rganish O'zbekiston KP MK va viloyatlar KP ning har doim diqqat markazida bo'lib keldi. Negaki yuqori ma'muriy boshqaruv organlari o'zining milliy adabiy tilini, uning lisoniy qonun-qoidalarini puxta bilmay turib, boshqa tillarni, xususan, rus tilini, uning grammatik qonun-qoidalarini me'yoriy o'zlashtirish mumkin emasligini yaxshi tushunar edi.

Sho'rolar davrida, boshqa xalqlar tillarida bo'lganidek, rus tilining o'zbek tiliga, uning adabiy til shakliga ta'siri nihoyatda kuchli bo'ldi. Bu davrda o'zbek ziyolilaridan ham ayrimlari rus tiliga ortiqcha imtiyoz berib, uning ijtimoiy mavqeini yana ko'tarishga zo'r berib intildilar. Ular orasida ko'zga ko'ringan tilshunoslar ham bo'lgan edi.

O'zbekistonda Sho'rolar davrida, o'zbek tilini emas, balki rus tilini o'rganish, targ'ib qilish va rivojlantirish bilan bog'liq ko'plab rasmiy

hukumat qarorlari qabul qilindi, bir qancha tadbirlar o'tkazildi. Ma'muriy idoralarga kadrlarni tanlashda ham ularning rus tilini bilish darajasi hisobga olindi. Hatto mansabdor shaxslar rus ayollari bilan qonuniy qayddan o'tib, oila qurdilar. Rus tiliga imtiyozli "hurmat", o'zbek tiliga bepisand "muomala" o'tgan asrning saksoninchi yillari oxirigacha davom etdi

O'zbek tilshunosligida terminologiya masalasi

O'zbek tilining sho'rolar davridagi o'ziga xos tomoni, ayniqsa, uning terminologik tizimida yaqqol ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, bu davrda o'zbek adabiy tili rus tili va u orqali o'zlashgan terminlar hisobiga kengayib, rivojlandi.

O'zbek tili terminologik tizimida turli sohalarga oid atamalar mavjud bo'lib, ularning vujudga kelish jarayoni va tarixiy taraqqiyoti bir xilda emasdi. Chunki xalq turmushi bilan qadimdan bog'langan ba'zi an'anaviy sohalarning terminlari sho'rolar davrida vujudga kelgan sohalarnikidan ancha farq qiladi. Masalan, o'zbek tilida chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, o'simlikshunoslik va tibbiyot sohalariga doir tushunchalarni bildiruvchi atamalar qadimdan tarkib topgan edi. Ammo mashinasozlik, kibernetika, kosmonavtika, bionika singari zamonaviy sohalarga oid tushunchalarni bildiruvchi atamalarning paydo bo'lishi va shakllanishi o'zbek tilining asosan sho'rolar davriga tegishlidir. Qisqasi, o'zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminologik tizimi shu davrda chin ma'noda shakllandi. Negaki sho'rolar davrida o'zbek milliy hayotida, uning turmush tarzida oldingi davrlarda bo'lmagan ko'plab tushunchalar o'z denotatlari bilan paydo bo'ldi. O'zbek ijtimoiy hayoti uchun yangilik hisoblangan denotatlar (narsa, hodisalar)ni bildiruvchi yangi tushunchalarga mos so'z va iboralar rus tilidan, rus tili orqali Evropaning boshqa xalqlari tilidan olindi.

Terminologik tizimdagi o'zgarishlar ham inson turmush tarzida sodir bo'lib turuvchi o'zgarishlar bilan mutanosib bog'liqdir. Chunonchi, o'tgan asrning birinchi choragida qishloq xo'jaligida kam sonli oddiy mehnat vositalari mavjud bo'lib, bu sohadagi lisoniy ifodalar ham oz miqdorda bo'lgan. Keyingi davrda ro'y bergan o'zgarishlar natijasida bu soha bir qancha mustaqil tarmoqlarga (masalan, *dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik*) bo'lindi va har bir tarmoq yana ichki tarmoqlarga (masalan, *dehqonchilik: paxtachilik, g'allachilik, sholichilik, pillachilik, kanopchilik, sabzavotchilik* singari) ajraldi. Asrning keyingi choraklarida, ya'ni sho'rolar davrining taraqqiyot topgan davrlarida, bu tarmoqlarning ichki tarmoqlari yana o'z tagtarmoqlariga ajraldi. O'zbek adabiy tilida esa ana shu tarmoq va ularning tag va tagtarmoqlariga xos tushunchalarni bildiruvchi yangidan-yangi terminlar va ularning tizimi shakllandi. Masalan, *student, auditoriya, kafedra, fakultet, dekan, dekanat, rektor, rektorat, aspirant, aspirantura, dosent, doktorantura, asissent, diplom, diplomat; mashina, velosiped,*

ekskavator, proekt, konspekt, Aerobus, teleekran, televizor, front; tsement, tsitrus, plashch, yashchik korobka, kombayn film, avtomobil va h.k.

Terminlar o'zicha paydo bo'lmaydi, balki ular yaratiladi. Tilda terminlarning oz-ko'pligi til jamoasining xalq xo'jaligi, fan va texnikaning taraqqiyot saviyasiga o'lchovdir. Chunki xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi, fan sohalaridagi va texnikadagi har qanday yangilik ularda paydo bo'lgan yangi tushunchalar bilan belgilanadi. Yangi tushunchalar esa, tilga terminlar orqali kirib keladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning rivojlangan mamlakatlaridan biridir. Demak, o'zbek xalqi xalq xo'jaligi, fan va texnikaning barcha soha va tarmoqlarida zamonaviy yutuqlarga erishgan etnik jamoa hisoblanadi. Buni xalq xo'jaligi, fan va texnikaning turli tarmoqlarida shakllangan terminologik tizim orqali ham bilish mumkin.

O'zbek milliy terminologiyasining shakllanishida turli sohalarga qarashli bir qator ziyolilarning xizmati tahsinga arziydi. Chunonchi, bu borada T.N.Qori-Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, M.A Sobirov va boshqalar matematika; R.X.Mallin, K.A.Abdurashidov va boshqalar **fizika**; O.Sodiqov, Z.N.Saidnosirova va boshqalar **ximiya**; T.Z.Zohidov, A.Muhammadiev va boshqalar zoologiya; K.Z.Zokirov, S.S.Sahobiddinov va boshqalar botanika; M.Bahodurov va boshqalar **tuproqshunoslik**; O.Aminov, H.Rasulov, R.A.Abdurahmonov va boshqalar **falsafa, siyosiy iqtisod**; N.Ismoilov, A.A.Asqarov, A.Yu.Yunusov va boshqalar **tibbiyot**; N.Dolimov, M.Qoriev, H.Hasanov va boshqalar **geografiya**; M.Mirboboev va boshqalar **geologiya va mineralogiya**; A.K.Borovkov, G'. Yunusov, V.V.Reshetov, A.G'.G'ulomov, S.Ibrohimov, T.Ibrohimov, o.Usmonov, F.Kamolov, A.Hojiev, Sh.Rahmatullaev, L.Reshetova va boshqalar **tilshunoslik**; A.Sa'diy, A.Fitrat, O.Sharofiddinov, Oybek, I.Sultonov, H.Yoqubov, N.Mallaev, H.Homidiy, Sh.Abdullaeva, S.Ibrohimova va boshqalar **adabiyotshunoslik**; S.Rajabov, N.X.Takanaev, Sh.Bayburova, A.Asqarxo'jaeva va boshqalar **pedagogika, logika va psixologiya**; I.Akbarov, Yu.Rajabiy va boshqalar musiqashunoslik; Sh.Rahimiy, M.R.Shamsiev, S.Dolimov, Q.Ahmedov, X.Ubaydullaev va boshqalar maktabda **ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi** sohaları bo'yicha o'zbek terminologiyasi tizimiga munosib hIssa qo'shganlar. Shunday terminologik tizim o'zbek fani va texnikasining boshqa tarmoqlarida ham vujudga kelgan.

Xullas, o'zbek adabiy tili Sho'rolar davrida terminologiya sohasida ham o'ziga xos taraqqiyot yo'liga kirgan edi. Sir emas, bu davrda o'zbek ilm-fani misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etdi. Barcha sohalar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar etishib chiqdi. O'zbek millatiga mansub shaxslar ingliz, nemis, frantsuz va boshqa tillarni rus tili vositasida o'rgandilar.

Rossiya hukumati mehnat muhojirligi maqsadi bilan chetdan boruvchilar uchun rus tili va uning imlo hamda grammatik qonun-qoidalaridan xabardor bo'lishlarini talab qilgan rasmiy sinov joriy qildi. Sinovdan muvaffaqiyatli

o'tganlargina Rossiyada rasman ishlash huquqiga ega bo'ladilar. Bu va shunga o'xshash ijtimoiy talablar rus bo'lmagan etnik jamoa vakillarining rus tilini me'yoriy bilishga undovchi tadbirlardan biridir.

Markaziy Osiyo xalqlari tillarining rus tiliga ta'siri

Rus tili dunyoning eng boy tillaridan biridir. Rus tilining boshqa milliy tillar taraqqiyotidagi o'rni va mavqei beqiyos. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo xalqlari tilining XX asr rivojini rus tilisiz tasavvur etish qiyin. Bundan tashqari, rus tili milliy tillarning Evropa xalqlari tillari ta'sirida boyishida vositachi til vazifasini ham bajargan. Milliy tillar leksikasidagi lotin, grek, sanskrit va Evropaning boshqa xalqlari tiliga mansub lug'aviy birliklar, asosan, rus tili orqali o'zlashgan. Bu hech qanday dalil-u isbot talab qilmaydigan haqiqat. Milliy tillar leksikasining fan va texnikaga oid so'zlar qatlami deyarli ruscha va evropacha Lug'aviy birliklar evaziga shakllangan.

Shunisi ham borki, rus tili boshqa milliy tillarga lisoniy birliklar "tortiq» qilish bilan cheklanmay, balki rus bo'lmagan boshqa xalqlar tillaridan o'zi ham ma'lum darajada bahramand bo'lgan. Shular ichida Markaziy Osiyo xalqlari tillaridan ham tegishli "ulushi" bor. Rus tiliga milliy tillardan o'zlashgan so'zlarning ko'pi fors-tojik tiliga mansub bo'lib, ular ayni vaqtda o'zbek tili lug'at sostavida ham o'z qatlam lug'aviy birliklari tusiga kirgan. Bu so'zlar, asosan, rus tilining ixtisoslashgan ayrim qatlamlarida uchraydi. Masalan, mahalliy daraxt, o'simlik, meva, poliz, don ekinlari nomini bildiruvchi *Chinar, kayragach, archa, tal, saksaul, kashnich, yantak, djida, injir, ananas, amiriy, kundjut, tut, xina, umrbaki, uryuk, usma, dulana, mash, jugari*; dehqonchilik, chorvachilik, chorva mahsulotlari, hayvon nomlarini bildiruvchi *xamtak, kanar, kishlak, chaban, arba, chayrikar, suzma, katik, shakal, saygak, Simurg, saray, ketmen, arik, anxar, batrak, yagana, biryuk, kesef, arxar, kulan, djiyran, mirab*; kiyim-kechak, uy-ro'zg'or anjomlari, taom nomlarini bildiruvchi *shtani, chalma, kaftan, dastarxon, devzira, kebab, kavush, beshbarmak, arkan, palas, banaras, barxat, parandji, samsa, sumalak, chuchvara, xum, shurpa, yupka, katlama, urama, kazi, kayla, xalva, kazan, kaurma, xalim, xasip, xashar*; transport va qurilishga oid *arba, ishak, karavan, ayvan, shiypan*; sportga oid *kurash, kizkuvdi, ulak, shaxmat, chavandaz, shax, saxibkar, toptash, komanda, shatranj*; marosim nomlari *tuy, xudayi, charlar, gap, iftar, xait, taxurar*; chalg'u asboblari va kuyga oid *dutar, tanbur, chang, chargoq, shashmakam, gazel, chargoq, ushshak, kobuz, karnay, dayra, lapar, irak, buzruk, dugox, ulan*; diniy tushunchalarga oid *vakuf, dervesh, zikr, djin, domulla, imam, islam, kaziy, uraza, ramazan, medresa, allax, azrail, mufti, musulmanin, namaz, amin, ayat, pir, sirat, sura, sunnat, xutba, kafir, zakyat, muftiy, maxrab, mazxab* va bir necha o'nlab boshqa sohalarga doir so'zlar shular jumlasidandir. Xullas, rus tilida milliy tillarga xos bunday so'zlar bir necha yuzlab, hatto minglab uchraydi. Ular

vaqti matbuot sahifalarida va ilmiy matnlarda rus bo'lmagan milliy xalqlarning turmush tarziga xos har xil tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonining ruscha tarjimasida asli arab, fors-tojik va turkiy tillarga xos *kalam, piala, ayvan, beyt, xakan, xalat, lal, karavan, firak, rashk, xadjr, dard, alif, dal, abdjat, masnavi, galman, guriy, vezir, arba, sandal, samshad, rubai, tesha, parcha, chinar, tamga, alif, shax, sardar, sunduk, nadir, bars, sheytan. gul, bashka, kazan, tulpar, djeyran, kulan, gazel, divan, firman* singari yuzlab so'zlar ishlatilgan. Bunday xususiyat P.Qodirov, H.G'ulom, N.Safarov singari o'zbek yozuvchilari asarlaridan qilingan ruscha tarjimalarda ham ko'plab uraydi.

Rus tilidagi aniq fanlar nomini bildiruvchi ayrim atamalar ham aslida rus tilining o'ziniki emas. Ularning ko'pi lotincha va grekcha. Shuningdek, arab tilidan o'zlashganlari ham bor. Masalan, *algebra* arab tilidagi *al-jabr* so'zining rus tiliga o'zlashgan shaklidir. *Magazin, alkagol, alkaloid, kaliy, almanax* so'zlari ham shunday, ya'ni arabcha. Rus tilining matematika va ximiyaga oid ko'pgina so'zlari aslida arab tiliga qarashli ekan. Qizig'i shundaki, arabcha va forscha-tojikcha so'zlarning ko'pi rus tiliga turkiy tillar orqali o'zlashgan. Ular rus tilidagi shakli bilan turkiy tillarning o'ziga yana "qaytib kelgan".

Xullas, keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, rus va Markaziy Osiyo xalqlari tillarining o'zaro kontakti bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama bo'lgan: rus tilining milliy tillarga ta'siri o'z navbatida "javobsiz" qolmagan.

So'z o'zlashtirish

O'zbek tili ham ichki manba hisobiga, ham tashqi manba hisobiga boyidi. Ichki boyish manbai qo'shimchalar yordamida so'z yasash, so'zlarning qo'shilishi vositasida yangi so'zlarning vujudga kelishi, bir turkumdagi so'zdan ikkinchi turkumdagi so'zning hosil bo'lishi, so'zlarning ma'no va talaffuziga ko'ra taraqqiyoti natijasida yangi bir so'zning yuzaga kelishi kabilardan iboratdir. Buning ustiga, til boyligida *sanamay sakkiz dema, o't yurak, qolipidan ko'chgan, tomdan tarasha tushganday* kabi iboralarning bo'lishi ham ichki boyish manbai rivojida bir ulush hisoblanadi. Tashqi boyish manbai esa, boshqa tillardan so'z o'zlashtirishdir.

So'z o'zlashtirish orqali til lug'at tarkibi chet so'zlar hisobiga boyiydi. So'z o'zlashtirish asosan eroniy tillardan va rus tilidan deb qaraladi. O'zbek tiliga, yuqorida ham aytilganiday, Xitoy tilidan ham so'z o'zlashgan. Biroq bunday so'zlar barmoq bilan sanarli darajada. Umuman, kammi, ko'pmi, so'z o'zlashtirish asosida har qanday tilning lugat tarkibi ikki asosiy qatlamga ajraladi:

- a) o'z qatlam;
- b) o'zlashgan qatlam.

O'z qatlam shu tilning o'ziga va u mansub bo'lgan til oilasiga tegishli lug'aviy birliklardan tarkib topadi. Masalan, o'zbek tili leksikasining o'z

qatlami umumturkiy va o'zbek tilining o'zigagina xos so'zlarni o'z ichiga oladi.

Kalkalash yo'li bilan yangi so'z hosil qilish

Kalkalash yo'li bilan tushuncha o'zlashtiriladi. Til jamoasining ijtimoiy turmushida mavjud bo'lmagan narsa-hodisalarning nomi o'zga tildan o'z til lisoniy ashyolari vositasida "tarjima" qilinadi.

Kalkalash ham til leksikasini yangi lug'aviy birliklar hisobiga boyituvchi lisoniy imkoniyatdir. U ham--so'z o'zlashtirishning bir turi. Odatdagi so'z o'zlashtirishdan (o'zicha, o'z lisoniy shakli bilan o'zlashgan so'z va iboralardan) farqi shundaki, kalkalashda o'zlashma o'z tilning lisoniy birliklari xarakterida bo'ladi: shakl o'zlashmaydi, balki uning ma'nosi, u ifodalagan tushuncha o'zlashadi. Masalan, fan va texnika qo'lga kiritgan yutuqlar va ularga tegishli narsa-hodisalar o'zbek tiliga fan va texnikasi rivoj topgan rus etnik jamoasidan kirib kelgan. O'zlari kabi, shu narsa-hodisalarning nomlari ham o'zbek tilida bo'lmagan. Masalan, mashinasozlik, elektrotexnikaga doir ko'plab narsa-hodisalarni rus ijtimoiy jamoasidan qabul qilingan. Mashinaning eng muhim detallaridan birini *motor* deyiladi. Bu so'z o'zbek tiliga o'z shakli bilan, ya'ni rus tilidagi nomi (motor) bilan o'zlashgan. Motorning quvvati rus tilida "loshadinaya sila" atamasi anglatgan tushuncha bilan belgilanadi. Bu nom-atama ikki so'zdan tarkib topgan ibora, so'z birikmasidir: 1) loshad – ot; 2) sila –kuch, quvvat. Motor quvvatini bildiruvchi nom, atama o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilingan, ya'ni "ot kuchi" (loshadinaya sila). Endi "ot kuchi" o'zbek tili leksikasi uchun yangi lug'aviy birlik. U rus tilidan tarjima (kalka) yo'li bilan o'zlashdi. "Loshadinaya sila" atamasi anglatgan tushunchaning o'zbek tilining o'z so'zlari vositasida o'zlashishi **kalka** dir. Yana quyidagilar o'zbek tiliga ana shu – kalkalash yo'li bilan o'zlashgan atamalardir: *elektr dvigatel*(*elektricheskiy dvigatel*), *elektr yuritma*(*elektroprivod*), *elektrotexnik apparat*(*elektrotexnicheskiy apparat*), *yarim o'tkazgich*(*poluprovodnik*; *chayqov bozor*(*chyorniy rinok*), *uzun kun*(*dlogiy den*), *uzun umr* (*dolgaya jizn*); *paxta terish mashinasi* (*xlopkouborochnaya mashina*), *avtomatchi* (*avtomatchik*), *yarim avtomat*(*poluavtomat*), *ko'p partiyalik* (*mnogopartiynost*), *temirbeton* (*jelezobeton*), *avtomatik boshqarish* (*Avtomaticheskoe upravlenie*), *radioaktiv nurlanish* (*radioaktivnoe izluchenie*); *magnit maydoni* (*Magnitnoe pole*), *yer yo'ldoshi* (*Sputnik zemli*), *dunyoqarash*(*mirovozzrenie*), *ustqurma* (*nadstroyka*), *hamdo'stlik* (*sodrujestvo*), *hamkorlik* (*sotrudnichestvo*), *besht yillik* (*pyatiletka*), *qurollanish poygasi* (*gonka voorujeniy*), *sinfy kurash* (*klassovaya borba*), *temir yo'l* (*jeleznaya doroga*) va b.

Kalkalash yo'li bilan tushunchalarning o'zlashishi til taraqqiyotining har bir davrida shu davr ijtimoiy ruhiga muvofiq, har xil bo'lgan. Masalan, Ulug' Vatan urushi davrida o'z fonetik shakli bilan (o'zicha) o'zlashgan so'zlar ham,

kalkalash yo'li bilan hosil qilingan so'zlar ham o'sha davr (Ulug' Vatan urushi davri) ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy-mafkuraviy ruhi va uning xususiyatlarini ifodalashga xizmat qilgan. Ulug' Vatan urushi yillarida o'zbek tiliga rus tilidan quyidagi so'zlar o'zicha, o'z fonetik qiyofasi bilan, o'zlashgan: *medsanbat, sanchast, komzvod, medsestra, saninstruktor, ataka, razvedka, general, soldat, desant, sapyor, dozor; bomba, granata, pulemyot, minomyot, snaryad, avtomat. Radist, dozor, pistolet; vzvod, rota, dviviziya, korpus; okop, transheya, blindaj; kapitulyasiya, gitlerizm, militarizm, antifashist, okkupasiya, invalid, evakuasiya, shinel, pogon* va b.

Bu davrda kalkalash yo'li bilan hosil qilingan lug'aviy birliklar ham kam bo'lmagan. Ularga quyidagilarni keltirish mumkin: *o'zaro harakat (vzaimodeystvie), o't ochish nuqtasi (ognevaya tochka), mudofaa jangi (oboronitelniy boy), qo'l jangi (rukopashniy boy), jangovar vazifa (boevaya zadacha); bosh qo'mondon (glavnokomanduyutshiy) harbiy boshliq (voennonachalnik), harbiy asir (voennoplenniy), havo atakasi (Vozdushnaya ataka), havo razvedkasi (Vozdushnaya razvedka)* va b. "Ulug' Vatan urushi yillarida o'zbek tili leksikasi" mavzusi bo'yicha maxsus tadqiqot ishi olib borgan I.Rasulovning guvohlik berishicha, o'sha davrda o'zbek tili leksikasida shu voqea ruhini ifoda etuvchi mingga yaqin lug'aviy birlik paydo bo'lgan va vaqtli matbuotda ishlatilgan.

Xullas, jamiyat hayotidagi muayyan bir ehtiyoj tufayli o'zga tildan lisoniy birliklar o'zlashadi. Lisoniy birliklar tilning lug'aviy tarkibiga qo'shiladigan hissa ekanligi jihatidan til qurilishiga, ya'ni intralingvistikaga daxldor hodisa sanalsa, jamiyatda tug'ilgan ehtiyojning qoplanishi jihatidan u sosiolingvistik hodisadir.

O'zlashmalarning o'zga til qurilishiga ta'siri

Chetdan olingan lisoniy birliklar til qurilishiga, uning qonun-qoidalariga bo'ysundiriladi. Ma'lumki, chetdan, eng avvalo, tilda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalashga xizmat qiluvchi so'zlar o'tadi. Ular ko'pincha, yuqorida aytilganidek, terminlar xarakterida bo'ladi.

Ma'lumki, o'zga til o'z tildan, Lug'aviy qurilishidan (Lug'at tarkibidan) tashqari, fonetik va grammatik qurilishiga ko'ra ham farqlanadi. Bu farq, ayniqsa, qardosh bo'lmagan tillarda aniq va yaqqol ko'zga tashlanadi. Chetdan kirgan so'z go'yo boshqa yurtdan kelgan odamga o'xshaydi. Boshqa yurtdan kelgan odamning "begonaligi", bu yurt kishilariga o'xshamasligi dastlabki vaqtda hammaga aniq sezilib turadi. Shuningdek, "o'zgachalik", "o'xshamaslik" chetdan kirgan odamning o'ziga ham sezilib turadi. Chetdan kelgan kishi bir necha muddat yashagandan keyin, uning "begonaligi", bu yurt odamlariga "o'xshamasligi" unutila boshlaydi. Shuningdek, uning o'zi ham bu yurt kishilarining fe'l-atvoriga "singishib", ularning urf-odatiga ko'nikadi.

O'zga tildan kirgan lisoniy birliklar--so'z, morfema va iboralarning ham "begona"ligi ham dastlabki vaqtlarda sezilib turadi. U bu tilning "tabiati"ga moslashish uchun uning qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Chetdan kirgan so'zlar, eng avvalo, uning uchun o'zga sanalgan tilning (ya'ni lisoniy birliklarni chetdan qabul qilgan tilning) fonetik qiyofasiga moslashishi zarur bo'ladi. Bu chetdan o'zlashgan lisoniy birlikning bu tilning fonetik qurilishiga singishishi demakdir. Masalan, rus tilidan *ottenok, granata, tshyotka* so'zlarining o'zbek tiliga *ottenka, granat, cho'tka* shakllarida o'zlashib, ularga muvofiq talaffuz etilishi ularning o'zbek tilining fonetik qurilishiga moslashishidir.

Rus tilidan o'zbek tiliga qorishiq tovushli ("ts", "tsh" harfli) bir qator so'zlar o'zlashgan. Biroq ularning "ts" tovushli so'zlarining ayrimlari o'zbek talaffuziga singishgan (*sirkul, sement, sex* va b.) bo'lsa-da, ayrimlari O'zbekcha "ch" tovushi bilan interferentsiyalashgan: *cherkov* (*serkov*), *chorizm* (*sarizm*) va b. Xuddi shunday xususiyat "tsh" harfli ayrim so'zlarda ham mavjud: *cho'tka* (*shyotka*).

Arab va fors tillaridan o'zlashgan ayrim so'zlar tarkibiga xos undoshlar ham o'zbek tilida yo'q. Masalan, arab tiliga xos "ayn"undoshi va shu undosh tarkibida bo'lgan arab lug'aviy o'zlashmalari o'zbek tilida shu undosh oldidan keluvchi unlini alohida to'xtam bilan cho'zib talaffuz qilish orqali ifodalanadi: *ma'no, sa'va, ta'na*; "sur'at", "jur'at" singari arab o'zlashmalari esa, shu undoshdan oldin kelgan undoshdan so'ng kichik to'xtam bilan talaffuz qilinadi, ayni shu talaffuz o'zbek orfoepik me'yorida rasmiylashgan.

Chetdan kirgan so'zlarning o'z til lisoniy qurilishiga ta'sirini rus tilidan va u orqali o'zbek tiliga o'tgan so'zlar misolida ko'proq ko'rish mumkin. Rus tili lug'at tarkibida Evropa xalqlari tillariga mansub juda ko'p lug'aviy birliklar mavjud. Ularning ma'lum bir qismi termin xarakterida. Grek tilida "h"undoshi bilan boshlanuvchi ayrim terminlar rus tilida shu tovushsiz talaffuz va imlo shakliga kirgan: *homonim-omonim*; ayrim terminlarda u "g" tovushi bilan almashgan: *hippodrom-gippodrom, harmon-germon, hantel-gantel, hegemon(iya)-gegemon(iya)* kabi.

Chetdan o'zlashgan so'zlar o'z tilning fonetik qolipiga mos kelmagan taqdirda, yuqoridagi kabi o'zgartiriladi. Ular o'z tilning fonetik qolipiga mos kelsa, o'zgarishsiz qabul qilinaveradi. Masalan, *mashina, bank, tank, sovet, traktor, sanatoriya, kompress, kamera, rezina, rezinka* singari so'zlar o'zbek tilining fonetik qolipiga mos kelgan.

Chetdan o'zlashgan so'zlar, umumlisoniy qonun va qoidalarga muvofiq, o'zga tilning grammatik qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Masalan, "*sirkul*" so'zi o'zbekcha matnlarda o'zbek tilining o'z so'zlaridek grammatik qiyofaga kirib, matn talab etgan egalik va kelishik shakllarida kela oladi:

a) kelishik shakllariga kirib, ularga xos qo'shimchalar bilan turlanadi:

sirkul,
sirkulning,
sirkulni,
sirkulga,
sirkulda,
sirkuldan

yoki

b) otlarning egalik kategoriyasiga xos shakllarga kirib, ularga xos qo'shimchalarni olib turlanadi:

<i>sirkulim</i>	<i>sirkulimiz</i>
<i>sirkuling</i>	<i>sirkulingiz</i>
<i>sirkuli</i>	<i>sirkul(lar)i</i>

yoki:

v) otlarning son kategoriyasiga xos shakllarga kirib, grammatik birlik va ko'plik ma'nosini bildiradi:

sirkul sirkullar va b.

O'zbek tili leksikasidagi rus va Yevropa xalqlari tillari o'zlashmalariga nisbatan munosabat haqida

Rus tilining o'zbek tiliga barakali ta'siri, u orqali o'zbek tiliga qaysi tillarning so'zlari etib kelganligi, ularning progressiv ahamiyati, bu ta'sirning ko'lami, tematik doirasi, sohalari va hokozalar haqida ko'p aytilgan va ko'p yozilgan. Biroq rus tilining o'zbek tili lug'aviy boyligi taraqqiyotidagi ahamiyatini shu bilan cheklab bo'lmaydi.

O'zbek xalqiga Evropa sivilizasiyasi kirib kelishi bilan birga, rus tili o'zbek tiliga o'z leksik boyligi bilan ta'sir eta boshladi. Bu ta'sir hozirgi davrda ham susaygan emas.

Darhaqiqat, o'zbek tili lug'at tarkibining o'zlashma qatlamining boyishida rus tili muhim rol o'ynadi. O'zlashma qatlamning baynalmilal so'zlar guruhining shakllanishida ham bu tilning ahamiyati cheksiz bo'lgan deyish mumkin.

Rus tilidagi ayrim tushunchalar o'tgan asrning 30-yillarida o'zbek tilining o'z lug'aviy materiallari asosida o'zlashgan edi, ya'ni tarjima yo'li bilan berilgan. Xalqimizning ma'naviy, ma'rifiy saviyasi yuqorilab borgan sari, rus tili va u orqali Evropaning boshqa xalqlari tilidan olingan so'zlar o'z tildagi lug'aviy shakli bilan o'zlasha boshlagan. Buni turli yillarda nashr etilgan ruscha-o'zbekcha lug'atlarni solishtirish orqali bilish qiyin emas. Masalan, 1934-yili "to'liq o'zbekcha-ruscha lug'at" (polniy uzbeksko-russkiy slovar, Tashkent—Kazan, 1934)da *palatka "chodir"*, *parallel "muvoziy"*, *pachka "bog'lam"*, *pechat "muhr"*, *raketa "mushak"*, *formula "ifoda"//"ta'rif"*, *xirurg "jarroh"*, *ekspert "sinovchi"*, *seyf "yonmas sandiq"*, *sumka "jild"*, *"to'rva"*, *formasevt "dorigar"*, *fortochka "daricha"*, *emblema "belgi"//*

"nishon", etalon "nusxa"// "o'rnak", etyud "chala rasm" va h.k. so'zlar o'zbekcha tarjimada berilgan bo'lsa, 1950-1955-yilda besh jildda Toshkentda nashr etilgan "ruscha-o'zbekcha lug'at"da (Russko-uzbekskiy slovar) bu va shularga o'xshash boshqa bir necha o'nlab so'zlar rus tilidagi shaklida tarjimasiz berilgan. Bundan o'zbek xalqining ma'naviy, ma'rifiy saviyasi orta borganligini bilish mumkin. Qolaversa, yuqorida keltirilgan ruscha so'zlarning o'zbek tiliga to'la o'zlashganidan dalolatdir. Yana muhimi shundaki, rus tilidan o'zicha qabul qilingan bu tip so'zlar evaziga o'zbek tili leksikasining baynalmilal qatlami shakllanib, kengaya borgan.

O'zbek tili leksikasi rus tili leksikasi hisobiga boyib borar ekan, u hech vaqt oddiy leksik birliklarni olib, o'zlashtirishdan iborat bo'lmadi. O'zbek xalqi ham o'ziga yarasha zakovatli, madaniy va yaratuvchi xalq. U ruslardan nimani qabul qilgan bo'lsa, uni taraqqiy ettirishga, o'zgartirishga, unga o'z hissasini qo'shishga, uning yoniga yangilarini yaratib ilova qilishga harakat qildi. O'zbek xalqining dunyoga tanilgan arboblari va ixtirochilaridan ko'z yumib bo'lmaydi. Bular ham rus tili leksikidan va rus tili orqali Evropa tillari leksikidan o'zlashtirilgan leksik qatlamlarda o'z aksini topmay iloji yo'q.

O'zbek tili, grammatik qurilishidagi farqqa qaramay, rus tilidan va rus tili orqali Evropa xalqlari tillaridan o'zlashgan so'zlarni leksik-semantik va grammatik tomondan butunlay o'ziniki qilib oldi. O'zlashgan so'zlar, qaysi sohaga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, o'zbek tilining o'z so'zlariday ishlatilaverdi. Shu bilan bir qatorda, rus tilidan va u orqali Evropa xalqlari tilidan o'zlashgan lug'aviy birliklar o'zbek tili so'z yasalishi jarayonlarida faol ishtirok etib, o'zbek tili rivojiga ikkinchi marta o'z ijobiy hissasini qo'sha boshladi. Masalan, rus tilidan o'zlashgan *abstrakt, avtomat, bronza, bron, vulgar, grupp, dezinfektsiya, dekret, zaryad, ideal* singari bir necha o'nlab so'zlar asosida *abstraktlashmoq, avtomatlashtirish, bronzalamoq, vulgarlashtirmoq, gruppalash (gruppalamoq), dezinfiktsiyalamoq, dekretlashtirmoq, zaryadlamoq, ideallashtirmoq* kabi bir necha o'nlab yangi yasalmalar hosil qilindi. Bularдан tashqari, rus tilidan va rus tili orqali Evropaning boshqa halqlari tillaridan ot turkumiga mansub o'zlashgan so'zlar o'zbek tilidagi *oltin kuz, tilla tish, zumrad qish* birikmalari andozasida sifat o'rnida ham ishlatila boshladi: *olmos uzuk, alyumin qoshiq, batist ko'ylak, brilliant ko'z, zefir ko'ylak, desert vino, integral hisob, kozir tuz* va boshqalar. Shuningdek, rus tilidan o'zlashgan so'zlar ishtirokida o'zbekcha frazemalar (frazеologik iboralar) ham paydo bo'ldiki, bu bilan rus tili o'zlashmalari o'zbek tili frazeologik tizimining rivojiga munosib hissa qo'shgan bo'ldi. Qiyoslang: bir *vinti kam* ("aqli kam"), *tupikka* kirib qolmoq ("ilojsiz"), *lektsiya* o'qimoq ("behuda gapirmoq"), *inkubatorдан* chiqqanday ("bir xil"), *milisioner* quvganday ("rangi yo'q"), *yashikka* tushmoq ("o'lmoq"), *Marsdan* tushganday ("mutlaqo begonaday"), *televizorning vishkasiday* ("novcha"), bir *krovat* ("semiz"), *cho'tga*

tashlamoq ("hisoblamoq"), *axlat yashigi* ("iflos"), *boshga shlyapa qilmoq* ("do'ndirmoq", "bo'rttirmoq") va boshqalar.

O'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan so'zlarning miqdori davrlarga, tilning vazifaviy uslublariga ko'ra har xil o'zgarib borgan. Shuningdek, tilning og'zaki shakli orqali o'zlashgan rus so'zlari miqdori uning nutqning yozma shakli orqali o'zlashganlari miqdoridan ko'p bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, sobiq Ittifoqning dastlabki yillarida rus va rus tili orqli o'zlashgan so'zlarni o'zbek tilidan "tozalash"ga urinishlar ham bo'lgan. Masalan, o'zbek ziyolilaridan biri—Elbek "inqilob" jurnalining 1923-yil, 1-sonida rus tilidan o'zlashgan 550 so'zning o'zgartirilgan lug'atini e'lon qiladi. Lug'atning "so'z boshi" qismida asosiy maqsad o'zbek tilini chet so'zlardan "tozalash" ekanligi bayon qilinadi. Shulardan atigi birini olsak, masalan, "*parovoz*» so'zi «*otash arava*» deb beriladi.

O'zbek tilidan rus tilini chetlashtirishga bo'lgan urinish o'tgan asrning 90-yillaridan so'ng, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki yillarda yana takrorlandi. Hatto o'zbek tilining rivojlanishida rus tilining ta'sirini ko'kka ko'targan bir olimning o'zi, oradan hech vaqt o'tmasdan, uni ostin-ustun qilib qoralay boshladi. Masalan, taniqli tilshunos, chuqur va mukammal kasbiy bilim egasi, professor M.Mirtojiev 1988-yili "O'zbekiston" nashriyoti tomonidan chop qilingan "**O'zlashgan so'z—payvand kurtagi**" risolasida rus tilining o'zbek tiliga samarali ijobiy ta'sirini ko'klarga ko'tarib ulug'lagan bo'lsa, 1992-yili prof. N.Mahmudov bilan hamkorlikda yana shu nashriyot tomonidan e'lon qilingan "**Til va madaniyat**" kitobida bu tildan o'zbek tiliga o'zlashgan atamalarning "noo'rin" va "noqulay"ligi haqida kuyunib yozadi.

Olim o'zbek tilini chet so'zlardan, xususan, rus tilidan o'zlashgan atamalardan tozalash masalasida fikr yuritar ekan, *klyuch* o'rniga *ochqich*, *spravka* o'rniga *anglatma*, *kompost* o'rniga *go'ng oqizmasi*, *tort* o'rniga *bolishma*, *kontakt* o'rniga *tutashuv*, *import* o'rniga *kirituv*, *intensifikasiya* o'rniga *tezlatur*, *kontrol* o'rniga *tekshiruv*, *skrepka* o'rniga *qistirma*, *knopka* o'rniga *qadama*, *limit* o'rniga *cheklama*, *silos* o'rgiga *ko'k achitma*, *drakol* o'rniga *teshgich*, *myasorubko* o'rniga *qiymalagich*, *impuls* o'rniga *turtki*, *pedal* o'rniga *tepki*, *vklyuchatel* o'rniga *tutashtirgich*, *sokovijimalka* o'rniga *sharbatlagich*, *kontrolyor* o'rniga *tekshirgich* singari va h.k. muqobil variantlarni taklif qiladi. Professor M. Mirtojiev rus tilidan o'z shakli bilan o'zlashgan atamalar xususida yana shularni yozadi: "...Atamalarning asosan o'zlashma so'zlardan iboratligi muomalada qiyinchilik tug'diradi. Atamalar subyektiv bo'lib, ularni yasash uchun o'zbek tili imkoniyatlari nihoyatda keng. Shuning uchun ularni sof o'zbekchaga o'tkazish kerak. Bu O'zbekiston fuqarosi bo'lgan har bir ziyolining vijdoniy burchidir" (Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. —Toshkent: "O'zbekiston", 70-71-b.)

Keltirilgan mulohazalar so'z o'zlashtirish va o'zlashgan lisoniy birliklarga munosabat sosiolingvistik xarakterdagi lisoniy jarayonalar ekanligiga ishoradir.

Antroponim va antroponimiyaning sotsiolingvistik asoslari

Kishilarning ismi, nasabi, familiyasi va laqabini bildiruvchi so'zlar fan tili bilan antroponimlar deyiladi. Ularning majmuasiga va til fanining shu majmuani o'rganuvi sohasiga nisbatan antroponimiya atamasi ishlatiladi.

Kishi ismlari, familiya va nasablari, garchand etnolingvistikaning antropologiya tarmog'i obyektini sanalsa-da, uning sotsiolingvistikaga aloqador tomoni ham yo'q emas. Chunki kishilarga qo'yiladigan ismlar va ularning nolisoniy asoslari insoniyat tarixining har bir davrida o'ziga xos ijtimoiy tomonlari bilan farq qiladi. Unda bolaga qo'yiladigan ismda xar bir davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy olami in'ikos etadi. Chunonchi, kishini nomlashning eng qadimiy shakli urug' va qabilalarning nomlari bo'lgan.

Dunyoga kelgan inson farzandiga uni boshqa shaxslardan farqlab ajratish maqsadida ism qo'yilgan. Bu jahonning barcha xalqlari uchun urfga aylangan odatdir. Ism qo'yish ehtiyoji va ismlarning paydo bo'lishi bilan birga, har bir xalqda ularning moddiy hamda ma'naviy sharoitlariga mos ravishda ism qo'yish odatlari, rasm-rusumlari, udumlari ham tug'ilgan. Ismlar har bir davrning hayotiy talablarini, intilishi va orzularini, shuningdek, falsafiy va diniy aqidalarini o'zida in'ikos etgan. Chunonchi, ibtidoiy jamoa va urug'chilik davrlarida berilgan ismlarda mardlik, qahramonlik, abjirlik tushunchalari, ilohiylashtirilgan turli tushunchalar tasavvurlar o'z ifodasini topgan. Masalan, bu davrda turkiy xalqlarda *Oyarig'* (*nurli oy*), *Oydanarig'* (*oydek nurli*), *Oykun* (*yorug' kun*), *Oyqanot* (*oy qanoti*), *Kuchbars*, *Alak*, *Ayas*, *Alp aya*, *Alp Er Tunga*, *Qutlug' tagin*, *Chag'ribek*, *Chug'lan*, *Tangriqul*, *Tangriberdi*, *Bo'ri*, *Bo'riboy* singari ismlar qo'yish moda bo'lgan.

Arablarining O'rta Osiyoni istilo etgunga qadar qo'yilgan ismlarda go'zallik, o'ktamlik, chevarlik tushunchalari aks etgan. Kishilarga qo'yilgan *Eshboy*, *Uyto'l*, *To'rtoy*, *Ulg'ay*, *Unsun*, *Tursun*, *Arig'* (*go'zal ma'nosida*), *Oyarig'*, *Oyxon*, *Erdon*, *Tirkash*, *Ergash*, *Tolmas*, *Totlik*, *Toshbek*, *To'xtamish*, *Tilov*, *Quvondiq*, *Ilash*, *Suyun*, *Ulug'jon*, *O'sarboy*, *Qanotboy*, *Oygul*, *Alpon*, *Yo'lbars*, *Yursin*, *Yursinoy*, *Kumushoy*, *Oppoq*, *Oyyuz*, *Qilichbek*, *Burgutboy*, *Lochin* va boshqalar buning dalilidir.

Arablar istilosidan keyin O'rta Osiyo xalqlarining turkiycha mahalliy nomlari "islomona" arabcha ismlar bilan almashtirila boshladi. Islomda chaqaloqni nomlashga oid ba'zi qonun-qoidalar va ko'rsatmalar mavjud bo'lib, chaqaloqqa ism qo'yishda ularga rioya qilish shart sanalgan. Shulardan biri bola qulog'iga ALLOH nomi bilan azon aytish bo'lgan. Qolaversa, Islom aqidasi ko'ra, bolaga "Allohning go'zalligi" kabi go'zal ism tanlanishi talab qilingan. Ismlar Islom ilmidan yaxshi xabardor mulla va eshonlar tomonidan tanlangan va u azon bilan bola qulog'iga etkazilgan. Islomda kishilarga qo'yiladigan laqablar, kulgili va nosha'riy nomlar

qoralangan va man etilgan. Chunki Islom dini shaxsning nomi kishining hayoti va taqdirida muhim rol o'ynaydi, yaxshi ism odamga omad, "xunuk" va nomaqbul ism esa baxtsizlik keltiradi, deb hisoblagan...

Islom dini va uning aqidalari asrlar davomida O'rta Osiyo xalqlarining madaniy va ma'naviy hayotiga chuqur singib bordi. Bu hol bolaga ism qo'yish jabhasida ham ustuvorlik qildi. Bolaga Islom dinining muqaddas, xosiyatli g'oyalarini ifoda etuvchi quyidagi ismlarni qo'yish urfga aylandi:

Sayid, Sayidbek, So'fi, So'fiqul, So'fiqiz, Vali, Valiya; Shayx, Shayxulla, Xo'ja, Xo'jabek, Xo'janiso; Hoji, Hojiboy, Hojiniso; Qori, Qoriya, Qoriyaxon; Eshon, Eshonxo'ja, Eshonoy; Maxsum, Maxsuma; Imom, Imomqul, Imomnazar, Imomiddin; Islom, Islomiddin, Islomqul; A'lam, Darvesh, Darveshali; Shohid, Shohida; Qalandar, Musulmon, Musulmonqul; G'ozi, G'oziboy, G'ozixon; Tilovatxon, Tumorxon; Zohid, Zohida; Devona, Devonaqul; Zikriyo, Namoz, Namozboy, Namozbuvi; Ummat, Ummatqul, Ummatali, Tavfiq, Jannat, Jannatoy, Jannatxon; Kavsaroy, Kavsarxon,; Madina, Arofat va boshqalar.

Yuqorida ism qo'yishning davr ruhi bilan bog'lanishi haqida so'z yuritildi. Darhaqiqat, shunday. Sho'rolar davrida, ayniqsa, o'tgan asrning 30 va 40-yillarida o'zbek ismlari tizimida o'sha davr ruhini aks ettiruvchi *Kommuna, Sovet, Venera, Mars, Telman, Ernst, Mels (Marks, Engels, Lenin, Stalin), Sveta, Svetlana, Geroy, Komissar* singari nomlar paydo bo'la boshlagan edi.

UCHINCHI QISM.

SOTSIOLINGVISTIKANING TADQIQOT METODLARI MASALASI

Sotsiolingvistik metod va metodlar masalasi

Har qanday fanning o'z tekshirish metodlari bo'ladi. Metodsiz biror-bir mustaqil fanning bo'lishi mumkin emas. Xususan, tilshunoslik fani uning metodlari ishlab chiqulganga qadar, mantiq, falsafa doirasida o'ziga xos soha sifatida qaralgan. XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishi va amaliy faoliyati tufayli uning metodlari ham ishlab chiqilgan: tilshunoslik mantiq va falsafa doirasidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan.

Hozirgi davrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik (yoki Hind-Evropa tilshunosligi) an'anaviy tilshunoslik sifatida qaraladi. Bu tilshunoslikning bir qator yangi zamonaviy metodlari vujudga kelgan va ular asosida til qurilishi har xil aspektlarda o'rganiladi.

Sotsiolingvistika, yuqorida ham aytilganidek, tilshunoslik fanlari tizimida yangi soha, yangi fan. Bu fanning ayrim tushunchalarida, xususan, mundarijasida hozircha bir xillik, mushtaraklik yo'q. Shuning uchun uning metodlari masalasi ham tugal ishlab chiqilmagan. Tilshunoslik (sof lingvistika)ning turli darslik va qo'llanmalarda berilgan turlicha metodlari mavjud. Biroq ularning birortasi ham sosiolingvistikaning tadqiqot metodlari bo'la olmaydi. Chunki Sotsiolingvistika—bu chin ma'nodagi sof "tilshunoslik" emas.

Sotsiolingvistika fanining metodi va metodlari lingvistik sikldagi boshqa fanlarning metod va metodlaridan mohiyatan farq qiladi. Chunki Sotsiolingvistika ikki har xil fanning tutash nuqtasida vujudga kelgan yangi sohadir: a) ijtimoiy fanlar; b) lingvistikaning intralingvistika deb ataluvchi tarmog'i (mikrolingvistika yoki immanent lingvistika). Shu bois sosiolingvistikaning metodlarida ijtimoiy va lingvistik fanlarga xos metodlar uyg'unlashmog'i kerak.

Sotsiolingvistika fan sifatida kamida uch nuqtai nazar asosida talqin etiladi.

Ulardan biriga (birinchisiga) ko'ra, Sotsiolingvistika lingvistik fandır. Bu nuqtai nazar V.A.Avroringa qarashli bo'lib, lingvistikaning tekshirish metodlari sosiolingvistikaga ham daxldor deb ko'rsatiladi.

Ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra, Sotsiolingvistika oraliq zonada vujudga kelgan fan bo'lib, u lingvistlardan tashqari, jamiyatshunoslar, tarixchilar, psixologlar, etnograflar, pedagoglar tomonidan o'rganilishi kerak. Bu fanni tekshirish metodlari ham jamiyatshunoslik, tarix, psixologiya va etnografiya fanlarini tekshiradigan metodlar bilan muvofiqlashishi zarur. Masalan, R.Grosse va A.Noybertlar (Germaniya demokratik Respublikasi) hozirgi talqindagi sotsiolingvistikani **sotsiolingvistika** hamda **til sotsiologiyasi**

nomlari bilan ikkiga ajratadilar. Shu asosda bu ikki tarmoqqa xos metodlarning farq qilishi haqida fikr yuritiladi.

Uchinchi nuqtai nazarga ko'ra, Sotsiolingvistika, o'z o'rganish obyekti, predmeti, nazariy asoslari va tekshirish metodlariga ega alohida, mustaqil fan sifatida talqin etiladi.

Sotsiolingvistikaning mustaqil va mushtarak fan sifatida shakllanishi olib borilayotgan va olib borilishi zarur bo'lgan jiddiy ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasiga bog'liq, albatta. Olib borilgan va olib borilishi zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlari muayyan metodlarga asoslanadi.

Metod—bu ilmiy-tadqiqot usuli. Ilmiy tadqiqotlar tufayli fanlar shakllanadi, "mustaqillik"ka ega bo'ladi. Yangi va zamonaviy metodlar hisobiga rivojlanadi. Har bir fanning dastlabki shakllanish bosqichida metodlar kam bo'ladi. Masalan, tilshunoslik fani dastlab tasviriy va qiyosiy deb ataluvchi ikki metod asosida shakllangan va rivojlangan. Keyinchalik til qurilishi matematik, modellashtirish metodlar asosida ham o'rganila boshlandi. Shuningdek, sistem-struktur, distribusiy, transformasiya singari zamonaviy metodlar til qurilishini o'rganishda qo'llanayotir. Tasviriy va qiyosiy metodlar esa, hozir tilshunoslik fanining traditsion metodlari xarakterini kasb etgan. B.N.Golovinning "Tilshunoslikka kirish" ("Vvedenie v yazikoznanie", -M.: "Visshaya shkola", 1983) asarida lingvistik tadqiqotlarning tasviriy, qiyosiy-tarixiy, tarixiy, solishtirma, struktur, stilistik, miqdoriy, avtomatik tahlil singari sakkiz turi haqida ma'lumot berilgan.

Hozirgi vaqtga kelib, boshqa barcha fanlarda kuzatilganidek, tilshunoslikka, jumladan, sosiolingvistikaga ham hali chin ma'noda ommalashmagan va rasmiylashmagan **sinergetik metod** kirib kelmoqda. Bu **yangi metod pidjin, kreol** deb ataluvchi "**quramalashgan**" mahalliy tillarni va boshqa sosiolingvistik hodisalarni o'rganishda qo'l keladi.

Xullas, fan rivojlangan sari, uning tekshirish metodlari tizimi ham yangidan-yangi metodlar hisobiga kengayib boradi.

Sotsialingvistikaning tadqiqot metodlari ham tilshunoslik, jamiyatshunoslik, etnografiya va boshqa fanlarga xos tadqiqot metodlari andozasida yaratilgan. Shu asosda sotsiolingvistik tadqiqotlarning dastlabki ikki metodi ajratiladi:

- 1) **ashyoviy materiallar yig'ish metodlari;**
- 2) **ilmiy tahlil metodlari.**

Bu ikki metod biri boshqasi bilan uzviy bog'lilikda bo'lib, birinchisida sosiolingvistik xarakterdagi materiallarni yig'ish yo'llari haqida so'z yuritilsa, ikkinchisida yig'ilgan materiallarni sistemalashtirish va sohama-soha tasvirlash haqida fikr yuritiladi.

Sotsiolingvistik ashyoviy material yig'ish yo'llari

Sotsiolingvistik ashyoviy materiallarni yig'may, ularni amaliy tushunmay turib, sotsiolingvistikaning biror-bir jabhasiga xos hodisalarni sharhlab, ilmiy xulosaga kelish mumkin emas. Shuning uchun o'rganilayotgan sotsiolingvistik hodisaning ilmiy saviyasi shu hodisaga oid yig'ilgan material va uning hajmi va xarakteriga bog'liq. Demak, ashyoviy materiallarni yig'ish yo'l va usullari sotsiolingvistik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi dastlabki bosqichdir.

Sotsiolingvistik ashyolar yig'ish dialektologik materiallar yig'ishga o'xshaydi. Shu bois bu maqsadning amalga oshishida tadqiqotchi muayyan mamlakatda viloyatma-viloyat, tumanma-tuman, qishloqma-qishloq, hatto mahallama-mahalla yurishi zarur bo'ladi. Dialektolog-tadqiqotchi o'ziga kerak materiallarni individual va ommaviy tarzda yiqqani kabi, sotsiolingvist ham o'ziga kerak materialni viloyatma-viloyat, tumanma-tuman, qishloqma-qishloq, hatto mahallama-mahalla yurib individual yoki ommaviy tarzda yig'ishi kerak.

Sotsiolingvistik xarakterdagi materiallar yig'ishning eng ko'p tarqalgan ommaviy usullariga quyidagilar kiradi:

- 1) kuzatish;
- 2) anketa tarqatish;
- 3) intervyu olish;
- 4) faktik materiallar manbaini tahlil qilish;
- 5) eksperiment o'tkazish va b.

Sotsiolingvistik materiallarni o'rganishning kuzatish usuli individual tarzda amalga oshadi. Bunda sotsiolingvist, yuqorida aytilganiday, dialektolog tutgan yuldan boradi. Joylardagi ikki va ko'p tillilik vaziyatlarini o'z ko'zi bilan ko'radi. Uning sabablarini aniqlaydi. Ikki va ko'p tillilik tufayli til ichki kurilishida yuz bergan lisoniy o'zgarishlarni aniqlaydi, ularga sabab bo'luvchi ijtimoiy va lisoniy qonuniyatlarni sharhlaydi. Bu jarayonda tadqiqotchi diktafon, magnitafon, singari turli xil texnik asboblardan foydalanishi mumkin.

Sotsiolingvistik ashyolarni bevosita kuzatish yo'li bilan yig'ilganda, informantlarning yoshi, jinsi, ma'lumoti, kasb-kori, ijtimoiy sharoiti, otionalari va ularning kasb-kori, tug'ilib o'sgan joyi va boshqa bir qator jihatlari hisobga olinishi zarur bo'ladi.

Sotsiolingvist material yig'ishga kirishishdan oldin o'z maqsadini ro'yobga chiqaruvchi puxta rejaga ega bo'lishi zarur.

Material yig'ishning qulay va muvaffaqiyatli usullaridan yana biri—bu anketa usulidir. YUNESKO ma'lumotlarining guvohlik berishiga qaraganda, anketa usuli sosiologlar, shuningdek, sotsiolingvistlar faoliyatining o'ndan-to'qqizida qo'l kelar ekan. Anketa yo'li bilan material yig'ish sotsiolingvistik ashyolar yig'ishning ommaviy ko'rinishi hisoblanadi. Bu usul, birinchidan,

sosiolingvistga tez material yig'ishda qo'l kelsa, ikkinchidan, yig'ilgan materialni oson sistemalashtirishda qulaylikka ega bo'ladi. Anketa yo'li bilan material yig'ishning afzal va qulayligi Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti tomonidan o'tkazilgan bir qator tadbirlarda ham o'z isbotini topgan.

Anketa yo'li bilan material yig'ish individual tarzda material yig'ishning ahamiyatini pasaytirmaydi, albatta. Chunki savol-javob yo'li bilan individual tarzda material yig'ishda tadqiqotchi sotsiolingvistik xarakterdagi faktlarni bevosita, real tarzda aniq va ishonarli yig'adi.

Material yig'ishning anketa usuli oldindan tuzilgan savolnomalar yordamida amalga oshiriladi. Savolnomada ham unga javob qaytaruvchi shaxsning yoshi, jinsi, ma'lumoti, ijtimoiy sharoiti, oilaviy ahvoli, kasbi, yashash joyi va uning etnik tarkibi, qiziqishi, ijtimoiy kelib chiqishi singari bir qator masalalar aks etishi talab qilinadi.

Anketa usulida sotsiolingvistik dalillar yig'ish sobiq sho'rolar davrida bir necha bor tajribadan o'tkazilgan. Ularning materiallari asosida kollektiv monografiyalar yozilgan. Masalan, 1974-yili Moskvaning "Nauka" nashriyoti tomonidan e'lon qilingan "**Ruskiy yazik po dannim massovogo obsledovaniya**" kitobi ana shunday tavsifda vujudga kelgan. Shuningdek, joylardagi rus va boshqa milliy tillar ikki tilliligini aniqlash va o'rganish maqsadida Ozarbayjon, Estoniya, Litva va Buryatiyada anketa usulida materiallar yig'ilgan. Fanlar akademiyasi Sibir bo'limiga qarashli tarix, filologiya va falsafa instituti tomonidan Sibirning buryat, yakut, tuva, yukagir singari yerli aborijenlarida til vaziyati bo'yicha o'tkazilgan tadbirda Sibirning 58 ming aholisidan anketa asosida ma'lumot olingan.

Intervyu yo'li bilan material yig'ish. Bu tadbir ham oldindan puxta tuzilgan reja asosida o'tkaziladi. Bu tadbirning o'ziga xos tomoni shundaki, sosiolingvist material beruvchi obyekt (shaxs) bilan yuzma-yuz kontaktda bo'ladi. Material sun'iy, ya'ni turli texnik yo'llar bilan emas, balki bevosita va jonli suhbat jarayonida olinadi.

Hujjat manbaalarini tahlil qilish. Bu tadbir yozma va texnik vositalar yordamida olingan materiallar bilan tanishish va ularni sistemalashtirish orqali amalga oshadi. Shuningdek, aholi ro'yxati, FHDYO materiallari, xo'jalik va uy hujjatlari, turli xil rasmiy va shaxsiy yozishmalar, hisobot, protokol, buyruq va shunga o'xshash norasmiy va rasmiy hujjatlar bilan tanishish, ulardagi sosiolingvistikaga daxldor jihatlarni aniqlash, ularni sistemalashtirish singari amaliy tadbirlar ham rasmiy va norasmiy hujjatlar manbaalarini tahlil qilishga kiradi.

Sotsiolingvistik xarakterdagi materiallar yig'ishning yana bir usuli—bu eksperimentdir. Bu yo'l bilan yig'ilgan material taqiqotchining sinchkov tekshiruvidan o'tkaziladi: materialning yaroqli va yaroqsizlari ajratiladi.

Eksperiment yig'ilgan materialni ilmiy tahlilga boshlovchi ilk qadamdir. Eksperiment tufayli sinovdan o'tgan, saralangan, sotsiolingvistikaning muayyan bir hodisasi tabiatiga mos keluvchi materiallarga tahlil obyektiga aylanadi.

Sotsiolingvistik tahlil usullari

Yuqorida ham takror-takror aytilganiday, Sotsiolingvistika – murakkab fan. U ijtimoiy fanlar bilan lingvistikaning tutash zonasida vujudga kelgan. Shu bois u sof lingvistik fan ham emas, sof jamiyatshunoslik fani ham.

Sotsiolingvistik hodisalarni tahlil qilishda lingvistik tadqiqotlardagi tahlil usuli ham, jamiyatshunoslik fanlaridagi tadqiqot usullaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Aks holda, tahlilning bir tomonlama bo'lib qolishi turgan gap. Yu.D.Desheriev "Sotsiolingvistika ikki taraflama tabiatga ega. Unda ijtimoiy va lisoniy xususiyatlar o'zaro qorishib ketgan. Lingvistik xususiyat ham tabiatan ijtimoiydir" deb aytganda, sotsiolingvistik tadqiqotlarning ana shu tomonini nazarda tutgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Sotsiolingvistika uchun shunday nolisoniy xususiyatlar va ularning xarakteri zarurki, bunda til jamoasining demografik, ijtimoiy, ijtimoiy-kasbiy, hududiy tarkibi muhim rol o'ynaydi. Masalan, yer sharida eramizning boshida aholi 230 mlnni tashkil etgan bo'lsa, o'ninchi asr oxirlariga kelib, u 275 mlnga; o'n beshinchi asr oxirlarida 440 mln; 1800-yilda 952 mln; 1900-yilda 1,656 mln; 2000-yilda, YUNESKO ning bashoratiga ko'ra, 7 milliardga etgan. Shahar aholisi, 1979-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra, yer yuzining 62 foizini tashkil qilar ekan.

Yozuv va uning tarqalishi, adabiy til, davlat tili, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, ularda tahsil oladigan o'quvchi va talabalarning soni, ularning etnik guruhlari; ikki tillilik va uning xarakteri, ona tili va o'zga tilni biluvchilarning prosent hisobi singari va yana boshqa xususiyatlar ham sotsiolingvistik tadqiqotlarning tahlil obyekti sanaladi. Masalan, 1970-yili sobiq so`ro davlatlarida o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotiga qaraganda, rus tili, ruslarning o'zidan tashqari, 61,3 mln g'ayri rus shaxslarning ona tili sifatida qayd qilingan. Mana shu nolisoniy dalillar olib borilgan va amalga oshirilgan sotsiolingvistik tadqiqotlar natijasi hisoblanadi.

Sotsiolingvistik tahlil metodi asosida til strukturasi va uning ijtimoiy asos va mohiyatlari ham o'rganiladi. Tadqiqotlar tufayli ma'lum bo'lishicha, frantsuzlar bir minutda 350; yaponlar 310; nemislar 250; Polineziya, Melaneziya va Mikroneziya aholisi esa, 50 bo'g'in talaffuz qilishar ekan. Shuningdek, ingliz psixologi Maykl Archilning kuzatishiga qaraganda, muloqot jarayonida finlar bir, italyanlar 80, frantsuzlar 120 imo-ishoradan foydalansa, meksikanlar muloqotida 180 imo-ishora unga hamrohlik qilarkan.

Sotsiolingvistik tahlil tufayli tilda paydo bo'lgan yangi so'zlar, ularning nolisoniy asoslari, til etnik tagguruhlari munosabati, tabu va evfemizm, jargon va argo, ularning lisoniy va nolisoniy asoslari kabi bir qator masalalar o'rganiladi.

Sotsiolingvistik tahlil namunalari sifatida rus tilshunosligida I.F. Protchenko tomonidan yozilib, nashr etilgan "**Leksika i slovoobrazovanie russkogo yazika sovetzkoy epoxi**" (-M, 1975) monografiyasini keltirish mumkin. Monografiyaning mazmunini rus tili umumiy lug'aviy fondining vujudga kelish jarayonlari, rus tilining oktyabrdan keyingi lug'aviy, so'z yasash imkoniyatlari, ayrim so'zlar tarixi, sport va fizkulturaga oid so'zlar, so'zlarning substantsiya yo'li bilan paydo bo'lishi, shaxs nomlari va yangi lug'aviy-so'z yasalishi kabi masalalar tashkil etadi.

Bunday xarakterdagi ishlar o'zbek tilshunosligida ham kam emas. Xususan, professor Q. Xonazarovning barcha ishlari sotsiolingvistik aspektda yaratilgan. Professor G'.Abdurahmonov tomonidan yaratilgan "Milliy tillarning taraqqiyoti masalasi" (Toshkent, 1962), "Istochnik obogasheniya" (Toshkent, 1988); professor F.Abdullaevning "Til qanday rivojlanadi?" (Toshkent, 1972); professor I.Rasulovning "Ulug' Vatan urushi yillarida o'zbek tili leksikasi" (Toshkent, 1977); professor M.Mirtojievning "O'zlashgan so'z-payvand kurtagi" (Toshkent, 1988), "Til va madaniyat" (Toshkent, 1996), "Tovushlardagi ma'nolar" (Toshkent, 1982); dotsent G. Muhammadjonovning "O'zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba'zi masalalari" (Toshkent, 1982); dotsent N.G'ulomovning "Russkie leksicheskie zaimstvovaniya v uzbekskom yazike"(Tashkent, 1985); professor A.Nurmonov va professor N.Mahmudovning bir qator ishlari va b. sotsiolingvistik tahlilning ibratli namunalari hisoblanadi.

TESTLAR

Mavzu: Lisoniy ijtimoiylashuv.

1. Sleng so'zi ilk bor yozma ravishda qayerda qayd etilgan?
A. Angliyada
B. Xitoyda
C. Ispaniyada
D. Fransiyada
2. Sleng so'zi dastlab qanday ma'noni anglatgan?
A. Maqtov
B. Yashirin
C. Haqorat
D. noqonuniy

3. Muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og‘zaki nutqida qo‘llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar qanday nomlanadi?

- A. Sotsiolekt
- B. Jargon
- C. Argo
- D. Sleng

4. *Slang-lingo* va *argot* so‘zlarining sinonimi berilgan qatorni toping.

- A. Argo
- B. Jargon
- C. Sleng
- D. Koyne

5. *Olmaxon* – o‘zini oladigan, nozlanadigan odam, *g‘isht* – xunuk, *sindirdi* – lol qoldirdi so‘zlari bu...

- A. Jargon
- B. Argo
- C. Koyne
- D. Sleng

6. Kasbiy cheklangan subkodni ko‘rsating.

- A. Kompyuter jargoni
- B. O‘g‘rilar argosi
- C. Talabalar slengi
- D. Giyohvandlar argosy

7. Ijtimoiy cheklangan subkod berilmagan qatorni ko‘rsating.

- A. O‘g‘rilar argosi
- B. Talabalar slengi
- C. Giyohvandlar argosy
- D. Kompyuter jargoni

8. Koyne termini haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang.

- A. Yunoncha “umumiy til”
- B. Inglizcha “yashirin til”
- C. Lotincha “umumiy til”
- D. Fransuzcha “hududiy til”

9. Aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og‘zaki muloqot vositasi bu...

- A.Jargon
- B.Argo
- C.Koyne
- D.Sleng

10. Qaysi termin birinchi marta eramizdan avval IV-III asrlarda shakllangan umumiyunon tiliga nisbatan qoʻllanilgan?

- A.Jargon
- B.Argo
- C.Koyne
- D.Sleng

11. Edo koynesi qaysi adabiy tilga asos boʻlib xizmat qilgan?

- A.yapon adabiy tiliga
- B.ingliz adabiy tiliga
- C.xitoy adabiy tiliga
- D.koreys adabiy tiliga

12. Ingliz tili qaysi davlatda koyne sifatida qabul qilingan?

- A.Angliyada
- B.Fransiyada
- C.Ispaniyada
- D.Germaniyada

13. Adabiy til meʼyorlariga ega boʻlmagan, maʼlumotsiz va oʻrta maʼlumotli shahar aholisining nutqi bu...

- A.Jargon
- B.Argo
- C.Koyne
- D.Soʻzlashuv tili

14. U yoki bu kommunikativ vaziyat doirasidagi soʻzlovchining aniq nutqiy harakatlari qaysi termin bilan ifodalanadi?

- A.Nutqiy muloqot termini
- B.Nutqiy akt termini
- C.Nutq meʼyori termini
- D.Nutqiy vaziyat termini

15. Ijtimoiylashuv nima?

A.individning asta-sekin o‘zi uchun yangi bo‘lgan guruhlariga kirishi va yangi rollarni o‘zlashtirish jarayoni

B.bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish

C.ikki tilda erkin fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallaganlik

D.ikki yoki undan ortiq kishilar nutqiy muloqotidagi vaziyat

Mavzu: Bilingvizm va uning turlari.

1. Individual bilingvizmning nechta turi farqlanadi?

A.3 ta

B.2 ta

C.5 ta

D.4 ta

2. Bilingvizmning qaysi turida ikki til mutlaqo muxtor bo‘lib, har biri o‘zining tushunchalar majmuyiga mos keladi, ikki tilning grammatik kategoriyalari ham mustaqil bo‘ladi?

A.Aralash bilingvizmda

B.Koordinativ bilingvizmda

C.Subordinativ bilingvizmda

D.Bilingvizmning barcha turida

3. Bilingvizmning qaysi turida nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud bo‘lgan tillar esa faqat ustki struktura darajasida farqlanadi?

A.Aralash bilingvizmda

B.Koordinativ bilingvizmda

C.Subordinativ bilingvizmda

D.Bilingvizmning barcha turida

4. Bilingvizmning qaysi turida so‘zlashuvchilar ikkinchi tilni ona tilining ta’siri vositasida qabul qiladi: tushuncha ona tilining leksik birliklari, qolganlar esa ikkinchi til birliklari bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi?

A.Aralash bilingvizmda

B.Koordinativ bilingvizmda

C.Subordinativ bilingvizmda

D.Bilingvizmning barcha turida

Mavzu: Diglossiya, interferensiya.

1. Ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tilga ko'rsatgan har qanday ta'siri va bu ta'sirning natijasi qanday hodisa?

- A. Bilingvizm hodisasi
- B. Koyne hodisasi
- C. Interferensiya hodisasi
- D. Kodlar aralashuvi

2. Ikki tilli shaxs nutqida aloqadagi tillarning fonetik tizimidagi o'zaro ta'sir hodisasi interferensiyaning qaysi turini ifodalaydi?

- A. fonetik interferensiya
- B. grammatik interferensiya
- C. leksik-semantik interferensiya
- D. sintaktik interferensiya

3. Ikki tilli shaxs nutqida ona tili grammatik tuzilishining ta'siri interferensiyaning qaysi turini ifodalaydi?

- A. fonetik interferensiya
- B. grammatik interferensiya
- C. leksik-semantik interferensiya
- D. sintaktik interferensiya

4. Ikki tilli shaxs nutqida ona tili sintaksisi ta'sirida sintaktik qoidalarining buzilishi interferensiyaning qaysi turini ifodalaydi?

- A. fonetik interferensiya
- B. grammatik interferensiya
- C. leksik-semantik interferensiya
- D. sintaktik interferensiya

5. Aloqadagi tillarning leksik-semantik darajadagi o'zaro ta'siri, so'zdagi ma'nolar farqliligi natijasida ikki tilli shaxs nutqida me'yorlarning buzilishi; so'zlarning bog'lanishidagi buzilish; parafaziya interferensiyaning qaysi turini ifodalaydi?

- A. fonetik interferensiya
- B. grammatik interferensiya
- C. leksik-semantik interferensiya
- D. sintaktik interferensiya

6. *Dugonam uylandi; og‘aynim turmushga chiqdi* jumalari interferensiyaning qaysi turiga misol bo‘la oladi?

- A. fonetik interferensiya
- B. grammatik interferensiya
- C. leksik-semantik interferensiya
- D. sintaktik interferensiya

7. Sintaktik interferensiya berilgan qatorni belgilang.

- A. Karavot → kalavot, marta → malta
- B. Uyga boradi → uyda boradi
- C. Keldi u biznikiga kecha
- D. Dugonam uylandi

Mavzu: Ijtimoiy rol.

1. Xalqlar o‘rtasida boshqa muloqot usuli bo‘lmagan vaziyatda vujudga keladigan, etnik sohibi bo‘lmagan, lug‘at boyligi va ijtimoiy funksiyasi cheklangan, beqaror grammatik tuzilishga ega bo‘lgan aloqaviy til turini toping.

- A. Pijin tili
- B. Kreol til
- C. Standart til
- D. Lingva-franka tili

2. Pijin va kreol tillar tilshunoslikda nechanchi yildan boshlab tadqiqotchilarning e‘tiborini tortib boshlagan?

- A. 1950-yildan
- B. 1960-yildan
- C. 1970-yildan
- D. 1980-yildan

3. Yordamchi aralash tillarni o‘rganuvchi bo‘lim tilshunoslikda qanday nomlanadi?

- A. Kontaktologiya yoki prepijin
- B. Lingva-franka
- C. Prepijin
- D. Kontaktologiya yoki kreolistika

4. Aloqaviy til rivojlanishining birinchi bosqichi qanday nomlanadi?

- A. Pijin
- B. Prepijin

C. Kontaktologiya

D. Kreolistika

5. Pijin termini haqida berilgan noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.

A. Kantoncha (xitoycha) *bei chin* "pul to'lamoq" so'zidan kelib chiqqan

B. Inglizcha "business" (pay money) so'zidan kelib chiqqan

C. Ushbu termin dastlab 1807-yilda inglizcha-xitoycha pijinga nisbatan qo'llanilgan

D. Jargon termini bilan bir xil ma'noga ega

6. Pijin va kreol tillar qaysi til negizida shakllangan?

A. Lingva-franka

B. Kanton tili

C. Koreys tili

D. Ispan tili

7. Ma'lum bir tilning qisqargan (reduksiyalangan) shakli til prepijingiga asos soladi va u mazkur til lug'at qatlamining katta qismini egallaydi. Bunday til kreolistikada qanday nomlanadi?

A. Leksifikator

B. Pijin tili

C. Kreol til

D. Jargon

8. Okeaniya orollarida qo'llaniladigan pijin tilini ko'rsating.

A. Broken

B. Bichlamar

C. Bislama

D. Tok-pisin

9. Yangi Gvineyada qo'llaniladigan pijin tilini ko'rsating.

A. Broken

B. Bichlamar

C. Bislama

D. Tok-pisin

10. Torresov orollari qo'ltig'ida qo'llaniladigan pijin tilini ko'rsating.

A. Broken

B. Bichlamar

- C. Bislama
- D. Tok-pisin

11. Vanuatu Respublikasida qo‘llaniladigan pijin tilini ko‘rsating.

- A. Broken
- B. Bichlamar
- C. Bislama
- D. Tok-pisin

Mavzu: Tilning funksional tasnifi.

1. Agar tillarning tarkibiy qismi funksional jihatdan bir xil ahamiyatga ega bo‘lib bir xil muloqot vazifasini bajarsa qanday lisoniy vaziyat yuzaga keladi?

- A. Muvofiqlashgan ekzogloss lisoniy vaziyat
- B. Muvofiqlashmagan ekzogloss lisoniy vaziyat
- C. Ikki tarkibli muvofiqlashmagan ekzogloss
- D. Uch tarkibli muvofiqlashmagan ekzogloss

2. Bir tilning tarmoqlari (ost tizimlari) majmuyi fanda qanday ataladi?

- A. Muvofiqlashgan endogloss lisoniy vaziyat
- B. Muvofiqlashmagan endogloss lisoniy vaziyat
- C. Endogloss lisoniy vaziyat
- D. Ekzogloss lisoniy vaziyat

3. Ekzogloss so‘zining ma’nosi?

- A. Yunoncha – tashqi
- B. Yunoncha – ichki
- C. Lotincha – vaziyat
- D. Lotincha – muvofiqlashuv

4. Endogloss so‘zining ma’nosi?

- A. Yunoncha – tashqi
- B. Yunoncha – ichki
- C. Lotincha – vaziyat
- D. Lotincha – muvofiqlashuv

Mavzu: Amaliy sotsiologiya.

1. Muayyan davlat doirasida bir yoki bir qancha tillarga nisbatan qo‘llanilgan chora-tadbirlar majmuyi bu...

- A. Ichki til siyosati
- B. Tashqi til siyosati
- C. Til siyosati
- D. Ekzogloss

2. Davlat, sinf, ijtimoiy guruhlarning mavjud tillar yoki til osti tizimlari vazifalarini o'zgartirish yoki saqlab qolish, yangi lingvistik me'yorlarni joriy qilish yoki eski me'yorlarni saqlab qolishga qaratilgan tadbirlar majmuyi bu...

- A. Ichki til siyosati
- B. Tashqi til siyosati
- C. Til siyosati
- D. Endogloss

3. Tilni planlashtirish termini fanga qachon kirib keldi?

- A. 1959-yilda
- B. 1945-yilda
- C. 1930-yilda
- D. 1984-yilda

4. Tilni planlashtirish termini fanga kim tomonidan kiritilgan?

- A. R. Yakobson
- B. E. Haugen
- C. A. Meye
- D. Boduen de Kurtene

5. Til sotsiologiyasi nima bilan shug'ullanadi?

- A. til hodisalariga ijtimoiy omillarni jalb qilgan holda o'rganadi
- B. fanlararo chatishgan soha bo'lib, u sotsiologik maqsad va tadqiqot metodlarini lingvistik materiallar bilan aloqadorlikda tadqiq etadi
- C. lisoniy belgilarni o'rganadi
- D. jamiyat muamolarini hal etish bilan shug'ullanadi

6. Ona tili va chet tillarni o'qitish, davlat til siyosatini tashkil qilish, amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish kabi muammolar sotsiolingvistikaning qaysi yo'nalishida tadqiq etiladi?

- A. Amaliy sotsiolingvistika
- B. Til sotsiologiyasi
- C. Diaxron sotsiologiya
- D. Mikro sotsiolingvistika

GLOSSARIY

A

Adabiy til – литературный язык – **literary language (standart)** – umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, grammatik qonun-qoidalarga rioya qilinadigan, ma'lum me'yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to'g'ri qo'llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi til.

Affiks – Аффикс – **affix** – o'zi qo'shiladigan asosning lug'aviy yoki grammatik ma'nolarining shakllanishiga xizmat qildigan morfema; qo'shimcha.

Agglyutinativ – Агглютинатив – **Agglutinative** – qo'shimchalar yordamida grammatik ma'no anglatish, ketma-ket qo'shimchalar qo'shishga asoslangan til.

Agglyutinativ tillar – Агглютинативные языки – **Agglutinative languages** – so'z yasalishi va shakl yasalishi aglyutinatsiya yo'li bilan bo'ladigan tillar.

Akkomodatsiya – Аккомодация – **Accommodation** – yonma-yon krlgan undosh yoki unli tovushlar artikulyatsiyasining uyg'unlashuvi.

Allamorfizm – Алломорф – **Allomorfy** – ma'lum sathni tashkil qiluvchi til birliklarining turli tiplari.

Amorf tillar – Аморфные – **Amorphous languages** (yunon. amorphous – -siz, be-, + morphe – forma – «shaklsiz, beshakl», «to'silgan», «o'zakli», «o'zagito'silgan») – so'z o'zgarishi mavjud bo'lmagan tillar, grammatil affikslar yoq (kelishik, son,shaxs, zamon va h.z.) ikki so'zning bir-biri bilan birikuvi yoki yordamchi so'zlar orqali birikadi.

Assimilyatsiya – Ассимиляция – **Assimilation** – turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida keng tarqalgan hodisa bo'lib, nutqning moddiy zanjirida, ya'ni tovushlar ketma-ketligida ma'lum bir belgiga ko'ra ikkita noo'xshash undoshning so'zlovchining talaffuz qulayligiga intilishi tufayli o'xshash undoshga aylantirilishidir. Ko'rinadiki, muayyan leksema tarkibida ma'lum belgi asosida zidlanuvchi ikki undosh talaffuz noqulayligini bartaraf qilish harakati tufayli zidlanish belgisini yo'qotadi, bir xil undoshlarga aylanadi. Natijada leksemaning og'zaki so'zlashuv varianti – uslubiy varianti maydonga keladi. Masalan, tarnov- tannov, shirmoy non-shirmonnon, badtar- battar kabi.

Аракора – Апакопа – **Аросоре** – fors-tojik hamda rus tili orqali o'tgan bir qator olinmalarning oxirgi bo'g'inida ikki va undan ortiq undoshlar qator kelishlari mumkin. Lekin bir bo'g'inda kelgan bu undoshlar og'zaki nutqda turkiy tillarning fonetik qonuniyatlariga moslashtiriladi va bir undosh tushiRib qoldiriladi. Masalan, go'sht-go'sh, g'isht-g'ish, baRg-bak, vaqt-vaq va boshq.).

Aralash bilingvizm – смешанный билингвизм – intermingled bilingualism – nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud boʻlgan tillar esa faqat ustki struktura darajasida farqlanadi.

B

Bilingvizm (ikki tillilik) – билингвизм – bilingualism – ikki tilda erkin fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallash.

D

Diaxron sotsiolingvistika – диахронная социолингвистика – history sociolinguistics – til rivojlanishining jamiyat rivojlanishi bilan aloqasini tavsiflovchi jarayonlarni, ya'ni til tarixini xalq tarixi bilan bogʻlab oʻrganuvchi sotsiolingvistik tadqiqotlar yoʻnalishi.

Diglossiya – диглоссия – diglossy – bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bogʻliq holda, tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga koʻchish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish. “Diglossiya” termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapirish, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga koʻra galma-gal qoʻllay olishni ham anglatishi mumkin.

Differentsiatsiya prinsipi – Дифференцирующий – Differentiates – Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalariga koʻra shakli bir xil boʻlgan (omonim) yoki bir-biriga yaqin boʻlgan (paronim) soʻzlar yozuvda diakritik belgilarni ishlatish orqali farqlanadi.

Differentsiatsiya – Дифференциация – Differentiation – (frans. differentiation, lotincha differentia – har xillik, farq, tafovut) – bu yaxlitni turli qismlarga, shakllarga va bosqichlarga ajratish, boʻlish. Pedagogikada Taʼlim differentsiatsiyasi – bu Taʼlim faoliyatining, oʻquvchilarning moyilliklari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga oluvchi, tashkil etish shaklidir.

Diskussiya (lotincha discussion dan – oʻrganish, tadqiqot) – **Дискуссия; Discussion** – 1) qandaydir bir masalani suhbatda, majlisda, bosmada va hokazoda muhokama, munozara qilish; 2) masalani umumiy yechimini ishlab chiqishga yordam beruvchi qoʻshma faoliyatni tashkil etish usuli; 3) oʻquvchilarni birgalikdagi haqiqatgini izlashga qoʻshish hisobiga Taʼlim jarayoni samarasini oshiruvchi Taʼlim uslubi.

E

Eliziya – Элизия – Elision – sandhi holatda qator kelgan har xil turdagi ikki unlidan birining tushib qolishi hodisasidir. Sinerezis hodisasida qator kelgan unlilar oʻzaro birikib, bir unliga aylansa, eliziya hodisalarida bu unlilardan biri tushib qoladi². Ana shu xususiyatlari bilan bu hodisalar bir-biridan farq qiladi.

Emik birliklar – Едини́са язы́ка – Emic unit – ema bilan tugagan atamalar (fonema, morfema, leksema kabi) orqali ifodalangan birliklarni o‘z ichiga olsa, **etik birliklar** variant yoki allo- bilan boshlangan (allofon, allomorf, alloleks) atamalar orqali ifodalangan birliklarni o‘z ichiga oladi.

H

Hududiy dialektlar – территория́ная диалэ́ктика – territory dialectics – ma‘lum hududning o‘ziga xos belgilari, binobarin, o‘ziga xos lug‘at, grammatik yoki fonetik xususiyatlariga ega bo‘lgan so‘zlashuv tili.

F

Fonetik prinsip (tamoyil) – Фонетический принцип – Phonetic spelling principle – So‘zlarni asli qanday bo‘lishidan qat’i nazar talaffuziga ko‘ra yozish tamoyilidir.

Fonetik-fonologik sath – Фонетико-фонологический уровень – Phonetic-phonological level – til ierarxiyasining tovush tizimidan iborat quyi pog‘onasi (quyi yarusi): nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u, ohang va b.lar.

Funksional ko‘chirish – Функциональный перенос – Functionally transfer – biror predmetning nomi boshqasiga ular bajargan vazifasidagi o‘xshashlik asosida ko‘chirilishi. (lot. funktio – “faoliyat”, “vazifa”). Funksional ko‘chirish ham o‘xshashlik asosida voqe bo‘ladi. Bu jihatdan u metafora yo‘li bilan ko‘chirishga juda yaqin.

G

Grafika – Графика – Graphics – Yozuv tarixi va yozuv birliklari: harf, grafema, alfavit kabilarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limidir.

Grammatik ma‘no – Грамматическое значение – Grammatical meaning – sistemasida obyektiv borliqdagi predmetlar o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimimiz ong orqali aks etadi. Grammatik ma‘noni uch guruhga bo‘lish mumkin: 1) nosintaktik (referensial); 2) sintaktik (relyasion); 3) subyektiv. Birinchi ma‘noni turkumlovchi, ikkinchi ma‘noni toifaviy (kategorial), uchinchi ma‘noni esa notoifaviy (nokategorial) ma‘nolar deb ham tasniflash mumkin.

Grammatik shakl – Грамматическая форма – Grammatical forms – muayyan grammatik ma‘noning tashqi ifodalanish tomoni – moddiy tomonidir. Grammatik shakl bilan grammatik ma‘no falsafadagi shakl va mazmun dialektikasini o‘zida namoyon qiladi. Shakl va mazmun bir yaxlitlikning ikki tomoni – biri tashqi, ikkinchisi esa ichki tomoni sanaladi. Shuning uchun ular bir-birini taqozo qiladi. Birisiz ikkinchisining bo‘lishi mumkin emas.

I

Innovatsiya – Инновация – Innovation – Yangilik, yangi g'oya kiritish.

K

Kartoteka – Картоотека – File – Kartochkalarining – informatsiya tarqatuvchi, birlashtirilgan, sistemalashtirilgan va aniq bir tartibda joylashtirilgan, masalan, alfavit, mavzular, sanalar bo'yicha, aniq bir sonining ja'mi.

Konsonantizm – Консонантизм – Consonants -undosh fonemalar tizimi.

Koynе – койне – koyny – aholi turli guruhlarining ijtimoiy va lisoniy aloqalari jarayonida shakllangan dialektlararo og'zaki muloqot vositasi.

L

Leksema – Лексема – Lexeme – lo'g'aviy ma'noga ega bo'lgan, grammatik shakllardan holi leksik birlik. Leksema ikki planli til birligidir. U shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topadi.

Leksik sath – Лексический уровень – Semantics level – til ierarxiasining lug'at boyligidan iborat yuqori pog'onasi: so'zlar, iboralar, ularning turli qatlamlari.

Leksema mazmunining strukturasi – Семантическая структура значения лексемы – Semantic structure of the token value – deyilganda, leksema tarkibidagi bitta semema, leksik ma'no yoki leksik semantik variantlarning tarkibi, qanday semalardan iborat yekanligi va undagi semalararo munosabatlar tushuniladi: LMS=Sema+Sema+Sema.

Leksema mazmunining strukturasi – Семантическая структура значения лексемы – Semantic structure of the token value – deyilganda, leksema tarkibidagi bitta semema, leksik ma'no yoki leksik semantik variantlarning tarkibi, qanday semalardan iborat yekanligi va undagi semalararo munosabatlar tushuniladi: LMS=Sema+Sema+Sema.

Leksemaning mazmun jihati – Семантическая структура значения лексемы – Semantic aspect of tokens – tilshunoslikda ma'no, mazmun, ishki tomon, ifodalanmish, signifikat, funksiya, vazifa, qiymat, semema atamalari ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida leksemaning mazmun tomoni, asosan, semema, leksik ma'no atamalari bilan nomlanadi.

Leksemaning mazmun jihati – Семантический аспект лексемы – Semantic aspect of tokens – tilshunoslikda ma'no, mazmun, ishki tomon, ifodalanmish, signifikat, funksiya, vazifa, qiymat, semema atamalari ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida leksemaning mazmun tomoni, asosan, semema, leksik ma'no atamalari bilan nomlanadi.

Leksemaning semantik strukturasi – Семантический аспект лексемы – Ssemantic structure of the lexeme – deganda, uning tashkil

yetuvshi leksik ma'nolar (sememalar) yoki leksik semantik variantlar va ma'nolararo munosabatlar nazarda tutiladi:
LSS=Semema+Semema+Semema.

Leksemaning semantik strukturasi – Семантическая структура лексемы – Semantic structure of the lexeme – deganda, uning tashkil yetuvshi leksik ma'nolar (sememalar) yoki leksik semantik variantlar va ma'nolararo munosabatlar nazarda tutiladi:
LSS=Semema+Semema+Semema.

Lisoniy vaziyat – языковое ситуация – linguistic situation – muayyan bir vaqtda, muayyan bir joyda qanday tildan foydalaniladi, tillarning soni, qanday turdagi til ushbu hududda ishlatiladi, qancha odam, qanday sharoitda bu tilda gaplashadi, ushbu jamoa a'zolarining bu tilga bo'lgan munosabati, umuman, tilning qo'llanish doirasi haqidagi masalalarni o'z ichiga oladi.

M

Makro sotsiolingvistika – макро социолингвистика – makro sotsiolinguistics – tilning u yoki bu darajada ijtimoiy omillar bilan shartlangan yirik masshtabli jarayonlarini o'rganadi. Bu jarayonlar jamiyatga to'liqligicha yoki uning katta majmuasiga: ijtimoiy qatlam, etnos, etnik guruh kabilarga xos bo'ladi.

Metafora – Метафора – Metaphor – biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshashligi asosida ko'chirish.

Metonimiya – Метонимия – Metonimiya – bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o'xshashlik asosida emas, balki o'zaro bog'liqlik asosida ko'chirilishidir.

Morfologik prinsip – Морфологический принцип – The morphological principle – So'zlarni qanday talaffuz etilishidan qat'i nazar asliga ko'ra, qoidaga binoan yozish tamoyilidir.

Morfologik sath – Morphology level – Sintaktik sath – til ierarxiyasining morfologik va sintaktik birliklardan iborat eng yuqori pog'onasi: so'z turkumlari, grammatik ma'no va grammatik shakllar, so'z birikmalari va gap, ularning turlari va konstruksiya modellari.

Metateza – Мета́ре́за – Metathesis – Leksema nomemasining variantlari tilda amal qiladigan metateza hodisasi tufayli ham ko'payadi.

Metateza har qanday tilning ham diaxron, ham sinxron holati uchun mansubdir. Bunday holatdan o'zbek tili ham mustasno emas.

Monosemantik so'zlar – Моносематические слова – Monosemantic words – faqat bitta ma'noga yega bo'lgan so'zlar.

Monosemantik soʻzlar – Моносематические слова – Monosematische words – faqat bitta maʼnoga yega boʻlgan soʻzlar.

N

Nomema – Номема – Nomema – leksemaning shakl jihati boʻlib, uning fonetik belgilaridan iborat. U tilshunoslikda substantsiya, shakl, moddiy tomon, tashqi tomon, belgi, fonetik soʻz, signal, fonetik qobigʻ, nomema atamalari bilan nomlanadi.

Nominativ maʼno – Номинативное значение – Matter nominativnoe – biror narsa, belgi yoki harakatning nomi boʻlib xizmat qiluvchi maʼno. Nominativ maʼno voqelik bilan bevosita bogʻlanadi.

Nutq – Речь – Speech – Fikr bayon qilish vositasi boʻlib, ogʻzaki va yozma shakllarga ega.

O

Orfografiya – Орфография – Spelling – soʻzi yunon (grek) tilidan olingan boʻlib, “toʻgʻri yozish” degan maʼnoni anglatadi.

Ortiqchalik prinsipi – Принцип избыточности – Principle of redundancy – asosida voqe boʻlgan hosila maʼnolar nomi mavjud narsalarni qaytadan nomlaydi.

P

Proteza – Протéза – Prosthesis – fonetik moslashtirish. Soʻz boshida tovushlar mosligi natijasida leksema variantlarining ortishi muammosi dastlab Mahmud qoshgʻariy tomonidan bayon qilingan edi. Xususan, u qipchoq, oʻgʻuz tillarini hoqonicha turkcha tilga qiyoslar ekan, hoqonicha turkcha leksemalar boshidagi [y] undoshi qipchoq tillarida doimo [j] ga, oʻgʻuz tillarida esa nolga aylanishini bayon qiladi. Masalan, turkcha jinji, qipchoqcha jinji, oʻgʻuzcha inji.

Punktogramma – Пунктограмма – Punktogramma – Muayyan yozuv tizimining uzviy qismi boʻlib, yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (masalan, raqamlar, harflar, diakritik va transkripsion belgilar kabi) bilan ifodalash mumkin boʻlmagan tomonlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Puntuatsiya – Пунктуация – Puntuatsiya – soʻzi lotincha “punctum”, yani “nuqta”, “oʻrin, joy” tushunchalarini anglatadi. “Puntuatsiya” tilshunoslikning tinish belgilari haqidagi boʻlimi boʻlib, unda tinish belgilari (punktogramma)ning qoʻllanish qoidalari oʻrganiladi. Puntuatsiya tilshunoslikda nutq oqimidagi intonatsion-prosodik toʻxtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilar yigʻindisini (**tinish belgilarini**) anglatadi.

Polisemiya – Полисемия – Polysemy – tildagi koʻp maʼnolilik hodisasi.

Polisemantik soʻzlar – Полисемантические слова – polysemantic words – birdan ortiq maʼnoni anglatuvshi soʻzlar polisemantik soʻzlar atamasi bilan yuritiladi.

S

Sinekdoxa – Синекдоха – Synecdoche – bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida koʻchirilishi.

Sistema – Система – The system – bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning oʻzaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik.

Sistema – Система – The system – Bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning oʻzaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik.

Sistem tahlil – Системный анализ – Systematic analysis – murakkab muammolar (siyosiy, harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va texnik sifatga ega boʻlgan) boʻyicha yechimlarni tayyorlash va asoslash uchun qoʻllaniladigan metodologik vositalarning jamidir. Sistemali yondashuvga tayanadi. Asosiy muolaja – real vaziyat oʻzaro aloqasini aks ettiruvchi umumlashtirilgan modelini qurish. “Sistemali tahlil” termini alohida sistemali yondashishning sinonimi sifatida ishlatiladi.

Sistemali yondashish – Системное соотношение – System correlation -obyektlarga sistemalar sifatida qarash usuli. Obyekt yaxlitligini ochib beradi va undagi aloqalarni koʻp turliligini aniqlab beradi. Sistemali yondashuv sistemaning funksiyalashish maqsadlarini va uning boshqa sistemalar bilan boʻlgan aloqasini aniqlaydi.

Sinxron sotsiolingvistika – синхронная социолингвистика – sinxron sotsiolinguistics – til va jamiyat aloqalariga tegishli munosabatlar va jarayonlarni oʻrganadi. Munosabatlar bu aloqalarning statikasini, jarayonlar esa ularning dinamikasini ifodalaydi.

Sotsiolekt – социолект – sotsiolekt – umumiy ijtimoiy xususiyatlariga koʻra birlashgan ayrim guruhlarning lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli.

Substansiya – Субстанция – Substance (lot. "mohiyat") atamasi falsafada antik davrlardan buyon ishlatiladi. Lekin falsafa tarixida bu atama xilma-xil tushunchalarni ifodalash uchun qoʻllanildi. Antik davr filosoflari substansiya atamasi ostida olamdagi barcha narsa va hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsani tushunadilar.

Semasiologiya – Семасиология – Semasiology – tilshunoslikning maʼno haqidagi sohasi.

Semasiologiyaning predmetii – Предмет семасиологии – Semasiology subject – lisoniy maʼno, yaʼni til birliklari anglatayotgan maʼno uning oʻrganish.

Semasiologiyaning vazifasi – Функция семасиологии – Semasiology function – Tilning turli sathlaridagi birliklarning ma’nosini tadqiq yetish.

T

Tadqiqot – Исследование – Investigation – yangi bilimlarni ishlab chiqishni maqsad qilgan, bilish faoliyati turlaridan biri.

Tarixiy-an’anaviy prinsip – Традиционный – Traditional – Soʻzlarni yoki soʻz shakllarini qadimdan odat boʻlib qolgan shaklda yoki an’anaga mos shaklda yozish qoidasidir.

Til birliklari – Языковые средства – Language units – ema bilan tugaydigan (fonema, morfema, leksema kabi) atamalar orqali ifodalanadi.

Til sotsiologiyasi – языковое социология – linguistic sociology – fanlararo chatishgan soha boʻlib, u sotsiologik maqsad va tadqiqot metodlarini lingvistik materiallar bilan aloqadorlikda tadqiq etadi.

Tinish belgilari – Знаки препинания – Punctuation elements – Yozma nutqni toʻgʻri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining oʻzaro logik-grammatik munosabatlarini koʻrsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi.

Tejamkorlik prinsipi – Принцип экономии – The principle of economy – asosida voqe boʻlgan hosila maʼnolar konnotativlik, yemotsional-yekspressivlik, modallik jihatidan neytral boʻlib, ular faqat nomlash vazifasini bajaradi.

U

Unlilar reduktsiyasi - Редукция – Reduction – bir boʻgʻinli leksemalarda hamda ikki boʻgʻinli leksemalarning birinchi boʻgʻinidagi sonor undoshlar oldida kelgan tor unli sonor undosh taʼsirida reduktsiyaga uchraydi. Masalan, b(i)lan, b(i)roq, s(i)ra, b(i)r kabi.

V

Vokalizm – Вокализм – Vowel – unli fonemalar tizimi.

Y

Yozuv – Письмо – Letter– muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar oʻrtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi.

Oʻ

Oʻquv dasturi – Учебная программа– Teaching program – aniq fanning maqsadidan, oʻquv rejasi boʻyicha ajratilgan soat va bilim hajmidan kelib chiqib tuzilgan va mavjud jamiyatning gʻoyaviy-siyosiy yoʻnalishini oʻzida aks ettirgan davlat hujjati.

О‘quv reja – Учебный план– Teaching plan – mutaxassis shaxsi bilishi va o‘zlashtirishi zarur deb belgilangan o‘quv fanlari, ularni o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. Milliy tillarning taraqqiyoti masalasi.-Toshkent: "Fan", 1962.
2. Abduraxmanov G. Istochnik obogosheniya. –Tashkent: "Fan", 1989.
3. Abdullaev F. Til qanday rivojlanadi? –Toshkent: "Fan", 1972.
4. Baskakov N.A. O periodizatsii literaturnogo yazika "tyurki" // lingvogeografiya, dialektologiya i istorii yazika. –Kishinyov,1973.
5. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: "Fan", 1985.
6. Bertagaev T.A. Bilingvizm i ego raznovidnosti v sisteme upotrebleniya // Problemi dvuyazichiya i mnogoyazichiya. _M.: "Nauka", 1972.
7. Bondaletov V.D. Sosialnaya lingvistika. –M.: "Prosvetshenie", 1987.
8. Jumaniyozov O. O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari.-Toshkent: "Fan", 1982.
9. Mirtojiev M. O'zlashgan so'z – payvand kurtagi. -Toshkent: "O'zbekiston", 1988.
10. Gelb I.E. Opit izucheniya pisma. Osnovi grammatologii. –M., 1982.
11. Gulyamova N.G. Russkie leksicheskie zaimstvovaniya v uzbekskom yazike. –Tashkent: "Fan",1985.
12. Dvuyazichie: tipologiya i funktsionirovanie. –Kazan, 1990.
13. Desheriev Yu.D. Sosialnaya lingvistika. –M.: "Nauka", 1977.
14. Muhammadjonova G. O'zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba'zi masalalari . –Toshkent: "Fan", 1982.
15. Rasulov I. Ulug' Vatan urushi yillarida o'zbek tili leksikasi. -Toshkent, "Fan", 1977.
16. Rahmonberdiev K. O'zbek til kontaktlari. –Toshkent: 1989.
17. Rozentsveyg V.Yu. Yazikovie kontakti. –Leningrad: "Nauka", 1972.
- 18.Eremina K.N. K probleme yaxikovix kontaktov. Evropeizme v sovremennom persidskom yazike.-M.: "Nauka", 1980.
19. Berdialiev A., Xidirov R. O'zbek va tojik lisoniy aloqalari. –Dushanbe: "Irfon", 2011.
20. Gafurov A. Imya i istoriya. –M., 1987.
21. Dvuyazichie: tipologiya i funktsionirovanie. Kazan, 1990.
22. Desheriev Yu.D. Zakonomernosti razvitiya literaturnix Yazikov narodov mira v sovetkuyu epoxu. Razvitie obtshestvennix funktsiy literaturnix yazikov. –M. 1976.
23. Juravlyov V.K. Vneshnie i vnutrennie faktori yazikovoy evolyusii. –M.: "Nauka", 1982
24. Zakiev M.Z. Vvedenie: k paritetnosti dvuyazichiya //Dvuyazichie: tipologiya i funktsionirovanie. Kazan, 1990.
25. Karimov B., Mutalov Sh. O'rtaturk tili. –Toshkent: "Mehnat", 1992.

26. Kamolov Faxri. Hozirgi zamon o'zbek tili. Shu nomdagi kursning kirish qismi uchun materiallar. -Toshkent: O'z Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1953.
27. Kondratov A. Zemlya lyudey – Zemlya yazikov. –M., 1974.
28. Mahmudov N.M. Til va yozuv. –Toshkent: "O'zbekiston", 1987.
29. Nutq madaniyatiga oid masalalar. –Toshkent: "Fan", 1973.
30. Problemi dvuyazichiya i mnogoyazichiya. –M.: "Nauka", 1972.
31. Problemi vnutrenney i vneshney lingvistiki. –M., 1978.
32. Rustamov A. So'z xususida so'z. –Toshkent: "Yosh gvardiya", 1987.
33. Umarov J. Atamalar lug'ati. To'ldirilgan ikkinchi nashri, Qo'qon, 1992.
34. Shveytser A.D., Nikolskiy L.B. Vvedenie v soslolingvistiku. –M.: "Visshaya shkola", 1978.
35. Filin F.P. Sovremennoe obtshestvennoe razvitiye i problema dvuyazichiya // Problemi Dvuyazichiya i mnogoyazichiya. –M.: "Nauka", 1972.
36. Filin F.P. Ocherki po teorii yazikoznaniya. –M.: "Nvuka", 1982.
37. Xonazarov Q.X. Kommunistik qurish davrida o'zbek tili rivojlanishining umumsosiologik aspektlari // O'zbek tili nutq madaniyati masalalariga bag'ishlangan Respublika tilshunoslik konferentsiyasi. –Toshkent: "Fan", 1969.
38. Xolmogorov A.I. Konkretno-sosiologicheskie issledovaniya Dvuyazichiya // Problemi Dvuyazichiya i mnogoyazichiya. –M.: "Nauka", 1972.
39. Panov E.N. Znaki.Simvoli.Yaziki.- M., 1983.
40. O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. 1-Respublika terminologiya konferentsiyasi materiallari. –Toshkent: "Fan", 1986.
41. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
42. Orfografiya tyurkskix literaturnix Yazikov mira. –M.: "Nauka", 1973.
43. Toshaliyev I. Umr mazmuni. –Toshkent, 2015.
44. Nurmonov A., Rahimov A. Lingvosinergetikaga kirish.-Toshkent: "Akademnashr", 2013.
45. Stepanov G.V. Tipologiya yazikovix sostoyaniy i situatsiy v stranax romanskoy rechi. –M.: "Nauka", 1976.
46. Budagov R.A. Istoriya slov v istorii obtshestva. –M.: "Prosvetshenie", 1971.

M u n d a r i j a

So'z boshi.....	3
Kirish.....	5

Birinchi qism

Sotsiolingvistikaning umumnazariy masalalari

Sotsiolingvistika-tilshunoslik tsiklidagi mustaqil fan sifatida.....	9
Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi.....	10
Tilning ijtimoiy hodisa sifatida o'rganilish asoslari.....	11
Tilni o'rganish oiladan boshlanadi.....	12
Til-semiotik hodisa sifatida.....	14
Sotsiolingvistikaning lingvistik tarmoq sifatida paydo bo'lish asoslari.....	15
Tilshunoslikda sosiolingvistik yo'nalishning paydo bo'lishi.....	17
Sotsiolingvistikaning asosiy masala va tushunchalari.....	18
Til kontakti haqida ma'lumot.....	19
Til kontakti tushunchasining keng va tor ma'nodagi talqini.....	20
Til kontaktining turlari.....	21
Til kontakti tufayli vujudga keluvchi sosiolingvistik hodisalar.....	22
Ikki va ko'p tillilik sosiolingvistikaning muhim masalalari sifatida.....	24
Ikki tillilikning turlari.....	28
Faol ikki tillilik.....	29
Me'yoriy ikki tillilik.....	30
Nome'yoriy ikki tillilik.....	31
Individual ikki tillilik.....	32
Koordinativ va subordinativ ikki tillilik.....	33
Interferentsiya va uning turlari.....	35
Tilning etnik guruhlari.....	39

Tilning amaliy shakllari

Adabiy til va uning shakllari.....	41
Oddiy so'zlashuv shakli.....	44
Kreol tili haqida.....	45
Koyne haqida.....	46
Hududiy va mahalliy tillar.....	47
Tilning ijtimoiy tag guruhlari.....	48
Tilga beriladigan "davlat" maqomi haqida.....	49
Chetdan so'z olish – sosiolingvistik hodisa sifatida.....	50
"Olinma" va "o'zlashma"lar.....	52

Yozuv va til munosabati

Yozuv va uning ijtimoiy-tarixiy turlari haqida.....	53
Harf va tovush munosabati.....	55
Punktuasiya va uning lisoniy-ijtimoiy ahamiyati.....	57
"Til holati" va "til vaziyati" tushunchalari.....	59

Sotsiolingvistikaning asosiy tarmoqlari

Umumiy Sotsiolingvistika.....	60
Xususiy Sotsiolingvistika.....	61
Sinxron va diaxron Sotsiolingvistika.....	62
Amaliy Sotsiolingvistika.....	63

Interlingvistika

Xalqaro tabiiy tillar.....	64
Xalqaro sun'iy tillar.....	65
Qiyosiy Sotsiolingvistika.....	67
Terminologik leksikaning sosiolingvistik asoslari.....	71

Ikkinchi Qism

O'zbek sotsiolingvistikasi masalalari

O'zbek til kontaktlari tarixidan.....	74
Sho'rolar davri o'zbek sotsiolingvistikasi.....	79
O'zbek til kontakti tadqiqi tarixiga bir nazar.....	80
O'zbek adabiy tili va uning taraqqiyoti.....	81
O'zbek nutqi madaniyatining ijtimoiyligi.....	84
O'zbek tilining "davlat tili" maqomi tarixiga doir.....	86
O'zbek yozuvining lotinlashtirilishi tarixiga doir.....	89
O'zbek tilshunosligida imlo masalasi.....	91
O'zbekistonda rus tiliga e'tibor masalasi.....	93
O'zbek tilshunosligida terminologiya masalasi.....	94
Markaziy Osiyo xalqlari tillarining rus tiliga ta'siri.....	96
So'z o'zlashtirish.....	97
Kalkalash yo'li bilan yangi so'z hosil qilish.....	98
O'zlashmalarning o'zga til qurilishiga ta'siri.....	99
O'zbek tili leksikasidagi rus va Evropa xalqlari tillari o'zlashmalariga .munosabat haqida.....	101
Antroponim va antroponimiyaning sosiolingvistik asoslari.....	104

Uchinchi qism.

Sotsiolingvistik tadqiqot metodi masalasi

Sotsiolingvistikada metod va metodlar masalasi.....	106
Sotsiolingvistik ashyoviy material yig'ish metodlari.....	108
Sotsolingvistik tahlil yo'llari.....	110
Foydalanilgan adabiyotlar.....	129

Mualliflar haqida

Filologiya fanlari doktori, professor Abduvali Berdialievning ilmiy-pedagogik faoliyati 1966-yildan S.M.Kirov nomidagi Leninobod davlat pedagogika institutida (hozir akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xujand davlat universiteti) oddiy o'qituvchilikdan boshlangan.

Olimning oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun **"Hozirgi o'zbek adabiy tili"** kursining sintaksis, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, morfemika, so'z yasalishi, morfonologiya bo'limlarini o'z ichiga olgan beshta darsligi; **"O'zbek va tojik lisoniy aloqalari"** (Dushanbe: "Irfon", 2010), **"Osnovi sopostavitelnoy grammatik uzbekskogo i russkogo yazikov"** (Xujand, 2012), **"Osnovi sinxronnoy normativnoy gammatiki uzbekskogo i russkogo yazikov"**, (Bishkek, 2014), **Osnovi obshego yazikoznaniya** (Bishkek, 2018) qo'llanmalari nashr etilgan. Shuningdek, uning tashabbusi va bosh muallifligida Tojikiston Respublikasi o'rta umumta'lim maktablarining I—X1 sinflari uchun **"O'zbek tili"** darslik-qo'llanmalari chop etilgan.

A.Berdialievning bevosita rahbarligida o'ttizdan ortiq doktorlik va nomzodlik dissertasiyalari himoya qilingan; yigirmadan ortiq doktorlik va nomzodlik dissertasiyalariga rasmiy hakamlik qilgan.

Olimning ilmiy mahsuli qirqqa yaqin monografiya, risola, o'quv qo'llanma va uch yuzga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarni o'z ichiga oladi.

Filologiya fanlar nomzodi, dotsent Turdibekov Mo`minning ilmiy – pedagogik faoliyati 1991-yildan boshlangan.

Olimning **“Moziyga qaytmoq”** nomli badiiy – publistik asari (Toshkent, Navro`z nashriyoti, 2018), **“Shajarayi turk” onomastikasi** nomli monografiyasi (Toshkent, Nodirabegim nashriyoti, 2020), **Ozbek dialektologiyasi oliy o`quv yurtlari o`zbek tili va adabiyotini o`qitish fakulteti uchun o`quv qo`llanmasi** (Toshkent, Navro`z nashriyoti, 2021),

Шимолий Тожикистон тарихий топонимлари номли *монографияси* (Toshkent nodirabegim nashriyoti 2022 va 60 yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari nashrdan chiqqan.

**ABDUVALI BERDIALIYEV
MO‘MINJON TURDIBEKOV**

SOTSIOLINGVISTIKA

Darslik

60111400- o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishlari
uchun darslik

“Nodirabegim” nashriyoti
Nashriyoti litsenziyasi AIN^o 313.24.2017 y
Bosishga ruxsat etildi 12.10.2022 y
“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi 60x84^{1/16}
Nashriyoti bosma tabog‘i 20,75. Adadi 200 nuxsa
100123, Toshkent shahari, Shayxontohur tumani
Navoiy ko‘chasi. 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi
Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A